

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

M.YO'LDOSHEV, S.MUHAMEDOVA, M.SAPARNIYAZOVA

MATN LINGVISTIKASI

5611600 – Noshirlik ishi ta'lif yo'nalishi uchun
o'quv qo'llanma

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K 811.512.133'1(075)

KBK 81.2O'zb-5

Y 64

Yo‘Ldoshev, M., Muhamedova, S., Saparniyazova, M.
Matn lingvistikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma /
M. Yo‘Ldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyazova.
-Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. - 188 b.

O‘quv qo‘llanma A-OT -2019 -10- raqamli “O‘zbek tilida neyming:
me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” nomli amaliy loyihasi
doirasida tayyorlangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta
maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 28 dekabrdagi 676 - son
buyrug‘i bilan nashrga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

I.Azimov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tili asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi rahbari, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent

B.Umurqulov - Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshu-
nosligi kafedrasи mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-7477-5-3

O‘quv qo‘llanma 5611600 –Noshirlik ishi ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada matn lingvistikasining ilmiy-nazariy masalalari, matnning tilshunoslikda o‘rganilishi, matn birliklari, matn tiplari, matnda parsellyatsiya hodisasi, matnning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalar, matnning lingvostatistik tahlili hamda matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni, o‘zbek tilshunosligida matnni tahlil etishdagi lingvopoetik yondashuv, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

O‘quv qo‘llanmada keltirilgan adabiyotlar qaysi yozuvda nashr qilingan bo‘lsa, shu yozuvda keltirildi.

Учебное пособие предназначено для бакалавров направления 5611600 – Издательское дело.

В данном учебном пособии приводятся теоретические и практические материалы по изучению проблемы текста в языкоznании, проблеме интерпретации текста, единицы текста, типы текста, явление парцеляции в тексте, средства, связывающие составных частей текста художественный текст и средства, формирующие художественный текст, изучение текста лингвостатистическими методами, когнитивно-дискурсивные особенности текста, коммуникативно-прагматический смысл текста, фонетико-фонологические, лексико-семантические, морфологические, синтактические особенности художественного текста.

The manual is intended for undergraduate directions 5611600 - Publishing.

This tutorial describes the theoretical and practical materials to study the problem of text in linguistics, the problem of interpretation of the text, units of text, text types, the phenomenon of parceling in the text, means connecting the component parts of a literary text, and text tools, forming an artistic text, text study Lingvostatistic methods cognitive-discursive features of the text, communicative and pragmatic meaning of the text, phonetic-phonological, lexical-semantic, morphological, syntactic features of a literary text.

MATN LINGVISTIKASI FANINING MAQSADI, VAZIFASI, OBYEKTI VA PREDMETI

Ma'lumki, «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

“O'zbek tilining izohli lug‘ati”¹da so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: /a. — yelka; nutqning yozuvdag‘i ifodasi, tekst] 1 Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2 Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Bu ta’rifda matnning asosiy xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn so‘zi anglatadigan ma’no yanada ortganligini ko‘rishimiz mumkin. *Kompyutyerda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn* kabilar ham iste’molda faollashdi.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlarini borligi aytildi. Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: “*Matn* so‘zining lug‘aviy ma’nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishini o‘rganish «*Matn tilshunosligi*» sohasining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Matn birliklarining o‘zaro bog‘lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko‘rinishi, olmosh turkumiga oid ba’zi so‘zlar, gapning so‘roq shakliga xos bo‘lgan ko‘rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o‘rin tutadi.² Mazkur ishda muallif «*matn*» atamasini «*nutq*», «*kontekst*» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta’kidlaydi. Nutq og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «*Nutq* subyektdan adresatga yo‘naltiluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat obyektiv informatsiyadan iborat bo‘lmay, balki o‘ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko‘rinishidir».³ Tilshunos olim M.Arriv «Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi»⁴ deydi. Ilmiy adabiyotlarda kontekst atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko‘rsatiladi. «*Kontekst* – bu bir leksik yoki grammatick birlik asosida ifodalangan ma’no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo‘yicha bu – so‘z birikmasi, ba’zan gap, kamdan-kam abzas yoki yaxlit

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 587-б.

² Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва pragmatik xусусиятлари. Филол.фан.номз...дис. –Тошкент, 1993, 7-б.

³ Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий.–Свердловск, 1990, с.5.

⁴ Қаранг: Serif Aktaş Edebiyatta üslup ve problemleri. –Ankara, «Akçağ», 1993, 46.s

matnga teng keladi».⁵ Masalan, *tuyoq so‘zi hayvonga aloqador a’zo hisoblanadi: Loyi ko‘pirib yotgan yo‘lda ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo‘lgan chuqurchalarni limmo-lim to‘ldirgan sariq zardoblar jimirlab, yoni-veridan sirqib yotardi* (P.Tursun). Mazkur so‘z insonga nisbatan qo‘llanilganda salbiy ottenka birinchi planga chiqadi: *Obro‘ying borida tuyog‘ingni shiqillatib qol.* Kontekst so‘zlarning semantik ma’nosini reallashadigan o‘ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o‘rinda S.D.Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o‘tish o‘rinli: «Borliqning mavjud dalillari lug‘atlarda berilganidek alohida so‘zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarda, matnlarda, ularning minimal bo‘lagi bo‘lgan gaplarda aks etadi... So‘zlar va ular ma’nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog‘langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlidir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi».⁶

Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta’rifni keltiradi. I.R.Galperin matnning ma’lumot berish, bo‘linuvchanlik, kogeziya (aloqalar sistemasi), kontinium (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantiyasi, retrospeksiya va prospeksiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriysi mavjudligi haqida ma’lumot beradi. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo‘lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo‘lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog‘langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo‘lib, u fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to‘liq bo‘ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo‘lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o‘ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir.⁷ Y.M.Lotman «matn ifodalilik (ma’lum bir fikr ifodalangan bo‘lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi

⁵ Зильберман Л.И. Лингвистика текста и обучение чтению английской научной литературы. –М., 1988, с. 29.

⁶ Шамсiddинов X. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол.фан.докт...дис.-Тошкент,1999, 187-б.

⁷ Ҳакимова М.К. Ўзбек тилида вакт маъноли лугавий бирликлар ва уларнинг матн шаклланитириш имкониятлари. Филол.фан.номз...дис. -Фарғона, 2004, 103-б.

me'moriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim»⁸ ligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko'ra tilshunoslikda o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab matn lingvistikasi yo'nalishi tez sur'atlarda rivojlana boshladi. G'arbiy Yevropa mamlakatlariida matn lingvistikasi bo'yicha davriy nashrlar, ilmiy maqolalar to'plami, monografiya, o'quv qo'llanmalari, darsliklar nashr qilindi. Rus tilshunosligida matn lingvistikasining shakllanishi va rivojlanishida I.R.Galperin, K.Kojevnikova, E.A.Referovskaya, G.Y.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon, O.I.Moskalskaya, A.A.Metsler, O.L.Kamenskaya kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi.

O'zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishida N.M.Turniyozov, B.Yo'ldoshev, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayevanining tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa o'zbek tilshunosligida ham matn har tomonlama turli aspektlarda tadqiq qilindi va bu boradagi tadqiqotlar davom etmoqda.

Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak noshirlarga matn lingvistikasi fanining ilmiy-nazariy hamda amaliy masalalari bo'yicha atroflicha bilim berish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Mazkur fanning vazifasi - matn lingvistikasining ilmiy-nazariy va amaliy masalalari, matnning tilshunoslikda o'rganilishi, matn birliklari, matn tiplari, matnda parsellyatsiya hodisasi, matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar, matnning lingvostatistik tahlili hamda matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni bo'yicha bilimlarga o'rgatishdan iborat. Ushbu fan talabalarni nazariy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Matn lingvistikasi fanining obyekti – matn (ilmiy, badiiy, publisistik matn va b.).

Matn lingvistikasi fanining predmeti – matnning turli jihatlarini tadqiq qilish, ya'ni matnni lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, lingvostatistik, kognitiv-diskursiv va b. jihatlarini o'rganishdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matn so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da qanday ta'rif berilgan?
2. I.R.Galperin tavsiya etgan matnning sakkiz kategoriyasi haqida ma'lumot bering.

⁸ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. –Москва, 1970, с.67.

3. Nutqning yozma va og‘zaki shakllari haqida ma’lumot bering.
4. Kontekst deb nimaga aytildi?
5. Matn deb nimaga aytildi?
6. Matn lingvistikasi fanining maqsadi, vazifasi, obyekti va predmeti nimalardan iborat?

TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSINING O’RGANILISHI

Insonlarning kishilik jamiyatni sifatidagi alohida-alohida qavmlar tarzida birlashishi va birlikda ne-ne mushkulotlarni bartaraf etib, tamaddun deyiladigan taraqqiyot yo‘llarida muntazam odim otmog‘ida ular o‘rtasidagi kommunikatsiya, muloqotning o‘rni, shubhasiz, benihoya muhim. Kommunikativ faoliyatdan tamoman xoli bo‘lgan, a‘zolari o‘zaro muloqot imkoniyatidan butunlay mahrum bo‘lgan kishilik jamiyatini tasavvur ham etib bo‘lmaydi.

Necha ming yillardir, odam bolasi o‘rganadi, o‘rgatadi, tajribalarini to‘playdi, saqlaydi va boshqalarga yyetkazadi. Albatta, bu faoliyatlarning, hech bir istisnosiz, barchasi – o‘rganish va o‘rgatish ham, tajriba-axborotlarni to‘plash va saqlash ham, ularni boshqalardan olish va boshqalarga berish ham til vositasidagi muloqot (og‘zaki va yozma) orqali amalgalashadi. Zotan, tilning mohiyatiga daxldor bo‘lgan bosh vazifasining kommunikativ vazifa ekanligi bugun faqat mutaxassisgagina emas, balki barchaga besh qo‘lday ma’lum bir haqiqat. Ammo mazkur kommunikativ aloqaning, nutqiy muloqotning lisoniy-mantiqi, ijtimoiy-ruhiy, tarixiy-estetik mexanizmlari, ular bilan bog‘liq qoida-qonuniyatlar, o‘ziga xosliklar tegishli fanlar (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, sotsiologiya, estetika kabi) tomonidan to‘laligicha o‘rganib bo‘lingan emas. Bu boradagi juda ko‘plab muammolar hamma zamonlarda olimlarning e’tiborida bo‘lib kelganligiga qaramay, hamon babs-u munozaralarga sabab bo‘ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e’tirof etilsa, goh jiddiy e’tirozlarni tug‘dirib keladi.

Tabiiyki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya’ni so‘zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o‘quvchi). To‘g‘ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozushi, telefon kabi), muloqot a‘zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g‘ayrilisoniy vositalarning ham o‘rni benihoya muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasisiz muloqot jarayoni voqe bo‘lilmaydi.

Tilshunoslik ayni kommunikatsiya jarayonida ikki tomon (so‘zlovchi, tinglovchi) o‘rtasilagi “berish-olish”ning asosiy predmeti bo‘lgan axborotning lisoniy ifodalaniishi va anglanishi masalasiga mutlaqo tabiiy ravishda birinchi darajali diqqatni qaratdi. Zotan, har qanday kommunikatsiyaning pirovard va bosh maqsadi ayni shu axborotning “harakati”dir, bu “harakat” esa til vositasida bo‘ladi. Shuning uchun ham tilshunoslik xuddi shu “harakatdagi axborot”ning asosiy va yirik birligini izladi, natijada gapni ana shunday yirik birlik sifatida uzoq davrlar e’tirof etib keldi.

Ma’lumki, tilshunoslik o‘z o‘rganish obyektini alohida-alohida bo‘limlarga ajratgan, ya’ni fonetika-fonologiyada tovush (fonema)lar, mofologiyada morfemalar, leksikologiyada leksemalar, sintaksisda esa sodda va qo‘shma gaplar o‘rganiladi. Aytish mumkinki, an’anaviy tilshunoslikda tilning eng yuqori sathidagi eng oliv va oxirgi birlik gap deb qarab kelinadi. Polyak tilshunosi M.R.Mayenovaning ta’biri bilan aytganda, “Gap tugagan joyda tilshunoslik o‘z kuzatishlarini tugatadi” degan hukm yaqin davrlargacha ochiq haqiqat hisoblangan. Ko‘p gaplardan tarkib topgan matnlar keng ma’nodagi grammatika doirasi bilan batamom va to‘laligicha chegaralanuvchi bu fan sohasi kuzatishlaridan chetda qoladi”⁹.

Aslida agar “gap tugagan joyda tilshunoslik o‘z kuzatishlarini tugatsa”, ya’ni faqat gapni kommunikativ birlik deb hisoblasa, bunday tilshunoslik gapning semantik-kommunikativ mohiyatining ichiga bemalol va to‘la kirib borishga qiynaladi. Har qanday alohida olingan gapning lisoniy-mantiqiy mag‘zini chaqib bo‘lmaydi. Har qanday so‘zning ma’nosini aniq bir kontekstda reallik kasb etgani kabi gapning ham boshqa gaplar bilan munosabatidan tashqarida mazmunini xolis baholash mushkul. Eng odiy bir misolni ko‘raylik: *Sayyoohlar ertaga o’sha shaharga boradilar* gapidagi mazmunni anglash uchun undan oldin qo‘llangan (yoki qo‘llanishi mumkin bo‘lgan), aytaylik, *Samarqand shahrining tarixiy obidalari haqidagi film namoyish etildi* qabilidagi qandaydir gap bo‘lishi lozim. Ko‘rinadiki, birinchi gapni mutlaqo mustaqil kommunikativ birlik deb bo‘lmaydi, demakki, tilshunoslikning chegarasi bu yyerda tugamasligi, undan tashqariga chiqishi kerak. Sintaksisni faqat gap (va so‘z birikmasi) haqidagi ta’limot tarzida talqin qilish mazkur chegaraning ustuni bo‘lib kelganligi ma’lum. Holbuki, sintaksisga “nutq tuzish haqidagi fan” sifatida qarash juda ko‘p muammolarga oydinlik kiritishi idrok etila boshlaganiga ham ancha bo‘ldi.¹⁰

⁹ Янус Э. Обзор польских работ по структуре текста / Синтаксис текста. –М.: Наука, 1979, с. 325.

¹⁰ Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М.: Высшая школа, 1980.

Bog‘li nutq, yaxlit nutqiy asar, matnni o‘rganish, ya’ni matnga gap – period – yanada yirikroq parcha – yaxlit butunlik tarzidagi darajalanishda yondashish antik davrdan – Aristotel va uning izdoshlaridan boshlangan.¹¹

Rus tilshunosligida matn (“tekst”) tushunchasining rivoji o‘tgan asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. 1947- yilda A.I.Belich o‘zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag‘ishlangan maqolasida til faktlarining grammatic tavsifida ma’no umumiyligi asosida bog‘langan va muayyan sintaktik- semantik yaxlitlik tarzida namoyon bo‘ladigan gaplarning butun zanjiriga alohida o‘rin berilishi lozimligiga va bu “matn” tushunchasining yuzaga kelishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga e’tiborni qaratgan, ana shunday gaplar zanjiridagi o‘zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan.¹²

Gapdan katta birliklar, ya’ni “gaplarning hamkorligi” masalasi nemis tilshunosligida ham 1949- yilda ko‘tarilgan. Gaplar o‘rtasidagi aloqalarni struktural shakllantiruvchi leksik takror, artikl, olmoshlari, ellipsis, fe’l zamonlari, takror bog‘lovchilar, so‘roq so‘zlar kabi eng muhim vositalarni tadqiq etgan ishida K.Boost shunday yozadi: “Bir gapdan boshqasiga tortilgan ipler shu qadar ko‘p va shunady pishiq to‘mi hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to‘r sifatida o‘rib to‘qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog‘langan”.¹³

O‘tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab “matn lingvistikasi” degan yo‘nalish katta sur’at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uni tashkil etuvchi unsurlar, omillar, xususiyatlari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etila boshlandi. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta “shov-shuv” paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladilar. G‘arbiy YYevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi bo‘yicha davriy nashrlar va ilmiy to‘plamlar nashr etildi, maxsus ilmiy jamoalar tuzildi, monografiyalar bosildi, darsliklar, hatto maktablar uchun darsliklar chiqarildi.¹⁴

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chek (Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, polyak tilshunoslik maktablari vakillarining

¹¹ Барт Р. Лингвистика текста / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. - М.: Прогресс, 1978, с. 444-445.

¹² Белич А.И. К вопросу о распределении грамматического материала по главным грамматическим дисциплинам / Вестник МГУ, 1947, N 7, с. 22.

¹³ Москальская О.И. Грамматика текста. -М.: Высшая школа, 1981, с. 5-6.

¹⁴ Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. -М.: Прогресс, 1978, с. 5-39.

xizmatlari dunyo tilshunosligida e'tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi.¹⁵ Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman, Z.Y.Turaeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi ko'plab tilshunoslар tomonidan o'rGANIB kelinadi.¹⁶

Tilshunoslikdagi bu yo'naliшhdagi tadqiqotlarni atroflicha tahlil qilgan O.I.Moskalskaya o'tgan asrning 60-70-yillariga kelib matnni lingvistik o'rGANISHGA bo'lgan qiziqish benihoya ortganligini, dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo'yicha misli ko'rilmagan miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to'la e'tirof etilganligini ta'kidlar ekan, tadqiqotlardagi bu e'tirofga tamal bo'lgan asosiy qoidalarni quyidagicha guruhlarga bo'lib umumlashtiradi:

1. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi.

2. Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiш tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa, matnni faqat nutq birligi emas, balki til birligi deb ham hisoblash kerak.

3. Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilari sistemasining qismidir.

4. Matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o'rGANISH tilshunoslik doirasidagi maxsus fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi.

O.M.Moskalskaya mazkur qoidalari, ayniqsa, birinchi banddag'i qoidalari turli shakkarda o'sha davrdagi tadqiqotlarda takrorlanib, "yangi lingvistik yo'naliшhning jangovar shiori sifatida jaranglagani"ga e'tiborni qaratadi va g'arb olimlarining ana shunday fikrlaridan namunalar keltiradi: "Biz odatda alohida so'zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz" (X.Vaynrix). "Agar biz gapirsak, faqat matnlar bilan gapiramiz" (P.Xartman). "Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o'rtasidagi aloqa

¹⁵ Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. –М.: Прогресс, 1978; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981, с. 5-7; Дейк Ван Т.А., Кинч В. Стратегии понимания связного текста / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. Когнитивные аспекты языка. –М.: Прогресс, 1988, с.153-211 ва бошк.

¹⁶ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. –М.: Искусство, 1970; Лингвистика текста. Материалы научной конференции. Ч. I, II. -М., 1974; Лосева Л.М. Как строится текст. –М.: Просвещение, 1980; Одинцов В.В. Стилистика текста. –М.: Наука, 1980; Москальская О.И. Күрсатилган асар, Гальперин И.Р. Кўрсатилган асар; Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методический аспекты. –М.: Русский язык, 1981; Тураева З.Я. Лингвистика текста. –М.: Просвещение, 1986; Сидоров Е.В. Проблемы речевой системности. –М.: Наука, 1987; Каменская О.Л. Текст и коммуникация. –М.: Высшая школа, 1990; Горшков А.И. Русская стилистика. –М.: Астрель –ACT, 2001, с. 53-258; Валгина Н.С. Теория текста. –М.: Логос, 2004 ва бошк.

vositasidir” (P.Xartman). “Biz tildan foydalanganimizda asosiy birlik so‘z yoki gap emas, balki matndir” (M.A.K.Xellidey). “Bizning kunlarimizda tilning oliv va eng mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi umum e’tirofiga sazovor bo‘lib bormoqda” (V.Dressler).¹⁷

Matn lingvistikasi shu tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Ammo rus tilshunosligida matn lingvistikasi o‘zining o‘rganish doirasiga keragidan ortiq ko‘p masalalarni qamraganligi, boshqa fan sohalarining muammolariga aralashayotganligi, gap tushunchasini go‘yoki inkor etayotganligi kabi da’volar bilan aytigelan tanqidiy fikrlar ham yo‘q emas. Masalan, taniqli rus filolog R.A.Budagov dunyoning bir qator mutaxassislari tomonidan matn lingvistikasi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar jamlangan to‘plamning nashr etilishi¹⁸ munosabati bilan yozgan “Matn lingvistikasi” qay darajada lingvistikadir?” deb nomlangan maqolasida matn lingvistikasi insonning matnni yaratish, tuzish, tushunish, tarkiblash, kompozitsion yaxlitligini idrok etish kabi qobiliyatlarni o‘rganmoqchi bo‘ladi, holbuki, bu boshqa fanlarning vazifalarini o‘z zimmasiga olish bo‘ladi qabilida e’tiroz bildiradi. Matnning hajmini chegaralash masalasida ham bu yo‘nalishning yo‘li to‘g‘ri emasligini aytadi.¹⁹ U shunday yozadi: “Matn lingvistikasi” yaratuvchilarining ilk niyatları juda ham ezgu edi. Ilmiy-texnik taraqqiyotga, axborot asri talablariga javob berish. Tilda faqat kichik birliklargina emas, yirik birliklar ham mavjud ekanligini ko‘rsatish. Matn oqimida gaplarning qo‘shilish shakllari va vositalarini tadqiq etish. Bularning bari diqqatga sazovor va ularni qo‘llab-quvvatlash kerak. Boshqa narsa – har jihatdan an’anaviy (deyiladigan) tilshunoslikka o‘xshamaslikka intilish - prinsipial e’tiroz tug‘diradi... YAnada qaltis, zaif joyi tilning yirik va kichik birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishdir. Ayni paytda gapning, so‘z yoki so‘z birikmasining strukturasini nafaqat tadqiq etmasdan, balki hatto u bilan qiziqib ko‘rmasdan turib, gaplarning qo‘shilish tamoyillarini o‘rganish mumkin emas...”²⁰

Bunday e’tirozlarga qo‘silib bo‘lmaydi, chunki matn lingvistikasi matnni asosiy birlik deb hisoblan ekan, gaplar yoki so‘z birikmalarining mavjudligini, ularning o‘ziga xosliklarini, matn tarkibidagi o‘rnini, umuman, an’anaviy tilshunoslik yutuqlari sifatida tan olingan qoidalarni aslo inkor etmaydi. Bu e’tiroz va tanqidiy fikrlarni mavjud muammolarga yanada sinchkovlik va hushyorlik bilan yondashish zaruriyatini unutmaslikka da’vat tarzida tushunish maqsadga muvofiq.

Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi o‘laroq o‘tgan asr 70-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qo‘yilgan. Dastlab u bog‘li nutqni mustaqil gaplar o‘rtasidagi aloqani o‘rganmasdan

¹⁷ **Москальская О.И.** Кўрсатилган асар, 9-б.

¹⁸ **Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста.** –М.: Прогресс, 1978

¹⁹ **Будагов Р.А.** Филология и культура. –М.: МГУ, 1980, с. 78-80.

²⁰ **Будагов Р.А.** Shu kitob. 85-б.

tadqiq etib bo‘lmasligini, chunki bog‘li nutq hamisha turli usullar bilan o‘zaro bog‘langan gaplar zanjiridan iborat bo‘lishini, shunga ko‘ra bog‘li nutqda gapdan yirik va murakkab bo‘lgan “murakkab sintaktik butunlik” deb ataladigan birliklar ajratilishini (ular abzasning qismi, abzas, yaxlit bob, ba’zan hatto yaxlit asar va sh.k.ga teng bo‘lishini) ta’kidlaydi va yozadi: “Bog‘li nutqda murakkab sintaktik butunlikni ajratish sof metodik maqsadni nazarda tutadi; u nutqning asosiy birligi bo‘la olmaydi va boz ustiga gapga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin emas”.²¹ 1974-yilda nashr etilgan darsligida esa murakkab sintaktik butunliklarni “sintaktik butunliklar” (“sintaksik bötennär”) deb nomlaydi va quyidagilarni yozadi: “Sintaktik butunliklar, ya’ni mustaqil jumlalarning bog‘lanishini o‘rganish turkiy tillarda hali to‘la yo‘lga qo‘yilgani yo‘q. Holbuki, bu masala til ilmi uchungina emas, balki adabiyot ilmi uchun ham juda ahamiyatlidir. Chunki mustaqil jumlalarning bog‘lanishini bilmasdan turib, matnni, asarni, uning ayrim bo‘laklarini, abzaslarini tugal uyushgan bir butun qilib tuzish juda qiyin”.²² 1984-yilda bosingan o‘quv qo‘llanmasida olim matn lingvistikasi muammolarini atroflicha yoritgan va matnning yaxlit birlik ekanligini e’tirof etgan. Kitobga “Matn sintaksisi” nomi bilan maxsus bo‘lim kiritgan va unda matn turlari, matnning mazmuniy, kommunikativ, struktur, grammatick butunligi, matn kompozitsiyasi, matn sintaksisi va lingvistik kategoriylar kabi masalalar bo‘yicha fikrlar bayon qilingan.²³

Ozarbayjon tilshunosligida matn sintaksisi va uning o‘ziga xosliklari masalasi K.M.Abdullayev tomonidan atroflicha monografik planda tadqiq etilgan. Ozarbayjon tilidagi matn, uning kommunikativ, struktur-semantik xususiyatlari, matn birliklari mavjud qarashlar va original kuzatishlar assosida tahlil etilgan.²⁴

O‘zbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqi borasida anchamuncha ishlar qilingan. O‘zbek til ilmida birinchilardan bo‘lib akademik G’.Abdurahmonov 1980-yilning 10-12-sentyabrida Toshkentda bo‘lib o‘tgan sobiq Ittifoq turkiyshunoslarning III konferensiyasida matn nazariyasiga bag‘ishlangan ma’ruza qilib, muammoning mohiyati va yechimlari haqida o‘z fikrlarini bildirgan, bir qator matn turlarini ajratib ko‘rsatgan edi.²⁵

Ulkan tilshunos A.G’ulomov matnning mohiyati bo‘yicha o‘zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan. U dunyo tilshunosligida kechayotgan jarayonlardan muttasil boxabar keng qamrovli olim sifatida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” darsligi (M.Asqarova bilan hamkorlikda) ni qayta

²¹ Современный татарский язык. –М.: Наука, 1971, с. 237.

²² Закиев М.З. Хәзерге татар әдәби теле (Синтаксис). -Казан, 1974, 257-бит.

²³ Закиев М.З. Хәзерге татар әдәби теле синтаксисы һәм пунктуациясе. -Казан: Татарстан китап нәшрияты, 1984, 199-226-битләр.

²⁴ Абдуллаев К.М. Теоретические проблемы синтаксиса азербайджанского языка: Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Баку, 1984, с. 33-43.

²⁵ III Всесоюзная тюркологическая конференция // Советская тюркология. -Баку, 1981, №1, с.93.

ishlab, to'ldirib, uchinchi nashrini tayyorlar ekan, matn masalasini chetlab o'tolmaydi, ixcham bir tarzda bo'lsa-da, matn haqidagi qarashlarini kitobga kiritadi. A.G'ulomov gapdag'i fikr tugalligining nisbiy ekanligini, asarda mazmun to'liqligi butun matndan anglashilishini ta'kidlab, uch abzasdan tashkil topgan yaxlit matnni misol qilib keltiradi va undan kelib chiqib, quyidagilarni yozadi: "1. Fikr bayon qilish gap (sodda gap va qo'shma gap) doirasi bilangina chegaralanmaydi. To'liq fikrni, odatda, gapdan yirik bo'lgan sintaktik butunlik beradi. Gap bu butunlik sostavida uning bir komponenti sanaladi. 2. Bu komponent shu butunlikdagi boshqa komponentlar bilan har jihatdan (mazmun, grammatick) turli vositalar orqali bog'langan bo'ladi. Uning o'z kompozitsiyasi va stilistik xususiyatlari saqlangan bo'ladi. 3. Sodda gap butunlik sostavida ma'lum sharoitlarda o'zicha bir abzasni tashkil qilishi mumkin... 4. Bunday sintaktik butunlik, sintaktik konstruksiya tekst sanaladi. Ayrim - uzuq gap nisbiy tugal fikrni ifodalaydi, tekst butun bir kompleksning mundarijasini bildiradi. 5. Tekst bir butunlik bo'lganligidan, u o'z mundarijasiga mos keladigan ayrim sarlavhalarga ega bo'lishi ham mumkin. Tekst ayrim segmentlarga – qismlarga (ayrim parchalarga, abzaslarga, gaplarga) bo'linadi). Demak, tilning aloqa-aralashuv vositasi ekanligini tekst yana ham aniq ko'rsatadi. Nutq tekst tusida namoyon bo'ladi. 6. Tekst – yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo'lagi. Tekstning hamma ko'rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma'lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik.

Tekstning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba'zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatickasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba'zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko'ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta'kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo'shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo'ladi. Tekshiruvchilarning ko'pchiligi bu sohani birinchi qarash bo'yicha yoritmoqdalar.

Tekst sintaksisi o'zbek tilshunosligida hali o'rganilmagan."²⁶

Ko'rinaliki, A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiatini va mohiyatini aniq ko'rsatib bergen. Mazkur olti bandda birma-bir qayd etilgan qoidalar matnning asosiy umumiyy umumiyy xususiyatlarini o'z ichiga olgan.

M.To'xsonov o'zinining nomzodlik dissertatsiyasida makromatn va mikromatnni farqlagan holda o'zbek tilidagi mikromatn tarkibidagi unsurlarni

²⁶ Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 6-7-б.

bog‘lovchi vositalar sistemasini tadqiq etgan.²⁷ Ammo ta’kidlash lozimki, garchi tadqiqotchi o‘z oldiga badiiy nutqdagi mikromatnni o‘rganishni maqsad qilib qo‘yanan bo‘lsa-da, ishda mikromatnning kogerentligi umumiy tarzda tekshirilgan, ya’ni aynan badiiy nutqdagi matnning bu boradagi o‘ziga xosligi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratilgan emas. Lekin shunga qaramasdan, bu ish o‘zbek tilshunosligidagi mikromatn va uning kogeziyasini monografik aspektida o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlardan ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

O‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi bo‘yicha umumlashtiruvchi, ta’limiy xaraktyerdagi ilk ishlardan biri A.Mamajonov tomonidan yaratilgan. Uning filolog-talabalar uchun mo‘ljallangan “Tekst lingvistikasi” nomli maxsus kursida matn haqidagi ilmiy qarashlar tahlil etilgan, matn tushunchasining mohiyati, tiplari va birlklari, bu birlklarning bog‘lanishi va bog‘lovchi vositalari, matn birliklararo sinonimiya, sintaktik-stilistik figuralar masalalari bayon qilingan.²⁸ Keyinroq shogirdi M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr yettirgan “Matn sintaksisi” nomli o‘quv qo‘llanmasida matnning struktur-semantik va stilistik jihatlari, matn birliklaridagi tema-rematik munosabat atroflicha tahlil qilingan, tegishli xulosalar umumlashtirilgan.²⁹

N.Turniyozovning “Matn lingvistikasi” nomli qo‘llanmasi ham ana shunday ta’limiy xaraktyerdagi ishlardan bo‘lib, unda tegishli o‘quv rejasiga muvofiq matn haqida umumiyligi ma’lumot, mikro- va makromatn tushunchalari, matn uzvlari orasidagi turli munosabatlar kabi mavzular bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Matn muammolari bilan jiddiy shug‘ullangan o‘zbek tilshunoslariidan yana biri M.Hakimovdir. U asosiy maqsadi “ilmiy matn va uning birlklari orasidagi mazmuniy munosabati ifoda etuvchi bog‘lovchilar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalarini aniqlashga yo‘naltirilgan ishlarga hissa qo‘shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash”dan iborat bo‘lgan nomzodlik dissertasiyasida o‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallari asosida batafsil tadqiq etgan.³¹

M.Hakimov o‘zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag‘ishlangan doktorlik dissertasiyasida esa matnni lingvistik pragmatika, G‘arb falsafiy tilshunosligida shakllangan nutqiyligi akt nazariyasidan kelib chiqqan holda o‘rgangan va matnda ochiq va yashirin ifodalananadigan

²⁷ Тухсанов М. Микротекст и система выражения его когерентности в узбекской художественной речи: Автореф. дисс. ...к-та филол. наук. -Ташкент, 1987.

²⁸ Мамажонов А. Текст лингвистики. -Тошкент, 1989.

²⁹ Мамажонов А., Абдуллатоев М. Матн синтаксиси. -Фаргона, 2002.

³⁰ Турниёзов Н. Матн лингвистикаси (маърузалар матни). -Самарканд, 2004.

³¹ Хакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва pragmatik xususiyatlari: Филол. фан. н-ди ...дисс. -Тошкент, 1993.

mazmunlarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ko‘rsatib bergan, ularning semantik, sintaktik, presuppozitsional va pragmatik mexanizmlariga daxldor qoidalarni konkretlashtirgan.³² Dissertasiyada o‘zbek tilidagi matn lingvistikasi muammolariga nazariy jihatdan oydinlik kiritilgan, bir qator tamoman yangi fikrlar ilgari surilgan. Ammo g‘arbcha yoki g‘arb falsafiy tilshunosligi talqinida qo‘llangan o‘zbekcha atamalar shunchalik ko‘p va ularni bordaniga anglab olish biroz qiyinki, muallif dissertatsiya oxirida “tadqiqot yo‘nalishiga oid atamalar izohi”ni berishga majbur bo‘lgan (257-260-b.).

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida matn masalasining u yoki bu jihatni tadqiqiga daxldor bir qator ilmiy maqolalar ham e’lon qilindi.³³

Matn mummaolarini o‘rganish va uning yaxlit ilmiy nazariyasini yaratishning xorijdagi faollaridan biri nemis tilshunosi R.Harveg 1974 -yilda matn lingvistikasining tilshunoslikda to‘liq asoslanishi uchun kamida yuz yil kerak bo‘lishini ta’kidlagan edi.³⁴ Ammo bugun bu gapning aytigeliga hali 40 yil ham bo‘lgani yo‘q. Lekin butun dunyoda muntazam va qizg‘in olib borilgan jiddiy ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarning tabiiy natijasi o‘laroq “matn lingvistikasi” (“matn nazariyasi”) nomi bilan bo‘ladimi yoki “matn grammatikasi” (“matn sintaksisi”) nomi bilan bo‘ladimi, baribir, shunday bir yo‘nalish alohida fan va o‘quv predmeti sifatida shakllanganligi keng e’tirof etilgan va buni hech kim inkor qilmaydi.

Demak, shunga ko‘ra, tilshunoslikda matnga doir yaratilgan tadqiqotlarni uch katta guruhga bo‘lish mumkin: a) matnnning formal-grammatik va ma’no qurilishiga oid ishlar; b) matnni turlicha idrok qilishga sabab bo‘ladigan matn qurilishining shakliy va konseptual xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan ishlar; v) matnning o‘zini idrok qilishga oid ishlar. Yana shuni ta’kidlab aytish mumkinki, bugungi kunga kelib matnni o‘rganishning yigirmadan ortiq usullari, metodlari ishab chiqilgan va ular tilshunoslik fanida keng qo‘llanmoqda.

Ulardan biri o‘zbekcha matnlarni statistik usulda o‘rganishdir. Matnni o‘rganishning bu usuli haqida B.Yo‘ldoshevning “Matnni o‘rganishning lingvostatistik metodlari” uslubi qo‘llanmasida izchil fikrlar bildirilgan, ya’ni unda turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o‘rganish usullari, ko‘rinishlari, chastotali lug‘atlar va ularni yaratish

³² Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг pragmatik талкини: Филол. фан. д-ри ...дисс. –Тошкент, 2001.

³³ Тұхсанов М. Микромат ва унинг коммуникатив яхлитлiği // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, №5, 66-69-б.; Шахобиддинова Ш., Исоков З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №6, 75-76-б.; Мухамедова Д. Микромат кўринишсида кесимларнинг тенг алокага киришуви // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №6, 90-91-б.; Мухамедова Д. Матн ва унинг турлари / Истиқол ва тил. З-кисм. -Тошкент, 2007, 17-19-б.

tamoyillari bayon qilingan.³⁵ Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlarini tahlil va tatbiq qilish ham matn lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada samarqandlik olimlar S.Karimov, B.Yo'ldoshev, D.O'rinovalarning tadqiqotlari e'tiborga sazovor.

Tilshunoslikda matnni psixolingvistik jihatdan o'rganish ham o'ziga xos tarixiga ega. Ayniqsa, tilshunoslar I.Lisakova, A.A.Leontyev, N.S.Yevchik, A.Shtern, T.A.Drozdovalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovor.³⁶ Bu yo'nalishdagi ishlarda matnning yaralishi va tushunilishi (persepsiysi) bilan bog'liq jarayonlar, ya'ni inson psixologiyasi va matn yaratish qobiliyati o'rtasidagi bog'liqligi masalalari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, I.Azimovning nomzodlik dissertasiyasida psixolingvistikadagi matnning mazmuniy persepsiyasiga oid umumnazariy qarashlar sharhi berilgan, matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstraliningvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlanib, matnni tushunish jarayonining darajalari ko'rsatilgan, shuningdek, ishda matnning mazmuniy persepsiyasidagi birliklar aniqlanib, ularning formal-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.³⁷

Matn lingvistikasining yana bir muhim tarmog'i – badiiy matnni tadqiq qilish yo'nalishi ham, aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida yuqori darajada taraqqiy qilgan. 2009-yilda M.Yo'ldoshev badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mazkur doktorlik ishida badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo'lish tarzi o'zbek adabiyotining eng sara asarlari misolida tahlil qilingan, badiiy matnning mazmuniy turlari hamda intertekstuallik muammozi faktik materiallar asosida tasnif va tavsif qilingan, badiiy matnning lingvopoetik tahlil tamoyillari ishlab chiqilgan, shuningdek, badiiy matnning shakllanish tarzi va unda ishtirot etuvchi lisoniy omillar o'rganilib, badiiy matnda fonografik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning poetik aktuallashish mexanizmlari aniqlangan.³⁸

2010- yilda himoya qilingan S.Boymirzayevaning doktorlik ishi matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini monografik

³⁵ Ўйлошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари (услубий қўлланма). -Самарканд, 2008.

³⁶ Лысакова И.П. Язык газеты: социопсихолингвистический аспект. –Л., 1981, Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания.-М., 1969, Евчик Н.С. Перцептивная база текста: теоретические и прикладные аспекты формирования. –Минск, 2001, Штерн А.С. Перцептивный аспект текста. -Л., 1990, Дроздова Т.А. Психологические особенности понимания текста как процесса // Психологические механизмы порождения и восприятия текста. Сборник научных трудов МГИИЯ.Вып.23.-М., 1985.-С.106-120.

³⁷ Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқики. Филол.фан.номз..дис.-Тошкент, 2008.

³⁸ Ойдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқики. Филол.фан.докт..дис.-Тошкент, 2009.

tadqiq qilishga bag‘ishlangan.³⁹ Ishda matn hodisasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan, uning mazmunini shakllantirishga xizmat qiluvchi modallik va temporallik kategoriylarining matn mohiyati bilan uzviy aloqadorligi ko‘rsatib berilgan hamda matn mazmuni shakllanishining ijtimoiy hodisa ekanligi, uning muallif va retsipient ishtirokida kechadigan lisoniy kognitiv faoliyat mahsuli ekanligi olib berilgan.

Sh.Turniyazovaning nomzodlik ishi matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mikromatn va uning turlari haqida mulohaza bildirilib, unda oddiy grafema (nutqda tovush), so‘z va so‘z birikmalari ham matn maqomida kelishi mumkinligi dalillangan, mikro-va makromatnlar voqelanishining derivatsion xususiyatlari ilmiy talqini berilgan, matn komponentlarining va umumiy matn strukturasining derivatsion xususiyatlari yoritildi va bunda derivatsiya operatori vazifasida keluvchi semantik omil hamda leksik vositalar, matn komponentlarining pog‘onali munosabati xususida fikrlar bildirilgan.⁴⁰

2011-yilda himoya qilingan Sh.Haydarovning “Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanishi” mavzusidagi nomzodlik ishi ham matn lingvistikasining tarkibiy qismi, o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lgan parsellyativ konstruksiylar tadqiqiga bag‘ishlangan.⁴¹ Ishda parsellyativ konstruksiylar badiiy matn materiallari asosida lingvopoetik tadqiq qilingan, parsellyativ konstruksiyalarning mohiyati, ularning ilova va boshqa konstruksiyalardan farqli belgilari badiiy matndan olingan misollar asosida izohlanib, parsellyativ konstruksiyalarning og‘zaki va badiiy nutqqa xoslanishi, ularning o‘ziga xos tomonlari tahlil etilgan hamda parsellyativ konstruksiyalarning voqelanishiga ko‘ra tasnifi ishlab chiqilib, parsellyativ konstruksiylar grammatic va lingvopoetik jihatdan tavsiflangan.

Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til egalarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi⁴². D.Xudoyberganovaning

³⁹ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фан.доц...дис.-Тошкент, 2010.

⁴⁰ Турниязова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шакллананишининг деривацион хусусиятлари. Филол.фан.номз...дис.-Тошкент, 2010.

⁴¹ Ҳайдаров Ш. Бадий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши. Филол.фан.доц...дис.-Тошкент, 2011.

⁴² Худойберганова Д. Ўзбек тилида матннинг антропоцентрик тадқики. Филол.фан.доц...дис.-Тошкент, 2014. 13-б.

doktorlik dissertatsiyasi mazkur masalaga - matnning antropotsentrik tadqiqiga bag'ishlangan.

Tadqiqotda matn yaratilishi va mazmuniy idrokinining kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik jihatlarini tadqiq etish orqali o'zbek tilida muloqot qiluvchi til egalarining lisoniy ongi, milliy-assotsiativ fikrlash tarzi, kognitiv va psixologik faoliyatiga doir muhim xulosalar ishlab chiqilgan.

Ko'rinaridiki, matn lingvistikasi yuzasidan turli yo'nalish va aspektlarda tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qaysi vaqt dan boshlab matn lingvistikasi alohida fan sifatida o'rganila boshlandi?
2. Rus tilshunosligida matn tadqiqi yuzasidan qanday tadqiqotlar yaratildi?
3. Turkologiyada matn tadqiqi bo'yicha qanday asarlar yuzaga kelgan?
4. O'zbek tilshunosligida matn lingvistikasiga oid qanday asarlar yaratilgan?
5. O'zbek tilshunosligida ilmiy matnni o'rgangan olim kim va u qanday g'oyalarni ilgari surgan?
6. O'zbek tilshunosligida badiiy matnni o'rgangan olim kim va u qanday g'oyalarni ilgari surgan?
7. O'zbek tilshunosligida matnning kommuniktiv-pragmatik xususiyatlarini o'rgangan olma kim va u qanday g'oyalarni ilgari surgan?
8. Matnlarni psixolingvistik jihatdan o'rgangan olma kim va u qanday g'oyalarni ilgari surgan?
9. O'zbek tilida parsellyatsiya hodisasi kim tomonidan o'rganilgan?
10. Matnlarni antroposentrik jihatdan kim o'rgangan va unda qanday xulosalar bayon qilingan?

MATN TA'RIFI MASALASI

Matn ta'rifi masalasi matn lingvistikasining eng muhim va dolzARB muammolaridan hisoblanadi. Chunki tilshunoslikda bu masalada yagona fikrning o'zi yo'q. Zero, "Ammo hayratlanarlisi shundaki, - deb yozadi rus tilshunosi E.S.Kubryakova, - bu fan sohasi o'zining bosh obyekti – matnning umume'tirof etilgan ta'rifiiga ega emas va bu yo'nalishdagi deyarli har bir tadqiqot tekstning nima ekanligi va bu termin bilan ifodalananadigan hodisaning

qanday belgi yoki xususiyatlar bilan xarakterlanishi haqidagi mulohazalar bilan boshlanadi.”⁴³ Biz ham matn ta’rifi, uning asosiy belgi-xususiyatlariga to’xtalishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta’riflashda mutaxassislar o’rtasida yagona fikr yo‘q, aksincha, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, rus tilshunosi L.M.Loseva “matn” tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo‘lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo‘lishini alohida qayd etadi.⁴⁴ Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida batapsil o‘rganganlardan biri I.R.Galperin “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yyetakchi jihatlar”dan biri sifatida “yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik”ni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqi yozuvda qayd etilgan nutqi asardir.

Ammo matnning yozma yoki og‘zakiligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog‘lik bog‘liq yoki bog‘liq emasligi muallif tomonidan aniq ko‘rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo‘lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o‘rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan.

Aytish kerakki, matn lingvistikasi muammolari bilan jiddiy shug‘ullangan juda ko‘pchilik tilshunoslar matnning ham yozma, ham og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkinligini aytadilar.⁴⁵ Chindan ham, ayni shu fikr ilmiy-mantiqiy jihatdan to‘la asosga ega va u matnning mavjud mohiyatini to‘g‘ri aks ettiradi.

Z.Y.Turayeva matn lingvistikasining umumiy nazariyasiga ko‘ra uning predmeti sifatida og‘zaki yoki yozma nutq mahsuli bo‘lgan matnni olish mumkinligini aytadi, ammo matnni tor ma’noda, ya’ni faqat yozma nutq mahsuli sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. U I.R.Galperin tomonidan ilgari surilgan yozma matn talqinini ma’qullaydi va quyidagicha yozadi: “Agar og‘zaki nutqqa tovushlar orqali namoyon bo‘lish xos bo‘lsa, matn uchun grafik gavdalaniш xarakterlidir. Agar og‘zaki nutqni

⁴³ Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения / Текст. Структура и семантика. Т. 1. –М., 2001, с.72-81.

⁴⁴ Лосева Л.М. Ко‘rsatilgan asar, 4-b.

⁴⁵ Гаузенблас К. О характеристике и классификации речевых произведений / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. -М.: Прогресс, 1978, с. 63-64; Михель Г. Основы теории стиля / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 9. Лингвостилистика. -М.: Прогресс, 1979, с. 271; Николаева Т.М. Текст / Русский язык. Энциклопедия. -М.: Сов. энциклопедия, 1979, с. 348; Хожиев А. Лингвистик терминдарнинг изоҳи лугати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 88-б.; Мамажонов А. Текст лингвистикиаси. -Тошкент, 1989, 8-б.; Ўринбоев Б., Кўнгурев Р., Лапасов Ж. Бадий матннинг лингвистик таҳлили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1990, 8-б.; Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 5-б.

bir yo'nalishlilik ("lineynost") farqlab tursa, matnga ko'p o'lchovlilik xosdir. Og'zaki nutq bir yo'nalishlidir, chunki u faqat tovush orqali gavdalana oladi. Yozuv (grafik yoki magnit tasmasidagi) uning sifatini o'zgartiradi. Shunday qilib, og'zaki nutq qaytishsizdir, ya'ni aytildimi, uning biror parchasiga qaytish mumkin emas. Matn ko'p o'lchovlidir, chunki uning istalgan bo'lagiga ko'p marta qaytish mumkin. Agar nutq harakat, jarayon bo'lsa, matn ikkiyoqlama tabiatga ega, ya'ni u ham tinch holatda, ham harakatda bo'la oladi. Agar nutqning zamonda mavjudligi shu nutqning talaffuz vaqt bilan chegaralangan bo'lsa, matnning mavjudligi amaliy jihatdan hech narsa bilan chegaralanmagan.”⁴⁶

O'zbek tilshunosligidagi bu yo'nalishdagi ishlarga e'tibor qilinsa, ularda ham yuqoridagiga o'xhash mulohazalar yo'q emas. Masalan, M.Hakimovning nomzodlik dissertasiyasida mana bunday fikrlarni o'qish mumkin: “..Nutq – bu so'zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo'lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn (tekst) ham ana shu nutqiy hodisaning yozilgan (“bosma harf orqali aks etgan”) parchasidir... “Nutq” o'zining yozma shaklida “matn” atamasiga teng keladi... Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi... Tekst – og'zaki nutq, kontekstga nisbatan stabillashgan, ma'lum qoida, qonuniyatlar va adabiy til me'yorlari asosida shakllangan yozma nutq... Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtaсидаги aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir.”⁴⁷

Tabiiyki, bunday anchayin keskin fikrlar munozaralidir. Avvalo, aytish joizki, kishilar o'rtaсидаги aloqa – kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan (va bu hol matn lingvistikasining yaratuvchilari, umuman, matn tadqiqotchilarining aksariyati tarafidan e'tirof etilgan ekan), matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mayjud matn nazariyasi qoidalariiga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtaсидаги har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi.

Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliv sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalardan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmeligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisinigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy.

⁴⁶ Тураева З.Я. Лингвистика текста. –М.: Просвещение, 1986, с. 12.

⁴⁷ Ҳакимов М.Х. Ўзбек илмий матннинг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди ...дисс. –Тошкент, 1993.

Og‘zaki nutqning bir yo‘nalishliligi, yozma (harflar yoki magnit tasmasida) nutq (matn)ning ko‘p yo‘nalishliligi, og‘zaki nutqning “qaytishsizligi”, yozma nutqning esa “qaytishliligi”, ya’ni uning istalgan bo‘lagiga har qachon qaytish mumkinligi haqidagi da’vo-dalil ham asosli emas. Chunki bu “qaytish” tushunchasi faqat vizual-amaliy mohiyatga ega, nutqiy asar (matn)ning mohiyatiga aslo daxldor emas. Agar faqat yozma nutqdagina oldingi qismlarga qaytish mumkin-u og‘zaki nutqiy yaxlitlikda uning oldingi qismlariga qaytishning imkonli bo‘lmasa, unda hech qanday og‘zaki nutqni tushunish, demakki, og‘zaki nutqiy kommunikatsiya mutlaqo mumkin bo‘lmassi. Chunki so‘zlovchi muayyan yaxlit bir fikr, mavzuni og‘zaki bayon qilar ekan, ayni bayon jarayonining har bir onida uning o‘zi ham, xuddi shuningdek, tinglovchi ham mazkur nutqning oldingi istalgan parchasiga qayta oladi, nafaqat qayta oladi, balki oldingi qismlar ularning xotirasida turadi. Agar shunday bo‘lmasa, ya’ni nutq butunicha ham so‘zlovchining, ham tinglovchining xotirasida turmasa, nutqni tuzish ham, uni mazmunan anglash ham imkonsiz bo‘ladi. Tabiiyki, so‘zlovchi ayni talaffuz jarayoni dagina o‘z nutqiga hokim bo‘lsa, tinglovchi nutqning ayni eshitib turgan onidagi parchasinigina tushunsa, nutqning oldingi qismlari ularning har ikkichining ham “esidan chiqib qolaversa”, ular bir-birlarini tushunish imkoniyatidan tamomila mahrum bo‘lib qolaveradi. To‘g‘ri, og‘zaki nutqning so‘zlangan paytidagina mayjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtayi nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og‘zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas. Yaxlit og‘zaki nutq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi tarzidagi hukm daryoda oqib turgan suv suv emas, balki bu “modda” faqat shishaga solingandagina suv paydo bo‘ladi degandy bir gapdir.

Dunyoda biron-bir, kattadir-kichikdir, xalq yoki qavm yo‘qki, uning necha asrlardan beri og‘zaki shaklda avloddan avlodga o‘tib yashab kelayotgan rang-barang so‘z san‘ati durdonalari bo‘lmasisin. Masalan, bir qo‘sish yoki ertakni faqat qog‘ozga yoki magnit tasmasiga (yoki multimedia shakliga) tushirilganda matn, ammo og‘zaki shaklida matn bo‘la olmaydi deyish matn tushunchasini til doirasidan tashqariga chiqarib yuborishi tayin. Og‘zaki nutqiy asarni muayyan vositalar (yozuv, magnit tasmasi, multimedia kabi) yordamida qayd etish axborotning zamon va makonda saqlanishini ta‘minlash imkoniyatlaridir, lekin, garchi yozma nutq muayyan tayyorgarlik bilan amalga oshiriladi, shuning uchun u ravon va ishlangan nutq deyilsa-da, buning til birliklarining tabiatiga bevosita jiddiy o‘zgartirish kiritadigan ta’siri to‘g‘risida gapirib bo‘lmaydi.

Aytish lozimki, tayyorgarliksiz spontan og‘zaki nutq va tayyorgarlik bilan ishlangan yozma nutq o‘rtasida muayyan struktur-uslubiy farqlar, o‘ziga xosliklarning mavjudligi tabiiy, ammo bu o‘ziga xosliklar birining mahsulini

matn emas, ikkinchisining mahsulini esa matn deyishga hech bir asos bo‘lolmaydi.

Matnning semantik-struktur tuzilishini rus tilidagi og‘zaki va yozma nutq misolida batafsil tadqiq etgan R.A.Karimova doktorlik diisertatsiyasida matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og‘zaki shaklda ham namoyon bo‘ladigan nutqiy asar ekanligini, bunda og‘zaki shakl genetik asos ekanligini alohida ta’kidlaydi va tahlillardan kelib chiqqan holda “bir qarashda matn makonining qarama-qarshi nuqtalarida joylashganday ko‘rinadigan og‘zaki spontan matn va yozma matn (badiiy matn) umumiy xususiyat – muayyan tuzilishga ega” degan nazariy xulosaga keladi.⁴⁸

Shubhasiz, og‘zaki nutq birlamchi, yozma nutq esa ikkilamchidir, shuning uchun ham yozma matn uchun og‘zaki nutqning “genetik asos” bo‘lishi aksiomadir. Bu o‘rinda O.V.Dolgovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Inson nutqi – bu eng avvalo tilning tovushli shaklidir... Filolog uchun tovushli nutqni o‘rganish zarurligi haqidagi fikrning barqarorlashuvi og‘zaki va yozma nutq munosabati muammosini hal qilishdaagi birinchi qadam bo‘lgan. Til yashash shaklining faqat bir, ya’ni yozma shaklini tadqiq etish bilan obyektni cheklash mumkin emas... Fanning istiqboldagi muvaffaqiyatlari taraqqiyoti uchun rivojlangan adabiy tilda yozma va og‘zaki shakllar bir butunlikdaligini va ular ichki nutq orqali bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini aniqlashtirib olish muhimdir. Yozma matnni o‘qiganda biz uni faqat ko‘zimiz bilan idrok etmaymiz, balki uni ichki nutqimiz tarzida “aytamiz” ham. Yozuvda bir qator eng sodda sintaktik munosabatlar punktuatsiya orqali ifodalanadi. Har qanday matnning yozma shakli, uning ontologiyasi tirk insonlarning mavjudligiga bog‘liq, ular yozma matnga qarab, o‘zlarining ichki nutqlarida uning talaffuzini aks ettira oladilar. Ichki nutq haqidagi ta’limotsiz mohiyatan tilshunoslik umuman mavjud bo‘la olmaydi.”⁴⁹ Demakki, tovushli nutq (ichki va tashqi) diqqat markazida turmas ekan, matnni ilmiy o‘rganish, matn nazariyasini tasavvur etish, matn lingvistikasini rivojlantirish mumkin emas.

Dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning ko‘pchiligidagi “diskurs” termini bot-bot qo‘llanadi. V.Xegay haqli ravishda ta’kidlaganidek, bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, matn lingvistikasining o‘zida ham yagona, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan talqini, ma’nosи yo‘q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan,

⁴⁸ Каримова Р.А Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов): Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. –М., 1992.-С. 6-27.

⁴⁹ Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М.: Высшая школа, 1980.-С. 40-41.

“diskurs” esa og‘zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan.⁵⁰ Masalan, golland tilshunoslari T.A. Van Deyk va V.Kinchlar “keyingi yillarda bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda bog‘li nutq yoki diskursni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortgan”ligini ta’kidlar ekan, “diskurs”ni “bog‘li nutq”ning sinonimi sifatida qo‘llaydi. Bog‘li nutq deganda, albatta, matn tushuniladi, ko‘rinadiki, “matn” va “diskurs” terminlari teng ma’noli so‘zlar sifatida ishlatilgan. “Matn” va “diskurs” terminlarini bir-biridan farqli tushunchalar ifodasi uchun qo‘llash ham keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotchilar fransuz filologiyasida “diskurs” termini bir-biridan farqli to‘rt xil ma’noda qo‘llanishini aytadilar.⁵¹

A.I.Gorshkov alohida ko‘rsatib o‘tganidek, lingvistik adabiyotlarda “diskurs” terminining qat’iy bir ma’nosini yo‘q, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, ya’ni “matnning qismi”dan yaxlit “nutq”qacha bo‘lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so‘zning ma’nosini fransuzcha discours – “nutq”, “so‘zlash” demakdir.⁵² Uning qayd etishicha, “diskurs” so‘zi “matnning qismi” ma’nosida termin bo‘la oladi, ammo u matn muammosi turlicha nuqtayi nazarlardan turib tadqiq etilgan juda ko‘p lingvistik adabiyotlarda “frazadan katta birlik”, “murakkab sintaktik butunlik”, “matn komponenti”, “registr”, “jumla”, “prozaik strofa”, “sintaktik kompleks”, “monologik jumla”, “kommunikativ blok” kabilar bilan sinonim bo‘lar ekan, “diskurs” terminiga ehtiyoj yo‘qligini ta’kidlaydi.⁵³ Biz ham shunday deb hisoblaymiz. “Diskurs” termini haqidagi mazkur mulohazalaridan maqsad bu so‘zning asl ma’nosini “nutq”, “so‘zlash” ekanligini, adabiyotlarda bu terminning “matn”ga sinonim sifatida qo‘llanganligini ta’kidlash va shu tarzda matnning yozma ham, og‘zaki ham bo‘laverishiga yana bir marta urg‘u berishdan iborat edi. Demak, matn og‘zaki yoki yozma shakldagi yaxlit nutqiy asardir.

Matnning ham til, ham nutq birligi ekanligi haqidagi qarash, yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz kabi, tadqiqotchilarning asosiy ko‘pchiligi tomonidan tan olingan. Gap qoliplari tilda mavjud bo‘lgani va bu qoliplarning bevosita realizatsiyasi nutqda voqe bo‘lgani singari til sistemasida matn yaratishning ham umumiy qoidalari, qoliplari, “formulalar”⁵⁴ bor. Mazkur qoliplar assosida nutqda matn yaratiladi. Shuning uchun ham gap qanchalik ham til, ham nutq hodisasi bo‘lsa, matn ham shunchalik ham til, ham nutq hodisasidir. To‘g‘ri, gapga xos qonuniyatlar, qoidalari, kategoriyalarni matnga bevosita tatbiq etish

⁵⁰ Хегай В. О понятии *дискурс* // Филология масалалари, 2006, N 2 (11), 63-66-б.

⁵¹ Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. –М.: Высшая школа, 1980.- С.143-144.

⁵² Миловидов В.А. Текст, контекст, интертекст: Введение в проблематику сравнительного литературоведения. – Тверь: ТвГУ, 1998, с. 39.

⁵³ Горшков А.И. Кўрсатилган асар, 66-67-б.

⁵⁴ Бархударов Л.С. Текст как единица языка и единица перевода / Лингвистика текста. Материалы научной конференции. –М., 1974, с. 40-41.

mumkin emas. Chunki aytiganiday, matn gapdan yirik, oliy kommunikativ birlik va uning yaratilishida mutlaqo farqli qonuniyatlar amal qiladi. O.L.Kamenskaya juda o‘rinli ta’kidlaganidek, matn strukturasining til qonuniyatlari bilan chegaralanishi bir qadar kuchsiz, ayni shu xususiyat anchayin katta hajmdagi matnda eng murakkab fikr-g‘oyani batafsil bayon qilishga imkoniyat beradi. Lekin matn strukturasining til qonuniyatlari bilan kuchsiz chegaralangan bo‘lishiga qaramasdan, uning uzvleri o‘rtasidagi aloqa majburiyidir, ayni paytda bu aloqa o‘ziga xos xaraktyerga ega. Matnlarni tuzishning umumiyligi qoidalari, albatta, bor, biroq bu qoidalarning tabiatini gap tuzish qoidalardan nisbatan kuchsiz qat’iyligi bilan farq qiladi. Ammo til va nutqqa munosabati masalasida gap va matn o‘rtasida muayyan o‘xshashlikning borligi tabiiy.

Nemis tilshunosi V.Dressler til sistemasining birligi bo‘lgan matnni (“tekstema”, “potensial matn”, “emik matn”) va nutq birligi bo‘lgan matnni (“aktual matn”, “konkret talaffuz qilingan matn”, “etik matn”) farqlash lozimligini alohida ta’kidlaydi. M.Xellidey tilning matn yaratuvchilik vazifasini tilning boshqa asosiy vazifalari qatorida unga organik xos bo‘lgan vazifa sifatida qaraydi va uni faqat nutq doirasi bilan chegaralab bo‘lmasligini aytadi.⁵⁵

Umuman, aytish mumkinki, matn ham til birligi, ham nutq birligidir degan qarash bugun anchayin keng tarqalgan.

Tilshunoslikda til strukturasining sathlari masalasi har qanday tadqiqot uchun muhim ekanligi ma’lum. Til tadqiqi jarayonida tahlilning turli bosqichlarida fonologik, morfologik, sintaktik va leksik-semantic sathlar farqlanadi.⁵⁶ Matn mazkur sathlar ierarxiyasida qayyerdan joy oladi? Umuman, matn til strukturasining alohida sathi bo‘la oladimi?

Uzoq vaqtlar, matn lingvistikasi keng rivoj topgunga qadar tilshunoslikda bu masalada bir fikr ustuvor edi, ya’ni til birliklarining ierarxik (pog‘onalii) strukturasida oliy birlik sifatida gap e’tirof etilgan. Masalan, mashhur fransuz tilshunosi E.Benvenist gapni segmentlash (bo‘laklarga ajratish) mumkinligini, ammo uni biron-bir boshqa yuqori sath birligining tashkil etuvchisi sifatida qarab bo‘lmasligini ta’kidlaydi va shunday deb yozadi: “Gap faqat biron-bir boshqa gapdan oldin yoki keyin kelishi, ular bilan ketma-ketlik munosabatida bo‘lishi mumkin. Gaplar guruhi gap sathiga nisbatan alohida sath birligini shakllantira olmaydi. Kategorematik (gap) sathdan yuqorida joylashgan til sathi yo‘q.”⁵⁷

⁵⁵ **Хэллидей М.А.** Место “функциональной перспективы предложения” (ФФП) в системе лингвистического описания / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. -М.: Прогресс, 1978, с.143.

⁵⁶ **Кодухов В.И.** Уровни языка / Русский язык. Энциклопедия. -М.: Сов. энциклопедия, 1979. -С.359-360.

⁵⁷ **Бенвенист Э.** Уровни лингвистического анализа / Новое в лингвистике. Вып.4. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1965.-С.446-447.

Rus tilshunosi M.Y.Blox til birliklari va til sathlari munosabatini yaxlit sistema tarzida tadqiq etar ekan, tilning eng kichik birligidan tortib, eng yirik birligi - matngacha bo'lgan ierarxiyaning mohiyatiga alohida e'tibor beradi. Ayniqsa, gap va matnning til sathlariga munosabati masalasida aniq va asosli fikrlarni bayon qiladi. U gapni sath shakllantiradigan birlik sifatida "propozema" deb nomlaydi (gapning semantik asosini ifodalovchi "propozitsiya" so'zidan) va propozematik sath til belgisi segmentining oxirgi yuqori chegarasi emasligini, propozematik sath ustida mustaqil gaplarning sintaktik birikuvi natijasida shakllanadigan "cuprapropozematik sath" turishini aytadi.⁵⁸ Mazkur ikki sathni nomlashda ("propozematik" va "suprapropozematik") muallifning umumlashtiruvchi jihat, ya'ni har ikkisida ham propozemani nazardan qochirmaganligi diqqatga sazovor.

Ba'zi tadqiqotchilar matnga alohida sath sifatida qarash mumkinligini aytadilar, ammo ayni paytda matn tilning emas, balki nutqning sathi bo'la olishini ta'kidlaydilar. Bunda matnning nutq jarayoni hodisasi sifatida sistemaliligiga urg'u beradilar. Bunday talqindan kelib chiqiladigan bo'lsa, tabiiyki, mantiqan matnga til hodisasi emas, balki faqat nutq hodisasi sifatida qarash lozim. Holbuki, matnning mohiyatan, eng avvalo, til hodisasi ekanligi bugungi matn lingvistikasida deyarli e'tirof etib bo'lingan bir haqiqatdir. Shuningdek, matnning asosiy va birlamchi til belgisi ekanligi haqidagi qarash ham tilshunoslikda turg'unlashgan. Shuning uchun ham matn faqat nutq sathiga oiddir degan fikrga qo'shilish qiyin.

Bu munosabat bilan O.L.Kamenskayaning "Matn va kommunikatsiya" nomli kitobida til sistemasida alohida matn sathining mavjudligini ko'rsatish maqsadidagi bir qiyosini shu o'rinda keltirish joiz. Uning fikricha, til birliklarining kommunikativ vazifani bajarishdagi ishtiroti darajasi ham til sistemasini pog'onalashtirish (stratififikatsiya) uchun asos hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqqan holda u til sistemasidagi sathlarni ajratish va asoslashning maqbul tamoyillaridan biri til strukturasini bilim strukturasi bilan qiyoslash bo'lishi mumkinligini aytadi. Uningcha, insoniyat to'plagan bilimlarning hajmi favqulodda ulkan va bu bilim muayyan tarkiblanishga ega. Bilim strukturasi modelida eng yuqori umumlashgan sathni shartli ravishda "dunyo haqidagi jami bilim" deyish mumkin. Dunyo haqidagi jami bilim konkret fanlar bilim sohasiga (tilshunoslik, fizika kabi), shuningdek, kundalik turmush bilimlariga ajraladi, bu eng yuqorida keyingi quyi sath bo'ladi. Har qanday bilim sohasidagi konkret bilim hamisha tarkiblangan bo'ladi. U ayrim ilmiy qoidalar (nazariyalar) va faktlar – mazkur modelda yana bir sathni tashkil etuvchi "bilim fragmentlari" dan tarkib topadi. Bilim fragmentlari, o'z navbatida, mazkur modelda yana bir alohida sathni tashkil etuvchi ayrim hukmlar – muayyan obyektlar va ular o'rtasidagi

⁵⁸ Блок М.Я. Теоретические основы грамматики. –М.: Высшая школа, 1986, с. 47.

munosabatlar haqidagi bilimlardan tuziladi. Hukmlar esa bilimning yanada quyi sathini yuzaga keltiruvchi tushunchalar – obyektlar yoki ular o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi elementar bilimlardan hosil bo‘ladi. Tushunchalar, o‘z navbatida, keyingi sath elementlarini yuzaga keltruvchi tugallanmagan tushunchalar – obyekt yoki munosabatlar haqidagi tugallanmagan bilimlardan tashkil topadi. Keyingi, aytish mumkin bo‘lsa, so‘nggi sath esa tushunchalarni farqlash sathidir.

Ana shu mulohazalardan keyin O.L.Kamenskaya til kommunikatsiya vositasi sifatida ayni paytda bilimni namoyon qilish (obyektivatsiya) usullaridan biri ekanligiga suyangan holda, “til sistemasi strukturasi muayyan darajada bilimning umumlashgan strukturasi bilan o‘xshash bo‘lishi tabiiy”ligini ta’kidlaydi. U shu asosda bilim strukturasidagi pog‘onalashtirish bilan til sistemasidagi pog‘onalashtirish o‘rtasida mutanosiblik borligini aniqlaydi. Buni u quyidagi jadval shaklida umumlashtirган:

| Sath N | B i l i m s a t h l a r i | T i l s a t h l a r i |
|--------|-----------------------------|-------------------------|
| 6 | Dunyo haqidagi jami bilim | Matnlarning butun jami |
| 5 | Bilim sohasi | Matnlar turkumi |
| 4 | Bilim fragmenti | Matn |
| 3 | Hukm | Gap |
| 2 | Tushuncha | Leksik |
| 1 | Tugallanmagan tushuncha | Morfologik |
| 0 | Tushunchalarni farqlash | Fonologik |

Ko‘rinib turganiday, O.L.Kamenskaya tegishli bilim sathlariga mutanosib ravishda til sistemasida ygettita sathni farqlaydi. Ammo bu mulohazalarda muayyan mantiq mavjud bo‘lsa-da, “matnlarning butun jami” va “matnlar turkumi” ni alohida eng yuqori til sathlari sifatida ajratish munozaralidir. O‘ylab ko‘rilsa, “matnlarning butun jami” degani umuman til degani bo‘lib chiqadi, “matnlar turkumi” esa u yoki bu sohaning tili (uslubi)ni nazarda tutayotganini sezmaslik mumkin emas. Tilning sathlari haqida gap borar ekan, tilning o‘zini ham alohida, mustaqil pog‘ona tarzida talqin etish, har holda, muayyan bir sistema birliklarini pog‘onalashtirish mantig‘iga zid ekanligini isbotlashning hojati yo‘q.

Bu o‘rinda shuni ham eslab o‘tish mumkinki, Amerika deskriptiv tilshunosligining ba’zi vakillari ishlarida matn til strukturasi sathlari qatoriga kiritilmaydi, ularning ba’zi birlari esa matn strukturasini til strukturasi bilan tenglashtiradilar.⁵⁹ Albatta, bunday qarash ham munozaralidir, agar til

⁵⁹ Тураева З.Я. Категория времени. Время грамматическое и время художественное. -М.: Высшая школа, 1979, с. 35.

strukturasi matn strukturasi bilan teng deb qaralsa, unda til deyiladigan benihoya murakkab va o'ziga xos sistema juda jo'n va kichik bir narsaga aylanib qolgan bo'lardi. Matn har qanday nutqiy kommunikatsiyaning bosh, oliv birligi sifatida muayyan bir murakkab, ayni paytda to'liq ma'nodagi belgidir. Yaxlit til sistemasini belgi bilan tenglashtirish jiddiy ilmiy-nazariy asosga ega bo'lolmaydi.

O.L.Kamenskayaning o'zi ham, ilgari aytib o'tilganiday, boshqa tadqiqotchilar ham⁶⁰ har qanday nutqiy kommunikatsiyaning bosh, asosiy birligi matn ekanligini muntazam ta'kidlaydilar. Tugal axborot jarayoni matn shaklida namoyon bo'ladi. Tilning boshqa quyi sathlari birliklari esa kommunikatsiyada bilvosita, ya'ni matn tarkibiga kirgan holdagina ishtirot etadi. Shuning uchun ham matnni til sathlari pog'onalarining eng yuqori pog'onasi birligi sifatida talqin etish tilshunoslikda barqrarorlashib bormoqda.

Bu o'rinda shunday savol ham tug'ilishi mumkin: mazkur eng yuqori sathni matn sathi degan ma'qulmi yoki boshqacha nomlash maqsadga muvofiqmi? Til sistemasining fonologik – morfologik – leksik – sintaktik sathlar tarzidagi ierarxiyasining davomi - yuqori pog'onasi sifatida matn sathi ajratilsa, bu sath sintaktik sathdan tamomila farqli bir sath maqomida bo'lib qoladi. Aslida bu sathda ham sintaktik mohiyat mavjud. Zotan, sintaksisning faqat gap doirasi bilan cheklanishi to'g'ri emasligi, umuman, "sintaksis nutq tuzish haqidagi fan" (O.V.Dolgova) ekanligi e'tirof etilar ekan, tabiiyki, matnni sintaksisidan tamoman tashqariga chiqarib bo'lmaydi.

Rus tilshunosi G.A.Zolotova "Matn sintaksisi" ilmiy maqolalar to'plamiga mas'ul muharrir sifatida yozgan kirish so'zida shunday ta'kidlaydi: "Tabiiyki, sintaksis so'zi matnga nisbatan tor grammatic ma'noda emas, balki anchayin keng ma'noda qo'llanadi. Chunki bunda gap doirasidan tashqariga chiqadigan aloqlar ham, ayni paytda nutqiy butunliklar va ularni tashkil etuvchi qismlar konstruktivligi, bog'langanligi belgilaringen realizatsiyasi ham nazarda tutildi. To'plamda gap sintaksisining matn sintaksisi bilan munosabati masalalari ham ko'tarilgan".⁶¹

Ana shularni inobatga olganda, til sistemasining oliv sathi sifatida ajratiladigan sathni matn sathi deb emas, balki makrosintaktik sath deb nomlash maqsadga muvofiq ko'rindi. Demak, matn til strukturasida alohida – oliv sintaktik sath bo'la oladi. Umuman, til sistemasidagi sathlarning pog'onalanishini quyidagicha ko'rsatish mumkin: fonologik sath – morfologik sath – leksik sath – mikrosintaktik sath – makrosintaktik sath Matn ana shunday makrosintaktik sathga oid hodisa sifatida benihoya murakkab va o'ziga xos butunlikdir. Shuning uchun ham matn lingvistikasi muammolari bilan shug'ullangan olimlar tomonidan matnning turlicha

⁶⁰ Колшанский Г.В. Контекстная семантика. -М.: Наука, 1980, с. 62; Дридзе Т.М. Язык и социальная психология. -М.: Высшая школа, 1980, с. 49..

⁶¹ Синтаксис текста. -М.: Наука, 1979, с. 4.

ta’riflari ilgari surilgan. Benihoya katta miqdordagi lingvistik adabiyotlarda bir-biridan anchayin keskin farqlanadigan definitsiyalarni ham uchratish mumkin. Misol tariqasida yuqorida tahlil etib o’tganimiz - matnning yozma yoki og‘zakiligi, uning tilga yoki nutqqa oidligi haqidagi bahslarni eslashning o‘zi kifoya. Mazkur ta’riflarda bu murakkab va serqatlam butunlikning barcha jihatlari to‘lasicha qamrab olingan, unga xos mohiyat har taraflama va xolis ochib berilgan, yagona, yaxlit umumlashmalar qilingan deyishga hali erta. Z.Y.Turayeva juda o‘rinli qiyoslaganidek, “so‘z” va “gap” tushunchalarini ta’riflashga urinish necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa, bugun ular qatoriga “matn” tushunchasi ta’rifini ham qo‘sish mumkin.

Albatta, matn gapdan yirik sintaktik birlik, shuning uchun ham uning tarkibida birdan ortiq gapning bo‘lishi tabiiy. Ammo bu birdan ortiq gaplarning bir-biri bilan munosabati qanday bo‘ladi?

Amerika tilshunoslari Kats va Fodor konsepsiyasiga ko‘ra, matn – bu, aslini olganda, “gap-yadro” tarzidagi qismlari o‘zaro pronominal va bog‘lovchi so‘zlar yordamida bog‘langan “uzun gap”dir.⁶²

Bu “uzun gap”, ya’ni matn qismlari bo‘lmish gaplar o‘rtasida grammatis, mazmuniy-mantiqiy va yana bir qancha jihatlardan bog‘lanishlilikning mayjudligi matn tadqiqotchilarining deyarli barchasi tomonidan qayd etiladi. Masalan, chex tilshunosi K.Kojevnikova matn muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qarashlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, faqat bir masalada, ya’ni “matnni bog‘lanishliliksiz tasavvur etib bo‘lmasligi borasida mutlaq yakdillik kuzatilishi”ni ta’kidlaydi.⁶³

Yana bir chex tilshunosi D.Brchakova bog‘lanishlilik kommunikatsiyaning aosiy shartlaridan biri ekanligini, muayyan qismi oldingi qismlardagi axborot oqimini o‘z ichiga olgan, mavzuiy birlik namoyon bo‘lgan matn bog‘lanishli bo‘lishini aytib quyidagilarni yozadi: “Bog‘lanishlilik semiologik kategoriya sifatida matnning lingvistik tahliliga daxldor universaliyalar sirasiga kiradi. Uni birdan ortiq gapdan tashkil topgan matn parchasida ko‘rish mumkin. Bog‘lanishlilikning mohiyati bir mavzu haqidagi axborotni matnning bir segmentidan ikkinchisiga o‘tkazishdir.”⁶⁴ Albatta, bog‘lanishlilikning bunday talqinida sintaktik jihat inkor etilmasa-da, har holda, mazmuniy-mantiqiy yondashuv birinchi planga chiqqan. Bu o‘rinda matnning bog‘lanishliliqi bilan bevosita aloqador matnning yaxlitligi masalasi ham alohida diqqatga molik. Zotan, muayyan butunlikni tashkil etadigan barcha unsurlar o‘rtasida bog‘lanishlilikning mayjudligi natijasi o‘laroq bu butunlikning yaxlitligi yuzaga keladi.

⁶² Келеман Я. Текст и значение / Семиотика и художественное творчество. -М.: Наука, 1977, с.120.

⁶³ Кожевникова К. Об аспектах связности в тексте как целом / Синтаксис текста. -М.: 1979, с. 50.

⁶⁴ Брчакова Д. О связности в устных коммуникатах / Синтаксис текста. -М.: 1979. -С. 250- 260.

Vengriyalik olim Z.Kano nemis tilshunosi X.Izenbergning fikrlariga suyangan holda matnning chegaralanganligi, yopiqligi haqidagi masala matn nazariyasining asosiy masalalaridan biri ekanligini aytadi. Uningcha, agar matnning har ikki tomonidan qandaydir bir tarzda yopiq ekanligini isbotlab bo‘lmasa, maxsus til strukturasi bo‘lgan matn haqida gapirish mushkul.⁶⁵ Shubhasizki, matn alohida va mustaqil birlik bo‘la olishi uchun uning boshlanish va tugallanish chegarasi bo‘lishi shart, ana shu ikki tomondan bo‘ladigan chegaralar orasidagi qism yaxlit butun bo‘la oladi. Shuning uchun ham aksariyat matn tadqiqotchilar bog‘lanishlilik va yaxlitlikning matnning ontologik xususiyatlari sirasiga kiritishni ma’qul deb biladilar. Ayni paytda ular yaxlitlik, eng avvalo, mazmuniy kategoriya bo‘lsa-da, ham sintaktik, ham ma’noviy bog‘lanishlilikka asoslanishini ta’kidlaydilar.⁶⁶ Ammo shuni ham aytmoq kerakki, sintaktik bog‘lanishlilik ham ma’noviy-mazmuniy bog‘lanishliliksiz yuzaga chiqsa olmaydi. Shunga ko‘ra bog‘lanishlilikni ham, yaxlitlikni ham matnning mazmuniy-sintaktik kategoriysi sifatida baholash maqsadga muvofiq. O.I.Moskalskaya matnning yaxlitligi, uni tashkil etuvchi unsurlarning zich bog‘langanligi hozirgi tilshunoslikda matnning kogerentligi (lotincha cohaerens – bog‘li, o‘zaro bog‘langan) nomini olganligini, bu tushuncha molekulyar fizikadagi kogeziya (ya’ni molekulalarning jismda bir-biri bilan qo‘shilishi) termini bilan ham juda obrazli bir tarzda ifodalanishini aytadi va shunday yozadi: “Matnning kogerentligi faqat mazmuniy hodisa emas. U bir paytning o‘zida o‘zaro shakl, mazmun va funksiya munosabatida bo‘luvchi struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitliklar sifatida namoyon bo‘ladi”. Matnning alohida oliy kommunikativ birlik sifatida yashashi ham ana shunga ko‘radir. Bog‘lanishlilik va yaxlitlikni matnning ontologik, ya’ni mavjudlik belgisi deb ta’kidlanishi ham bejiz emas.

O‘zbek tilidagi matn muammolari bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham matn tarkibidagi bog‘lanishlilikka, grammatic va mazmuniy umumiylilikka ko‘ra uzvlarning birikuviga alohida urg‘u beradilar: “Matn - sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig‘indisidan iborat. Matn o‘ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo‘lgan nutqning eng yirik ifodasidir”.⁶⁷

Tilshunoslikda matnga berilgan juda ko‘p va xilma-xil ta’riflarning deyarli barchasida ayni shu bog‘lanishlilik va yaxlitlik belgisi u yoki bu tarzda o‘z ifodasini topgan. Masalan, nemis tilshunosi V.Dressler “Matn

⁶⁵ **Каньо З.** Заметки к вопросу о начале текста в литературном повествовании / Семиотика и художественное творчество. -М.: Наука, 1977, с. 229.

⁶⁶ Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. -М.: Наука, 1988, с. 137. Звегинцев В.А. О цельнооформленности единиц текста // Изв. АН СССР. Сер. лит-ры и языка. 1980, N 1, с. 13-24.

⁶⁷ Мамажонов А., Абдулпаттоев М. Матн синтаксиси. -Фаргона, 2002, 4-б.

sintaksisi” nomli maqolasiga X.Vaynrixning “Matn – bu, shubhasiz, shunday butunlikki, unda barcha narsa o‘zaro bog‘langandir” shaklidagi ta’rifini epigraf qilib olgan.⁶⁸ Yoki boshqa bir tadqiqotchining matnga bergan ta’rifi mana bunday: “Yaxlitlikni nazarda tutgan holda zamon yoki makonda joylashtirilgan gaplarning har qanday ketma-ketligi matn hisoblanadi”.⁶⁹

V.A.Zveginsev bir-biri bilan hech qanday aloqasi bo‘Imagan gaplarni bir butunlik tarzida birlashtrib bo‘lmasligini, agar shunday holatdagi gaplar birlashtirilsa, mutlaqo sun‘iy nutq yoki matn paydo bo‘lishimi, uning nutq mantig‘idan tashqarida qolishini aytadi.⁷⁰ Zotan, ona tili ta‘limida ham o‘quvchilarda bog‘li nutq tuzish malakasini shakllantirishda ana shu nutq mantig‘iga ayricha ahamiyat berilishi tasodifiy emas.

Chindan ham, ta’kidlab o‘tilganidek, struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitliklarni o‘zida mujassam etmagan nutq yoki nutq parchasi matn maqomini ola olmaydi. Quyidagi ikki parchani qiyoslaylik:⁷¹

I. *Jon do’sting jonidan kechsa ham, mol do’sting molidan kechmas. Qurbon cholning gapini eshitib hayron qoldi. Ra’noning yerga qaragan ko‘zi sekingga Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. Hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi. Humoyun hamma dardini aytib ko‘nglini bo‘satsin uchun Xonzoda begin uning so‘zini bo‘lmay toqat bilan jim tingladi. Chol podshoning oldiga borib, savoliga javob beribdi.*

II. *Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti Og‘ayni yulduzları o‘sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o‘tib, g‘arbga botib ketardi. O‘sha yerda ham Yetti Og‘ayni ufqqa bosh qo‘ygan sari Hulkar yulduzları osmonning baland joylariga chiqib borardi. Bobur o‘smirligida Hulkar yulduzlarını olmosdan yasalgan varrakka o‘xshatardi. Dumini quvnoq*

silkitib uchadigan olmos varrak uning xayolini yana musaffo bolalik yillariga olib ketdi. Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko‘rgan yulduzları umrining oxirida Agrada ham chaqnab turgani unga so‘nggi bir tasallidek tuyuldi. Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog‘lom yigitga aylanib, Andijon chorborg‘ining supasida yotganday bo‘ldi. Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladi (P.Qodirov).

Birinchi parchada 6 ta, ikkinchi parchada esa 8 ta gap bor. Ko‘rinib turganiday, har ikki parchadagi hech bir gap biron-bir jihatdan, na sintaktik, na semantik va na funksional jihatdan noqislikka ega emas. Mazkur

⁶⁸ Дресслер В. Синтаксис текста... с. 111.

⁶⁹ Кох В.А. Предварительный набросок дискурсивного анализа семантического типа / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. -М.: Прогресс, 1978, с. 162.

⁷⁰ Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. -М.: МГУ, 1976, с.181.

⁷¹ Mahmudov N. va boshq. Ona tili. 7-sinf. -Toshkent: Ma’naviyat, 2005, 35, 37-b.

gaplarning barchasi til qonuniyatlariga tamomila muvofiq tarzda tuzilgan. Bu gaplar alohida-alohida parchalarda ketma-ket joylashtirilgan. Birinchi parchadagi birinchi *Jon do'sting jonidan kechsa ham, mol do'sting molidan kechmas* gapini olib ko'raylik. Bu qo'shma gap benihoya ham sintaktik, ham mazmuniy lakonizmga ega bo'lib (zotan, u maqol), mazkur parchada avtosemantik holatadir. Undan keyin turgan *Qurban cholning gapini eshitib hayron qoldi* gapi ham mustaqil gap, ammo bu ikki gap o'rtasida na mazmuniy, na sintaktik munosabat bor. Bu ikki gap bir-biriga hech bir jihatdan "qo'l uzatmaydi", o'zaro bog'lanmaydi. Keyingi to'rt gap ham bu gaplar bilan ana shunday aloqasiz. Shunday ekan, mazkur 6 ta gapning ayni parchadagi ketma-ketligi tasodifiy, sun'iy (tabiiyki, darslikda metodik maqsad bilan bog'liq), ular yaxlit bir butunlikni yuzaga chiqara olmaydi.

Ikkinci parchadagi birinchi *Bobur ham bolaligi o'tgan Andijon osmonini esladi* gapni olib ko'raylik. Avvalo, gapdagi *ham* yordamchisining presuppozitsiyasiga ko'ra bu gapdan oldin ifodalananayotgan fikrga daxldor boshqa fikr bayoni mayjudligi anglashiladi. Ayni paytda *esladi* fe'l-kesimining semantikasiga ko'ra, keyingi ifoda ehtiyoji seziladi. SHu tarzda bu gap nafaqat mazmunan, balki grammatic jihatdan ham keyingi *Mana shu Yetti Og'ayni yulduzları o'sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o'tib, g'arbga botib ketardi* gapiga "qo'l beradi", uni taqozo etadi. Ayni shu keyingi gapdagi *o'sha yerda, Yetti Og'ayni yulduzları, Oltin Qoziq so'zleri* birinchi gapdagi *Andijon, osmon so'zleri* bilan ham mazmunan, ham grammatic aloqalanadi. Keyingi oltita gap ham bu gaplar bilan ana shunday zich munosabatda bog'langan, ya'ni sintaktik, semantik va kommunikativ yaxlit holatga kelgan. Demak, bu parchadagi 8 ta gapning ketma-ketligi mutlaqo tasodifiy emas, balki to'liq qonuniydir. Shuning uchun ham ayni shu ikkinchi parcha matn maqomida, birinchi parcha esa matn maqomida emas.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, **matnni gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida, til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq**. Bunday talqin, albatta, matnga xos boshqa turli xususiyatlar, belgilar, kategoriyalarning mayjudligini mutlaqo inkor etmaydi. Masalan, prospeksiya va retrospeksiya, konseptuallik, avtosemantika va sinsemantiya, informativlik, modallik, tugallanganlik kabi bir qancha kategoriylar mazkur ta'rifda ta'kidlangan bog'lanishlilik va yaxlitlik tushunchalari bilan u yoki bu darajada bog'liqidir. Bu kategoriylar matnning mohiyatiga daxldor mazkur ikki o'zak xususiyatning reallashuvida ishtirok etadi. Shuning uchun ham matn ta'rifida matnga xos bo'lgan barcha xossalarni, kategoriyalarni birma-bir aks ettirish uchun alohida bir zaruriyat yo'q. Zotan, har qanday ta'rifning bosh, asosiy maqsadi, qanday fanda

bo‘lishidan qat’i nazar, muayyan hodisaning tamal mohiyati va umumiy tabiatini ko‘rsatib berishni nazarda tutadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. L.M.Losevaning matnga bergan ta’rifi qanday?
2. I.R.Galperinning matnga bergan ta’rifi qanday?
3. Z.Y.Turayevaning matnga bergan ta’rifi qanday?
4. M.Hakimovning matnga bergan ta’rifi qanday?
5. R.A.Karimovaning matnga bergan ta’rifi qanday?
6. O.V.Dolgovaning matnga bergan ta’rifi qanday?
7. Diskurs termini nimani anglatadi?
8. O.L.Kamenskayaning matnga bergan ta’rifi qanday?
9. Amerika tilshunoslari Kats va Fodor konsepsiyasiga ko‘ra matn nima?
- 10.O‘zbek tilidagi matn muammolari bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlarning matnga bergan ta’rifi qanday?
11. M.Yo‘ldoshevning matnga bergan ta’rifi qanday?

MATN BIRLIKLARI

Tabiiyki, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo‘ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakkantirishi yoki matnni bo‘laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bir qarashda, matn birliklarini tayin etish, belgilash u qadar ham qiyin ish emasday tuyuladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham bu masalada matn lingistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko‘p va farqli qarashlar mavjud.

Biz matnga ta’rif berganda, ikki asosiy belgiga, ya’ni bog‘lanishlilik va yaxlitlikka alohida e’tibor berdik. Tabiiyki, bog‘lanishlilik va yaxlitlik gaplar o‘rtasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Deyarli barcha matn tadqiqotchilari bu ikki belgini hech vaqt nazardan qochirgan emas. Ayniqsa, g‘arb tilshunoslari tomonidan matnga berilgan ta’riflarda gaplarning ketma-ket bog‘lanishi, gaplar zanjiri matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olmasligi muntazam ta’kidlanadi. Masalan, golland tilshunosi S.Dik “gaplarning matniy zanjirida koordinatsiyaning oliy shakli”ni ko‘radi.⁷² Boshqacha qilib aytganda, mustaqil gaplarning oliy

⁷² Дресслер В. Синтаксис текста / Новое в зарубежной лингвистике. Вып.8. -М.: Прогресс, 1978, с.119.

darajadagi koordinatsiyasi (albatta, muayyan axborotni ifodalash maqsadi bilan) mahsuli o'laroq matn shakllanadi. Oliy darajadagi koordinatsiya, aniqliki, ayni matn deyiladigan butunlik, yaxlitligi paydo qiladigan gaplar o'rtasidagi barcha jihatlardan, ya'ni semantik, sintaktik, kommunikativ, estetik va yana boshqa barcha jihatlardan uyg'unlikdir, muvofiqlashuvdir. Gaplarning ana shunday o'zaro uyg'unligi, muvofiqlashuvining natijasi sifatida matn mavjud bo'ladi. Ana shu bir-ikki mulohazadan kelib chiqib, matnning asosiy birligi gapdir degan xulosaga kelish mumkin. Ammo gapni matn birligi sifatida baholash tilshunoslikda u qadar keng tarqalgan emas. Aksincha, bu borada bahsli yondashuvlar anchagini.

Aksariyat tilshunoslardan gapni matn birligi emas deb hisoblaydilar. Masalan, I.R.Galperin gap emas, balki bir qator gaplarni birlashtiradigan nisbatan yirik butunlik – frazadan katta butunlik matn birligi bo'la olishini aytadi. U gap ana shunday butunlikda konstituent sifatida ishtirot etishini, frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan gap bir paytning o'zida yaxlit matnning ham tarkibiy qismi bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

Ayni shu frazadan katta butunlikni matnning asosiy birligi sifatida baholash deyarli barcha tilshunosliklarda keng tarqalganligini ta'kidlash mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham mazkur tushunchani ifodalash uchun bir qator farqli terminlar qo'llanmoqda. Masalan, A.Mamajonov dastlab "yirik sintaktik birlilik"⁷³ terminini qo'llagan bo'lsa, keyinroq muntazam ravishda "superfrazali sintaktik birlilik"⁷⁴ terminidan foydalanadi. Matnning stilistik muammolariga alohida e'tibor bilan qaragan I.Rasulov va H.Rustamovlar esa "murakkab sintaktik butunlik" terminini ma'qul ko'radir.⁷⁵ O'zbek matnidagi ana shunday birliklarni monografik tarzda tadqiq etgan M.Abdupattoyev "supersintaktik butunliklar" terminini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.⁷⁶ Biz ham hodisa mohiyatini anchayin to'g'ri va xolis aks ettiradigan atama sifatida ana shu "supersintaktik butunlik" terminini ma'qul ko'ramiz.

M.Abdupattoyev mazkur nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi matnda supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik-uslubiy xususiyatlarini ilmiy asoslab bergan. Shuni ham aytish kerakki, tadqiqotchi supersintaktik butunliklarning matn tarkibidagi chegaralarini belgilash, ularni ajratish prinsiplarini (semantik, grammatic va kompozitsion-stilistik) ishlab chiqqan. Shu asosda matndagi bir kichik mavzuning tugallanib, yangi bir mavzuga o'tilishi supersintaktik butunlikning

⁷³ Мамажонов А. Йирик синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, №5, 62-б.

⁷⁴ Мамажонов А. Текст лингвистикиаси. –Тошкент, 1989, 27-б.

⁷⁵ Расулов И. Мурakkab синтактик бутунлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, №1, 22-б; Шомаксадов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 223-227-б.

⁷⁶ Абдулпаттоев М.Т. Ўзбек матнida supersintaktik butunliklar: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. -Тошкент, 1998.

strukturasini belgilovchi omillardan biri ekanligini, bu butunlikni tashkil etuvchi nisbiy mustaqil gaplar orasida mustahkam semantik-grammatik aloqa mavjudligini, ayni shu aloqa supersintaktik butunlikning semantik-struktural yaxlitligini ta'minlashini juda to‘g‘ri ta’kidlagan.

Tabiiyki, supersintaktik butunlikning shakllanishida gaplar ishtirok etadi, buni hech kim inkor etmaydi. Lekin ikki yoki undan ortiq gapning o‘zaro birikib, muayyan bir butunlikni shakllantirishi shunchaki bir oddiy jarayon emas, balki benihoya murakkab va serqatlam hodisadir. Ana shunday gaplar yig‘indisini yaxlitlashtiradigan bir qator omillar mavjud. Ayni shu masala borasida fikr yuritgan tadqiqotchilarning aksariyati (I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, Z.Y.Turayeva, L.M.Loseva, A.Mamajonov, M.To‘xsanov, M.Abdupattoyev va boshqalar) yagona kichik mavzuning mavjudligi, shu asosda gaplar mazmunining umumiyligi va o‘zaro uyg‘unligi, semantik-grammatik va kommunikativ yaxlitlik kabi jihatlarni ana shunday omillar sifatida qayd etadilar. Masalan, quyidagi parchada mazkur omillarning barchasi mavjud, shuning uchun ham uni alohida supersintaktik butunlik deyish mumkin: *Kishi ortiqcha qo‘rqanda gangib a’zosi harakatsiz va og‘riq holga tushadirkim, albatta, buni biz qattiq qo‘rqqandan deb bilamiz. Darhaqiqat, bizning qarshimizga yo‘lbars chiqsa, biz qattiq qo‘rqamiz, chunki bizni o‘lim kutadir, inson uchun dunyoda o‘limdan qo‘rquinch narsa yo‘q. Binoan alayhi biz bundagi qo‘rquvni tabiiy hisoblaymiz. Ammo qizig‘i shundakim, bizni dunyo baxti kutganda, bizga saodat bashorati berilganda nega biz o‘lim kutgandagi holga tushamiz va uzviy tashkilotimiz birinchidagi holatni kechiradir* (A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”).

Aytish mumkinki, supersintaktik butunliklarning matn birligi ekanligi haqida hech bir munozara yo‘q. Ular, shubhasiz, matning asosiy birligidir.

Ayrim tilshunoslar matnda supersintaktik butunliklar tarkibiga kirmaydigan yakka gaplar ham mavjudligini aytadilar va ularni “erkin” gaplar sifatida baholaydilar, shu asosda erkin gaplarni supersintaktik butunliklar qatorida matn birliklari deb hisoblaydilar. A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘zbek tili matnidagi ana shunday erkin gaplarni tahlil qiladilar, Said Ahmadning “Ufq” romanidan olingan quyidagi misolni keltiradi:

Dala toshni kuydirgan saraton haroratini bag‘riga yashirgan o‘sha mash‘um tutzor, azamat yigitning pahlavon ko‘ksiga bosh qo‘ygan qoq tush pallasi...

U damlar Dildorga katta baxt, tush kabi shirin hayot va ‘da qilgandi. Aldangan qiz hamon tush pallasi o‘zini unutgan daqiqalarning dardini tortardi.

Ayol kishiga vafo degan narsa qanchalar qimmatga tushishini ko‘plar hali bilmaydi.

Dildor hech kimni qoralay olmasdi. Faqat birgina o'zim aybliman deb bilardi. Agar u Nizomjonga bevafolik qilmaganda, bu kunlar boshiga tushmasdi.

Mualliflar ostiga chizilgan gapni ikkita abzasdan iborat birinchi supersintaktik butunlikka ham, oxirgi abzas shaklidagi ikkinchi supersintaktik butunlikka ham kirmasligini, shuning uchun ham erkin gap ekanligini ta'kidlaydilar. Aytish mumkinki, matndagi bunday erkin gaplar mazmuniga ko'ra ko'proq muallif izohi, muayyan yaqin mavzuni eslatishi, lirik chekinishi kabilarni ifodalashga xizmat qiladi.

Ba'zi tilshunoslar gapni uzil-kesil "matnning minimal birligi" deb hisoblaydilar.⁷⁷

Bu munosabat bilan M.Y.Bloxning mulohazalari alohida e'tiborga molik. Uning fikricha, yaxlit tekst strukturasining bevosita elementi faqat frazadan katta birlik (bizningcha, supersintaktik butunlik), ya'ni gaplarning qo'shilmasigina emas, balki ayni paytda matn tuzuvchi tomonidan mazmunan muhim maqomga qo'yilgan alohida gaplar hamdir. Bunday gaplarning ayni maqomi monologik yozma nutqda ularni alohida abzas sifatida ajratishni taqozo etadi. Bu fikrida u yuqorida aytigan erkin gaplarni nazarda tutganday tuyuladi. Ammo M.Y.Blox har qanday gapning matn tarkibidagi favqulodda ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. U aynan matn qurilishi nuqtayi nazaridan gap ifodalashning eng muhim (kardinal) unsuri ekanligini turli shakl va maqsadlardagi nutq (og'zaki, yozma, kundalik, professional, sokin, emotsiyonal va sh.k.)ni kuzatish asosidagi tadqiqotlar tasdiqlashini aytadi. U shunday deb yozadi: "Gap predikatsiyaning, ya'ni nutqning nominativ mazmunini real voqelikka nisbatlashning ifodachisi ekanligi haqidagi haqiqatni esga olishimiz bilan bu narsa oydin bo'ladi-qo'yadi. Matnning gapga alternativalar sifatida ko'rsatilayotgan "haqiqiy" birliklaridan birontasi predikatsiyani ifodalovchi o'z vositalariga ega emas. Bu shuni bildiradiki, matn gapdan tashqarida hukm va xulosalarni ifodalay olmaydi, ya'ni matn olamni anglangan holda aks ettirishning to'laqonli vositasi bo'lib xizmat qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi."

Bunga o'xshash fikrni boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham ko'rish mumkin. Masalan, rus tilshunosi G.V.Kolshanskiy gap subyekt-predikat munosabatini ifodalashi bilan matnda mazmunning mantiqiy fikr sifatida shakllanishiga imkon beruvchi mazmuniy-struktur birlik bo'lishini, gap "matnning asosiy (bazis) operativ unsuri" ekanligini alohida ta'kidlaydi.⁷⁸ Aytish mumkinki, matnning mazmuniy tarkibini, bu mazmunning obyektiv

⁷⁷ Баранов М.Т., Костяева Т.А., Прудникова А.В. Русский язык. –М.: Просвещение, 1989, с. 263. Абрамова С.В. Выражение связного текста в научной литературе на испанском языке / Лингвостилистические особенности научного текста. –М.: Наука, 1981, с.67-68.

⁷⁸ Колшанский Г.В. От предложения к тексту / Сущность, развитие и функции языка. –М.: Наука, 1987, с.40.

olam bilan nisbatlanishini, demakki, to‘g‘ri anglanishini gapsiz tasavvur etish mushkul.

Ko‘rinadiki, gapning matn sistemasidagi o‘rnini, ayniqsa, uning matn hosil qilish qobiliyatini aslo inkor etib bo‘lmaydi. Gapning matn hosil qilish xususiyati haqida gapirganda, mutaxassislar rus ritorikasi namoyandalaridan biri I.Davidovning “Gap dondir, undan butun asar unib chiqadi” tarzidagi juda obrazli qilib aytgan (1838 -yilda) gapini eslashadi.⁷⁹ Umuman aytganda, gap matn hosil bo‘lishida o‘ziga xos materialdir. Ana shular hisobga olinsa, matn birliklari sifatida supersintaktik butunliklar bilan bir qatorda erkin gaplarni tan olgan holda har qanday gapni ham ana shunday birliklar ichida qarash maqsadga muvofiq.

Matn lingvistikasi, xususan, matn birliklarini belgilashdagi eng munozarali va behad ko‘p tadqiq etilgan masalardan biri abzasning mohiyati, tabiatи va matn tarkibidagi maqomi masalasidir. Bu borada rus va Yevropa filologiyasida juda katta miqdordagi ilmiy ishlar yaratilgan. Ularning aksariyatida abzas va supersintaktik butunliklar o‘rtasidagi munosabat, umumiyligi va farqli jihatlar, ularning matndagi ahamiyatlilik darajasi kabi masalalar borasida bahs yuritiladi. Ammo oldindanoq alohida ta’kidlash zarurki, bizningcha, abzasni supersintaktik butunliklar bilan qiyoslash, ularni bir-biri bilan solishtirish ilmiy mantiq nuqtayi nazaridan unchalik asosli emas.

Tilshunoslikda abzas va uning mohiyati talqini masalasida bir-biridan farqli bir necha nuqtayi nazarni ko‘rish mumkin.

O.I.Moskalskaya supersintaktik butunlik va abzasni solishtirar ekan, supersintaktik butunlikning sintaktik mohiyatga ega hodisaligini, abzas esa kompozitsion sath birligi ekanligini ta’kidlaydi. Abzasning matnda kompozitsion-stilistik birlik maqomida bo‘lishiga boshqa tadqiqotchilar ham e’tiborni qaratadilar.⁸⁰

Bir qator tadqiqotchilar abzasning sintaktik struktura birligi bo‘la olmasligini aytadilar. Ularning fikricha, abzas til sistemasining birligi emas, shuning uchun unda boshqa sintaktik birliklardan farqlanishga xizmat qiladigan grammatik belgilar yo‘q, demakki, u alohida sintaktik birlik emas. Ana shundan kelib chiqib, ular abzasni sintaktik kategoriya deb hisoblamaydilar va shunday ta’kidlaydilar: “Matning sintaktik strukturasida so‘z birikmasi, so‘zlar qo‘shilmasi, gaplar, murakkab sintaktik butunliklardan boshqa hech qanday birlik yo‘q.”⁸¹ Ayni paytda ular abzasning yozma nutq

⁷⁹ Одинцов В.В. Стилистика текста. -М.: 1980, с. 122.

⁸⁰ Сильман Т.И. Структура абзаца и принципы его развертывания в художественном тексте / Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. -Л.: Наука, 1975, с.208-216.

⁸¹ Лосева Л.М. Межфразовая связь в тексте монологической речи. –Одесса, 1969, с. 24; Свотина М.Г. Абзац как единица речевой практики / Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. -Л.: Наука, 1975, с. 205-208.

amaliyotida fikr idrokini qulaylashtirish maqsadida yozuvchi tomonidan ongли ravishda ajratiluvchi birlik ekanligiga alohida urg‘u beradilar.

Yana ayrim tilshunoslar supersintaktik butunlikni matnda sintaktik birlik sifatida qarash mumkin emasligini, faqat abzasgina matnda ana shunday maqom ola bilishini isbotlashga urinadilar. Masalan, ayni masalani nemis tili materialida o‘rgangan L.G.Fridman murakkab sintaktik butunlik o‘zining sintaktik birlik maqomini tayin etadigan tegishli ko‘rsatkichlarga ega emas deb hisoblaydi, shuning uchun uni grammatik birlik tarzida emas, balki bir qator mustaqil gaplarning mazmuniy umumiyligi asosida shakllanadigan mantiqiy-semantik butunlik tarzida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lishini aytadi. Muallif abzas stilistik, adabiy-kompozitsion birlik sifatida tadqiq etilgan ishlarda uni sintaktik birlik maqomini tayin etadigan belgilar yo ikkinchi planga surib qo‘yilishini, yoki umuman e’tibordan chetda qolishini tanqid qiladi. U abzasning mohiyati va maqomi haqida quyidagicha anchayin keskin fikrni ilgari suradi: “Nisbatan quyi sath birligi bo‘lmish gapdan farqlovchi relevant belgilar turkumiga ega bo‘lgan frazadan katta sintaktik birlik abzasdir deb hisoblaymiz... Abzasning kompozitsion birlik sifatidagi rolini inkor etmagan holda biz o‘ylaymizki, u eng avvalo sintaktik birlikdir, chunki abzasning aynan sintaktik tabiatini uning adabiy-kompozitsion birlik sifatida qo‘llanishi uchun imkoniyat yaratadigan bazis, asosdir.”⁸² Ko‘rinadiki, tadqiqotchi abzasni xuddi gap kabi sintaktik hodisa sifatida talqin qiladi va matnning asosiy birligi abzasdir degan fikrni qat’iy asoslashga harakat qiladi.

Bunday qarash, bu qadar keskin bo‘lmasa-da, boshqa tilshunoslarda, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bilan shug‘ullangan mutaxassislarda ham bor. Masalan, ana shunday yo‘nalishdagi ishlardan birida matn yaratishning majburiy unsuri sifatida abzas alohida ajratib ko‘rsatiladi, uning matn lingvistikasida o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lgan to‘laqonli birlik ekanligi ta‘kidlanadi va shunga asoslangan holda abzas “katta matn” ichidagi “kichik matn” degan xulosaga kelinadi, uning “abzas-tahlil”, “abzas-tavsiif”, “abzas-kontrast”, “abzas-analog”, “abzas-ta’rif” kabi mazmuniy turlari ajratiladi.⁸³

Abzasni sintaktik hodisa sifatida tushunish yoki abzas va supersintaktik butunlik tushunchalarini qorishtirish turli tilshunosliklarda ancha-muncha uchraydi. Hatto muayyan bir asarda abzasning bir necha farqli talqinlarini ham uchratish mumkin. Masalan, I.V.Arnoldning “Hozirgi ingliz tili stilistikasi” kitobidagi “Matniy sath - abzas” nomli paragraf shunday boshlanadi: “Yozma nutqning bir xatboshidan ikkinchi xatboshigacha

⁸² Фридман Л.Г. К вопросу о сверхфразовых единицах / Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. -Л.: Наука, 1975, с. 216-217.

⁸³ Малевич В.Г., Скалабан В.Ф. Анализ иноязычного текста с методических позиций / Вопросы семантики и методики преподавания иностранных языков. -Минск: Наука и техника, 1982, с. 155-163.

bo‘lgan, murakkab sintaktik butunlik sifatida reallashgan va adabiy matnning nisbiy tugallangan qismini tashkil etuvchi bo‘lagi abzas deyiladi.”⁸⁴ Abzas nazariyasining ibtidosi A.M.Peshkovskiy ishlariga borib taqalishini, keyinchalik esa N.S.Pospelov, T.I.Silman va boshqa ko‘plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilganligini ta’kidlar ekan, muallif mazkur ta’rifidagi fikrlarini yanada oydinlashtiradi: “Abzas gapga nisbatan yuqori darajadagi sintaktik-intonatsion butunlikdir.” Ammo bir sahifadan keyinoq bu fikridan qaytganday bo‘ladi. U abzas tarkibidagi gaplarning grammatik va mazmuniy mustaqilligi turli yozuvchilarida, hatto bir yozuvchining turli janrdagi asarlarida ham turlicha bo‘lishini va shuning uchun “abzasning tipik strukturasi uchun misol keltirish umuman mumkin emasligi”ni ta’kidlaydi. Bir-ikki sahifalik misollar tahlili asosida dastlabki fikriga zid bo‘lgan mana bunday xulosaga keladi: “Shunday qilib, abzas jumlaning (fikr ifodasining) mantiqiy va emotsiyonal strukturasini grafik aks ettirganligi uchun uni fikr ifodasining kitobxon tomonidan idrok qilinishini engillashtiruvchi kompozitsion usul sifatida talqin qilish mumkin.”⁸⁵ Albatta, abzas bir paytning o‘zida ham “gapdan katta sintaktik-intonatsion butunlik”, ham “grafik-kompozitsion usul” bo‘lishi mumkin emas, ya’ni butunlik-birlik bilan usul boshqa-boshqa tushuncha va hodisalaridir.

Hozirgacha qarab chiqilgan abzas haqidagi mulohazalardagi asosiy nuqtalarni shunday guruhshtirish mumkin: 1) abzas - sintaktik birlik, 2) abzas sintaktik birlilik emas, balki 3) abzas – kompozitsion-stilistik birlik, 4) abzas – kompozitsion-grafik usul. Ko‘rinib turganiday, bu qarashlarning har biri boshqasini inkor etadi yoki to‘la e’tirof etmaydi. Abzasning sintaktik (umuman lingvistik) hodisa emasligini, u o‘z mohiyatiga ko‘ra bunday bo‘la olmasligini aksar tilshunoslar ta’kidlaydilar.⁸⁶ Ammo shunga qaramasdan, abzas va supersintaktik birlik (murakkab sintaktik butunlik) munosabati masalasida bahs-munozaralarning intihosi ko‘rinmaydi.

Bu o‘rinda supersintaktik birlik va abzasning farqli mohiyatga egaligini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar tilshunoslikda talaygina. Ammo ular orasida ikki maqola alohida diqqatga sazovor. Xususan, N.A.Levkovskayaning rus tili materiali va E.V.Referovskayaning fransuz tili materiali asosidagi maqolalarida bu muammoga o‘ziga xos tarzda

⁸⁴ Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. -Л.: Просвещение, 1973, с. 244.

⁸⁵ Талмакая Л.М. Экспрессивно-стилистическая функция членения на абзацы в предисловии к роману О.Уайльда “Портрет Дориана Грея” / Прагматико-функциональное исследование языков. – Кишинев: Штиинца, 1987, с. 131-138.

⁸⁶ Мухин А.М. Структура предложения и их модели. –Л.: Наука, с. 211; Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка. –М.: Высшая школа, 1973, с.380; Лосева Л.М. Как строится текст. –М.: Просвещение, 1980, с. 85.

yondashilgan va masalaning mohiyatiga daxldor konkret farqlarni birma-bir belgilashga harakat qilingan.⁸⁷

N.A.Levkovskayaning ko'rsatishicha, matnni bo'laklarga ajratish - ko'p aspektli murakkab jarayon, bu jarayon, umuman, ikki tomonlama xaraktyerga ega, ya'ni, birinchidan, u matnning funksional yo'naliши – matnning pragmatik maqsadi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv jarayon. Ikkinchidan, u matn ijodkorining niyati – muallifning pragmatik maqsadiga bog'liq bo'lgan subyektiv jarayon. Matnni bo'laklashda ana shunday, ya'ni matnning pragmatik maqsadi – muallifning pragmatik maqsadi tarzidagi o'ziga xos dixotomiya mavjud bo'ladi. Matnni aynan matnning pragmatik maqsadiga muvofiq bo'laklash mahsuli sifatida supersintaktik birlik yuzaga keladi. Matnni muallifning pragmatik maqsadiga ko'ra bo'laklash mahsuli sifatida esa abzas yuzaga keladi. Ana shunga ko'ra, tadqiqotchi supersintaktik birlik matnni obyektiv bo'laklash birligi ekanligini, uning fikriy tugallikka, mantiqiy butunlikka egaligini aytadi. Abzas esa matnni subyektiv bo'laklash birligi bo'lganligidan hamisha ham fikriy tugallikka sohib bo'lolmasligiga, abzas aksar hollarda kitobxonga ta'sir qilish samaradorligini oshirishning sof emfatik vositasi sifatida namoyon bo'lishiga alohida urg'u beradi. Maqola muallifi abzas ilmiy matnda struktur, semantik va kommunikativ butunlik maqomida bo'lsa-da, badiiy matnda, asosan, emfatik vazifa bajaruvchi vosita sifatida ishtirok etishimi ta'kidlaydi. Albatta, bu badiiy matnning o'ziga xos maqsad va vazifalari, xususiyatlari, umuman, yozuvchining kitobxonga estetik ta'sir qilishdan iborat pragmatik maqsadi bilan bog'liq ekanligi ma'lum. Badiiy matnda, tabiiyki, yozuvchining estetik niyati hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

E.A.Referovskayaning ilmiy kuzatishlarida ham abzas mohiyatidagi subyekтивликка asosiy e'tibor qaratilgan, uningcha, "abzas muallifning individual manerasiga muvofiq tarzda mavzuning mazmuniy rivojiga, supersintaktik birlik esa fikr ifodasining struktural shakllanishiga qaratilgan"dir.

Ko'rinaridiki, supersintaktik birlik va abzas o'rtasidagi farqni tayin etishda matnni bo'laklashning obyektiv va subyektiv omillaridan kelib chiqilsa, muammoning xolis yechimiga kelish mumkin. Chindan ham, matnni abzaslarga bo'lishda muallifning subyektiv maqsadi, fikr tarkibidagi nimani, qanday, qay tarzda ta'kidlash hal qiluvchi rol o'ynaydi. To'g'ri, ilmiy matnda fikrning mantiqiy oqimini tabiiy ifodalash muhim, shuning uchun supersintaktik birlik va abzas, asosan, mos keladi. Ammo hatto ilmiy matnda ham muayyan holatlarda tadqiqotchingin fikrni bitta-bitta, "hijjalab", ta'kidlab ko'rsatish maqsadi bilan bir supersintaktik birlik bir necha

⁸⁷ Левковская И.А. В чем различие между сверхфразовым единством и абзацем // Филологические науки, 1980, №1. -С. 75-78; Реферовская Е.А. Сверхфразовое единство и абзац / Теория языка. Методы его исследования и преподавания. -Л.: Наука, 1981. -С. 225-228.

abzaslarga bo‘lingan holda ifoda qilinishi ham mumkinki, bu holat muallif fikrining anglanishini aslo qiyinlayshtirmaydi, aksincha, yanada qulaylashtiradi, xolos. Masalan, tilshunoslikka oid quyidagi ilmiy matn parchasiga e’tibor beraylik:

Semantik maydon nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, zid ma’noli so‘zlarning funksional-semantik xususiyatlari bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlarga duch kelamiz.

Semantik maydon uzvlari o‘rtasidagi zidlanishlar ko‘lami antonimlar doirasiga qaraganda keng va ko‘p qirralidir.

Shu ma’noda antonimlarga maydon uzvlari o‘rtasidagi zidlanishning bir ko‘rinishi sifatida qarash mumkin. Semantik maydonda leksemalararo zidlanishdan tashqari guruuhlar, mikromaydonlar, hatto yirik qurilmalararo ziddiyatlarning ham mavjudligi kuzatiladi (Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish.- Toshkent: Ma’naviyat, 2004, 152-b.).

Parcha uch abzasdan iborat, ammo bitta supersintaktik birlik mavjud. Buni har uch abzasdagi gaplarning bir-biriga ham mazmuniy-sintaktik, ham mantiqiy bog‘lanishini ta’minlagan mushhtarak so‘zlar va bog‘lovchi vositalar hamda fikriy tugallanganlik ko‘rsatib turibdi.

Rasmiy matnlarda, masalan, qonun hujjatlarida bir supersintaktik birlikkina emas, hatto ayrim gap ham bir necha abzaslarga bo‘lingan holda berilishi mumkin. Bu ham, albatta, tegishli ta’kid, fikr bo‘laklarini ajratib ko‘rsatish maqsadi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan:

186-modda. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish

Tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa - eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘scha harakatlar odam o‘lishiga sabab bo‘lsa - uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘scha harakatlar:

a) odamlar o‘limiga;

b) boshqacha og‘ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lsa - yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2001, 99-b.).

Ko‘rinib turganiday, matnda uchta gapdan iborat bitta supersintaktik birlik mavjud, ammo ular sakkizta abzasga ajratilgan holda berilgan.

Badiiy matnda esa abzaslarning bunday tuzilishi, bir supersintaktik birlikning bir necha abzaslarda ifodalaniishi yozuvchining badiiy-estetik niyati bilan bog‘liq holda juda ko‘p kuzatiladi. Quyidagi misollarda buni ko‘rish mumkin:

Otaqo'zi millioner raiislarga xos viqor va dabdaba bilan qo'qqisdan "bostirib" keldi. Domla Shomurodov mashina ovozini eshitib ko'chaga chiqqanida darvoza oldida biri og, biri havorang ikkita "Volga" qator turardi. Ketma-ket "Gazik" kelib to'xtadi.

Oq "Volga"dan oldin Otaqo'zi, uning ketidan sipogina kiyungan, xushbichim bir odam, havorang "Volga"dan esa Otaqo'zining qizi Tohira tushdi (O.Yoqubov, "Diyonat" romani).

...Hozir Mahkam Gavharning intilishlarini o'z intilishlariday tushunib, ko'ksida bir emas, ikki yurak urib turganday kuch, ishonch sezayotgan bir paytda ko'ngli ham g'ubordan tez tozalanardi.

Gavharda esa Mahkamning sevgan ishiga hurmat o'tgan yiliyoq paydo bo'lgandi. U Mahkamning kelajagiga qarab, bolalarga tarbiya beruvchi oljanob bir o'qituvchini ko'z oldiga keltirardi (P.Qodirov, "Uch ildiz" romani).

Keltirilgan har ikki parchada bittadan supersintaktik birlik mavjud, ammo bu birliklar ikki abzas tarzida ifoda qilingan. SHubbasizki, bu yozuvchining badiiy-estetik niyatiga uyg'un holatda tegishli fikr bo'laklarini ta'kidlashga, kuchaytirishga xizmat qilgan. Ana shu bir-ikki misolning o'ziyoq abzasni supersintaktik birlik bilan solishtirish maqsadga muvofiq emasligini yana bir marta ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning aksariyatida matn birliklari haqida gap borganda, shunday birliklar sifatida, asosan, jumla, murakkab sintaktik butunlik va abzas sanab o'tiladi.

Ayrim tadqiqotchilar, masalan, nemis tilining yirik tadqiqotchisi V.G.Admoni abzasning eng avvalo grafik butunlik ekanligini ta'kidlaydi, chunki yozma matnda abzasni ajratib ko'rsatish uchun uning har ikki tomonidan biroz ochiq joy qoldiriladi, bu uning grafik chegarasi hisoblanadi. Olim keyingi yillardagi nemis nashrlarida abzasni ajratib ko'rsatuvchi mazkur ochiq joy o'rniiga abzaslar o'rtasida (vertikal) bir qator tashlab ketish usulidan foydalanish ham kuzatilayotganini aytadi.⁸⁸

Rus tilshunosligida abzasni punktuatsion vositalar sistemasi ichida qarash an'anasi ham mavjud. Masalan, A.N.Gvozdev tinish belgilarini sharhlar ekan, shunday yozadi: "Vazifasiga ko'ra abzas tinish belgilari sirasiga kiradi... Abzas yangi fikrlar qatorining ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi; abzas ichida mustaqil gaplar bilan ifodalangan fikrlar baribir mazmunan birlashgan bo'ladi va muayyan kichik mavzuni rivojlantiradi... Bir necha gap yoki hatto bitta gapni alohida abzas sifatida ajratish bu gaplarga muayyan salmoq baxsh etadi, bunday ajratish muallif tomonidan o'z maqsadiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi."⁸⁹

⁸⁸ Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. -Л.: Наука, 1973, с. 356.

⁸⁹ Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. Ч. II. Синтаксис. -М.: Просвещение, 1968, с. 331. **Современный русский литературный язык.** Синтаксис. Под ред. Д.Э. Розенталя. -

Matn lingvistikasining yirik taddiqotchilaridan biri I.R.Galperin ham bundan ellik yillar burun nashr yettirgan bir kitobida abzas xuddi tinish belgilari kabi matndagi mantiqiy va emotsiyonal jihatlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladigan vosita, kompozitsion-grafik usul ekanligini asoslagan.⁹⁰ Ta'kidlash joizki, I.R.Galperin ham, I.V.Arnold kabi (uning fikrini yuqorida keltirdik) abzasni matnda (albatta, yozma matnda) birlik emas, balki muayyan fikrni ta'kidlash, emotsiyallikni kuchaytirish, muhim jihatni ajratib ko'rsatish usuli ekanligini ta'kidlaydi.

Bizningcha, abzasni matn birligi sifatida talqin qilish tegishli mantiqiy asosga ega emas. Bunday talqin aslida matnning mohiyatini belgilashdagi bir yoqlamalik bilan bog'liq bo'lsa kerak. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bir qator mutaxassislar faqat yozma shakldagi nutqni matn deb hisoblaydilar. Ana shunga ko'ra, yozma nutqqagina xos bo'lgan abzas tushunchasi matn birliklari doirasiga olib o'tilgan bo'lishi tabiiy. Holbuki, matn og'zaki ko'rinishga ham ega bo'laverishi mumkin. Shuning uchun ham abzasning lingvistik belgilarini izlashga urinishlar bor, ammo ilmiy asosli natijalar hali qo'nga kiritilgani yo'q.

Hatto yozma nutqda ham abzas mutlaqo obyektiv hodisa emas, balki ko'proq subyektiv munosabat mahsuli ekanligi bu sohadagi adabiyotlarning yuqoridagi ancha batafsil sharhidan ma'lum bo'lib turibdi.

Ana shulardan kelib chiqilsa, abzasni matn birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emasligi ayon bo'ladi. Ammo yozma matnda abzas degan hodisa bor, uni o'rganish kerak. Faqat abzasni yozma nutqdagi matn birligi sifatida emas, balki yozma matndagi o'ziga xos kompozitsion-stilistik usul (aynan usul, birlik emas) tarzida tadqiq etish xolis ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Atoqli tilshunos Y.Tojiyev ham "Matnga yondashuv" maqolasida matn birliklari borasidagi fikrlarini bayon qiladi: "Bizningcha, gap va super sintaktik butunlik parallel holda matn birligi bo'lishi mumkin. Matn birligi sifatida yo gap yoki supersintaktik butunlikdan biri bo'ladi, deyish to'g'ri emas, albatta. "Supersintaktik butunlik M.Yo'ldoshevning qarashlari bo'yicha talqin qilinsa (u to'g'ri belgilagan ko'rindi), abzaslardan ham tashkil topishi mumkin".⁹¹

Mazkur mulohazalarga asoslanib aytish mumkinki, **supersintaktik birlik va gapni matnning asosiy birliklari deb hisoblash maqsadga muvofiq**.⁹²

М.: Высшая школа, 1976, с. 218; **Бабайцева В.В.** Русский язык. Синтаксис и пунктуация. -М.: Просвещение, 1979, с.260.

⁹⁰ Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. -М., 1958. -С. 226-230.

⁹¹ Тожиев Э. Матнга ёндашув // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. -Тошкент: Академнашр, 2010. -Б.197-205.

⁹² Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. -Тошкент:Фан, 2008.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. I.R.Galperinning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
2. A.Mamajonovning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
3. M.Abdupattoyevning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
4. M.Y.Bloxning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
5. O.I.Moskalskayaning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
6. Nemis tilshunosi L.G.Fridmanning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
7. Ingliz tilshunosi I.V.Arnoldning fikricha, qaysi birliklar matnning birligi bo‘la oladi?
8. Abzas matnning birligi bo‘la oladimi?
9. Qaysi birliklarni matnning asosiy birliklari deb hisoblash maqsadga muvofiq?

MATN TIPLARI

Matn tiplarini ajratish, belgilash masalasi ham matn lingvistikasining markaziy muammolaridan hisoblanadi. Quyida buni alohida ko‘rib chiqamiz.

Matn hajm va mazmun belgisiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1.Hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari. 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko‘ra matn tiplari.

1.Hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari

Matn gapdan ko‘ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko‘rinishidir. Matnni hajm belgisiga ko‘ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ayrim adapbiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o‘rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnomalar, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e’lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O‘rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she’r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi».⁹³ Lekin bu tarzdagi bo‘linish ayrim chalkashliklarni yuzaga chiqaradi. Shunday dostonlar borki, hajm jihatidan

⁹³ Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. -Бухоро: Бухоро университети, 2000, 6-7-б.

romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan balki, ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham uncha-muncha romandan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» kabi go‘zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. Yoki kichik hajmli she’rlarni ham o‘rta matn hisoblaymizmi? Umuman bu tarzdagi tasnif jiddiy asosga ega emas. Shuning uchun matnni tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajratib tekshirish tamoyili asosida o‘rganishni ham mantiqan, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Badiiy uslubda **minimal matn** deyilganda biror mavzuni yoritishga bag‘ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalandaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniyaturlar, hajviy asarlar, nomalar, she’r va she’riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog‘lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o‘xshaydi. Yong‘oqdek tuxum tug‘adi-da, qaqqog‘lab olamni buzadi! (O‘.Hoshimov)⁹⁴

Yoki: **Sevgi nima?** *Insoniyat paydo bo‘ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sirasrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo‘lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig‘magani uchun ham sirli va abadiydir* (O‘.Hoshimov).

Mikromatn deb atash mumkin bo‘lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog‘liq so‘zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqqog‘lamoq). Iste‘dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o‘xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o‘xshatishni to‘laroq izohlash yoki sababini ko‘rsatish uchun keltirilgan. Ya’ni, iste‘dodsiz yozuvchi tovuqqa o‘xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta’minalashda tovuq-tuxum-qaqqog‘lamoq so‘zlarini **mazmuniy o‘q** vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo‘lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta’minalayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog‘lovchisi, agar bog‘lovchisi va matnning **mazmuniy o‘qini** tashkil qiluvchi sevgi so‘zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo‘yilyapti va unga matn orqali javob berilyapti. Ya’ni, Sevgi nima? Sevgi - sirli va abadiy tushuncha.

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi Bitiklar” turkumiga kiritilgan **Sadoqat** deb nomlanuvchi lavhada boshqacharoq holatni ko‘rishimiz mumkin.

⁹⁴ Ўтирип Ҳошимов. Дафтар ҳошиясидағи битиклар. –Т.: Шарқ, 2005.

Qadim zamonda bir yurt bor ekan. Xalqi mehnatkash, podshosi odil, hayoti tinch, turmushi farovon ekan. Boshqa bir mamlakatning shohi g'ayrligi kelib, o'sha yurtmi bosib olmoqchi bo'pti. Biroq daf'atan hujum qilishga jur'at etolmay, o'sha yurtga o'z xufiyasini yuboribdi. «Qanday qilib bo'lmasin, podshoning ishonchiga kirasan, yurtning sir-asrorini bilib kelasan» debdi.

Xufiya o'sha yurtga boribdi. Vaqtı kelib, chindan ham podshoning ishonchiga kiribdi, mulozimlaridan biriga aylanibdi. So'ng, o'z mamlakatiga qaytib borib, shohiga «Bu yurtni olib bo'lmaydi!» debdi. «Nima, qal'asi mustahkammi?»-deb so'rabi shoh. «Gap qal'ada emas», -debdi xufiya. «Bo'lmasa gap nimada o'zi?»-debdi shoh darg'azab bo'lib. Shunda xufiya o'zi guvoh bo'lgan bir voqeani aytib beribdi:

-Bir kuni o'sha podsho shikorga chiqdi. Yonida qirq nafar yigit ham bor edi. Men ham ularga qo'shildim. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. Hammamiz unga yergashdik. Kiyik cho'qqiga qarab yugurdi. Podsho ham uning ortidan ot surib ketaveradi. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga yetganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Podsho noiloj jilov tortib, ortidan tushdi. Terlab ketgan edi. Yonidan ro'molcha chiqarib, peshonasini artmoqchi bo'lgan edi, nogahon shamol kelib, ro'molchani daraga uchirib ketdi. SHunda qirq yigitning hammasi o'zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi. Omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqib, podshoga topshirdi.

U yurtda bunaqa yigitlar ko'p. Bunaqa yurtni yengib bo'lmaydi...


Mazkur matn sadoqat haqida, Vatanga, yurtga vafodorlik haqida. Biz matnning nima haqda ekanligini dastlab sarlavhadan bilib olamiz. Bu so'z matn ichida boshqa qaytarilmaydi, lekin sarlavha sifatida kelgan shu so'z matnning ham **motivatsion yaxlitligini**, ham **kompozitsion butunligini** ta'minlashga xizmat qilyapti. Shunga ko'ra yozuvchi **mazmuniy o'qni** nom darajasiga ko'tarish orqali maqsadiga to'la erishgan deyishimiz mumkin. Spuni aytib o'tish kerakki, hamma nomlar ham bunday vazifani bajaravermaydi.

Mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Masalan: Bahor... Bu jumlada «tabiatning jonlanishi», «hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi», «atrof-muhitning go'zal tusga burkanishi» kabi yashirin mazmun mavjuddir. Lekin bu tipdag'i ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb attash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa

chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lAMDAGI voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl) larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, F.M.Dostoyevskiyning jahon adabiyotining mumtoz namunasiga aylangan «Jinoyat va jazo» romanini olaylik. Roman 6 qism va epilogdan tashkil topgan. Har bir qism 5-7 bo'limni o'z ichiga olgan. Qism va bo'limlarga alohida nom berilmagan. Romanning umumiy hajmi 21 bosma taboq. Yoki, Pirimqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqeа bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqidagi ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan: 1.Agra. Hamida bonu arosatda... 2.Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin:




Makromatnning eng kichik birligi abzasdir. Abzas bir mazmuniy butunlik bo'lib «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi» hisoblanadi. Abzas **qisqa xabar** (abzasda ayttilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), **oldingi xabar bilan keyingi xabarni**

bog'lovchi vositalar (bog'lovchi vositalar abzasni o'zidan oldingi abzasga bog'laydi, shuningdek, abzas ichidagi xabar jumlalarini bir-biriga bog'laydi), **xabarning to'ldirilishi** (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va **xulosa** (xabar yakunlanadi, natija aytildi) qismlarni o'z ichiga oladigan butunlikdir. «Matn lingvistikasi» qo'llanmasida abzasni tashkil etgan gaplar o'zaro sinsemantik (sintaktik va leksik-semantik) hamda, avtosemantik (grammatik aloqalarsiz, faqat semantik) aloqa usulida birkishi aytildi. Shuningdek, abzaslarning strukturasiga ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjudligi sanab o'tiladi: 1) Sodda gapdan iborat bo'lgan abzaslar; 2) Qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzaslar; 3) Periodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzaslar; 4) Superfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzaslar; 5) Ko'chirma-o'zga gapli abzaslar.⁹⁵ Bunga aralash tipdagi nutq formalaridan tashkil topgan abzaslarni ham kiritish mumkin. Abzasdagi «xabar» tema-rematik munosabatdagi gaplarda ifodalananadi. Tema (yunoncha thema – asos bo'lgan narsa) deb gapning aktual bo'linishida so'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum (tanish) bo'lgan narsani ifodalovchi, yangi narsani ifodalashga o'tish uchun asos xizmatini bajaruvchi qismga aytildi. Rema (rHEME-commentaire – ma'lumot, sharh) esa temadan keyin kelib so'zlovchi tinglovchiga (o'quvchiga) bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan yangi xabar mazmunini ifodalovchi qism, gapning yangi ma'lumot (axborot) qismi.⁹⁶ Odatda gapning ega sostavi tema, kesim sostavi esa rema vazifasida keladi: *Ahmad //darsga kelmadи. Sotvoldi // nima qilishini, qayyoqqa borishini bilmay, hayron turardi. U // Sotvoldining dadasi To'lagan edi.*


Lekin har doim ham ega sostavi tema bo'lavermaydi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *Do'stim menga kitob sovg'a qildi*. Bu gapda tema to'ldiruvchi vazifasidagi so'z bilan ifodalangan. Rema esa ega va kesim sostavidan iborat gap bilan ifodalangan. Yuqorida tema - rematik munosabatdagi gaplarning ketma-ket kelishi natijasida abzas yuzaga kelishini ta'kidlagandik. Faqat bu ketma-ketlik qay tarzda namoyon bo'ladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Buni quyidagi gaplar misolida ko'rib chiqamiz. *Do'stim menga kitob sovg'a qildi*.(1). *Kitob samimiyl va beg'ubor muhabbat haqida edi*.(2). *Muhabbat hech kimni befarq qoldirmaydigan tuyg'u*.(3). Birinchi gapda qo'shnimga so'zi tema qolganlari rema ekanligini ko'rib chiqdik. Ikkinci gapda birinchi gapning remasi yangilik xususiyatini yo'qotib, tema maqomiga o'tadi. Uchinchi gapda ham shu jarayon ro'y beradi. Bunday bog'lanish tarzini **izchil tema-rematik bog'lanish** deb ataymiz. Buni quyidagi chizma orqali yanada amiqroq tasavvur qilishimiz mumkin:

⁹⁵ Мамажонов А. Текст лингвистикаси. –Тошкент: ТДПИ, 1989, 39-40-б.

⁹⁶ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лутати. –Тошкент: ЎМЭ, 2002.




Ba'zan tema o'zgarmas bo'ladi. Dastlabki tema bilan aloqador yangi xabarlar, ma'lumotlar keyingi gaplarda berib boriladi. Masalan: Ahmad darsga kelmadi(1). Shanbalikda ham qatnashmadi (2). Bayram tantanasida ham, teatrda ham ko'rinnmadi(3). Bunday bog'lanishni **o'zgarmas temali bog'lanish** deb ataymiz. Chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:



Ba'zan dastlabki gapdag'i temani keyingi gaplardagi temalar o'ziga aloqador remalar bilan birga to'ldirib keladi. Bunda dastlabki tema gipertemaga aylanadi.⁹⁷ Masalan: Bu xotin butun kecha bo'yи juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi. Bir oyog'i tizdan quyisi bukilib, so'richadan pastga osilibdi, bir oyog'i unisini quvlab borib so'richanining qirg'og'ida uxbab qolibdi. Uzun ko'ylagi butun badanini kam-ko'stsiz yopib turadi. Faqat bir yengi tirsakkacha shimarilib qolgan. Oppoq qo'llari va bilaklari o'z yonida – o'z onasining to'qlisiday – bir chiroylik uxbaydi (Cho'lpon).

Bunday bog'lanishni **gipertemali bog'lanish** deb ataymiz. Chizmada quyidagicha ifodalanadi:



2. Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra matn tiplari

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalananamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan

⁹⁷ Бозоров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. Филол.фан.номз...дис.автограф. -Фарғона, 2004, 12-б., Москальская О.И. Грамматика текста. -М.: Высшая школа, 1981. -С.136.

voqealarни kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo‘lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba’zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytiganchalardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqt maqsadimiz ba’zan qandaydir informatsiyani tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko‘rsatma, ta’qiq va xitob jumlalaridan foydalananamiz. Insonlar o‘rtasidagi muloqt maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg‘ularini, hayajonlarini, azob va qayg‘ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta’sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba’zan mubolag‘a, ba’zan o‘xshatish – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalananamiz.

Shundan kelib chiqib matnni, xususan, badiiy matnni quyidagi tiplarga bo‘lib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.⁹⁸

1.Hikoya mazmunli matnlari (Le texte narratif - narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o‘zi boshidan o‘tkazgan, eshitgan, o‘qigan yoki guvoh bo‘lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi asosan o‘tgan zamon shaklida, bиринчи shaxs birlik yoki ko‘plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqeа – hodisa kichik yoki keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Sekin - asta ko‘tarilib boruvchi izchil va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Biryoqlama ifoda uslubidan foydalilanadi. Ya’ni matn shakllanishida asosan, hikoya qiluvchi (roviy) yetakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko‘rinishi bunday matnlari uchun juda mos va qulay bo‘ladi. O‘rni bilan dialogik nutq ko‘rinishlariga murojaat qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Shunda ham hikoya matning motivatsion butunligi roviyga bog‘liq bo‘ladi. Bu tip matnlarda tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnlari birdaniga ishtirok etishi mumkin.

«Duogo‘y». Said Ahmad aka boshchiligidagi bir guruh adiblar olis tog‘ qishlog‘iga yetib bordik. Mehmonga chaqirishdi. Uy to‘la odam. Davra boshida to‘rvadek soqoli ko‘ksiga tushgan qariya o‘tiribdi. Hamma unga ta’zim baho qiladi. Davraga kim kelib qo‘silmasin chol uzundan-uzoq duo o‘qiydi. «Sen ham mening yoshimga yetib yurgin, bacham», deb fotiha tortadi.

Bir xil duo takrorlanavyergach, Said Ahmad aka so‘radi:

-Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

⁹⁸ **Filizok R.** Metin tipleri. <http://www.ege.edebiyat.org>.

-Menba?-dedi chol salmoqlab. -Ikkam jetmishga bordim.

-Voy bo'-o'-o'!-dedi Said Ahmad aka bosh chayqab. -Agar sening duuing mustajob bo'lsa, men sakkiz yil avval o'lib ketishim kerak ekan-da, ukam? Men yetmish oltiga chiqdim! Turaqol endi, joy almashamiz! (O'.Hoshimov).

Yo'li topildi. Erkin Vohidov universitetni endi bitirgan paytidayoq taniqli shoir edi. O'zingiz bilasiz, oliv o'quv yurtini bitirgan odam oldida uylanish muammosi ko'ndalang bo'ladi. Shu masala yuzasidan Erkin aka Said Ahmad akaga maslahat solibdi.

-Oqsoqol,-debdı. -Xabaringiz bor, bir-ikkita kitobim chiqdi. Uch ming so'mcha pulim ham bor (U paytda uch ming katta pul edi). Lekin qaysi biriga yetkazishni bilmayapman. Mashina olaymi, uy solaymi, xotin olaymi? Mashina olsam, uy sololmayman, uy solsam, uylanolmayman, uylansam, mashinaga pul qolmaydi... Nima qilay?

Said Ahmad aka peshanasini Rashid abzining garmoniday tirishtirib, chuqur va uzoq o'yga tolibdi. Oxiri chehrasi yorishib bunday debdi:

-Bolam, men xo'p o'yladim. Hisoblab ko'rsam uch ming so'm puling hammasiga yetarkan. Maslahat shuki, sen avtobus sotib olgin! Avtobus degani mashina bo'ladi. Rulini qayoqqa bursang ketaveradi. Bu - birinchidan. Avtobusning ichi keng-mo'l bo'ladi. Ko'ch-ko'roningni olib kirsang, tayyor uy bo'ladi. Bu - ikkinchidan. Uchinchidan, rostki avtobus bo'lgandan keyin ichida konduktori ham bo'ladi. O'sha konduktorni xotin qilib olib qo'ya qolasan!..(O'.Hoshimov)

Bunday zotlarning har bir uchrashuvi bayram bo'lib ketadi, ular o'rtasidagi do'stlik afsonaga aylanib ketadi. Taniqli o'zbek adibi Nosir Fozilov qachonlardir Sobit Muqonov to'g'risidagi xotiralarini «Mehribonlik» nomi bilan atagandi. O'sha xotiralarda qiziq bir voqeа eslatib o'tiladi.

Toshkentdan Sobit Muqonovning uyiga mehmon bo'lib kelgan qadrdon do'sti Oybekni mashinaga o'tqazib, ko'm-ko'k o'tloq, bog'-rog' qoplagan Olatov etaklariga olib ketadi. Tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladi. Sip-silliq qizil qoyalar yonidan o'tayotib, mashinaga tormoz beradi. Xarsang toshlardan birini aylanib tomosha qiladi. Tabiatning o'zi obi-tobida sayqal bergen toshdan ko'zlarini uzolmasdan bosh chayqadi-da: «Go'zal! Mo'jiza!» deydi. Sobit esa sir boy bermasdan Oybekning yoniga yaqinlashadi-yu unga sinchkov razm solib:

-Xo'sh, yoqib qoldimi?-deb so'raydi.

-Bo'lmasam-chi!-deb to'lqinlanib javob beradi.

-Unday bo'lsa, buni men senga sovg'a qilaman. Faqat o'z nomimdan emas, butun qozoq xalqi nomidan sovg'a qilaman. An'anamiz bo'yicha arg'umoqqa ega bo'ldim deyaver.

Shunday qilib, Medeo chegarasida yotgan xarsang tosh mehmonga yoqib qoladi: Sobit uni sovg'a qiladi, Oybek qabul qilib oladi. Tez orada Oybek Toshkentga qaytib ketadi. Sobit esa keyin o'sha xarsang yoniga bitta toshtaroshni yollab boradi. Xarsang toshga hech o'chmaydigan so'zlar o'yib yoziladi:

«Bu silliq toshni men Muso Oybekka sovg'a qildim. Sobit Muqonuli. 1962- y. 3. VI».

O'sha kuni Sobit o'z hayotida bag'oyat mas'uliyatl vazifani ado etgan kishidek kayfiyati ko'tarinki holatda quvnoq qo'shiq aytib uyiga qaytadi.

-Men o'z hayotimda juda ko'p saxiy odatlarni ko'rganman. Lekin tog'da yotgan chaqirtoshni sovg'a qiladigan Sobitga o'xshash odamni aslo uchratmaganman, - deb tez-tez eslab yuradi Oybek.⁹⁹

Berilgan matnlarda uch xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi matnda yozuvchi o'zi guvoh bo'lган voqeani hikoya qilyapti, ikkinchi matnda muallif eshitgan voqeasini so'zlayapti. Uchinchi matnda esa muallif o'qib ta'sirlangan voqeasini aytib beryapti. Shunga ko'ra ifoda tarzi o'zgarib borgan. Hikoya mazmunli matn boshqalariga qaraganda murakkab tarkiblangan bo'ladi.

2. Tasviriy matnlar (Le texte descriptif - deskriptiv matn). Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo'lган biror kishi, joy, hayvonot va nabotol olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqeahodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya'ni, tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlardan so'z yuritiladi. Masalan:

Yakan degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i otarchilar pulni «yakan» deyishadi. Aslida esa yakan – qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. Shunday bo'libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab:

-O', birodar, hadeb g'o'ddayaverma, salgina egil. Ollohnning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik,-debdii.

Qamish unga qaragisi ham kelmabdi, javob ham bermay burnini jiyirib qo'ya qolibdi. Vaqt(soati kelib avval qamishni, so'ng yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yranı bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'taveribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo'laverib xorlangan qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi:

⁹⁹ Айтматов Ч., Шохонов М. Чўккода колган овчининг охи-зори. –Тошкент: Шарқ, 1998, 103-б.

-Meni o‘rib olib quritdilar, tepkilab qovurg‘alarimni sindirdilar, so‘ng suvgaga bo‘ktirdilar. So‘ng qayirib-bukib mana shu bo‘yra holiga keltirdilar. Endi esa tinimsiz, har kuni tepkilaydilar. Bu ham yetmaganday sal qayirib, ostimga noslarini tupuradilar.

Bu zorlanishni eshitib yakan debdikim:

-Siz bekorga g‘o‘ddaydingiz. G‘o‘ddayib o‘saverdingiz. Ichingiz g‘ovak ekanini unuttingiz. G‘ovak bo‘lganining uchun ham tepkilashdan bo‘lak narsaga yaramadingiz. Hali ham kech emas, siz o‘sgan yerda ildizingiz qolgan. Siz o‘sajak qamishlarga yetkazing. Sizning holingizga tushmasinlar.

Qamishni ba’zan tomga ham to‘shaydilar. Lekin baribir uning basharasiga loy chaplanadi...¹⁰⁰

Keltirilgan matnda yakan deb nomlanadigan bir o‘simlik tasvirlanadi. Buni **tasvir obyekti** deymiz. Uning o‘simlik ekanligi haqidagi axborot **birlamchi xususiyat** hisoblanadi. Uning qanday o‘simlik ekanligi haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda aloqador xususiyat deb ataluvchi qism boshqa bir o‘simlik bilan bog‘liq tasvir fonida yanada ravshan ifodalangan.

Yoki Abdulla Qodiriy «O‘tkan kunlar» romanini bir saroy tasviridan boshlaydi:

Darbozasi sharqi-janubiyiga qaratib qurilg‘an bu dong‘dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi birikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek.

Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adres ko‘rpalar, narigilarda qora chirog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

*Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.*¹⁰¹

Bu parchada **tasvir obyekti** - saroy, bugungi til bilan aytadigan bo‘lsak, mehmonxona. Uning Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari orasida mashhurligi haqidagi axborot **birlamchi xususiyat** bo‘lsa, hujra va jihozlar haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda ham obyektning aloqador xususiyati u yerdag‘i insonlar tasviri fonida yanada aniq va tushunarli qilib tasvirlanyapti. Buni o‘z navbatida **ikkilamchi xususiyat** u

¹⁰⁰ Тохир Малик. Мехмон туйулар. –Тошкент: Шарқ, 2002, 19-б.

¹⁰¹ Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. –Тошкент: Шарқ, 2000, 11-б.

bilan bog'liq tasvirni esa **ikkilamchi aloqador xususiyat** deb atasak bo'ladi. Yakan haqidagi matnda qamish ikkilamchi xususiyat, u bilan bog'liq tasvir **ikkilamchi aloqador xususiyat** hisoblanadi. Mazkur matn o'sha xususiyatlar tasviriga asoslanib shakkantirilgan. Matnda bunday aloqadorlik bitta yoki bir necha bo'lishi mumkin. Bitta va ikkitalik turini tahlil qilish qulay. Agar ikitadan ortiq bo'sa tahlil murakkablashib ketadi. Bunday paytda eng xarakterli va matnning tashkillanishida yetakchilik qiladiganini olamiz. Buni quyidagicha formulalashtirishimiz mumkin:

- $$1. m = (bx - ax);$$
$$2. m = n \cdot (bx - ax)$$

Bunda m-matn so‘zining belgisi, «**bx**»-birlamchi xususiyat, «**ax**»-aloqador xususiyat, agar matn ikki va undan ortiq aloqadorliklardan tuzilgan bo‘lsa «**n**» belgisi o‘rniga ularning miqdorini ko‘rsatamiz.

3. Izoh mazmunlu matnlar (Le texte argumentatif – argumentli matn).

Bunday matnda aytيلayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn tipining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o'tasida **mantiqiy bog'liqlikning** (connecteurs logiques) bo'lishi muhim sanaladi. Bunday matnda chunki, zero, lekin, aslida, shuning uchun, to'g'risini (ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar (le lexique appréciatif) qo'llanilganligini ko'ramiz. Kitobxoni yoki tinglovchini ishontirish asosiy maqsad bo'lganligi uchun shunga mos ritorik uslub tanlanadi. Badiiy tasvir vositalaridan foydaliladi. Gaplar o'zaro zich bog'langan va ta'kid ohangi sezilib turadigan matn tipi hisoblanadi.

4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ matn). Kimgadir

pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi. Ularning matn ichiga singdirilish tarzi turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktik birliklarni matnga to'g'ridan to'g'ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini ayтиб o'tadi. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mayjud bo'ladi. Muallif yoki qahramon nutqida quyidagi ifoda shakkllari ishlatalidi: shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug'lar(esklilar)da shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat (o'git, voqeа, masal) eshitganman va hokazo.

Hudhudning Tovusga javobi. Hudhud unga javob berish uchun nafasini rostlab, shunday dedi:

- Ey jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi! Sen shunday holatlarni bayon etdingki, bu ish faqat devonalar va yosh bolalar qo‘lidangina kela oladi, xolos. Odam degan tashqi go‘zallik haqida so‘z aytmaydi. Kimki undan

faxr etar ekan, uni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi! Noz va husn faqat dilbar qizlargagina yarashadi. Er kishi esa dard va mashaqqat chekishi bilan yaxshidir. Barcha shakl ahli uchun eng sharafli ish ana shadirki, u shakldan ma'no tomon olib boradi. Sen o'z shaklingga bino qo'yding, buning uchun kishilar tomonidan masxara etilishga loyiqsan. Chunki, inson o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanmaydi, agar faxrlansa, u masxaralanishga sazovordir! (Alisher Navoiy)

Donishmand debdiki: har qanday yaxshi qonunning muqaddimasi, shuningdek, xotimasi ham shundan iboratkim, har bir inson bir burda nonini yaxshi mehnati bilan topa olsin va ayni choqda mehnatiga loyiq yaxshi non ola olsin (T.Malik).

Demishlar: moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas,

Vatandin ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas (A.Oripov).¹⁰²

Didaktemalarни keltirishdan asosiy maqsad shu orqali pand-nasihat berish, muammoli masalani yechishga ko'maklashish, qandaydir murakkab vaziyatdan chiqish yo'llarini ko'rsatish, to'g'ri yo'lni topishda keltirilgan misoldan ibrat chiqarishga da'vat qilish yohud bo'lib o'tgan voqeaga munosabat bildirishdan iborat. Lingvopoetik tahlilda didaktemalarning estetik mohiyati muhim hisoblanadi.

5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informatif – informativ matn). Biror voqeа-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo'ladi. Narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik kabi matn tiplari tarkibida keladi. Masalan, Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romani yakunida shunday bir xabarni keltiradi:

Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilarini orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydilar.

Bu ham xabar mazmunli matn hisoblanadi. Lekin asar ichida emas balki, ilova sifatida keltirilgan. Asar qahramonlarining hayotdan olinganligini ta'kidlash, bunga kitobxonni ishontirish istagi bilan kiritilgan. Bu haqda asar avvalida ham yozuvchi alohida ta'kidlagan edi: «xalqimizni shu zamonning

¹⁰² Абдулла Орипов. Сайланма. –Тошкент:Шарқ, 1996.

«Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo‘r»lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz.» Balki, yozuvchi, ushbu qahramonlar taqdiri qanday kechganligi haqida kitobxonlarga xabar berishni xohlagandir, balki, romanni davom yettirajagini, agar davom ettillsa, voqealar shu mazmunda bo‘lishi mumkinligi haqida xabar berayotgandir. Bu bizga qorong‘u, lekin keltirilgan matn xabar mazmuniga ega. Asar ichida yozuvchi tomonidan keltirilgan turli havolalar ham informativ xaraktyerde bo‘lishi mumkin. «O‘tkan kunlar»da muallif Musulmonqulning dovyurakligi haqida shunday havolani keltiradi:

Musulmonqulning o‘zi ham favqulodda yuraklik edi. 1853 m. tarixida Musulmonqul qo‘qonlilarga asir tushib, uni to‘pdan otib o‘ldirish uchun dordek bir narsaning ustiga o‘tquzurlar. Ikkinchini tomondan to‘pka o‘t berish kutiladir. Shu vaqtida kishilar Musulmonquldan so‘raydilar: «Endi qalaysan, cho‘loq?» Musulmonqul kulibkina javob beradir: «Alhamdulilloh, hali ham sizlardan yuqori bir yerda o‘ltiribman!»

6. Buyruq mazmunli matnlari (Le texte injonctif – injonktiv matn). Buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta‘qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qahramonlar nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida maslahat yoki tavsiya ma’nosida qo‘llanilishi ham ma’lum. Masalan:

Odat. Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, xayron bo‘lmang. Bo‘yinbog‘ingizni yechishga ko‘maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko‘rsa, hayron bo‘lmang. Majlisda nima masala ko‘rilganini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Kimning yonida o‘tirganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Telefoningiz rangi qanaqaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Necha kishi qo‘ng‘iroq qilganini so‘rasa hayron bo‘lmang. Qayerda tushlik qilganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Bufet nechanchi qavatdaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Nima ovqat yeganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Sizga choyni qaysi qo‘li bilan uzatganini so‘rasa, hayron bo‘lmang! Boringki, oftob qaysi tomonidan chiqqanini so‘rasayam hayron bo‘lmang. Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati! (O‘.Hoshimov)

Buzilgan nikoh. Uyni qonuniy bo‘lashdingiz... Mol-mulkni qonuniy bo‘lashdingiz... Muhabbat bo‘laklandi... Sadoqat bo‘laklandi... Bola-chi? Bolani qaysi qonun bilan bo‘lashasiz? Onasi bilan bo‘lsa, otasiz qolsa. Otasi bilan bo‘lsa, onasiz qolsa... Yaxshisi, uniyam ikkiga bo‘ling! Bir nimtasi-eriga! Bir nimtasi-xotinga! Qani ko‘taring boltani, bolaning uvoli tutgurlar! (O‘.Hoshimov)

Tiriklar va o'liklar. Vaqti-vaqt bilan qabristonga borasiz. Ajdodlaringiz boshida turib o'tganlar ruhini xotirlaysiz... Keyin... o'z yushmaningiz bilan ketasiz.

Shoshilmang. Dunyo ishi bitganmas... Iloji bo'lsa, qabristonni osoyishta aylaning. Shunda... g'alati holat ro'y beradi. Marhumlar sizga ko'-o'-o'p narsalar aytadi...

Ishoning, o'liklar tiriklardan ko'ra teranroq fikrlaydi... (O'.Hoshimov)

7. Hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, vogelikka munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Erta bahor – cheksiz sog'inchning ufqi. Muzga aylanishdan bosh tortgan isyonkor tomchilar yomg'ir bo'lib to'kilmoqda. Yomg'irning daraxtga, kurtakning tomchiga aytadigan «shiviri» yig'ilgan-ey-yig'ilgan. Ho'ngrab-ho'ngrab, bo'zlab-bo'zlab dil rozini aytayotgan erta bahor buluti aslida osmon dardidan so'z ochishga botingan asov g'alayon. Nish urmish kurtakka nasib etgan yomg'ir tomchisi ko'kning beqiyos ehtirosi parchasi. YOmg'ir «shiviri» umidlarga to'la daraxt ta'zimiga kutilmaganda duch kelsa, bu ajib bir shoyonlik tavalludi. Aslida bu «shivir-shivirlar» rishta xolos. Aslida ulkan osmonning jajji zaminga aytadigan dardi ko'p-ey... Zamin esa dil izhorini minnatdor tinglar ekan, jajji daraxtlari, endi unajak o't-o'lani-yu, chamar gullari-la ta'zim etadi.

Yer-u osmon, daraxt-u yomg'ir, nish urish orzusidagi kurtagu, unga lab tegizgan tomchi, ko'kdagi bulutdan barqini kutgan maysalar, chechaklar yamoqchi sog'inch dardida butun bo'ladilar endi. Bilaman, zamin-u falak visoli xayoliy ufqdagina namoyon. Bilaman... Ammo... Qalbim zulflariga urilgan shivir-shivirlarni sezmaslikni eplay olmayapman. Sog'inch – umrim yamog'i... (Y.Akram)¹⁰³

Badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yoxud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot bering.
3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlang.
4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.

¹⁰³ Ёкутхон Акрам. Ёмғиркуй. –Тошкент: Шарқ, 1994, 45-6.

- 5.Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot bering.
- 6.Abzasning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
- 7.Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.
- 8.Ifoda maqsadiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
- 9.Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlardan haqida ma'lumot bering.
- 10.Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytildi?

MATN TARKIBIY QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

Matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi. Tilshunos olim A.Mamajonov matn komponentlari o'rtasida mustahkam sintaktik aloqa majudligini ta'kidlaydi va bu aloqaning o'ziga xosligini «Tekst lingvistikasi» deb nomlangan risolasida quyidagicha izohlaydi: «Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo'shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o'xshab ketadi, faqat murakkabroq ko'rinishda yuzaga chiqadi. Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va yergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallahadi. Ko'rindiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa prediksiyalar orasida o'rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazalari sintaktik butunliklar, abzaslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi». Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqazo qilishi kerak ekan. Matn butunligida **mazmuniy yaqinlik** qanchalik ahamiyatli bo'lsa, **mazmun izchilligi** ham shunchalik muhim. Masalan: 1.*Hovli yog' tushsa yalagudek top-toza bo'ldi.* 2.*Ahmad bugun ham darsga kelmadimi?* 3.*Har qanday chuqurlikdan ham yuksaklikka ko'tarilish mumkin.* 4.*O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga orzu ulashishdan, orzu qilishni o'rgatishdan iborat bo'lmog'i lozim.*

Yuqorida to'rtta gap ketma-ket keltirildi. Lekin ularda mazmuniy yaqinlik yo'q. Quyidagi gaplar yig'inida esa mazmuniy yaqinlik ko'zga tashlanadi, lekin mazmun izchilligi yo'q: 1. *Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi.* 2. *Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir.* 3. *Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga yetib boradi.* 4. *Notiqning So'zi ming tinglovchiga yetib boradi.* 5. *Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga yetib boradi.*

Yuqoridagi gaplardan matnning so'z va uning mas'uliyati haqida ekanligini payqash qiyin emas. Bu gaplar yig'inida mazmun yaqinligi bor, lekin izchil emas. Gaplarning ketma-ketligi buzilganligi tufayli mazmun izchilligiga ham putur etgan. Endi mazkur gaplarni qayta terib chiqamiz:

Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga yetib boradi.

Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga yetib boradi.

Notiqning So'zi ming tinglovchiga yetib boradi.

Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir.(O'. Hoshimov)

Muallif aytmoqchi bo'lgan fikr, aslida, oxirgi gapda keltirilgan. Agar yozuvchi faqatgina oxirgi gapni keltirib qo'ya qolganida o'sha fikrning ta'sirchanligi bo'imasligi mumkin edi. Adib maqsadini qiyoslash usulidan foydalanib to'la va aniq yetkazishga erishgan: **o'qituvchi** va bunga parallel ravishda **o'ttiz bola, domla - yuz talaba, notiq - ming tinglovchi, qalamkash - o'n ming, yuz ming kitobxon.** Bu matndagi qiyos pog'onama-pog'ona «kengayib boruvchi» leksik-semantik birliklar fonida yanada aniq ifodasini topgan:

1. Muassasalar: **maktab→dorilfunun→ijtimoiy-ijodiy maktab, ya'ni hayot;**

2. Kasb egalari: **o'qituvchi→domla→notiq→qalamkash;**

3. Miqdor: **o'ttiz→yuz→ming→o'n ming, yuz ming.** Ohang ham shunga muvofiq ko'tarilib boradi.

Matn komponentlari o'zaro **kontakt** va **distant aloqaga** kirishadi. *Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi. Bolaga telefonimni bergen edim. Qo'ng'iroq qilmadi. Bir kuni yana uyushmaga kelsam, xuddi o'sha kitob do'konida turibdi* (Sh.Xolmirzayev).¹⁰⁴ Bu matnda bиринчи va иккинчи, иккинчи va учинчи, учинчи va то'ртинчи gaplar orasidagi aloqani «**kontakt aloqa**», биринчи va учинчи, биринчи va то'ртинчи gaplar orasidagi aloqani «**distant aloqa**» deymiz.

$$\begin{aligned} d &= (a+b)+(b+c)+(c+d) \\ k &= (a+c)+(a+d) \end{aligned}$$

¹⁰⁴ Шукур Холмирзаев. Сайланма. Ҳикоялар. 2-жилд. -Тошкент: Шарқ, 2005.

Bunday aloqani quyidagi leksik-grammatik vositalalar yuzaga chiqaradi:

1. Kesimlik shakllari yordamida birikish. Fe'l-kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta'minlaydigan vositalardan hisoblanadi.

Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21 ming 197 ta betakror so'z **ishlatgan**. SHekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta so'z, shu jumladan 26 mingta betakror so'z **ishlatgan**. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiyl, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan **foydalangan** (O'. Hoshimov).

2. Olmoshlar yordamida birikish. Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so'zning keyingi komponentlarda olmosh so'zlar bilan almashtirilishi tushuniladi.

Muhammad Rahimxonning Tozabog'dagi sayrgoh bog'i. Uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha aylanib chiqish amri mahol, kishi charchab qoladi. Katta hovlining orqasida qirg'oqlariga marmar o'rnatilgan xon hovuz. Undagi zog'ora baliq, cho'rtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib tashlangan nonlarni er, goh biltanglab o'ynab sho'ng'ib ketardi. Hovuzning to'rt tomonida yo'g'on – yo'g'on qayrag'ochlar, tanalari qulochga sig'maydi. Xorazmda hovuz desa, darhol ko'z oldingga katta – katta gujumlar – qayrag'ochlar keladi. Bu daraxtlar go'yo azamat dubni eslatadi. Hovuz labiga husn berib turganlar ham o'shalar. Ularning kichkina – kichkina barglari orasidan quyosh nurlari mo'ralaydi. Ammo ular quyosh haroratini o'zida singdirib, pastga tanga – tangaday oq shu'lalarini tushirardi. Ular kishiga orom beradi. (J.Sharipov).

Ushbu matn tarkibidagi komponentlar **zanjirli aloqa** usulida munosabatga kirishgan. Dastlabki komponentda bog' va uning kimga qarashli ekanligi haqidagi axborot keltiriladi. Keyin o'sha bog'ning kattaligi va hovuz haqidagi informatsiya. Hovuz ichi va atrofi tasviri. Daraxtlar va ular bilan bog'liq tafsilotlar. Mazkur tasvirdan butun-bo'lak munosabati anglashiladi. Zanjirli aloqani quyidagi so'z va shakllar ta'minlaydi: bog' → uning, hovuz → undagi, gujumlar-qayrag'ochlar → bu, o'shalar, ularning, ular, ular. Ko'rindiki, olmoshlar o'zidan oldin kelgan gaplardagi ot turkumiga mansub so'zlarning o'rniiga qo'llangan va matn komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlashtirgan. Hamda ayni so'z takrori bilan yuzaga chiqadigan uslubiy g'alizlik oldi olingen.

3. Takrorlar yordamida birikish. Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilyotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniлади. Nutqning ta'sirchanligi ortadi. «Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa **zanjirli**

aloqa, bir xil grammatic formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig‘indisidan tashkil topadigan aloqa **parallel aloqa** deyiladi».

-Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech mamlakat, hech bir xalqning vakili bo‘lmagan yolg‘iz men. Men hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. Men she’riyatman. Men butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. Men hamma o‘lkalarga teng yog‘uvchi yomg‘irman. Men dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman (R.Hamzatov).

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari,

Biz sendan balandroq tura olsaydik,

Biz sendek balandroq yura olsaydik,

Balki o‘ng‘ayardi dunyo ishlari,

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari. (A.Oripov)

Takrorning bir necha ko‘rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: Alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar. Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi. Assonans esa unli tovushlarning takrorlanishidir. Anafora deganda so‘z yoki so‘z birikmalarining she’riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Epiforada esa misralar oxiridagi so‘z yoki qo‘shimchalarining takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matnning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi.

Takrorlar qo‘llanish o‘rniga ko‘ra **gorizontal** va **vertikal takrorlarga** bo‘linadi. Bunday takrorlar ayniqsa, she’riy matnlarda o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko‘ra **ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe’l takrori** kabilarga bo‘linadi. Sintaktik tabiatiga ko‘ra **so‘z birikmasi takrori** va **jumla takrori** ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko‘ra ham tasnid qilish mumkin: **simmetrik takror va asimmetrik takror**. Shuningdek, o‘rtadagi masofasiga ko‘ra ham guruhlashtirish mumkin: **yaqin o‘rinli takror, uzoq o‘rinli takror**. Badiiy asarlarda ma’lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga qarab **mazmuniy takror** turini ham kuzatishimiz mumkin.

4. Xiazmatik konstruksiyalar yordamida birikish. Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko‘rinishlarida uchraydi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo‘lувчи uslubiy vositadir. Ikkinci gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashuvdir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan bo‘ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma’noni bo‘rttirib ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan: *Shijoatli bo‘l. Biroq andishasiz bo‘lma.*

Andishali bo'l. Biroq shijoatsiz bo'lma. (О'. Hoshimov).

«Xiazm poetik nutqda quyidagi vazifalarini bajaradi: 1.Uslubiy- semantik vazifa. Bunda ikki komponent mazmuni o'zaro zidlik kasb etadi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to'ldiradi. 2.Ekspressiv vazifa. Bunda o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag'ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi. 3.Evfonik vazifa. Xiazmni yuzaga keltirayotgan bo'laklar o'zaro o'rinni vazifa jihatidan almashinganda ohang ham shunga mos ravishda almashinib boradi.»¹⁰⁵

5. Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash mumkin. Badiiy asardagi voqe-hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. «Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so'zlar leksik-grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi».

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi...(O'.Hoshimov). Ushbu matnnning shakllanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda **ertalab** leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni: ertalab → yomg'ir yog'di → qattiq yog'di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi.

Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo'la oladi. Odatda yozuvchilar voqeа sodir bo'layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma'noli leksema keltirildimi, albatta, uning tavsifi ham beriladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o'zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi.

Bog' juda orasta, yo'laklarga oltinrang qumlar solingan, marmar ariqlardan tiniq suvlar jildirab oqadi. **Chorchamanlarda** mamlakatning eng noyob gullari muattar hid taratib ochilib turibdi (P.Qodirov).

6. Parselyatli tuzilmalar yordamida birikish. Og'zaki nutqda, matnda ba'zan muloqot talabiga ko'ra yaxlit bir jumlada uzilish sodir bo'ladi. So'zlovchi tinglovchiga biror voqeа-hodisa haqida xabar berayotganda mana shu xabar ichidagi eng muhim fikrni boshqalaridan ajratib, alohida ta'kidlab aytishga harakat qiladi. Ma'lumki, ta'kid og'zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg'u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda parsellyativ tuzilmalar - matn komponentlarini ekspressiv-stilistik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: **1.Hurriyat vaadolat uchun**

¹⁰⁵ Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нуткида хиазм ва градация. Филол.фан.номз...дис.автреф.-Фарғона, 2004.

kurashish kerak. Yoki: **2. Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun.** Birinchi gap odatdagи tartibda tuzilgan sodda gap hisoblanadi. Ikkinci gap esa parselyatlı tuzilma hisoblanadi. Uch komponentli bu qurilmada birinchi qism - **asos**, qolganları esa **parselyat bo'lak** hisoblanadi. «Parselyatlı tuzilmalardagi tartib mohiyat e'tibori bilan ta'sirchan so'z tartibi bo'lib, uslubiy jihatdan betaraf tuzilmali gap qismlarini kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda guruhlash, sintaktik jihatdan qayta o'rinalashtirish sifatida ro'yogha chiqadi. Gap tuzilmasini bu xilda qayta qurish (uning qismlarini sintaktik jihatdan qayta tartiblash) ma'lum qismni mantiqiy jihatdan ajratishga asoslanadi va o'ziga xos ekspressiv ifoda shakli hamda funksional - semantik munosabatlar tarkib topadi».¹⁰⁶

Jalil aka deraza tagida yotardi(1). To'shakda (2). Bolishi baland (3). Unga suyanib, boshini ko'tarsa, bog'ni ko'radi (4). O'zi obod qilgan bog' u (5). (Sh.Xolmirzayev).

Bu matn parchasi beshta gapdan tashkil topgan. 1-gap asos, 2-gap parselyat. Asosdagи o'rin holi konkretlashtirilmaganligi uchun parselyat bo'lak sifatida ajratilgan. 3-parselyat gap ham asosdagи o'rin holini ta'kidlashga xizmat qilgan. Shuningdek, 4-gap bilan 1-gap o'rtasidagi aloqani zichlashtirgan. Ya'ni, *qahramon deraza tagida yotibdi. To'shakda yotibdi. Baland bolishli to'shakda yotibdi. Unga suyansa o'zi obod qilgan bog'ni ko'radi.* 5-gap 4-gapning parselyati hisoblanadi. Ya'ni asos (4) dagi to'ldiruvchi (*bog'*)ni aniqlashga xizmat qilgan.

7. Nominativ (atov) va infinitiv gaplar ham matnni shakllantiruvchi sintaktik birlıklar hisoblanadi. Atov gaplar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning mavjudligini anglatadi. Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin atov gap mazmunini ochuvchi, tavsiflovchi boshqa gap yoki gaplar keltiriladi. Natijada matn hosil bo'ladi. Masalan: *Bugun bayram. Ko'chalar gayyum. Sho'x-sho'x kuylar yangraydi. Guras-guras odamlar o'tadi. O'yinkulgi, shodon shovqin bahor osmonini titratadi* (O'.Hoshimov).

Infinitiv gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalananadigan, yakka so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lgan gaplardir: *Sevmoq! Bu toshga qarab ham gulni ko'rmoqdir. Yoki, Kutish! Soniyalar daqiqalarga, daqiqalar soatlarga aylanadigan bekat.*

8. Murojaat birlıkları va ularning matnni shakllantirish imkoniyatlari. Murojaat birlıkları kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo'llanmadigan, o'zaro aloqa-aratashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Murojaat birlıklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash

¹⁰⁶ Топалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. –Тошкент: Zar qalam, 2004, 88-б.

kabi maqsadlarda foydalaniлади. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; masofa (subordinatsiya), humatsizslik, ishonchsizslik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘лади. «Shunga ko‘ra doimiylik belgisiga ega bo‘lgan murojaat birliklari nutqda appellativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat – salbiy va ijobjiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi.»¹⁰⁷ Misollar: - *Malikam, debdi jahl otiga minib. – Sizga ruxsat! Saltanat xazinasidan o‘zingiz uchun eng qimmatli narsani oling-da yurtingizga jo‘nang!* (O‘.Hoshimov) Hoy, ovsar! *Bosar-tusaringni bilmay qolding-ku!* (S.Ahmad). *Oyisha, Oyisha, Oyisha ona, Nechun ko‘zlariningdan oqar marjon yosh* (A.Oripov). Keltirilgan birinchini misoldagi «malikam» murojaat birligi appellativ-xitob, murojaat qilish orqali o‘zaro muloqotni boshlash vazifasini bajarmoqda. Ikkinci gap tarkibidagi «ovsar» murojaat birligi kamsitish, haqorat kabi shaxsiy munosabatni ifodalash orqali konnotativ vazifani bajargan. Uchinchi gapda so‘zlovchining emotsiyonal munosabati takror qo‘llanuvchi «Oyisha ona» murojaat birligi orqali yana-da aniq ifodalangan. Murojaat birliklarining badiiy matndagi qo‘llanilishini o‘rganishda kim, kimga, nimaga, qanday holatda, qanday nutqiy vaziyatda murojaat qilinayotganligiga e’tiborni qaratish kerak bo‘лади. Murojaat qilinayotgan ba’zan narsa-buyum bo‘lishi ham mumkin. Masalan:

Ayo, sarv! Yuksaklarga intilmoqni bizga ham o‘rgat!

Ay, g‘uncha! O‘zlikni namoyon etmoqni o‘rgat! (J.Rumi)

Tahlilda buning sababi aniqlanishi talab qilinadi. Yozuvchi yoki shoirning murojaat qilishdan maqsadi va badiiy niyati nimadan iborat ekanligi, murojaat birliklaridagi denotativ va konnotativ ma’nolar haqida mulohaza yuritiladi. Adabiyotshunoslikda mazkur usul ritorik murojaat atamasi ostida o‘rganiladi. Ritorik murojaatda ritorik so‘roqda bo‘lgani kabi javob talab qilinmaydi, balki, «obyektga e’tiborni kuchaytiradi va kitobxonda biror munosabatni uyg‘otadi». ¹⁰⁸ Asosan, «shoirning poetik nutqda o‘zi xohlagan intonatsiyani – tantanavorlik, ko‘tarinkilik, g‘azabkorlik, kesatish kabilarni ifodalashda»¹⁰⁹ keng foydalaniлади.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1.Matn komponentlari o‘rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma’lumot bering.

2.Mazmuniy yaqinlik va mazmun izchilligi tushunchalarini izohlang.

¹⁰⁷ Ахмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқики. Филол.фан.номз...дис. –Тошкент, 2008.

¹⁰⁸ Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. –Тошкент: ТДПУ, 2001, 92-б.

¹⁰⁹ Зунинов А., Хотамов Н. Адабиёт назариясидан кўлланма.-Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 101-б.

- 3.Kontakt va distant aloqa deganda nimani tushunasiz?
- 4.Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog‘lanadi?
5. Murojaat birliliklarining matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma’lumot bering.

MATNDA PARSELLYATSIYA HODISASI

Parsellyatsiya kommunikativ, ekspressiv sintaksisda, xususan, badiiy matnda benihoya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sintaktik-kommunikativ hodisa bo‘lib, uning mohiyati yaxlit butunlik bo‘lgan gapni mantiqiy ta’kid va ekspressiyani kuchaytirish maqsadida ikki (yoki undan ortiq) kommunikativ birlikka ajratib gapdan tashqariga chiqarishdan iborat.¹¹⁰ Bu hodisa sodda, qo‘shma gaplarda, murakkab sintaktik butunliklarda namoyon bo‘ladi.

“Parsellyatsiya” terminining lingistik adabiyotlarda qo‘llanila boshlaganiga ham yarim asrdan oshdi. Mazkur hodisaning sintaktik tabiatи, shakliy-mazmuniy ko‘rinishi va xossalari rus tilshunoslari tomonidan bir qator fundamental tadqiqot, maqola, o‘quv hamda metodik qo‘llanmalarda turli darajada tadqiq etilgan, yoritilgan.¹¹¹ “Parsellyatsiya” termini lingistik lug‘atlarda shunday izohlanadi: “Parsellyatsiya gapning shunday bo‘linishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intonatsion-ma’noviy nutqiy birliklarda anglashiladi. Bunday birliklar biri ikkinchisidan so‘ng ketma-ket keladi”.¹¹² Shunga ko‘ra, ularni asos va parsellyat sifatida ikki qismga ajratib tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Parsellyatsiya hodisasini turli tillar materiallari asosida tadqiq etgan tilshunoslar bu hodisaning til universaliyasiga oid ekanini ta’kidlar ekan, matn, uning bo‘laklanish va tashkillanish usullarini o‘rganishning kuchayib borishi bilan parsellyatsiya muammosi sintaksis tadqiqidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligiga e’tiborni qaratadilar. Ular ayni paytda “parsellyatsiya” termini fransuzcha “bo‘laklamoq, qismlarga ajratmoq,

¹¹⁰ **Хайдаров Ш.** Бадий матида парцелятив конструкцияларининг кўлланилиши. Филол.фан.номз...дис. -Тошкент, 2011.

¹¹¹ **Ваников Ю.В.** Явление парцеляции в современном русском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –М., 1965.-17с.; **Сквородников А.П.** О соотношении понятий “парцеляция” и “присоединение”. // Вопросы языкоznания. М.,1978. - №1 .-С. 118-129; **Ваников Ю.В.** Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи.- М.: Русский язык. – 1979. С. 95 и след.; **Виноградов А.А.** К вопросу о дифференциации явлений парцеляции и динамического присоединения, // Вопросы языкоznания. -М.,1981. - №3. -С. 98-110; **Рыбакова Г.Н.** Парцеляция сложноподчиненного предложения в современном русском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1969, 22 с.; **Турсунов Б.** Парцелированные придаточные предложения в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1975. -17с.

¹¹² **Хожиев А.** Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. –Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001.–Б.80.

maydalamoq” ma’nosidagi *parceller* so‘zidan olingenligi va matnni bo‘laklash usulini ifodalash uchun qo‘llanishiga urg‘u berib, parsellyatsiyaning ekspressiv sintaksisiga oid ekanligini ta’kidlaydilar.¹¹³ Bu o‘rinda shuni ham qayd etish joizki, lug‘atlarda “parsellyatsiya” so‘zining fransuz tilida “dehqon o‘z xo‘jaligini yuritishi uchun yerni kichik qismlarga (parsellalarga) bo‘lish” tarzidagi ma’nosи mavjudligi aytildi.¹¹⁴

Tilshunoslikda bu termin gapning ekspressiv maqsad bilan bo‘laklanishi, gapning ta’kidlanishi nazarda tutilgan muayyan qismining gap tashqarisiga chiqarilishiga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan: *Salim Toshkentda o‘qiydi. Institutda* (A.Jo‘rayev). Bu gap sintaktik me’yor bo‘yicha *Salim Toshkentda institutda o‘qiydi* shaklida bo‘lishi kerak. Bir gap bilan aytish mumkin bo‘lgan fikrni ikki gap orqali ifodalashdan kutilgan maqsad nima? Bu haqda badiiy til muammolari bilan shug‘ullanib kelayotgan tadqiqotchilar shunday fikr bildiradilar: “Og‘zaki nutqda, matnda ba’zan muloqot talabiga ko‘ra yaxlit bir jumlada uzelish sodir bo‘ladi. So‘zlovchi tinglochiga biror voqeа-hodisa haqida xabar berayotganda, mana shu xabar ichidagi eng muhim fikrni boshqalaridan ajratib, alohida ta’kidlab aytishga harakat qiladi. Ma’lumki, ta’kid og‘zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg‘u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda parsellyativ tuzilmalar – matn komponentlarini ekspressiv-stilistik maqsadga ko‘ra qayta tartiblash orqali namoyon bo‘ladi.”¹¹⁵ Yoki “parsellyatli tuzilmalardagi tartib mohiyat e’tibori bilan ta’sirchan so‘z tartibi bo‘lib, uslubiy jihatdan betaraf tuzilmali gap qismlarini kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda guruhlash, sintaktik jihatdan qayta o‘rinlashtirish sifatida ro‘yobga chiqadi. Gap tuzilmasini bu xilda qayta qurish (uning qismlarini sintaktik jihatdan qayta tartiblash) ma’lum qismni mantiqiy jihatdan ajratishga asoslanadi va o‘ziga xos ekspressiv ifoda shakli hamda funksional-semantik munosabatlar tarkib topadi.”¹¹⁶

Yuqorida keltirilgan gapdagи qaysi informatsiya eng muhim hisoblanadi? Salimning *Toshkentda* o‘qishimi yoki *institutda* o‘qishimi? Bizningcha, har ikkisi ham muhim. So‘zlovchi pozitsiyasidagi qahramon nazdida Salimning qaysi shaharda o‘qiyotganligidan ko‘ra qanday ta’lim maskanida o‘qiyotganligini ta’kidlash muhimroq (Agar uning qaysi shaharda o‘qishini ta’kidlash zaruriyat bo‘lsa, mazkur parsellyat pozitsiyasiga shahar nomi ham chiqarilishi mumkin, ya’ni: *Salim intstitutda o‘qiydi. Toshkentda*). Ayniqsa, uning institutda o‘qiyotganligini aytish barobarida ichki qoniqish,

¹¹³ Александрова О.В. Проблемы экспрессивного синтаксиса. –М.: Высшая школа, 1984. -С. 63.

¹¹⁴ Словарь иностранных слов. – 16-е изд., испрavl. –М.: Русский язык, 1988. –С.374.

¹¹⁵ Йўлдошев М., Ялгаров К. “Бадий матнининг лисоний тахили” фанидан амалий машгулотларни ташкил этиш. –Тошкент: ТДПУ, 2007. –Б.71.

¹¹⁶ Тошалиев И. Хозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик кайта бўлиниш. Парцелляция. Ўкув кўлланма. –Тошкент: Zarqalam, 2004. – Б. 88.

faxrlanish hissini tuyadi. Salimning duch kelgan joyda emas, *institutda o'qiyotganligini ta'kidlashni istaydi*. Bu istak ayni so'zni gap ichidan ajratib olish orqali qondiriladi. Demak, Salimning Toshkentda, institutda o'qishi haqidagi xabar standart shakl orqali, ya'ni *Salim Toshkentda institutda o'qiydi* tarzida deparsellyativ shaklda berilganida, mazkur jumlagaga qahramon ruhiyatidagi g'ururlanish hissi, emotsiyonal ta'kid singmagan va tabiiy tarzda kitobxon ham buni sezmagan bo'lardi. Buni sezdirishning yo'llari ko'p, masalan, yozuvchining o'zi bu haqda izoh berishi yoki boshqa kengaytiruvchi birliliklardan foydalanishi mumkin edi. Biroq muallif ortiqcha izohlarsiz ayni effektga erishishning yo'lini topadi. Ya'ni buning uchun parsellyatlari konstruksiya tarzida ifodalashni eng ma'qul yo'l deb biladi.

Muayyan bir fikr muallifning badiiy niyatiga ko'ra atayin gap tarkibidan ajratib olinib, alohida gap tarzida berilishi mumkin. Bunday vaziyatda ham keyingi konstruksiyalar o'zidan oldin kelgan gapning ifoda mazmuni bilan bir qatorda mantiqiy va poetik ta'kid oladi. Masalan: *Mamadali aka, ...bu taklifimning sizga yoqmasligi aniq. Chunki siz kundalik tushumdan ajralasiz. Biroq shaxsiy manfaatni umumnikidan ustun qo'yish yaxshi emas* (N.Norqobilov, "Quduq" hikoyasi). Ushbu parcha uchta gapdan iborat. Biroq mazkur gaplarda aytilgan fikrlarni odatdagagi tartib bilan bir gap doirasida berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazkur uchta gapni osonlik bilan bitta gapga birlashtirish, ya'ni murakkab qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Mamadali aka, ...bu taklifimning sizga yoqmasligi aniq, chunki siz kundalik tushumdan ajralasiz, biroq shaxsiy manfaatni umumnikidan ustun qo'yish yaxshi emas*. Agar shunday qilinganida, jonli nutqqa xos ixchamlilik, tabiiylik sezilarsiz darajaga tushgan hamda ifoda ta'sirchanligi bu qadar yuqori aks etmagan bo'lar edi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, muayyan gap strukturasini biror maqsad bilan o'zgartirish tarzidagi sintaktik-stilistik hodisa dunyo tilshunosligi tarixida juda ancha ilgaridan anglab yetilgan va turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, mashhur shveysar tilshunosi Sh.Ballining dastlabki nashri bundan rosa bir asr ilgari, ya'ni 1909 yilda chiqqan va keyin o'zgartirishlarsiz qayta nashr qilingan "Fransuz tili stilistikasi" nomli asarida mazkur hodisa "dislokatsiya" termini bilan nomlangan va uning o'ziga xosliklari bayon qilingan.¹¹⁷ Sh.Ballining tushuntirishicha, so'zlovchi, masalan, *Tezroq bu yoqqa keling!* ("Venez vite!") gapida ifodalangan fikrni emotsiyonal bir tarzda ifodalamoqchi bo'lsa, jumladagi ravishni fe'lga tobelikdan chiqaradi, ya'ni: *Bu yoqqa keling! Tezroq!* ("Venez! vite!"). Buning natijasida bitta jumla sintaktik jihatdan ikkita jumla maqomini oladi, ular alohida-alohida jumlalar sifatida ajratilgan holda idrok qilinadi. Hatto ularning o'rnini alamashtirish ham mumkin bo'ladi, ya'ni: *Tezroq! Bu yoqqa*

¹¹⁷ **Балли III.** Французская стилистика. -М.: Изд-во иностранной литературы, 1961. -С.355 – 357.

keling! (“Vite! venez!”). Sh.Balli shunday ta’kidlaydi: “Bu biz gap bo‘laklarining dislokatsiyasi deb atagan hodisaning eng oddiy misolidir. Ehtimol, bu hodisa so‘zlashuv tili sintaksisining eng xarakterli xususiyatlaridan biri (kamida fransuz tilida) sifatida qaralishi mumkin.” Ayni paytda atoqli olim dislokatsiya natijasida jumlaning tarkibiy unsurlari bir-biridan ajratilar va ajratilgan bu unsurlar ekspressiv urg‘uli “embrional” gaplarga aylanar ekan, tinglovchi butun mazmunni birdaniga emas, balki alohida-alohida qismlar, “porsiyalar” shaklida idrok etish imkoniyatiga ega bo‘lishini, shuningdek, dislokatsiya gap bo‘laklarining odatdagagi mantiqiy tartibining o‘ziga xos tarzda buzilishi bo‘lganligi uchun ham tinglovchi diqqatini tez jalb qilishi va o‘zida ushlab turishi bilan ham stilistik qimmatga molik ekanligini aytadi. Ko‘rinib turganiday, Sh.Balli tomonidan “dislokatsiya” termini bilan ifodalangan hodisa muayyan gap tarkibidagi bo‘laklarni u yoki bu stilistik maqsad bilan qayta joylashtirishdan iborat (zotan, *dislokatsiya* so‘zining ma’nosi “joylashtirish, qayta joylashtirish” demakdir¹¹⁸), bunda gap bo‘laklari yoki gap qismlari qayta joylashtirilar ekan, gapdan tashqariga chiqarilayotgan qism gapdan keyin ham, oldin ham qo‘ylaverishi mumkin. Aytish mumkinki, dislokatsiya parsellyatsiya hodisasini ham o‘z ichiga oladi, lekin parsellyatsiyaga qaraganda kengroq hodisa, chunki dislokatsiya gapdagi muayyan qismning gapdan oldinga chiqarilishini ham nazarda tutadi.

Fransuz tili stilistikasini tafsif etar ekan, K.A.Dolinin Sh.Ballining dislokatsiya haqidagi fikrlarini rivojlantiradi, emotsional sintaksis hodisasi bo‘lmish dislokatsiyaning turli ko‘rinishlarini tahlil qiladi va parsellyatsiyalangan konstruksiylar ham ayni shu dislokatsiya hodisasining mahsuli ekanligini, dislokatsiyaning bir ko‘rinishi ekanligini aytadi.¹¹⁹

Gap sintaktik strukturasining bunday nutqiylar bo‘laklanishi E.V.Guliga, A.A.Andriyevskaya, V.G.Admoni kabi ayrim tadqiqotchilar tomonidan “separatizatsiya” termini bilan nomlanib o‘rganilgan, bu hodisaning badiiy nutqdagi o‘rniga alohida urg‘u berilgan.¹²⁰ *Separatizatsiya (separatsiya)* so‘zining “ajratish, tarkibiy qismlarga bo‘lish” ma’nosidan¹²¹ kelib chiqilsa, mazkur termin ayni hodisaning mohiyatini ifodalay olishini ta’kidlash mumkin. Ammo aytish joizki, bu tilshunoslarning ba’zilari, masalan, nemis tili sintaksisining taniqli tadqiqotchisi V.G.Admoni “separatlashtirilgan konstruksiylar”ni ilova konstruksiylar bilan bir xil hodisa sifatida talqin qiladi. U bunday konstruksiyalarning mohiyati elementar gapga xos bo‘lgan

¹¹⁸ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –Б.627.

¹¹⁹ Долинин К.А. Стилистика французского языка. –Л.: Просвещение, 1978. -С. 256.

¹²⁰ Ваников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. –М.: Русский язык, 1979. –С. 92-94.

¹²¹ Словарь иностранных слов... –С. 460.

sintaktik aloqalarning uzilishi, buzilishidan iboratligini aytadi.¹²² Hamonki, “separatizatsiya”ning mohiyati gapga xos bo‘lgan sintaktik aloqalarning buzilishidan iborat ekan, uni ilova konstruksiyalar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki “ilova”da keyin qo‘shilganlik ta’kidi hamisha mavjud, ya’ni oldin tayyor gap bor, keyin unga qo’shimcha qilib, boshqa tuzilma tirkaladi. Separatizatsiyada esa mohiyatan muayyan sintaktik tuzilmaning mavjudligi, ayni shu tuzilmaning o‘zini qismlarga ajratish nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, separatizatsiya butunni qismlarga ajratish, ilova esa muayyan butunga boshqa qismni qo’shishdan iborat hodisalardir. Ana shu ma’noda parsellyatsiya separatizatsiyaning bir turi sanaladi.

Gapning nutqiy bo‘laklanishi nemis tilining E.I.Shendels, E.Rizel kabi yana boshqa tadqiqotchilarini tomonidan “izolyasiya” termini ostida ham o‘rganilgan. Bunda, albatta, muayyan gapdan ma’lum bir qismni ajratib alohidalashga urg‘u berilgan. Shubhasizki, bunday alohidalash parsellyatsiyaning mohiyatiga ham xosdir.

Gapni nutqda muayyan qismlarga – segmentlarga ajratish hodisasi tilshunoslikda “segmentatsiya” nomi bilan ham yuritiladi. Sh.Ballidan boshlangan segmentatsiya nazariyasi¹²³ turli tilshunoslari tomonidan rivojlanтирildи, bu hodisaning matnni ekspressiv bo‘laklash, ekspressiv konstruksiyalarni shakllantirish va shu asosda tegishli birliklarning mantiqiy va poetik aktuallashtirish uchun juda katta imkoniyatlar manbai ekanligi turli tillar materiallarida tahlil etildi.¹²⁴ Tabiiyki, segmentatsiya deyiladigan bu nutqiy hodisa turli-tuman kommunikatsiya jarayonlarida so‘zlovchining u yoki bu estetik maqsadiga uyg‘un holatda xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘ladi,¹²⁵ albatta, parsellyatsiyani ham segmentatsiyaning ana shunday ko‘rinishlaridan biri deb qarash mumkin.

Rus tilshunosi N.Y.Shvedova gapning yuqoridagi kabi nutqiy bo‘laklanishi hodisasini “sintagmalar aktualizatsiyasi” deb nomlaydi. Uningcha, sintagmalarini ta’kidli pozitsiyaga chiqarish, ya’ni muayyan sintagmalarini gapning yo boshiga, yoki oxiriga chiqarish yo‘li bilan sintagmalar aktualizatsiyasi voqe bo‘ladi.¹²⁶ U shunday yozadi: “Eng ta’sirchan usul sintagmani alohida gaplarni ajratishga xizmat qiladigan pauza bilan ajratib, gap oxiriga chiqarishdir. Bunday ajratib olish ayini sintagmaga nisbiy mustaqil ma’no beradi. Bu hodisa ... nutqni ekspressiv maqsadda

¹²² Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. –Л.: Наука, 1973. –С.354-355.

¹²³ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М., 1955. –С. 75.

¹²⁴ Акимова Г.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. –М.: Высшая школа, 1990. – С. 87-92.

¹²⁵ Рогожникова Р.П. О соотносительных конструкциях простого и сложного предложения, построенных по принципу сегментации // Мысли о современном русском языке. –М.: Просвещение, 1969.-С.118 – 125; Долинина К.А. Стилистика французского языка. –Л.: Просвещение, 1978. –С. 191-195.

¹²⁶ Шведова Н.Ю. Активные процессы в современном русском языке. –М.: Просвещение, 1966. –С. 144.

bo'laklashning eng keng tarqalgan usullaridan biriga aylangan." Bu ta'sirchan usul esa, albatta, parsellyatsiyaning o'zidir. Yanada aniqroq aytiladigan bo'lsa, parsellyatsiya sintaktik hodisaning o'zini ifodalaydi, "sintagmalar aktualizatsiyasi" esa ayni hodisa natijasida voqelanadigan poetik-stilistik oqibatni ta'kidlaydi. Shuning uchun ham mazkur sintaktik hodisani ifodalash uchun N.Y.Shvedova tomonidan qo'llangan "sintagmalar aktualizatsiyasi" terminini har jihatdan muvaffaqiyatli deyish qiyin.

Parsellyatsiya yagona sintaktik strukturining – muayyan gapning bir necha kommunikativ mustaqil birlıklar, ya'ni jumlalar tarzida nutqiyo tasavvur qilish usuli sifatida nutq universaliyalaridan biri ekanligi – deyarli barcha tillarga xosligi tilshunoslar tomonidan, yuqorida aytib o'tilganidek, ko'p bor ta'kidlangan.¹²⁷ Shubhasiz, bu hodisa qanchalik universaliya xarakteriga ega bo'lmasin, uning nutqda voqelanish mexanizmlari xilma-xil bo'lib, har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

I.Toshaliyev zikr qilingan o'quv qo'llanmasining uchinchi qismida parsellyativ tuzilmalarining ikki turi haqida atroficha ma'lumot bergen: "Parsellyatlarning sintaktik-sintagmatik va asosiy gapga bog'langanlik darajasiga qarab ikki turimi farqlash mumkin. Birinchisi asosiy gapga mazmun va shakl jihatdan uzviy bog'liq bo'lgan parsellyatlardan iborat bo'lib, ularni asosiy gapning tarkibiy qismi sifatida osonlik bilan qayta tiklash mumkin. Ikkinci turga esa bunday xususiyatga ega bo'lmanan nisbatan mustaqil parsellyatlar kiradi. Birinchi turga mansub parsellyatlar, odatda, yo'l-yo'lakay qo'shimcha sintagma sifatida yordamchi izoh, tafsilot sifatida yuzaga keladi. Ikkinci turdag'i parsellyatlar predikativ asosni kengaytirish, fikrni rivojlanitirish, ikkinchi yo'nalihsdag'i axborotni (ba'zan tagmatnni) bayon qilish vazifasini o'taydi." Bu izohlardan ko'rinishi, olim ilovalarni ham parsellyatsiyaning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida talqin qilgan.

Badiiy matnning tuzilish e'tibori bilan nihoyatda murakkab hodisa ekanligi mutaxassislar tomonidan ko'p ta'kidlangan: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi."¹²⁸

Muallifning voqelikka nisbatan subyektiv munosabatini ifodalashda, qahramon qiyofasi, ruhiyati va harakat tarzini batatsil tasvirlashda, muayyan bir xabarning tegishli jihatlarini mantiqiy va poetik ta'kidli ifodalashda, qahramonlarning faoliyat o'mni va tabiat manzarasini atroficha tasvirlashda,

¹²⁷ Алексеенко И.В. Парцелляция как грамматическая структура речи (на материале произведений английского языка):Автореф. дисс....канд. филол. наук. –М., 2006. –С.10; Ступкина М.О. Парцелляция в современном болгарском языке (на материале художественной прозы). Дис. ...канд. филол. наук. –Санкт-Петербург, 2008. –С. 10-11.

¹²⁸ Йулдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. –Б.88.

jonli og‘zaki nutqqa xos xususiyatlarni tugal ifodalashda bunday konstruksiyalardan keng foydalaniladi. Shu ma’noda parsellyatsiyani badiiy matn doirasida o‘rganish har tomonlama maqsadga muvofiq. “Chunki parsellyat mohiyati jihatidan gapning emas, balki bog‘li nutqning (katta kontekstning) alohida halqasi sifatida namoyon bo‘ladi – maxsus tuzilmaviy mazmunning qismi hisoblanadi. Demak, pratsellyasiya gapning, matnning muayyan nutq jarayonidagi funksional bo‘linishi, kommunikativ ahamiyatini aks ettiradi. Matnning semantik-sintaktik va ritmo-melodik qurilishini belgilashda, o‘zgartirishda ishtirok etadi.”

Mahoratlari yozuvchilar o‘z asarlarida parsellyativ tuzilmalardan alohida, aniq maqsadlar bilan foydalanadilar. Badiiy asardagi muallif nutqida parsellyatsiyaga asoslangan gaplar ifodaning tez, oson va huzurli anglanishiga ko‘maklashadi. Shukur Holmirzayevning “Tabassum” hikoyasi Jalil akaning og‘ir dardga yo‘liqishi tasviri bilan boshlanadi: *Jalil aka deraza tagida yotardi. To’shakda. Bolishi baland. Unga suyanib, boshini ko’tarsa, bog’ni ko’radi. O’zi obod qilgan bog’ u.*

Mazkur parcha beshta gapdan tashkil topgandek ko‘ringani bilan, aslida, ikkita gapning qayta tarkiblangan shaklidir. Ya’ni: *Jalil aka deraza tagida, baland bolishli to’shakda yotibdi. Bolishga suyanib, boshini ko’tarsa, o’zi obod qilgan bog’ni ko’radi.* Yaxlit gapning nima sababdan “bo‘laklangan”ligi haqida mulohaza yuritish orqali muallif maqsadining mohiyatiga etish mumkin. Hikoyaning birinchi jumlasini o‘qigandyoq, bexosdan etni junjiktirgувчи qandaydir noxush kayfiyat uyg‘onadi. Nega aynan “deraza tagida yotibdi” degan savolga javob izlashga shoshilamiz. Birinchi gap tarkibidan uzib olingen *To’shakda* parsellyati o‘sha tushkunlikni yanada quyuqlashtiradi. *To’shak so‘zining mazmunida kasallikka ishora ma’nosи ham yo‘q emas.* Bu ma’nomi reallashishida “to‘sakka mixlanib qolmoq”, “ko‘rpa-to’shak qilib yotib olmoq” kabi iboralarning mavjudligi sabab bo‘lgan, desak yanglishmaymiz. Demak, Jalil aka betob! Dastlabki xulosamizni uchinchi parsellyat ham asoslaydi. *Bolishi baland!* Nega bolishning balandligi alohida gap shaklida berilgan? Aslida, bu gap ham avvalgi gaplar mohiyatini teranlashtirishga, ifoda ta’sirchanligini ta’minalashga xizmat qilgan. Zero *baland bolish* birikmasi qaysidir ma’noda bir joyda yotaverib, ko‘p aziyat chekkkan bemor holatini ham ifodalaydi. *To’rtinchi* gap tarkibidagi *unga olmoshi va suyanib so‘z shakli o‘zidan oldingi va keyingi gaplarni mazmunan zich bog‘lanishini ta’minalaydi.* YA’ni bolishga suyanib boshini ko’tarsa, bog’ni ko’radi. U shunchaki bog‘ emas, balki o‘zi obod qilgan bog‘. Oxirgi gapning parsellyat sifatida ajratilishi ham ana shu ma’noni ta’kidlaydi.¹²⁹

¹²⁹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007. –Б.41.

Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, bu nutqning tabiiyligini ta'minlashda ham parsellyativ konstruksiyalarga murojaat qilinadi. Aslida parsellyatsiya og'zaki nutqning "fotografik" ifodasi uchun favqulodda mos konstruksiya hisoblanadi. Chunki parsellyatsiyaning yuzaga kelishi mohiyatan og'zaki so'zlashuv nutqi bilan bog'liqidir. Aksar tadqiqotchilar bu holatga alohida urg'u beradilar. Masalan, G.N.Akimova shunday yozadi: "Ekspressiv yozma konstruksiyalarning ko'pchiligidagi og'zaki nutqning kuchsiz unsuri bo'lmish so'zlashuv substrati mavjud deb hisoblaymiz... Parsellyatsiyalangan konstruksiyalarning substrati, aniqki, so'zlashuvdagi ilova konstruksiyalardir." Ma'lumki, so'zlashuv nutqi sintaksisi o'zining ancha "erkin"ligi bilan xarakterlanadi, unda fikr bayonidagi erkinlik jumlanishi bo'laklash, uzib qo'yish yoki muayyan qismalarni qo'shish kabi xilma-xil sintaktik transformatsiyalarining voqelanishiga imkoniyat yaratadi.¹³⁰ Bunday sintaktik konstruksiylar, tabiiyki, muallifning turli poetik, stilistik niyatlarini ifodalash, mantiqiy ta'kidlash, ekspressiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayni paytda jonli so'zlashuvday tirik jarayon tasavvurini ham tug'diradiki, bu badiiy matnning estetik ta'sirchanligi uchun juda ham muhimdir. Masalan: *Uylantirmoqchimisz? Uylantiring! Mana, men tayyorman! Munirani olib bering. Haydar amakimning qizini. Qo'lingizdan kelsa!* (E.A'zam, "Javob" qissasi). Bu parchada *Munirani olib bering. Haydar amakimning qizini. Qo'lingizdan kelsa!* tarzidagi uchta jumla bir parsellyativ konstruksiysi tashkil etgan. Odatda, parsellyatni asosiy gap tarkibiga (gap strukturasidan "uzib" olingani bois) osongina qayta kiritish, ya'ni deparsellyatsiyalash mumkin bo'ladi. Mazkur parsellyativ konstruksiyaning deparsellyativ shakli *Qo'lingizdan kelsa, Haydar amakimning qizi Munirani olib bering* tarzidagi bitta qo'shma gapdir. Ammo bu qo'shma gapda fikr oqimidagi muayyan qismalarning alohida ta'kidlanishi, ekspressiv-emfatik urg'u olishi mavjud emas. Ayni paytda jonli so'zlashuvga xos "erkin" sintaktik-kommunikativ struktura ham ko'zga tashlanmaydi. Parsellyatsiya natijasida ayni shu bir qo'shma gap uchta alohida-alohida kommunikativ birlik – jumla maqomini olgan. Asosiy gapdan tashqariga, ya'ni emfatik pozitsiyaga chiqarilishi oqibatida *Haydar amakimning qizini* shaklidagi to'ldiruvchi va *Qo'lingizdan kelsa* shaklidagi gap kuchli mantiqiy-ekspressiv ta'kid olgan, poetik aktuallik kasb etgan. Tabiiyki, og'zaki nutqda qat'iy, "bir chiziqli", standart konstruksiyalarga nisbatan kam murojaat qilinadi. Og'zaki nutq kutilmaganlik, nostonstandartlik xususiyatlariga egaligi bilan diqqatga molikdir. Mazkur parsellyativ konstruksiya keltirilgan parchada ana shunday og'zaki nutq tasavvurining yuzaga kelishiga ham to'la imkoniyat yaratgan. Aytish joizki, badiiy matnda yozuvchi ayni og'zaki nutq tasavvurini tug'dirish uchun ancha mehnat qiladi, ya'ni og'zaki nutqdagi

¹³⁰ Лаптева О.А. Русский разговорный синтаксис. –М.: Наука, 1976. -С. 264.

tayyorgarliksiz, spontan jumlanı yaratış uchun yozuvchi jiddiy tayyorgarlik qiladi, o‘ylanadi, og‘zaki nutqdagi eng maqbul modelni tanlaydi va unga ishlov beradi.¹³¹

Bu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlab o‘tmoq joizki, shu birgina misol tahlilidan ham ko‘rinib turganiday, parsellyatsiya stilistik, umuman, poetik polifunksionallik xarakteriga ham ega. Boshqacha qilib aytganda, parsellyatsiya, bir tomondan, emfatik ta’kid, nisbiy kommunikativ mustaqillik, shu asosda xilma-xil emotsiyalarning ifodalanişiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, badiiy matn tiliga, xususan, personajlar nutqiga jonli so‘zlashuv ottenkalarini, tirik nutq bo‘yog‘ini berishga ham ko‘maklashadi.

Umuman, har qanday “so‘z yoki boshqa birlikning badiiy matndagi poetik, estetik qimmatini baholash uchun matndan uzib olingan kichik bir parcha etarli emasligi yanada oydin bo‘ladi.”¹³² Shuning uchun parsellyativ konstruksiylar mohiyatini ochishda ham badiiy matnni yaxlit estetik butunlik sifatida idrok etish maqsadga muvofiqdir. Ma’lum bir asardan olingan misol tahlili jarayonida ham ayni fragmentning asar butuniga aloqadorligi nazarda tutilmog‘i lozim. Chunki nega aynan shu tarzdagi konstruksiya tanlangani bir gap doirasida aniq anglashilmaydi. Buning uchun misolni, albatta, kattaroq kontekst bilan aloqalantirilgan holda idrok etish lozim bo‘ladi.

Badiiy matnning lisoniy to‘qimasi ko‘zdan kechirilsa, parsellyativ konstruksiylarning alohida estetik maqsadlar ifodasi uchun qo‘llanishi o‘ziga xos qonuniyat darajasiga ko‘tarilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Parsellyatsiyada adabiy me’yor talablariga muvofiq shakllangan gap muayyan estetik maqsadlar asosida qayta tartiblanadi. Bu tarzdagi “qayta tartiblash” faqatgina badiiy asar matni uchun xos hodisadir. CHunki badiiy asardagi har qanday nutq ko‘rinishi bevosita muallifning badiiy-estetik g‘oyasiga muvofiq shakllantiriladi. Masalan: *Ochil buvaga u doim tirikday, qadrdon suhbatdoshday tuyuladi. Dono suhbatdosh. Yoshi allaqachon mingdan oshib ketgan.* (A. Muxtor, “Chinor”) Parchadagi birinchi gap, aslida, keyingi gaplarni o‘z ichiga olgan holda kengayishi mumkin. Ya’ni: *Ochil buvaga u doim tirikday, yoshi allaqachon mingdan oshib ketgan, dono, qadrdon suhbatdoshday tuyuladi.* Yozuvchi bu tarzdagi ifodaning ta’sir kuchi zaifligini yaxshi bilganligi bois mazkur monologik nutqni “parchalashni” ma’qul ko‘radi. “Parchalangan” va “qayta tartiblangan” nutq ko‘rinishida Ochil buvaning ming yillik chinor daraxti qarshisidagi ruhiy holati mohirona tasvirlangan. Ikkinchi va uchinchi gap shaklida kelgan parsellyat chinorning shunchaki bir daraxt emas (*doim tirik, yoshi allaqachon mingdan oshib ketgan, dono va qadrdon suhbatdosh*)ligiga, qahramon uchun nihoyatda

¹³¹ Винокур Т.Г. К вопросу о норме в художественной речи // Синтаксис и норма. –М.: Наука, 1974. –С. 278.

¹³² Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008.–Б.101-102.

ardoqli ekanligiga kitobxonni ishontiradi. Ko‘rinib turganidek, parsellyat gap birinchi gap tarkibidagi qaysidir bo‘lak mazmunini kengaytirish maqsadida qo‘llanilmoqda.

Quyidagi misolda ham shunga o‘xhash holatni kuzatish mumkin: *Botayotgan quyosh nurida uzoqdan bir nima oltinday charaqladi. Bu haykal edi. Bronzadan byust.* (A. Muxtor, “Chinor”) Asosiy gap tarkibida ishlataligan “bir nima”ning “nima, qanday narsa ekanligi” parsellyat gap shaklida ta‘kidlanmoqda.

Nemis va o‘zbek tillaridagi parsellyatsiyalangan yergash gaplarni qiyosiy o‘rgangan B.Tursunov yergash gaplar parsellyatsiyasining yuzaga kelishidagi mazmuniy-grammatik omillarni to‘rt guruhga bo‘lib tadqiq etgan: 1.Sabab-izoh mazmunli parsellyatlar. Bunday konstruksiyalar *chunki, negaki, shuning uchun, shu tufayli, shu sababli* kabi vositalar yordamida shakllanadi. 2.Shart mazmunli parsellyatlar. Bunday konstruksiyalar *agar, bordi-yu* vositalari bilan shakllanadi. 3.O‘xhatish mazmunini ifodalovchi parsellyatlar. Bunday konstruksiyalar *go‘yo, go‘yoki, xuddi* o‘xhatish vositalari bilan shakllanadi. 4.Maqsad mazmunini ifodalovchi parsellyatlar. Bunday konstruksiyalar *toki* vositasi bilan shakllanadi.¹³³ Shuningdek, ishda turli yordamchi so‘zlarsiz ham shakllanishi mumkin bo‘lgan parsellyativ qurilmalar haqida nazariy ma‘lumot berilgan. Badiiy matnda parsellyatsiyaning, aynan, mana shunday turi alohida lingvopoetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo mazkur ishda bunday qurilmalarning badiiy nutqdagi realizatsiyasi haqida fikr yuritilmagan. Tabiiyki, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bu emas, balki parsellyativ qurilmalarning sintaktik va semantik mohiyatini ikki noqarindosh tilda qiyosiy o‘rganishdan iborat bo‘lgan.

Parsellyatsiyani sof struktur sintaksis nuqtayi nazaridan o‘rganib bo‘lmaydi, bunday qilinganda, maqsad mavhum bo‘lib qoladi. Chunki aksariyat tilshunoslar haqli ravishda ta‘kidlaganlariday, parsellyatsiyaning mohiyati muayyan sintaktik strukturani muayyan maqsad bilan nutqda kommunikativ qayta bo‘laklash, sintaktik strukturadagi muayyan qismni gapning oxiriga alohida jumla maqomida chiqarishdan iborat. Bu borada V.A.Beloshapkovaning gapni til birligi, jumlanı nutq birligi sifatida talqin qilgan holda bildirgan quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Gap va jumlaning chegaralari bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bitta grammatic strukturna bir necha alohida xabarlargacha bo‘laklanishi mumkin. Bu hodisa “parsellyatsiya” deb nomlanadi. U badiiy adabiyotda juda keng kuzatiladi.”¹³⁴

¹³³ Турсунов Б. Парцеллированные придаточные предложения в немецком и узбекском языках: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Л., 1975. – С.14-15.

¹³⁴ Белошапкова В.А. Современный русский язык. Синтаксис. –М.: Высшая школа, 1977. -С. 157.

Shuning uchun ham parsellyatsiya hodisasining kommunikativ va ekspressiv sintaksisiga daxldorligi ayni muammoni o'rgangan deyarli barcha tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Bundan kelib chiqilsa, parsellyativ konstruksiylar shaklidagi birliklarda sintaktik struktura bilan kommunitativ (ekspressiv) struktura o'rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga chiqishini tasavvur etish mumkin. G.I.Skepskaya parsellyatsiyalangan frazalarning yuzaga kelishini fransuz tilshunosi G.Giyom aniqlagan qonun asosida tushuntirish mumkin ekanligini aytadi. Bu qonunga ko'ra, sintaktik birlikning grammatik shakllanganlik darajasi uning ekspressivlik darajasiga teskari proporsionaldir. G.I.Skepskaya shunday yozadi: "Bu qonun "**grammatik ifoda + ekspressivlik = birlik**" formulasi orqali tasavvur qilinishi mumkin. Agar bu formulada ekspressivlik nolga intilsa, unga muvofiq grammatik shakllanganlik o'zining to'liq ifodasini topadi. Aks holatda esa, ya'ni ekspressivlik kuchaysa, grammatik tuzilish nolga yaqinlashadi."¹³⁵ Bu qonunda konstruktiv va kommunikativ (ekspressiv) sintaksislар o'rtasidagi mazkur nomutanosiblik juda ham yaqqol ifodalangan.

Parsellyatsiya natijasida mohiyatan bir sintaktik gap ikki kommunikativ jumлага aylanadi, bir sodda sintaktik shaklda ifodalanadigan fikr ikki kommunikativ shaklda ifodalanadi. Mazkur nomutanosiblikning zamirida til vositalarining ortiqchaligi tamoyili yotadi, chunki prof. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, bunday holatlarda "ortiqchalik prinsipining mohiyatiga ko'ra sodda mazmun murakkab forma orqali ifodalangan. Albatta, bu holat mantiqiy ravishda gapda semantik-sintaktik asimmetriyani yuzaga keltiradi";¹³⁶

Kommunikativ vazifa va jumla tuzilishi muammosini nemis tili materiallari asosida tadqiq etgan A.A.Margaryan gap va matnga kommunikativ sintaksis nutqtayi nazaridan yondashishning favqulodda muhim ekanligini aytar ekan, bunday yondashuvda kommunikatsiya jarayonida faol qo'llanadigan juda katta miqdordagi "nostandard" konstruksiylar tadqiqtchi e'tiboridan chetda qolmasligini, tadqiqtchingin "kuzatuv maydoni kengayishi"ni ta'kidlaydi.¹³⁷

Bu o'rinda yana bir jihatni aytib o'tish maqsadga muvofiq. Parsellyatsiya og'zaki nutq hodisasimi yoki u yozma nutqqa tegishlimi tarzidagi savolning javobi borasida ham tilshunoslikda muayyan munozara mavjud. Ammo juda ko'p tadqiqtchilar parsellyatsiyaning substrati og'zaki nutq bo'lsa-da, uning yozma nutqqa oid ekanligini takror va takror ta'kidlab

¹³⁵ Скепская Г.И. Введение в синтагматику. –М.: Высшая школа, 1979. -С. 104.

¹³⁶ Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. -Б.13.

¹³⁷ Маргариан А.А. Коммуникативная функция и структура высказывания. –Ташкент: Фан, 1988. -С. 6, 31.

ko'rsatadilar.¹³⁸ Ba'zi tadqiqotchilar "tipik ekspressiv strukturalar bo'lmish parsellyatsiyalangan konstruksiyalarning asosiy ko'rsatkichi nuqta" ekanligiga alohida urg'u beradilar, tegishli faktik misol keltirib, "...bu o'rinda nuqta gap oxirining emas, balki qo'shimcha stilistik, ta'kidli, mazmuniy vazifalarni bajaruvchi parsellyatsiyaning bo'linish joyining ko'rsatkichidir" degan fikrni ilgari suradilar. Keyingi yillardagi tadqiqotchilar parsellyat va asos qism o'rtasida final tinish belgilari, ya'ni nuqta, ko'p nuqta, so'roq, undov belgilari qo'yilishini alohida ta'kidlaydilarki¹³⁹, bu fikrga to'la qo'shilish mumkin. Ammo ayni paytda parsellyat asosiy qismdan tire bilan ham ajratilishi mumkinligini ta'kidlamoq ham joiz.

Parsellyatsiyaning yondosh hodisalardan farqi

Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalar bir qator o'xshashliklarga ega bo'lsa-da (xususan, har ikkisi ham asosiy gapdan keyin joylashadi, asosiy gapdan intonatsion ajratiladi va h.k.), ularni alohida-alohida hodisalar sifatida baholashga asos bo'ladigan jiddiy farqlar mavjud: 1) parsellyativ konstruksiyalarda parsellyat hamisha alohida kommunikativ birlik maqomida bo'ladi, ilovali konstruksiyalarda esa ilovaning kommunikativ birlik maqomida bo'lishi shart emas, shuning uchun ham parsellyat asosiy gapdan hamma vaqt final tinish belgilari bilan ajratiladi, ilova esa asosiy gapdan final va nofinal tinish belgilari bilan ajratilaveradi; 2) parsellyatsiya gapning funksional tomoniga, dinamik strukturasiga xos hodisa, ilova esa gapning statik strukturasiga xos hodisadir; 3) parsellyativ konstruksiyanı leksik-grammatik tarkibni o'zgartirmagan holda deparsellyatsiyalash mumkin, ilova esa asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik-grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira olmaydi; 4) parsellyatsiyada mayjud ma'lumotning muhim qismi ajratiladi, ilovada esa qo'shimcha ma'lumot ifodasi ilova qilinadi; 5) parsellyatsiyalangan va ilovali konstruksiyalardagi sintaktik jarayonlarning yo'nalishi bir-biriga teskari: parsellyatsiyadagi sintaktik jarayon harakati bazaviy gapdan o'ngga yo'nalgan, ilovali konstruksiyalarda esa sintaktik jarayon harakati bazaviy gap tomon, ya'ni chapga yo'nalgan - markazga intilgan bo'ladi.

Segmentatsiya ham, parsellyatsiya ham ekspressiv sintaksisdagi o'ziga xos usul bo'lib, bir qator o'xshashliklarga (har ikki hodisaning ham mohiyati

¹³⁸ Сиротинина О.Б. Современная разговорная речь и ее особенности. – М.: Просвещение, 1974. –С. 95; Левин В.Д. Литературный язык и художественное повествование // Вопросы современной русской литературы. –М.: Наука, 1971. –С. 67.

¹³⁹ Зеленукин Р.О. Парцеляция в художественной прозе В.Токаревой: структура, семантика, текстообразующие функции. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –М., 2007.-С.7; Ступкина М.О. Парцеляция в современном болгарском языке (на материале художественной прозы): Дисс. ...канд. филол. наук. –Санкт-Петербург, 2008. -С. 17, 28, 43.

yaxlit sintaktik butunlikni bo‘laklab, ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratishdan iborat; parsellyativ konstruksiya deparsellyatsiyalana bilgani kabi segmentlangan konstruksiya ham desegmentatsiyalana oladi) ega, ammo ularni alohida-alohida hodisalar sifatida baholashga imkon beradigan farqlar mavjud: 1) segmentatsiya ta’kidlanmoqchi bo‘lgan bo‘lak (qism)ni asosiy gapning oldiga alohida kommunikativ birlik sifatida chiqarish, parsellyatsiya esa ta’kidlanmoqchi bo‘lgan bo‘lak (qism)ni alohida kommunikativ birlik maqomida gapning oxiriga chiqarishdir; 2) segmentatsiya natijasida ajratilgan qism o‘zbek tilida asosiy hollarda atov gap maqomida bo‘ladi, parsellyatsiya natijasida ajratilgan qism esa turli kommunikativ-sintaktik strukturali jumla bo‘lishi mumkin.

Parsellyatsiya va parantezalar o‘rtasida ayrim o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, ularning shakllanish tamoyillari tamoman farqlidir, ya’ni parsellyatsiyada mavjud gap ikki kommunikativ birlikka ajratiladi, biri gapdan tashqariga – gapning oxiriga chiqariladi, parantezada esa mavjud gap tarkibiga boshqa gap yoki nokommunikativ birlik kiritiladi. Parsellyat hamisha kommunikativ birlik bo‘lgani holda parantezaning hamisha ham kommunikativ birlik bo‘lishi shart emas.

Parsellyat kommunikativ birlik, ajratilgan bo‘lak esa mustaqil kommunikativ birlik emas. Ayni paytda ajratish gap strukturasining ichida, undan tashqariga chiqmaydi, parsellyatsiya esa mohiyatan gapdan tashqariga chiqadi, ya’ni ajratilgan qism bazaviy gapdan tashqariga – gapning oxiriga chiqadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Parsellyatsiya nima?
2. Parsellyatsiyaning dunyo tilshunosligida o‘rganilishi haqida ma’lumot bering.
3. Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalari o‘rtasidagi farqni izohlang.
4. Parsellyatsiya va segmentatsiya o‘rtasidagi farqni izohlang.
5. Parsellyatsiya va parantezalar o‘rtasidagi farqni izohlang.
6. Parsellyatsiya va ajratilgan bo‘lak o‘rtasidagi farqni izohlang.

MATN VA UNING LINGVISTIK TAHLILI. BADIY MATNNING FONETIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI

Badiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariiga ham alohida e’tiborni qaratish zarur. She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. She’riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar

takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasarda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarни noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga **fonografik vositalar** yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san'ati bilan bog'liq bo'lman ravishda, so'zning, so'zdagi harflarning talaffuzi bilan bog'liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbai bo'lgan edi. Ular so'z tarkibiga singib o'ziga xos ma'no va ohang kasb etib ulgurmagan tovushlarga ham o'zgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, «r» – tezlikning, shiddatning ramzi, «l» - viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi, «i» - torning, «a» - kattaning, «e» - abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiatini bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar «u», «d», «r» tovushlari dahshatni yodga solishi, «i» xursandchilikning, «m», «n», «l» tovushlari nazokatning sirli ramzlarini ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan.¹⁴⁰

Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istik, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalardan** foydalanadilar. Masalan:

1.Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanishi ta'kidlanadi.¹⁴¹ Masalan, **belgining kuchsizligi:** Ortiq jizzaki ko'rmaslik uchun bos-i-iq tovush bilan dedi... (P.Qodirov). **Belgining ortiqligi:** Uzo-oq yo'l, ahyo-onda bir keladi, qato-or imoratlar, o'yla-ab tursam, o'g'lim, dunyoni ishi qiziq.(A.Muxtor) «Sharq» sahnasi bilan «Turon»ning to'rtta karnayi: g'o-o-o-o-ot, g'o-o-otu-u-u g'o-o-o-ot! G'ort-g'ort-g'ort! Ha, tovushing o'chkur, ha, egasiz qolq'ur!! (A.Qodiriy)

- Qadrlasangiz, qani, siz ham bir duo bering,-dedi muallim. – **Bi·ir** tomosha qilib, gullar terib kakliklariningizni sayrashimi eshitib ketaylik.

¹⁴⁰ Кухаренко В.А. Интерпретация текста. –М.: Просвещение, 1988.

¹⁴¹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Т.: Фан, 1983.

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan **hayratlanishi**, **taajjubga tushishi** kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi. Masalan:

- Marhamat... **O‘-o‘**, kaklikning sayrashini dedingizmi? – Uning manglayi tirishib va g‘ijinib davom etdi: - Biz ham sizga qo‘shilib eshitar ekanmiz-da? (Sh. Xolmirzaev)

- **O‘-o‘o‘**, okaxon, tuda-suda to‘laysiz-da. (SH. Xolmirzayev)

- **A-a-a**, o‘sha sizmidingiz, buni qarang-a, tanimapman. Uyimizga yana bir kelgan ekansiz. Yo‘qligimni qarang-a.(S.Ahmad)

Men o‘zimning odmi plashimni ham devordan daromad qilib yasalgan shifonerga ildim. – **O-o!** – deb yana o‘zi ichkariga yo‘l tortdi Tavakkal.- Yaxshi-ii... A, Gulsara? Bir kishiga bo‘ladi-da! (Sh. Xolmirzayev)

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda **xitob**, **chaqirish**, **da‘vat**, **tinglovchi e’tiborini jalb qilish** kabi maqsadlarda ham foydalanilishini kuzatish mumkin. Masalan, **chaqirish**:

Ziyodni onasi paxtazor qarab-paxtazor qarab chaqiradi:

-Ziyod-u-u-u!

Men Ziyodni onasi qo‘lidan tortib-tortib yig‘lab qo‘yaberaman.

Yuring ketamiz, momo! – deydi . – Yuring ketamiz, hozir samolyot keladi!

Ziyodni onasi gapimni korlamaydi. Entikib-entikib chaqiradi:

-Ziyod-u-u-u!

Ziyodni onasi o‘pkasi to‘lib-to‘lib chaqiradi:

-Ziyod-u-u-u! (T.Murod)¹⁴²

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me’yor bo‘yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So‘zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik kabilalar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me’yordan ortiqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyligi (bir onda ro‘y bergenligi), takroriyligi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma’nolar ifodalangan bo‘ladi. Masalan, **belgining ortiqligi**: Ayyorlikda **uchchiga** chiqqanman deb maqtansam yolg‘on emas (Oybek). O‘zim shu baytni yakkaxonlik qilmoqdaman: Dardi yo‘q - kessak, Ishqi yo‘q - **eshshak!** (A.Qodiriy)¹⁴³

Harakatning davomiyligi: –Mening xotnim bo‘lib, aroq ochishni bilmaysanmi? – dedi mingboshi, xoxolab kuldil. – O‘rgan! Mana qarab tur! – Shishaning tagiga yo‘g‘on shapalog‘i bilan ikki marta urdi, po‘kak chachrab

¹⁴² Тогай Мурод. Отамдан колган далалар. –Т.: Шарқ, 1994, 73-б.

¹⁴³ Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд. –Т.: Фан, 1995

chiqib shiftga tegdi, so'ngra u yerdan sachrab tovchadagi katta jomga kelib tushdi, «jar-r-rang!»... etdi jom.

– Ha-ha-ha!.. – dedi mingboshi. Jomlaringni jaranglatdim, sintaloq! (Cho'lpou).

O'h-ho', bunaqa sigir bozorda falon pul bo'lsa kerak.(S.Ahmad)

Ziyodni onasi betini bilaklariga bosadi. Ziyodni onasi **iz-z-iz-z** yig'laydi. Ziyodni onasi **yum-m-yum-m** yig'laydi. (T.Murod)

Yarim soatlik qonli «g'ov-v-v-v, g'u-v-v-v, ov-v-v-v-v, ov-v-v-v»dan so'ng Mallaxonning davangisi mag'lub bo'lib, faje' bir suratda yaralandi. (A.Qodiriy)

Harakatning oniyligi: Mashina Chuqursoyga qayrilish o'rniغا yo'lning o'rtasida taqqa to'xtadi.

Ovoz kuchining balandligi: «Bummm» degan tovush eshitildiyu, ko'kni chang to'zon qopladi.(Gazetadan)

Ovoz kuchining pastligi: Ammo shunchalik davru davronlar o'tquzilg'an va o'tquzilmoxda bo'lg'an bo'lsa ham bunchalik ochub—...tis-s-s! Yopig'liq qozon-yopig'liq... tuyu ko'rdingmi - yo'q... (A.Qodiriy) Mashina bir-ikki **pig'-g'-g'** degan ovoz chiqardi-da butunlay o'chib qoldi.

3.So'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish. Og'zaki nutqda turli sabablarga ko'ra ayrim so'zlar, asosan, o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so'zlovchining o'zlashgan so'z imlosini to'g'ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paroniimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. Badiiy asarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og'zaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalанилди. Ayrim o'rnlarda kulgi qo'zg'atish maqsadida ham so'zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o'sha tarzda yoziladi. Masalan:

-Kotibadan, kirsam mumkinmi, deb so'rash kerak.

-Jinni bo'ldingmi, Ne'mat?

-Men sizga Ne'mat emasman, o'rtoq **Babbayev** bo'laman, o'rtoq **Xajjayip**.(S.Ahmad)

—Shayxantovur **yarmankasiga** ro'za bo'yи mol yoyg'on juvonlar, kampirlar, qizlar, tumsalar faje bir qiyofa bilan «alvido, yo mohi ramazon», deb ro'mol silkitadirlar.(A.Qodiriy)

—Xo'p, bo'pti. Uning oti Zulfiqor, **fomilasi...** —aytaveraymi, deb unga qaradi. (S.Ahmad)

Bo'rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To'g'ri, nima deyishni bilardi. Ammo, til bilmasa nima qilsin? O'ylab-o'ylab, «**Salyam!**» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig'lashni ham bilmay hayron turib qolishdi. (S.Ahmad)

Rejissyor tag'in elkam qoqdi.

—**Barra kalla, barra kalla!** – dedi.

Rejissyor yelkamni qoqa-qoqa meni mashina taraf jo‘natdi.

Men yo‘l-yo‘lakay raisimizdan so‘radim:

—Rais bova, rejissyor nima deyapti?

—Barakalla deyapti, barakalla.(T.Murod)

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohandorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda alliteratsiyaning o‘rnı beqiyosdir. She’riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo‘llanilib kelingan. Ko‘hna badiiyatshunoslik («ilmي bade’»)da alliteratsiya «**tavzi**» san‘ati» deb yuritilgan. Alliteratsiya deganda zabardast shoir Erkin Vohidovning mashhur «q» alliteratsiyali she’ri ko‘z oldimizga keladi:

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrılma qoshing qiz,

Qilur qatlimga qasd qayrab –

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiy nab,

Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan.

Qarab qo‘ygil qiyo,

Qalbimni qizdirsın quyoshing qiz.

Bunday usulni shoir Elbek ijodida ham kuzatish mumkin:

Ko‘klamda ko‘karsa ko‘k ko‘katlar,

Ko‘klarga ko‘milsa katta-kattalar,

Ko‘m-ko‘k ko‘karib ko‘rinsa ko‘llar,

Ko‘ngilni ko‘tarsa ko‘rkli gullar.

Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning mashhur «Xalq dengizdir» deb boshlanuvchi she’ri ham alliteratsiyaning go‘zal namunalaridan hisoblanadi:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Nasrda bu tarzda jumla tuzish she’riyatdagidek badiiy effekt bermasligi mumkin. Shuning uchun nasrda kamdan-kam hollardagina kuzatish mumkin bo‘ladi. Bolalar folklorida alliteratsiyaga asoslangan *tez aytish* hamda *aytishmachoq* o‘yinlari bor. Tez aytishlar: Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp. Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi? Oq choynakka oq qopqoq, Ko‘k choynakka ko‘k qopqoq. Aytishmachoqda ishtirot etuvchi bolalardan aynan bir xil tovush bilan boshlanadigan gap tuzish talab qilinadi. Boshqa tovush bilan boshlanadigan so‘z aralashirib yuborgan ishtirotkchi yutqazgan hisoblanadi va o‘yindan chiqadi. Masalan:

Ali: Bugun Bahodir boqqa bormay bobosinikiga bordimi, bozorga bordimi?

Vali: Bugun Bahodir bobosinikigayam bormadi, bozorgayam bormadi. Bahodir bolalar bilan birgalikda Bog‘dodga bordi.

Ali: Bahodirga Bog'dodda balo bormikan?

Vali: Balo bormi bilmadimku, Bahodir Bag'dodga bot-bot boradigan bo'ldi.

Ali: Bir balosi bordirki bot-bot Bag‘dodga boradi. Bilmadingmi?

Vali: Bilmadim. Bolalardan birgina Bobur bilarkan.

Ali: Bobur dan so‘rab ko‘rchi.

Vali: Yutqazding!

Alliteratsiyadan xalq maqollaridagi intonatsion butunlikni ta'minlashda ham keng foydalaniyliganligini kuzatishimiz mumkin:

Suymaganga suvkanma, suvganingedan avrılma.

* * *

Tulkining tushiga toyuq kirar.

Toyuqning tushiga tarjq kirar.

* * *

Tek turganga shayton tayoq tutqazar.

* * *

Xalq hukmi – haq hukmi.

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsiyalik – ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan. Unlilarning takrorlanishi maqollarda ko‘p kuzatiladi:

Oyni otsang, bilib ot.

Dol nishonga qo‘vib ot.

* * *

Non gon bo'lsa, gon - ion.

* * *

O'zing o'yda bo'lsang ham, o'ying uyingda bo'lsin.

Bir tırı tok eksang, bir tırı tol ek,

Assonans qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she’riy nutqqa ko‘tarinki ruh va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etadi:

Ruhimda yo‘goldi qarorim.

Tanımda golmadı madorim

Bizlarni bir yo‘qlab kelibsan

Vafo qilarmisan bahorim?!

Yoz o'tdi, kuz o'tdi, qish o'tdi,

Boshlardan savdoli **ish** o‘tdi.
Yurakka izg‘irin - nish o‘tdi,
Vafo qilarmisan, **bahorim**?!

Yam-yashil qirlarni sog‘indim,
Chechakzor yerlarni sog‘indim,
U inja sirlarni sog‘indim,
Vafo qilarmisan, **bahorim**?!

Lolaning lablari **xandadir**,
Dog‘i ham tubida – **andadir**.
O‘xshashi ruh ila **tandadir**,
Vafo qilarmisan, **bahorim**?!

Intiqmiz do‘st bilan, **yor** bilan,
She‘r bilan, soz bilan – **tor** bilan.
Diydorlash bizningdek **xor** bilan,
Vafo qilarmisan, **bahorim**?! (A.Oripov)

Geminatsiya. Badiiy nutqda keng qo‘llaniladigan fonetik usullardan yana biri – geminatsiyadir. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati»da mazkur hodisa «**qo‘s sh undoshlik** – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi» sifatida izohlanadi.¹⁴⁴ «O‘zbek tili tarixiy fonetikasi» o‘quv qo‘llanmasida esa bu hodisa «**qo‘s shoqlanish**» yoki «**ikkilangan undosh**» deb yuritiladi: «*Qo‘s shoqlanish* – undoshlarning cho‘zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o‘zgarishlar sirasida ko‘rib chiqish o‘ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo‘la olishi bilan fonetik o‘zgarishlarga o‘xshaydi. Qo‘s shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan **k**, **q**, **t**, **l** tovushlarida va faqat **2**, **7**, **8**, **9**, **30**, **50** sanoq sonlarini nomlashda sodir bo‘ladi. Bu sonorlarni bir undosh bilan ham, **ikkilangan undosh** bilan ham talaffuz etish mumkin bo‘lgan. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qo‘s shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki kabi so‘zlardagi ikkinchi **t**, **l**, **k** lar tarixan morfologik ko‘rsatkich bo‘lib, ulardagi qo‘s shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikr mavjud.»¹⁴⁵ Adham Abdullayev esa «**undoshlarni qavatlash**» atamasini ishlatgan.¹⁴⁶ Undoshlarni qavatlab qo‘llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan, Ayyorlikda *uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg‘on emas* (Oybek). Uni ayplashga sizning ma’nnaviy haqqingiz yo‘q, uka!

¹⁴⁵ Нематов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 86-б.

- dedi g‘azab bilan (gazetadan). Keltirilgan misollardagi undoshlarning qavatlanishi qahramonlar tabiatidagi subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ya’ni, birinchi gapdagi qahramonning o‘z «ishi-hunaridan» mammunligi, «anoyi» emasligini ta’kidlash istagi qavatlangan «ch» undoshi orqali yanada aniq ifodalangan. Ikkinchi gapdagi qahramonning qahr-g‘azabi esa «q» geminatasi bilan ko‘rsatib berilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Dux kelgan tovushni qavatlab qo‘llab bo‘lmanidek, so‘zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lavermaydi. Masalan: – Ukaginam, bu kemnoyingizga (*kelin oyizingizga – ellipsis*) zagsda patta (*so‘z imlosida mavjud*) kesilmagan. Birinchesidan to‘qqizta (*so‘z imlosida mavjud*) bola bor. Bechora giroy bo‘laman deb rosa tug‘di. To‘qqizinchisini tug‘di-yu o‘zimizning tilda aytganda brakka (*brak+ga/ka*) chiqib qoldi. (S.Ahmad)

♦Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Badiiy matnda fonetik birliklarning estetik xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
- 2.Badiiy matnda fonografik vositalarning qo‘llanish sababini tushuntiring.
- 3.Alliteratsiya deb nimaga aytildi?
- 4.Assonans deb nimaga aytildi?
- 5.Geminatsiya deb nimaga aytildi?

BADIY MATNNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so‘z, umuman, tildir. Adabiy asarning abadiy asar darajasiga ko‘tarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim.

Til va yozuvchi o‘rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o‘rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darjasasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini mag‘lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unsurning o‘z vazifasi, ma’no doirasasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog‘lanish qonuniyatları mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo‘lgan,

badiiy didi, so‘z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so‘z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma’nolar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

So‘z qo‘llashning san’at darajasida yoki san’at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so‘z, uning ma’nosini va bu ma’noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so‘zning qo‘llanishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan qo‘srimcha ma’no nozikliklari, mazmun o‘zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta’kidlash joizki, bunday qo‘srimcha ma’no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so‘z ma’no qurilishining o‘zida imkoniyat sifatida mayjud bo‘ladi, ular so‘zning ma’no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo‘ladi.

Tildagi nominativ birliklarning ma’no tuzilishini o‘rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihatni tushunchasiga alohida e’tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N.Teliya ta’rificha, «konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzuallar yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy – baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat»dir.¹⁴⁷ Konnotatsiya, ta’rifidan ko‘rinib turganiday, so‘zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo‘lgan jihatdir. Masalan, *yuz, bet, chehra, ruxsor, aft, bashara, turq* kabi so‘zlar qatoridan tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtayi nazarga muvofig‘ini tanlash so‘zlovchining o‘ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma’lum. V.N.Teliya ta’kidlaganidek, bunday so‘zlar semantikasida «so‘zlovchining ifodalaman mishga bo‘lgan munosabati haqidagi informatsiya kodlashtirib qo‘yilgan bo‘ladi va jumla qurilar ekan, xuddi siqilgan prujina qo‘yib yuborilganiday, bu informatsiya darhol ishga tushadi», demak, lug‘at birliklari faqat nominativ faoliyat uchungina emas, balki pragmatik faoliyat uchun tayyor material bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi ayni shu o‘rinda ana shu mulohazalarga asoslangan holda so‘zning semantik qurilishida nominativ jihatga qo‘srimcha konnotativ jihatning bo‘lishi nutqiy tejamkorlik uchun yordam berishini ham ta’kidlaydi. V.N.Teliya so‘zning leksik ma’nosini, kamida, uch makrouzvning kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi: 1) ma’noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi; 2) kategorial-grammatik uzvi; 3) nutq subyektining so‘z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi. Ana shu

¹⁴⁷ Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М., 1986, с.5.

uchinchi uzb ekspressiv bo‘yoq, uslubiy bo‘yoq, emotsional bo‘yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarini umumlashtiruvchi konnotativ ma’nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o‘zbek tilshunosligida ham ancha keng oolib berilgan. Masalan, «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida so‘z narsa-hodisani ifodalashi barobarida ko‘pincha shu narsa-hodisaga so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham anglatishi alohida ta’kidlangan: «...Lug‘at sostavidagi so‘zlarni kuzatish ularning ba’zilari biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so‘zlovchining ifodalananayotgan tushunchaga o‘z bahosini, munosabatini ifodalanishini ham ko‘rsatadi. Bu munosabat doirasiga g‘azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko‘rinishlari kiradi. Xususan, azamat, o‘ktam, qoyilmagom, so‘lqildoq, boplamoq, olchoq, mal‘un, razil, satang, sanqi, asfalsasofilin, miyanqi, qoyil, do‘ndirma, momoqaymoq kabi so‘zlar, ma’lum tushuncha anglatishdan tashqari, so‘zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobjiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko‘rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so‘zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo‘lgan leksika emotsional - ekspressiv leksika, ekspressiv - stilistik leksika terminlari ostida o‘rganilmoqda». ¹⁴⁸

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalinish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

Ma’nodosh so‘zlar

Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdag‘i ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvoofiқ keladigan aniq so‘zni topib o‘z asarlarida qo‘llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyekting eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi ma’nodosh so‘zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so‘zdan ifodalananayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo‘lsa,

¹⁴⁸ Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981, 160-6.

ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; va 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik.¹⁴⁹ **Leksik ma'nodoshlikdan** bir necha maqsadlarda foydalанилди. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun: Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland **ovozlari** boshqa hamma **unlarni** bosib ketdi.(Cho'lpon)¹⁵⁰ Tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun: Xolbuki, musulmonlik kiyimda emas, **qalbda, dilda**. (Cho'lpon) Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham bir-biridan yaxshi, bir-biridan soz, bir-biridan ochiq, bir-biridan quvnoq...*(Cho'lpon) Salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun: *Xo'sh, mingboshining o'zi odamlar aytganiday juda xunuk va badbashara odammi?* (Cho'lpon)

Kontekstual ma'nodoshlik. Katta mahoratlari yozuvchilarining badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalaniib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lмаган so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan: Kechagina **qarg'ab, so'kib, «o'ldirsam!»** deb yurgan kundoshini **o'pib, quchoqlab, silab-siyypab** bir nafasda ikkalasi «qalin do'st» bo'lgan emishlar. (Cho'lpon)

Frazeologik ma'nodoshlik. Vozelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarining ma'nodoshligidan keng foydalaniлди. Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan: *U enggan, yutgan, oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldirgan kundosh emasmi?*

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. «Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi». ¹⁵¹ Masalan: Xursand – og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyonи suv bossa to'pig'iga chiqmaydi kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan

¹⁴⁹ Аскарова М., Қосимова М., Жамолхонов М. Ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1989, 29-б.

¹⁵⁰ Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. 2-жилд. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.

¹⁵¹ Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-кисм. -Т.: Ўқитувчи, 1980, 144-б.

holatni bo‘rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi: Qurvon bibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq so‘fi shu qadar **kamgap**, **indamas**, **damini ichiga solgan**, ziqlana odam edi.

Shakldosh so‘zlar

Tilimizda tovush (yozuvdva harfiy) tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar mayjud. Bunday so‘zlar omonimilar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko‘rinishi mavjudligi ta’kidlanadi: Omoleksema, omograf va omofonlar. «Omoleksemalarни belgilashda talaffuz jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham hisobga olinadi»¹⁵² Masalan, qovoq-I (inson a’zosi) – qovoq-II (o’simlik nomi). Omograflar esa, harfiy jihatdan bir xil bo‘lib talaffuzi har xil bo‘ladi: tom-I (uyning tomi) – tom-II (jild), atlas-I (ipakdan tayyorlangan mato turi) – atlas-II (xarita). Omofonlar deb talaffuz jihatidan teng kelish hodisasiغا aytildi: bop (<bob) – bop, yot(<yod) – yot, sutxo‘r(<sudxo‘r) – sutxo‘r kabi. Shakldoshlik iboralarda ham kuzatiladi: *boshiga ko‘tarmoq-I (e‘zozlamoq)* – *boshiga ko‘tarmoq-II (to‘palon qilmoq)*, *qo‘l ko‘tarmoq-I (ovoz bermoq, ma‘qullamoq)* – *qo‘l ko‘tarmoq-II (urmoq)*. Shakldosh so‘zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Nasrda askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida, she’riyatda esa tuyuq hosil qilishda ishlataladi. Masalan:

Qo‘qonda Urfiy degan, Xo‘jandda Kamol Xo‘jandiy degan shoirlar birlari bilan do‘s t ekan. Kamol Xo‘jandiy Urfiyini mehmonga chaqiribdi. Supada suhbat qilib o‘tirganlarida Kamol Xo‘jandiying kichkina kuchugi dasturxon yoniga kelib, hatto dasturxoniga tegib ketsa ham, u indamas ekan. Urfiyining juda g‘ashi kelib, achchig‘i chiqipti va oxiri so‘rapti:- Bu maxsumchaga nima nom qo‘yganlar?

Kamol Xo‘jandiy: **Urfiy** nomlardan birini qo‘yganmiz-da.

Urfiy: **Kamoliga etsin!**¹⁵³

Tuyuq:

Bunim yo‘q, **unim** yo‘q,
Uyimda **unim** yo‘q.
Ishimda **unum** yo‘q,
Aytishga **unim** yo‘q. (Kamiy)

Paronim so‘zlar

Paronimlar (para-yonida + onyma-nom) deb fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o‘xshash, yaqin bo‘lib qolgan so‘zlarga aytildi.

¹⁵² Рахматуллаев III. Хозирги адабий ўзбек тили. –Т.: Университет, 2006, 45-б.

¹⁵³ Ўзбек халқ ижоди. Асқия. -Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970, 110-б.

Abzal (asli afzor-asbob, egar-jabduq) – afzal (lafz so‘zining ko‘pligi), xalos (ozod bo‘lish) – xolos (faqat), xush (yaxshi, yoqimli) – hush (insonning sezish, idrok etish qobiliyati). «Paronimlarga asoslangan uslubiy figura **paronomaziya** deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziyadan ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so‘z o‘yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalananiladi». Badiiy adabiyotda o‘xshash so‘z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma’naviy hamda lisoniy saviyasini ko‘rsatish uchun ham ishlataladi. Quyidagi parchada paronimlardan komik effekt yaratish maqsadida foydalananilgan. Qahrmon **kompot** (mevalardan tayyorlanadigan sharbat) va **kompot** (chiqindilardan achitib tayyorlanadigan organik o‘g‘it) paronim so‘zlarining ma’nosini bilmaganligi uchun kulgili vaziyatga tushadi: «Aylanib yurib to‘rtinchı brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo‘lim boshlig‘i O‘rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to‘g‘risidadir qo‘llarini paxsa qilishib bahslashmoqda edi. Meni ko‘rishi bilan bo‘lim boshlig‘i:

- O‘rtoq agronom sizdan bir iltimosim bor,-deb qoldi.
- Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a’zolariga **kompot** to‘g‘risida gapirib bersangiz. Bular haligacha hech narsa tushunmas ekan.
- Marhamat,-dedimda, u yoq-bu yoqqa qarab olgach, leksiya o‘qishga tushib ketdim:

- O‘rtoqlar, **kompot** juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shuncha shirin bo‘ladi. Bizning Farg‘ona tomonlarda kompotni o‘rik, shaftoliqoqi va olchaning qurug‘idan tayyorlashadi. Xullas, kompot ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan o‘tirgan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. (X.To‘xtaboyev)

Said Ahmad o‘zining «Sinovchi uchuvchi» deb nomlangan hajviyasida ham o‘xshash talaffuzli so‘zlar vositasida paronomaziyani yuzaga keltirgan: Muxbir (mikrofonga). Aziz radio tinglovchilar! Har bir korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o‘z sinovchilari bo‘ladi. Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini **sinovchi-uchuvchi** deydilar... Mana, qarshimizda turgan barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g‘ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning **sinovchi-ichuvchisidir...**

Birinchi parchadagi paronomaziyada ikkita o‘xshash so‘zning qahramon tarafidan farqlanmasligi, ya’ni ikkita alohida so‘z ma’nolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan. Ikkinchi parchadagi paronomaziyada esa qahramon kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun atayin o‘xshash talaffuzli yangi konstruksiyani hosil qiladi.

Zid ma'noli so'zlar

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonalardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana *mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod* va *takofu* deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalilanadi.»¹⁵⁴ Yevropa filologik an'anasiда bu san'at «antiteza» deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahviliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalilanadi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatta, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan: **Eski qishloqqa yangi** odat. (Maqol) Hali ancha balandda bo'lsa ham uning **kamolidan zavoli** yaqinroq ekanı ko'rinish turardi. Shuncha yer **qo'ldan chiqqan** bo'lsa, uning baravariga qancha davlat **qo'lga kirgandir**, muni xudo biladiyu xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub biladi!..(Cho'pon) Ba'zan mahoratlari yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Masalan: U vaqtida o'zi – **kuldi, ochildi, quvondi, gyerdayilib, osmondan qarab qadam bosdi...** Xadichaxon esa **ezildi, kuydi, o'rtandi, xo'rланиб – xo'rланиб, achchiq – achchiq yig'ladi.** (Cho'pon)

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan:

«Zelixon Elchindan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U **mushtdek** yurakni **qoyadek** dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to 'playotgan ekan...» (T.Malik)

Bu nutqiy parchada mushtdek va qoyadek so'zları «kichik» va «katta» ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan.

Zid ma'nolilikni barqaror birikmalarda ham ko'plab kuzatishimiz mumkin. **Iboralarda:** *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, yuzi yorug' – yuzi shuvut, ko'ngli oq – ichi qora, ko'ziga issiq ko'rinoq – ko'ziga sovuq ko'rinoq* kabi. Yoki so'z va ibora o'rtasidagi – leksik-frazeologik zid ma'nolilik: *xasis – qo'li ochiq, xafa – og'zi qulog'ida* kabi. **Maqol va matallarda:** Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda. Yaxshidan ot qoladi yomondan dod. Osmon yiroq – yer qattiq. **Hikmatli so'zlarda:** Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim. (Alisher Navoiy).

¹⁵⁴ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. 64-6.

Ko‘p ma’noli so‘zlar

Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodalilagini qay darajada ta’minlay olganligiga e’tibor qaratiladi. Buni ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘z o‘rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo‘llay olishidan ham aniqlasa bo‘ladi. Ko‘p ma’noli so‘zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi. Masalan: **Yuk** so‘zi o‘zbek tilida ko‘p ma’noli so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur so‘zning quyidagi ma’nolari qayd qilingan: 1) «Bir yerdan ikkinchi yerga ko‘tarib, tashib borilishi lozim bo‘lgan og‘irlilik»; 2) «Kishini urintirib qo‘yadigan, tashvishga soladigan ortiqcha narsa, tashvish, dahmaza»; 3) «Qorindagi bola, homila»; 4) «Diniy e’tiqodga ko‘ra aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yuz beradigan kasallik».¹⁵⁵ Ardoqli adibimiz Cho‘lpon o‘zining «Kecha va kunduz» deb nomlangan romanida qahramonlar nutqida ana shu so‘zning 2- va 4- ma’nolarini qorishtirish asosida ham qahramonlar ichki dunyosini yorqinroq ochishga, ham chirolyi kulgi chiqarishga muvaffaq bo‘lgan: – *Yelkamda o‘n putdan o‘ttiz put yukim bor... – dedi mingboshi. Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. Xadichaxonning fikricha, mingboshiga «irim» qilgan edilar. Endi uni «qaytartirmoq»dan o‘zga iloj yo‘q edi. Bu fikr boshqa kundoshlarning miyalaridan ham o‘tmadi emas... Faqat fadichaxonning bu fikri qat‘iy bo‘lsa kerakkim, yashirishga lozim ko‘rmadi:*

– *G‘animlar qasd qilganga o‘xshaydi. Qaytarma qildirib bersammi? – dedi.*

– *Ayollarning bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... – dedi mingboshi... Shu ochilishdan dadillanib bo‘lsa kerak Xadichaxon yana e’tiroz qildi:*

– *O‘zingiz o‘z og‘zingiz bilan «yuk bosdi» demadingizmi?*

Mingboshi kulib yubordi:

– *«Yuk bosdi» degan bo‘lsam «qanday yuk?» deb so‘ragin-da, bachchag‘ar! – dedi u.*

Bu vaqtida uydagilar ham asta-sekin tashqariga chiqib yaqin o‘rtaga kelgan edilar. Mingboshi davom qildi:

– *Uchalang yukmisan menga?*

– *Nima og‘irimiz tushdi sizga? – dedi Xadichaxon. (Cho‘lpon)*

Ko‘p ma’noli *yuk* so‘zi mingboshi nutqida «ortiqcha tashvish» ma’nosida, ya’ni «uchta xotini o‘n puddan o‘ttiz pud» dahmaza ma’nosida qo‘llangan, xotinlar esa bu so‘zning qayd etilgan 4-ma’nosida tushunganlar, shu tarzda kulgili holat yuzaga kelgan.

¹⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. –Москва: Рус тили, 1981, 2-тум, 465-б.

Ko‘p ma’nolilik asosan so‘zlarga xos xususiyat bo‘lib bir so‘zning birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi tushuniladi. Iboralarda ham ko‘p ma’nolilikni kuzatish mumkin. Masalan: *yuragi qinidan chiqmoq* iborasi sevinchni va qattiq qo‘rquvni ifodalashga xizmat qiladi. *Qizning paranjisini ko‘rishi bilanoq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi* (Oybek). *Qo‘rqmayman deb bo‘lmaydi, o‘g‘lim. Shunaqa vaqtida odamning yuragi qinidan chiqib ketadi* (A.Qahhor). *Bosh suqmoq* – qisqa fursatga kirmoq, xabar olmoq; aralashmoq, odamlarga qo‘shilmoq. *Tomdan tarasha tushganday* – kutilmaganda, qo‘qqisdan; qo‘pol tarzda.

Eskirgan so‘zlar

Jamiyat o‘sib-o‘zgarib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotdagи ba’zi tushunchalar tamomila eskirib, amaliyotdan chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo‘lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning aslo iloji yo‘q. Tilshunoslikda bunday tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar «arxaik so‘zlar» va «istorizm – tarixiy so‘zlar» degan nomlar ostida umumlashtiriladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. «Arxaizm o‘zi nomlayotgan vogelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi». Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta’minalash maqsadida qo’llaniladi. O‘rdu-qo‘sish, handasa-geometriya, tilmoch-tarjimon, mirzakotib, sadr-rais, lak-yuz ming kabi so‘zlar ishlatilganda davr ruhi ta’kidlangan bo‘ladi. Ayrim arxaik so‘zlar zamonaviy ma’nodoshiga qaraganda ma’noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, yo‘qsil – kambag‘al arxaik so‘zlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, «hech narsaga ega emaslik» ma’nosи yo‘qsil lekskmasida kambag‘al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so‘zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganida anglanadigan yo‘q-kam so‘zлari qiyoslansa, birinchisida ayni belgining nol darajada ekanligi seziladi. Arxaik so‘zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. She’riyatda nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlash maqsadida ishlatiladi:

Siz ko‘kning **qopqasin** qoqqan soatda

Quyosh ko‘z uqalab uyg‘onar edi.(G‘.G‘ulom)

Ulug‘ shaharlarning bo‘ysirasida

Abadiy o‘rinni topa olgan **Shosh**. (A.Oripov)

Ne-ne zilziladan chiqolgan omon

Manglayi yarqiroq makonsan buyuk. (A.Oripov)

Hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqeahodisalarning nomini bildiruvchi so‘zlar istorizm (tarixiy so‘zlar) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o’sha tarixiy

voqelikning o‘zi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo‘lmaydi, demak, istorizm o‘zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: *amin*, *pristav*, *mingboshi*, *noyib*, *ellikboshi*, *ponsad* kabilar badiiy matnda ishlataliganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bog‘liq tarixiy voqelikni ko‘z oldiga keltiradi. Tarixiy so‘zlar ham badiiy matnda o‘tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlataladi.

Badiiy asar tilidagi eskiran so‘zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, «so‘zlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davrdayoq eskiran bo‘lishi mumkin bo‘lganidek, asar yozilgan davrda faol iste’molda bo‘lib, keyinchalik iste’moldan tushgan»¹⁵⁶ bo‘lishi mumkin.

Yangi so‘zlar

Yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar neologizmlar – yangi so‘zlar deyiladi. «Neologizm tilga umuman mansub bo‘lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo‘lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmlari badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Mahoratlari yozuvchilar voqelikni o‘ziga xos, betakror va yangicha ifodalashga harakat qiladilar. Shuning uchun hali ko‘nikilmagan yoki umuman qo‘llanilmagan, yangi, ohorli so‘zlardan foydalanadilar. Buni quydagi misollarda ham ko‘rish mumkin: 1.Shu ikki kechaning ixtiyor menda! Men –jinlanganman, men – o‘tman, olovman! 2.Miryoqub Akbarali mingboshini haqir ko‘radi, xo‘rlaydi, uning itlanishidan kuladi. 3.Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. (Cho‘lpon) 4.Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim. 5.Bajarajak yumushlarimni bot - bot bayonlaydi. 6.Ta’tillanib podayotoqqa bordim. (T.Murod)

Sheva so‘zları

Yozuvchilar o‘z qahramonlarini o‘zları yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlataladi. Sheva so‘zları mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga «badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatalishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqidir.»¹⁵⁷

Tilshunoslikka oida adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilinganligini kuzatish

¹⁵⁶ Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқики. НД. -Самарканд, 2004.

¹⁵⁷ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981, 24-б.

mumkin. **Fonetik dialektizmlar** asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Masalan: 1.Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga **tala**-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi (Cho'lpon). 2.Enaxonlarning butun oilasi yoyilgan qopning tegrasida **jugari** uqalab o'tirardilar. (Cho'lpon) 3.Toshkanniyam olibdimi-a? 4.Tevizorning ichida-da, **ulim**. 5.Obro **ў** bor-da, obro **ў!** 6.Ana endi, quyoshda **mazza** qilib toblanib yotamiz. (T.Murod) **Leksik dialektizmlar** ham o'z navbatida ichki guruhlarga bo'lib o'rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Masalan: 1.Kampir **shotining** yon yog'ochini silab o'ynar, Enaxon og'zidan olgan saqichini ezib «soqqa» yasar... (Cho'lpon) 2.Jiyaningiz qishloqdan zig'ir moy olib keldi. Shuni **chuchityapman**. (T.Murod). 3.U yozlik kiyimini kiyib, to'ppa-to'g'ri birinchi klass nomyerga bordi va o'zi uchun ajratilgan kichkinagina **chigiling** (bejirim) va soz uyiga o'rashdi. (Cho'lpon). 4.Tok osti **so'ri olachalpoq ko'laga** bo'ldi. (T.Murod)

Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlарining nomlari **etnografik dialektizmlar** deb yuritiladi. Bunday so'zlar tasvirning realligini ta'minlaydi: *U eshikdan kirar – kirmas to'y to'qqizini xotiniga uzatib: - Qizing qani? – deya so'radi.* (Cho'lpon) Biror so'z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo'lib, shevada adabiy tilda bo'lмаган ма'нози билан qo'llana оладиган so'zlar **semantik dialektizmlar** deb yuritiladi. Masalan, *Men buvimdan* (onamdan – M.Y.) beruxsat mehmon chaqirmayman. (Cho'lpon) **Grammatik dialektizmlarning** ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish mumkin. Masalan: *Qurvonbibi bu haqiqatni o'zi-o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin.* Bilamiz, taqsir, yangi uylangan **odamdi** gapga tutib bo'lmaydi.

Shevaga xoslik iboralarda ham mavjud bo'lib badiiy matn qahramonlarining ma'lum bir hududga mansubligini va voqeа-hodisalar bo'lib o'tayotgan o'rinni ta'kidlashga xizmat qiladi. Masalan, Tog'ay Murod asarlarida Surxondaryo shevasiga xos frazeologizmlar ko'p qo'llanilgan: *Eson xizmatkorni bolasi Botir qo'shchi tumandan aynib keldi.* Xolilatib-xolilatib oyoq ildi. Shahodat barmog'ini boshi uzra nish etdi.

Chet va haqorat so'zlari

Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlardan badiiy nutqda qahramon xarakteri, milliy mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda voqeа-hodisaga xorijga xoslik ta'kidini berish maqsadida ishlataladi.

Shuningdek, voqealar bo‘lib o‘tayotgan o‘ringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma’lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunday birliklar **varvarizm** (ayrim adabiyotlarda **ekzotizm**)lar deb yuritiladi. Masalan, quyidagi parchada tatar millatiga mansub Fatxullin ismli amaldor nutqida keltirilgan varvarizmlar qahramon xarakterini to‘liq ochib berishga xizmat qilgan:- *O’xu, tolkoviy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiga. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib kursatdi. Buni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay eyishi mumkin. Bravo, bravo!* (S.Ahmad)

Tilshunoslikda **vulgarizmlar** deb ataluvchi haqorat so‘zlarida o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko‘rinib turgan bo‘ladi. Bunday so‘zlar ko‘proq nominativ ma’nolariga ko‘ra emas, ayni shu konnotativ ma’nolariga ko‘ra nutqda yashaydi. Haqorat so‘zleri badiiy asarlarda asosan, qahramonlar nutqida ishlataladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqeyi, yoshi kabilar) nutqida ishlatalayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo’llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo‘ladi. Misollar: *-Hey! Baqqa tush, enag‘ar!, Momo qoldi... Yuragingsovudimi, haromi? Endi yaylov keng bo‘ldi senga! Bog‘da javlon urasan, silkasal!* (Sh.Xolmirzayev) - *Ahmoq!* – dedi kampir. – *Qayoqlarda sanqib yurganding?* (S.Ahmad) – *Nima, nima? Menga til tegizdi? Nimalar deydi xotintaloq?* (Cho‘lpon) -*O’bbo, bachchataloq...* (A.Qodiriy). *G’animat g‘arniki, deydilar, -dedi Botir firqa.* (T.Murod)

Barqaror birikmalar

«Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.»¹⁵⁸ Iboralar, maqol-matallar va hikmatli so‘zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar. Vogeqliki obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagи voqeа-hodisalarни kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqqargan xulosalarining o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo’llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiat, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq

¹⁵⁸ Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. (Академик лицейларининг 2-боекич талабалари учун дарслерик). -Т.: Шарқ, 2002, 103-б.

iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma’no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin».¹⁵⁹ Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan.¹⁶⁰ Badiiy matnda eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardan iborat: **1.Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni almashtirish:** *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo‘lib qolasiz.* (S.Ahmad) *Mingboshining falon – falonlari bizni ko‘ziga iladimi?,-deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og‘zingga paxta tiqdingmi hammang?* Duniyoda o‘z oyog‘iga o‘zi bolta *chopadigan ahmoq ham bo‘ladimi?* (Cho‘lpon) **2.Ibora tarkibini kengaytirish.** Bunda ibora tarkibiga yangi so‘z kiritiladi. Tilimizda *jar solmoq* iborasi mavjud. Cho‘lpon uni *qo‘shekarnayi bilan jar solmoq* tarzida kengaytiradi: *Mingboshilikni tortib olib, el ko‘zida tamom sharmanda qiladiganday!* *Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo‘shekarnayi bilan jar soladiganday!* **3.Ibora tarkibini qisqartirish.** Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni tushirib qo‘llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o‘z badiiy-lisoniy maqsadiga ko‘ra foydalanadilar. Tilimizda *qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq* iborasi mavjud bo‘lib, uning ma’nosи «ixlosi qaytib, ishonmay qo‘yib, diqqat-e’tibordan soqit qilmoq» tarzida izohlanadi. Cho‘lpon «Kecha va kunduz» romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo‘llaydi: *Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o‘zboshimcha harakatlariga yo‘l qo‘yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo‘lyuvishimiz kerak bo‘ladi.* Bu iboraning noyib to‘ra nutqida *qo‘l yuvmoq* tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma’no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to‘raning «voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to‘g‘ri keladi» demogchi ekanligi mazkur ibora orqali ta’kidlangan. Bundan ko‘rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti «*tashlab chiqmoq», «ajralmoq», «qochib qolmoq» kabi yangi ma’no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.*

Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlarga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi.

¹⁵⁹ Шомақсұдов А. ва бошк. Ўзбек тили стилистикаси. –Т., 1974, 70-б.

¹⁶⁰ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. -Самарканд, 1999.

Maqol - matal va hikmatli so‘zlar

Maqollar – grammatic jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir.¹⁶¹ Maqollarda fikrni lo’nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda juda qo‘l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta’minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsiyonal-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniлади. *Yaxshining so‘zi – qaymoq, Yomonning so‘zi – to‘qmoq. Eshikli bo‘lding – beshikli bo‘lding. Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin. Sulaymon o‘ldi devlar qutildi. Hamal keldi – amal keldi* kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi. «**Matallar**–tarbiyaviy, pand-nasihat ma’nolarini ifodalovchi, grammatic jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma’nosida – to‘g’ri ma’noda qo‘llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir». Masalan: *Go‘sht suyaksiz bo‘lmas, sholi – kurmaksiz. Guman iyomdan ayirir. Gul tikonsiz bo‘lmas* kabilar matal hisoblanadi. **Hikmatli so‘zlar** ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatalgan ixcham, ma’nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan bunday so‘zlar **aforizmlar** ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so‘zlar «**paremalar**» deb ham yuritiladi. Hatto tilshunoslar Hamdam Berdiyorov va Razzoq Rasulovlar tomonidan maxsus lug‘at – «O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati» ham tuzilgan. Bundan tashqari maqollar hamda aforizmlarga bag‘ishlangan ko‘plab lug‘atlar mavjud.¹⁶² Badiiy asarni lisoniy jihatdan tahlil qilishda bunday lug‘atlardan unumli foydalanish zarur.

♦Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Ma’nodosh so‘z va iboralarning badiiy matndagi o‘rnini haqida ma’lumot bering.
- 2.Shakldosh so‘z va iboralarning badiiy matnda qo‘llanishi haqida ma’lumot bering.
- 3.Paronamaziya deganda nimani tushunasiz?
- 4.Zid ma’noli so‘z va iboralar matnda qanday vazifa bajaradi?
- 5.Ko‘p ma’noli so‘z va iboralarning estetik funksiya bajarishi haqida ma’lumot bering.
- 6.Eskirgan so‘z va iboralar deb nimaga aytildi?
- 7.Yangi so‘zlar badiiy matnda qanday vazifa bajaradi?
- 8.Sheva so‘zlarining estetik vazifasi haqida ma’lumot bering.
- 9.Chet va haqorat so‘zлari nima maqsadda badiiy matnga olib kiriladi?
- 10.Barqaror birikmalar deb nimaga aytildi?

¹⁶¹ Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. –Т.: Ўқитувчи, 1984, 11-б.

¹⁶² Ўзбек халқ маколалари. –Т.: Шарқ, 2003; Шомаксудов Ш., Шорхамедов Ш. Маънолар маҳзани. –Т.: «ЎМЭ», 2001.

BADIY MATNNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Badiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatalishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda - «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatic ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik – emotsiyonallik ifodalаниши тушунилади». Ekspressivlik ijobjiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinish turadi. Badiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimming nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatalganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Odatda erkalash – suyish, hurmat – e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobjiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: *qizaloq, toychoq, o'rgilay, gиргиттон bo'lay, bolaginam, oppog'im, do'mbog'im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirininim* kabi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. O'zbek tilida kichraytirish shakli *-cha, -choq, -chak* qo'shimchalari bilan; erkalash shakli *-jon, -xon, -oy, - (a)loq* affiksleri yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar *-lar* affksi bilan hosil qilinadi. *-gina* qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinish turadigan, yozuvchining badiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatalidigan badiiy tasvir vositalaridan biri takrordir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita – **morfologik parallelizm**ning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Yoki, **affiksal sinonimiya, affiksal onomimiya** va **affiksal antonimiya** hodisasidan ekspressiv maqsadlarda foydalilanilgan holatlarni aniqlash mumkin. Shuningdek, atoqli otlar sirasiga kiruvchi – **antroponimlarning** muayyan maqsad bilan qo'llanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qo'llanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham bo'ladiki, ular yozuvchining g'oyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi. O'zbek adabiyotida personaj xarakter – xususiyatini ochib beruvchi kinoyaviy tagma'noli kulgi yaratuvchi ismlar Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida juda ko'p uchraydi. *G'oyibnazар Pinhonov, Oldi Sottiyev, Tijoratxon* kabi kishi nomlarida yozuvchining kinoyasi aniq sezilib turadi.

Tog‘ay Murod asarlaridagi antroponomiarning uslubiy qo‘llanishi haqida tadqiqodchi M.Qosimova quyidagilarni yozadi: «Dehqonqul – asardagi asosiy qahramon. Dehqon – asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilikdan iborat kishi. Lekin yozuvchi Dehqon so‘ziga o‘zbek ismlariga qo‘sib aytildigan – boy, –jon, –bek kabi shakl hosil qiluvchi qo‘sishimchalarni emas, aynan «qul» morfemasini qo‘sadi. Bunda qul so‘zining ko‘chma ma’nodagi «kimsaga ko‘r-ko‘rona xizmat qiluvchi, bo‘ysunuvchi, itoatgo‘y, malay, xizmatkor» semalari yuzaga bo‘rtib chiqadi. Natijada sho‘rolar mustamlakasi davringin mute, itoatgo‘y, hokisor qurboni bo‘lgan Dehqonqul obrazi kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi»¹⁶³ va uzoq saqlanib qoladi. Qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o‘rtasidagi muvofiqlikdan ekspressiv effekt yuzaga kelgan. Bu albatta yozuvchining lisoniy mahorati hisoblanadi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib boriladi.

♦Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Badiiy matnning morfologik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Ijobiy va salbiy bo‘yoq dor so‘zlarning estetik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
3. Antorponimlarning uslubiy xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
- 4.Morfologik parallelizm deb nimaga aytildi?
- 5.Qo‘sishimchalardagi sinonimiya, omonimiya va antonimiyadan badiiy matnda nima maqsadda foydalilaniladi?

BADIY MATNNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Badiiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda sintaktik usuldan keng foydalilaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo‘lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarining maxsus qo‘llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o‘ta ta’sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta’kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko‘rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so‘roq kabilar»¹⁶⁴ Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo‘lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Umumlashtiradigan bo‘lsak quyidagi holat yuzaga chiqadi: 1.Sintaktik

¹⁶³ Косимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. -Андижон, 2008.

¹⁶⁴ Ўрнибоеев Б., Қўнгурор Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. -Т., 1990, 34-б.

parallelizm. 2. Emotsional gap. 3. Ritorik so‘roq gap. 4. Inversiya. 5. Ellipsis. 6. Gradatsiya. 7. Antiteza. 8. Farqlash. 9. O‘xshatish.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko‘p qo‘llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o‘rganiladi. Parallelizm (yunoncha, *parallelos-yonma-yon boruvchi*) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi. Masalan: *Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti – bilolmaydi* (T.Murod). «Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va, eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan, eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi».¹⁶⁵ Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta’sirchanligini boyitish bilan birga ma’noni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq ma’lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan: *Qo‘schi kalondimog – kalondimog qadam bosdi. Kibor – kibor quloch otdi. Kerma qosh – kerma qosh boqdi.* (T.Murod) Bu misolda qahramonning uch xil harakati bir xil shakllangan gaplarda ifodalangan, ya’ni, *qadam bosmoq – quloch otmoq – boqmoq*. Quyidagi misolda esa bir harakat bilan bog‘liq ma’lumotlar fondi parallel gaplarda kengayib boradi: *Tom bosh – adog‘ilab qadamladi. Vazmin – vazmin qadamladi. Olislarga dono – dono boqib qadamladi. Yoki: Qo‘schi qo‘llari ketida tag‘in qadam oldi. Mag‘ribga boqib qadam oldi. Mashriqqa boqib qadam oldi.* (T.Murod)

Emotsional gaplar. So‘zlovchining o‘ta xursandlik yoki o‘ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqeа-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobjiy va salbiy bo‘yoqdor so‘zlar (chehra, o‘ktam, tabassum / turq, qo‘pol, tirjaymoq kabi) mavjud bo‘ladi. O‘sha so‘zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo‘rquv, g‘azab kabi psixologik jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobjiy yoki salbiy bo‘yoqdor so‘z va iboralar, his-tuyg‘u ifodalovchi undovlar (oh, voy sho‘rim, eh attang, bay-bay-bay kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta’minlashga xizmat qiladi: *Qanday yoqimli tong! To‘yib-to‘yib nafas olasan! Buncha fusunkor bo‘lmasa bahor! Qishlog‘imiz naqadar go‘zal-a!* (Gazetadan). Sarvarov to‘ng‘illadi: –*Ikkinci chiqishimda ushlashi kerak edi. Birinchi chiqishimdayoq ushlab o‘tiribdi miyasi aynigan chol* (S.Ahmad). –*Tilimni qichitma, jo‘jaxo‘roz!* Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo‘roz bo‘lishingga hali o‘n to‘rt protsent bor. Bahorda karillab hech kimga so‘z

¹⁶⁵ Шукуров Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // ЎТА, 2004, №2, 73-6.

bermaganding. Menga, kekkayma, deganday shama qilding-a! (A.Qahhor)
Evoh, essiz umr, essiz qizim!.. Voy bechora! – dedi Gulsumbibi bordan.
Sho'rlik qizga qiyin bo'libdi hammadan (Oybek).

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsiyal-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so'roq gap deyiladi. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida *nahotki, axir* kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqnning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi. Ardoqli shoir Abdulla Oripovning «Olamonga» deb atalgan quyidagi she'ri ritorik so'roqning go'zal namunasi bo'la oladi:

Mashrab osilganda qayyoqda eding?
Cho 'lpon otilganda qayyoqda eding?

Surishtirgammidng Qodiriyni yo
Qalqon bo'lganmidng kelganda balo?

Hukmlar o'qilur sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman,
Qachon xalq bo'lasan, ey, sen – olomon??

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rinn almashinishi yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasisiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydaliladi: *Bolangni olib ketsang-chi!* Ko'rmayotipsanmi, bu yyerda *odamlar ishlab o'tiripti!* (A.Qahhor) – Tashla u toshni! – deb do'q qilib goldi onam. Ko'chaning o'rtasidan haydatib ketdim aravani. – Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? – deb qolsa bo'ladimi shunda. (Sh.Xolmirzayev)

She'riyatda esa ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ko'p ishlataladi:

*Bozorga o 'xshaydi asli bu dunyo,
Bozorga o 'xshaydi bunda ham ma 'ni.
Ikkisi ichra ham ko 'rmadim aslo,
Molim yomon degan biror kimsani.*

(A.Oripov)

Ellipsis (yun. elleipsis – tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo‘laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytildi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod - lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Masalan: *–Avaylagan shu bo 'lsa... uning zardali ovozi ham jonimga tegdi.* (Y.Akram) *Iltimos to 'xtang... Anavinga qarang!* (Sh.Xolmirzayev) *–Nima qilardingiz shu sassiq bilan tortishib?* (S.Ahmad) – *Topamiz-da, – dedim. Talantlar seni redaksiyangga emas, redaksiyam bo 'lmasayam menga keladi.* (Sh.Xolmirzayev)

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida «narsa» so‘zi, uchinchi va to‘rtinchisida «*oda*» so‘zi ellipsisiga uchragan. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo‘lib, badiiy matnga ham jonli nutqqa xos tabiiylikni ta‘minlash maqsadi bilan olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis tekshirilganda, qaysi gap bo‘lagi ellipsisiga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi izohlanadi.

Ellipsisni maqollarda juda ko‘p uchratamiz. So‘zlearning tushirilishi natijasida maqol tabiatiga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi: *Ayrilganni ayiq er, bo‘linganni bo‘ri er. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga. Yomon bilan yursang qolarsan uyatga. Yaxshi xunuk libos bilan ham yaxshi. Ahmoq og‘asini tanimas, To‘qmoq tog‘asini tanimas.*

Gradatsiya (lot. gradatio – zinapoya, bosqichma bosqich kuchaytirish) Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg‘u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to‘liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalanimiladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko‘ra: **ko‘tariluvchi gradastiya** (klimaks) va **pasayuvchi gradastiya** (antiklimaks); ifoda usuliga ko‘ra: **mantiqiy, emotsiyonal va miqdoriy gradastiya**; ifoda materialiga ko‘ra: **leksik gradasiya** va **sintaktik gradastiya**.

*Men nadomatlarni unutganman. Men meros
dovlamayman. Men molparast ham emasman.
Lekin qani mening yetti ma ‘dandan eritib quyilgan
darvozam?
Jahonning bir mo ‘jizasi?
Oltin, temir, qurch, qalay, po ‘lat, mis, kumush
darvozam?
Bibixonim darvozasi?
Yo ‘qolgan darvoza...*

O‘g‘irlangan darvoza...

Tanga qilib maydalangan darvoza... (I.G‘afurov)¹⁶⁶

Keltirilgan misolda dastlab shaxsiy sifatlar bosqichma – bosqich kuchaytirib tasvirlanyapti. Keyin, darvoza bilan bog‘liq sifatlar tasvirida pasayuvchi gradatsiyani kuzatish mumkin: mo‘jizaviy darvoza – oltin darvoza – temir darvoza – qurch darvoza. Ortidan darvozaning kimga taalluqli ekanligi aytildi va yana ko‘tariluvchi gradatsiyadan foydalanib darvozaning g‘oyib bo‘lish sababi oshkor qilinadi: darvoza yo‘qolgan – (aslida) o‘g‘irlangan – (va) tanga qilib maydalangan. Ibrohim G‘afurovdan gradatsiyaga yana bir go‘zal misolni keltiramiz. Unda hislarning junbushi ko‘tariluvchi va pasayuvchi gradatsiya orqali o‘ta ta’sirchan holda ifodalangan.

Beatriche yotmagan Usmonning to‘shagida,

Zarema yotmagan Usmonning to‘shagida,

Nasima yotmagan Usmonning to‘shagida,

Hurlar yotmagan Usmonning to‘shagida,

Parilar yotmagan Usmonning to‘shagida.

Faqat Usmon yotgan Usmonning to‘shagida.

Qamoqning to‘shagi.

Millionlab begunohlar yotgan bunday to‘shaklarda.

Ular ko‘z yoshlardan ko‘l bo‘lib ketgan,

Ular unsiz nolalardan cho‘l bo‘lib ketgan,

Ular armonlardan yo‘l bo‘lib ketgan...

Dunyo yotar shu to‘shakda.

She‘r yotadi shu to‘shakda. Parlari qofiya. Somoni vazn.

Usmon Nosirning to‘shagi –

Xayollarin kemasi.

–To‘shagimni asrang, og‘a, –dedi u eng so‘ng

damda. –

*Oltin bulutlar uxlagan unda. Armonli baytlar
tunagan unda.*

*Lek to‘shakni asramadilar. Farosat yetmadi
odamlarda. (I.G‘afurov)*

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qo‘yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiiga aytildi. Voqeа-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi. «Zidlashda voqeа, hodisa, belgilarni o‘zarо zid qo‘yib shulardan birining belgisi alohida ta’kidlanadi. Zidlash hodisasi ham ikki komponentdan iborat bo‘ladi va keyingi

¹⁶⁶ Иброҳим Ғафуров. Илтижо. –Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

komponentdan anglashilgan mazmun ta'kidlanadi. Demak, zidlashda ikki qism mavjud: zidlovchi qism va zidlash asosida ta'kidlanuvchi qism». Zidlash asosan bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap shakllarida kuzatiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'rinadi. Masalan: *Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma!* (O'.Hoshimov) Bu misolda bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikkita tushuncha - non va nom zidlantirilyapti. Nega? Yozuvchi nima uchun bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'ymoqda? Aslida non – hayotning, tiriklikning ajralmas bo'lagi. Bir parcha non topib yeyish uchun odamzod mehnat qiladi, ter to'kadi. Ammo hayotda o'sha bir parcha nonni topaman deb o'z nomiga, sha'niga dog' tushirayotganlar ham uchrab turadi. Non zarur, lekin nom undan ham muhim ekanligi mazkur misolda ta'kidlanmoqda. Haqiqatan ham nonini yo'qotgan uni qaytib topishi mumkin, lekin o'z nomiga, sha'niga dog' tushirsa-chi? Uni qaytib tiklab bo'lmaydi. Bu misoldagi «non»ni «hayot uchun kerak bo'lgan hamma narsa, mol-dunyo» ma'nosida ham tushunish mumkin. Yoki: *Nodonlar davrasida kar bo'l. Donolar davrasida soqov bo'l...* (O'.Hoshimov) Bu misolda antitezaning ifoda materiali sifatida *nodon – dono, kar – soqov* birliklari keltirilgan. *Bolalikda dunyo kengu kiyim tor. Keksayganda kiyim kengu dunyo tor...*(O'.Hoshimov) Zidlanishni yuzaga keltirayotgan birliklar (bolalik – keksalik, keng – tor, keng dunyo – tor dunyo, tor kiyim – keng kiyim) xiazmatik konstruksiya shaklida kelib kontrastlikni yanada bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

Adabiyot ilmida **oksyumoron** deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladi. Oksyumoron grekcha so'z bo'lib, «o'tkir lekin bema'ni» degan ma'noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkozional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g'ayriodatiy birikmalar¹⁶⁷» deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko'nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta'minlaydi: *Sokin hayqiriq* (M.Ali). *Otashin muz, yong'inli daryo, so'qir lomakon, qora nur, yalang'och shuur, yaxlagan sarob* (R.Parfi), *oppoq tun, so'zsiz suhbat* kabi birikmalar oksyumoronga misol bo'ladi. Bunday g'ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma'lumki, istalgan ikki so'zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g'ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog'lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur. O'zaro bog'lanmaydigan so'zlarni bog'layotgan kuch nimada? Ularning

¹⁶⁷ Абдурахмонов Х, Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981, 38-47-6.

birikib badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mayjud? Yozuvchini bunday «maromsiz» birikmalar yaratishga nima majbur qildi? kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin.

Farqlash deb ikki narsa – buyum, voqeа – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlashga aytildi. Farqlash ham qiyos va chog‘ishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga ko‘ra antitezaga yaqin, lekin «antitezada mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutb qiyoslanadi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi». Tasviriy vosita sifatidagi farqlashda belgilarning farqlovchi xususiyatlari aniqlanadi. O‘xshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq o‘xshatishda integral belgilar idrok qilinadi. Farqlashda qiyos asnosida o‘rtaga chiqadigan fundamental tafovut nazarda tutiladi. O‘xshatishda bo‘lgani kabi farqlashning ham ifoda unsurlarini quyidagicha tartiblash mumkin: 1.Farqlash subyekti. 2. Farqlash nisbati. 3.Farqlash asosi. 4.Farqlashni yuzaga keltiruvchi shakliy belgilar. 5.Farqlash natijasi. Masalan: *Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘ anda ko‘rkamrak bir hujra, anavi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rligan bo‘lsa, munda ipak va adres ko‘rpalar, narigillarda qora charog‘ sasig‘ anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabi‘atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi.* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

Ayon bo‘lganidek, parchada hujra, hujra ashyolari, hujra egalari qiyosga tortilgan. Qiyos asnosida hujraning qaysi belgilari o‘rtaga chiqarilgan? Saroyda bir necha hujra bor. Lekin tasvirda ikkiga ajratilyapti: **α** (bitta) hujra va **β** (ko‘p) hujra. **α**ni βdan ajratib turuvchi belgilar dastlab umumiyl tarzda berilgan: **α** ko‘rkam (**β** ko‘rkam emas). Keyin hujra ashyolarini birma-bir sanash asnosida o‘rtadagi farq ko‘rsatib berilgan: gilam – kiygiz; adres ko‘rpa – bo‘z ko‘rpa; sham’ – qora charog‘; Shundan so‘ng hujra egalaridagi farq sanab o‘tiladi: **α** ning egasi og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabza urgan bir yigit. **β**ning egalarini tabiiyki bu tarzda tasvirlab bo‘lmaydi. Shu sababli βdagи barcha kishilar ikkita belgida umumlashtiradi: engil tabiatlik, serchaqchaq. Farqlashning ifoda unsuriga ko‘ra hujra (**α**) –farqlash subyekti hisoblanadi. Chunki farqlanayotgan predmet bu – hujradir. Hujralar (**β**) – farqlash nisbati bo‘lib hujra(**α**)ning o‘ziga xosligi boshqa hujralar(**β**)ga nisbatan aniqlanyapti. Farqlash asosi sifatida «ko‘rkamrak» so‘zini olishimiz mumkin. Chunki **α**da mayjud bo‘lgan ko‘rkamlik **β**da mayjud emas. Shu belgi **α**ning βdan farqini ta’kidlaydi. Farqlashning shakliy belgilari: «boshqalarga qaraganda» birikmasi yordamida o‘rtadagi tafovut yanada bo‘ttirilgan. Farqlash natijasi

yozuvchining badiiy niyatini aniqlashga olib keladi. Xo'sh, yozuvchi nima maqsadda bunday taqqosni keltiradi? Mazkur ifodalarning badiiy asar mohiyati bilan qay darajada aloqadorligi bor? Bu kabi savollar assosida farqlashning beshinchi unsuriga javob izlanadi. Keltirilgan parchada 3 bosqichli farqlar silsilasi mavjudligini sezish qiyin emas. 1-bosqich: hujra. 2-bosqich: hujra ashylari. 3-bosqich: hujra egalari.

Badiiy asarlardagi bunday holatlarni tahlil qilish orqali yozuvchining murakkab konstruksiyali farqlash sillogizmini, qiyoslash, chog'ishtirish mantig'ini tasavvur etishimiz mumkin bo'ladi.

O'xshatish deb «ikki narsa yoki voqe-a-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash»ga aytildi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligin ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanan ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari. Masalan: *Alisher tulkiday ayyor bola*. Bunda: *Alisher* – o'xshatish subyekti; *tulki* – o'xshatish etaloni; *ayyor* – o'xshatish asosi; *-day* – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi. Munavvara Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlari lingvopoetikasiga bag'ishlangan monografiyasida o'xshatishning yana bir unsuri «o'xshatish maqsadi» ham mavjudligini ta'kidlagan. O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog'i belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo'ladi. Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo'ladi. An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatalidigan, shu sababdan ta'sirchanligini yo'qtgan o'xshatishlardir. Masalan: *tulkiday ayyor*, *toshday qattiq*, *yuzlari oydek*, *ko'zları charosdek*, *qo'yday yuvosh*, *otning qashqasiday ma'lum kabilar*. Aslida ko'p takrorlanishi tufayli «siyqasi chiqqan» deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmosg'i lozim. Masalan: *Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q*. *Uning rangi machitning jaydari shamidek sap-sariq...*

go'yo kasaldan yaqindagina bosh ko'targan. Keltirilgan misolda so'fining, ruhoniy kishining so'ngan, sarg'aygan rangi masjidning jaydari shamiga o'xshatilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi tasvirdagi holat, qahramon ruhiyati uchun favqulodda muvofiq o'xshatish etaloni tanlagan, ya'ni qahramon – ruhoniy, sham – masjidniki, qahramon – g'arib, dardmand, sham – jaydari, arzonbaho, qahramon tunganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham – yonib tugashning ham ramziy ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyuqlashib katta bir dard shaklini olgan.

♦Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Sintaktik parallelizm deganda nimani tushunasiz?
2. Emotsional gap deb nimaga aytildi?
- 3.Ritorik so'roq gap deb nimaga aytildi?
- 4.Inversiya deb nimaga aytildi?
- 5.Ellipsis haqida ma'lumot bering.
- 6.Gradatsiya deganda nimani tushunasiz?
- 7.Antiteza va oksymoron badiiy matnga nima maqsadda olib kiriladi?
- 8.Farqlash tasviriy vosita sifatida qanday uslubiy vazifa bajaradi?
- 9.O'xshatish haqida ma'lumot bering.

KO'CHIMLAR

Ko'chimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarining umuman ko'chma ma'noda ishlatalishi» nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalarini sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o'rganilgan. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1.So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozi. 2.So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironianing; litota – meyozi ning ko'rinishlaridir». Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko'chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak.

Metafora. Narsa-buyum, voqeа va hodisalar o'rtasidagi o'zarо o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora

ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalar. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi.»¹⁶⁸ Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyog‘i – stolning oyog‘i, odamning ko‘zi – uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalar esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va vogelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi. «Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, *ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘bars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkinining ayyorligi, burgutning changallahdashdagi kuchliligi, lochinining ko‘zi o‘tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi.»¹⁶⁹

Metafora bilan o‘xshatish konstruksianing o‘zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi: 1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma’nosini bilan ishtirok etadi. Metaforada so‘zlar doimo ko‘chma ma’noda bo‘ladi. 2. O‘xshatishda ikki komponent - o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi. 3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi. 4.O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: *-dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o‘xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko‘rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O‘xshatish konstruksiya. Bunda *Karim* – o‘xshatish subyekti, *tulki* –

¹⁶⁸ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т., 1976, 13-б.; Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нуткида кулиги кўзгратувчи лисоний воситалар. НД. -Т., 1997, 105-б.

¹⁶⁹ Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. НД. -Т., 1998, 12-б.

o‘xshatish etaloni, *ayyor* – o‘xshatish asosi, *-day* – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Bu to‘liq o‘xshatish. *Karim* – *tulki*. Bu qisqargan o‘xshatish, chunki gapda o‘xshatish asosi (qaysi xususiyati o‘xshashligi) va ko‘rsatkichi ifodalamanmagan. *Voy, tulki-ey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar: 1.*Eshshak, bu nima qilganing?* 2.*Qamoqxonalarning telegrafi* (gap tashuvchi, ayg‘oqchi) juda aniq ishlaydi. 3.– Ko‘ksiga pichoq sanchibdi, –dedi barak navbatchisi. – Battar bo‘lsin! *Iga it o‘limi.* Mahbuslar baribir uni tirik qo‘yishmasdi. 4.– *Oshga pashsha tushdi, aka!* – dedi qo‘rqa-pisa... «*Devoriy gazeta*» o‘lgur keldi. 5.*Qishdan qolgan garg‘alar.* 6.*Bugalamun bilan uchrashuv.* (S.Ahmad) 7.*Otabek bu cho‘ltog‘ supurgini tanidi* va uning istehzolarini payqadi (A.Qodiriy).

Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning uch turi, ya’ni **odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalar** farqlanadi.¹⁷⁰ Yuqorida ko‘rib o‘tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san’atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko‘rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir.»

«O‘zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his tuyg‘ulari, so‘zlash va fikrashlari jonsiz predmetlarga ko‘chirilishi»ga jonlantirish deyilishi ta‘kidlanadi. Mumtoz adapiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

1.Tashxis – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She’riyatda jonlantirishdan vogelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalanimiladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, vogelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she’riy parchada muallif «kuz»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan vogelikka munosabatini faollashtiradi:

*Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma'yus va bezovta kuzni ko‘raman.
Uning qo‘srig‘ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida.* (A.Oripov)

¹⁷⁰ Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД. -Т., 1989, с-13.

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo‘lish ham jonlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa **apastrofa** deb yuritiladi. Bunda narsa – buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniadi. Masalan: *Osmonga intilgan daraxtlar, ildizingiz yerdaligini bila turib, kelib-kelib sizni quchgan ko‘k bag‘rini tilasizmi? Har bahor yashillikka aldanganingizni xazon pallasida sezmaysizmi yo? Hammasini bila turib, hammasini seza turib shamol izniga bo‘ysunasiz, shitirlaysiz. Men ham shivirlayman... Sizga igan shudring mening ko‘z yoshim... Bilaman, bor dardimni to‘kib solmasam ham voqfisiz ahvolimdan. Zotan, siz tirik xotirasiz. Bebos yaproqlarning shivir-shiviri, mungli yomg‘irkuy, egilmachoq maysalar, injiq shamol, chuchmo‘ma xo‘rsinig‘i, yuragimning ado bo‘lmas o‘kinchi, siz soddagina daraxtlarim va men egilishni eplolmagan asov g‘alayon – hammamiz yolg‘iz sog‘inch bilan bog‘langanmiz.* (Y. Akram)

2.Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she‘r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko‘p qo‘llaniladi. Intoq san‘atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniadi. Insonlarga xos ba‘zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolda obrazli qilib ko‘rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida **allegoriya** deb ataladigan ko‘chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O‘quvchi esa asosiya e’tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya‘ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xaraktyerdagи kishilar qatori». Muxtor Xudoyqulovning «Sher bilan pashsha» deb nomlangan masalida ham ayrim insonlarga xos maqtanchoqlik, yolg‘on ishlatib bo‘lsa ham obro‘ topishga urinish illati obrazli ifodasini topgan:

Bir pashsha Sherning qulog‘iga bir zum qo‘ndi-yu, uchib ketdi. So‘ng ko‘ringanga maqtandi: – Biz Sher bilan juda yaqinmiz, ko‘p masalalarda u men bilan maslahatlashib turadi...

Pashshalarga ishonmang!

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsatushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xhatiladi, yaqinlash tiriladi va shu asosda ko‘chma ma’no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og‘ir tush, og‘ir gap, og‘ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan *shirin, yengil, og‘ir* sifatlarda sinestetik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta’m ma’nosini bildiruvchi *shirin* va o‘lchovni ifodalovchi *yengil* so‘zlari «yoqimli» ma’nosida, *og‘ir* so‘zi esa «yoqimsiz» ma’nosida kelgan.

Metonimiya deb voqeа-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytildi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xhash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi». Masalan:...yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo'ladirg'an ko'ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... *Fuzuliyni* yaxshilab o'qush kerak. (A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning asarlarini o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki: *Sarov tinch uyquda, tun yarim* (A.Qodiriy). Bu misolda *sarov* so'zi orqali «saroydagi odamlar» ma'nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroficha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz:

Xemengueyni o'qish

– Aka, Xemenguey ham badimga urib ketdi, –
dedi buxorolik shoir. – Endi o'qiyapman Jabron
Xalil, Folkner, Frishni.
O'sha kuni uyg'a keldim. Yana kezib chiqdim o'zim
sevgan Ernst olamlarini.
To'g'ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto
Xemenguey ham.
Agar o'z erking ko'rinsa juda uzoq. Ishonching
darz ketsa.
Tuyulsa omonat, liqildoq.
Muomalaga o'rgatar Xemenguey. Olijanob
muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib
boryapmiz bunday muomaladan. (I.G.'afurov)

Sinekdoxa deb butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishga aytildi. Adabiyotlarda «ko'plik o'mida birlik yoxud birlik o'mida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin»ligi aytildi. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniлади.

Kinoya deb «til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatsishdan iborat ko'chim»ga aytildi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta'sirchan ifodalar yaratishda qo'llanilib kelingan. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa «ironiya»

atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning **antifraza** (mashara, u yoki bu ijobjiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish) hamda **sarkazm** (zaharxanda ta’na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanadi. Mohir so‘z ustasi, xalqimizning ardoqli adibi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. U «Mayiz emagan xotin», «Adabiyot muallimi», «Nutq» kabi hajviy hikoya va fel’etonlarida kinoyaning turli ko‘rinishlaridan foydalangan holda betakror obrazlar yaratgan. Masalan adibning «Mayiz emagan xotin» hikoyasidagi ironik bo‘yoqlarda tasvirlangan Mulla Norqo‘zi obrazi ana shunday obrazlardan hisoblanadi: *Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da!* Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o‘g‘li bir hovuch mayiz bergenini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo‘li – xo‘p yo‘l. O’n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da!

Parafraza (ayrim adabiyotlarda perifraz, perifraza) deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsiyal-ekspressivligini ta’minlovchi uslubiy vosita-lardan hisoblanadi. Parafraza deb «narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi – xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash»ga aytildi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa – hodisa nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektni bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o‘rtasida mazmuniy yaqinlik bo‘lishi lozim. Masalan, *uchuvchilar* – samo lochinlari, *akula* – suv osti hukmdori, *sher* – hayvonlar sultonii, *Samarqand* – Sharq darvozasi, *teatr* – ma’naviyat o‘chog‘i, *yoshlik* – sevgi fasli kabi.

Mubolag‘a va kichraytirish. Narsalarni, voqeа va hodisalarni, histuyg‘ularni, belgi-xususiyatlarni o‘ta bo‘ttirib tasvirlashga **mubolag‘a** (ayrim adabiyotlarda **giperbola**) deyiladi. Mubolag‘a ham tasvirning ta’sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. «Mubolag‘aning so‘z ma’nosining ko‘chishiga asoslanishi uning troplar guruhiba mansubligini ko‘rsatsa ham, u tropning boshqa ko‘rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko‘rinishlarida ko‘chma ma’no ma’lum bir belgi asosida o‘xshatish, taqqoslash, voqeа-hodisa yoki predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka ko‘ra bo‘lsa, mubolag‘a esa to‘g‘ri ma’noda tushunmaslikni talab etadi». Mubolag‘aga asoslangan ko‘chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e’tiborini tortish va nutqning emotsiyal-ekspressivligini ta’minalash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag‘ada ifodalanyotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me’yor buzilsa kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida «mubolag‘ali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki, tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir qilishdir». Masalan, quyidagi parchada yozuvchi

qahramon portretini mubolag‘ador qilib tasvirlash orqali komik effekt yaratishga muvaffaq bo‘lgan: *Mahallamizda Mamajon lo ‘mboz degan devdek kishi bo‘lardi. Bo‘yi unchalik daroz emasdi-ku, ammo eniga qarichlab o‘lchasa, ikki gazdan oshiq chiqardi. O‘tirganda dumbasi quymoqqa o‘xshab yoyilib ketib uch gazga doira yasardi. Qorni shu qadar osilib ketganki, o‘tirganda yerga yozsa bir ko‘rpachalik joyga nari ketib qolardi. Kindigi qichiganda qo‘li yetmay, otashkurak bilan qashlardi.* (S.Ahmad)

Kichraytirish (litota) deganda mubolag‘aning aksi tushuniladi. «Lekin mohiyati, e’tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqelik to‘g‘ridan – to‘g‘ri, bevosita bo‘ttirib ko‘rsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi».

- *Tilimni qichitma, jo‘jaxo‘roz!* Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo‘roz bo‘lishingga hali o‘n to‘rt prosent bor

(A.Qahhor). Bunda qarshidagi insonni jo‘jaxo‘roz deb kichraytirish orqali o‘zining kuchli ekanligi ta‘kidlanyapti. Yoki quyida berilgan misoldagi birinchi lofchi mubolag‘adan foydalangan bo‘lsa, ikkinchisining nutqida kichraytirish va mubolag‘a birdaniga kuzatiladi, hatto mubolag‘a orqali birinchi obyekt yo‘qqa chiqarlyapti: *Bir lofchi ikkinchi lofchining uyiga kelib dedi:*

- *Sizga bir gilamni sovg‘a qilib keltirdim, uning bir uchi bu yerda bo‘lsa, ikkinchi uchi Samarcandda turibdi.*

Ikkinci lofchi unga darhol javob berdi:

- *Rahmat, yaxshi qilibsan, mehmonxonadagi gilamning ozgina yeriga o‘t tushib kuygan edi, sen sovg‘a qilgan gilamni o‘shangayamoq qilaman.*

♦Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Ko‘chimlar deb nimaga aytildi?
- 2.Metafora deb nimaga aytildi?
- 3.Metonimiya deb nimaga aytildi?
- 4.Sinekdoxa deb nimaga aytildi?
- 5.Parafraza deb nimaga aytildi?
- 6.Mubolag‘a va kichraytirish deb nimaga aytildi?
7. Ko‘chimlardan badiiy matnda nima maqsadda foydalilanildi?

BADIY MATN VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik

hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlariga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalilanildi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqe-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma’lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalilanildi. So‘zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik – semantik, ritmik – intonatsion birliklarning qo‘llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsiyal bo‘yoqdor so‘zlarga, sheva so‘zlariga, tarixiy va arxaik so‘zlarga, jargon va argolarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, o‘xhash talaffuzli va zid ma’noli so‘zlarga, shuningdek ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o‘rin beriladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday matn o‘ziga xos sistemadir. Buni o‘zaro bir-birini taqozo qiladigan halqlar majmuiga o‘xshatish mumkin: **tovush(harf)lar → so‘zlar → iboralar → gaplar → abzas → bo‘lim, qism, boblar.**

Matn tarkibidagi bu uzvlarning o‘zaro munosabati gapdagisi so‘zlarning bir-biri bilan bo‘lgan munosabatiga o‘xshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagisi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turg‘unlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalilanadigan va deyarli o‘zgarmas bo‘ladi. So‘zlovchi yoki muallif o‘z niyatiga ko‘ra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanaveradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda so‘zlar orasidagi munosabatdan ko‘ra gaplar o‘rtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplararo ham mazmunan ham shaklan aloqadorlik mavjud bo‘lmasa, matn butunligi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozitsion butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg‘unligi, hamda motivatsion yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bog‘liq. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida bunday bog‘liqliklarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalashning asosiy vositasi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslub insomning fe’l-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini, tabiatdagi turli voqe – hodisalarni tugal, butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatini o‘zida mujassam qilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Badiiy nutq uslubining eng xarakterli xususiyati tasviriylik va emotsiyonallik hisoblanadi. Agar ilmiy uslub umumlashgan

tushunchalarni qat’iy qolipga solingen, maxsus terminlar va formulalar bilan anglatса, badiiy uslub o‘z zaxirasidagi so‘zlar yordamida inson qalbi va tabiatining eng nozik nuqtalarigacha tasvirlash imkoniyatiga ega. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning tasviriy vositalaridan unumli va ijodiy foydalanadi, shuningdek, o‘zi ham yangi so‘z va ifoda shakllarini yaratadi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so‘zlarni ishlatish bilangina chegaralanib qolishmaydi. Mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so‘z zaxirasi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. O‘zлari yangidan-yangi individual so‘z va iboralar ijod qilish payida bo‘lishadi. Badiiy nutqda til betakror qiyofa, fe’l-atvor, voqelikka mos manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Boshqa uslub materiallari badiiy nutqda muallif maqsadiga binoan erkin holda ishlatalishi mumkin. Bu uslubda har bir yozuvchi voqelikni badiiy idrok etish ko‘lami, ijodiy salohiyati, ifoda mahorati, matnni kompozitsion shakkantirish tarziga qarab bir-biridan farqlanadi. Shunga ko‘ra, badiiy nutq uslubi boshqalariga qaraganda keng imkoniyatlarga ega, o‘ta qamrovord va tasviriy ifoda vositalariga boy nutq ko‘rinishi hisoblanadi. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi.

«Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanishiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqida tasavvur hosil qilamiz. Muallif bayon jilovini badiiy-estetik niyatga ko‘ra goh o‘z qo‘lida ushlab turadi, goh personajlar qo‘liga tutqazadi, goh o‘zga hikoyachiga topshiradi. Natijada kitobxonni zeriktirmaydigan, realizmning mundarijasini kengaytira oladigan ko‘pqirrali tasvir-hikoya nutqi – polifonik nutq paydo bo‘ladi».¹⁷¹ Badiiy asar matnida **muallif nutqi** va **qahramonlar nutqi** farqlanadi. Qahramonlar nutqi **ichki** yoki **tashqi**, dialogik yoki **monologik** nutq ko‘rinishlarida bo‘ladi. Muallif nutqi badiiy asar tilining muhim qismi hisoblanadi. Unda qahramonlarga, voqelikka nisbatan yozuvchi munosabati ifodalangan bo‘ladi. Muallif nutqi ikki xilda ifodalanadi:

1. Muallif-hikoyachi nutqi. Bunda asar voqealarini so‘zlab beruvchi odam yozuvchining o‘zi bo‘ladi. Peyzaj tasviri va qahramonlar qiyofasi, fe’l-atvori, ularning ruhiy holati, ma’naviy takomili hamda ularning ongida ro‘y bergen o‘zgarishlar muallif-hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi. Badiiy asar tilining qiziqarli, ta’sirchan bo‘lishi til birliklarining to‘g‘ri tanlanishi, matn mazmuniga mos kelishi muallif-hikoyachi nutqiga bog‘liq. Muallif-hikoyachi nutqida voqelikni tashqaridan kuzatish, tasvirlanayotgan voqeа-hodisalarga o‘z munosabatini oshkora yoki yashirin bildirish tarzi sezilib turadi. Agar muallif qahramonga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lsa, tasvirda unga nisbatan muallif-hikoyachi xayrixohligini sezib turamiz.

¹⁷¹ Рахимов З. «Кўхна дунё» роман поэтикаси. –Фарғона, 2005.

Saratonning ikkinchi kuni... Marg 'ilonning shimolida bo'lg'an B... mahallasining kunchiqar tomonida janubga qarab burulg'on tor ko'chaning yuqorig'i burchagida otining tizginini ushlagani holda bir yigit kiyimiga o'turgan chang-to'zonlarni qoqar edi. Yigitning uzoqqina yo'ldan kelganligi, uning kiprik va qoshlarig'a, ham endigina chiqa boshlag'an soqol-murtilariga o'turg'an to'zonlardan bilgulik edi. Yigirma ikki yoshlar chamasida bo'lg'an bu yigit sariq tanlik, ukkining ko'zidek chaqchayib, o'ynab va yonib turg'an qizil ko'zlik, yuziga parchinlangandek yuza (puchuq) burunlik, manglayi qancha tashqarig'a o'sib chiqg'an bo'lsa, yuzi o'shancha ichkariga ketkan, qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolg'on bir mahluq edi. (A.Qodiriy)

2. Qahramon-hikoyachi nutqi. Ayrim asarlarda yozuvchi asar voqeasini atayin qahramonga hikoya qildiradi. Masalan, voqealar G'afur G'ulomning «Yodgor» qissasida Jo'ra tilidan, Asqad Muxtorning «Davr mening taqdirimda» romanida Ahmadjon tilidan, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida Rustam tilidan hikoya qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Buni yozuvchining badiiy-estetik niyati bilan bog'liq ehtiyojdan kelib chiqqan desak adashmagan bo'lamic. «Chunki har bir inson dunyonи o'z ko'zi bilan ko'radi, fikrlaydi, tahlil qiladi, baholaydi. Yozuvchi uchun esa o'z qahramoni haqida uning qanday ekanligini aytishdan ko'ra, qandayligini ko'rsata olish, ko'rsatganda ham personajning xatti-harakati, o'z xayollari, dunyoqarashi, atrofdagilarga bo'lgan munosabatida namoyon qila olish, ya'ni uni to'laligicha aks ettira olish katta yutuqdir. Shu bilan birga kitobxon uchun ham o'zinikiga aylanib qolgan personajning ruhiy holatlarini, ichki kechinmalarini «eshitgandan» ko'ra «ko'rish» maroqliroq, tushunarliroq bo'ladi».

Qahramonlar nutqi. Badiiy asarda qahramon nutqi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi qahramonlar nutqini individuallashtirish orqali ularning ma'naviy dunyosini, ichki kechinmalarini, hissiyotlarini, fikrash tarzini, dunyoqarashi va atrofidagi voqeа-hodisalarga munosabatini aks ettiradi. Qahramonlar nutqi orqali uning qanday muhitda yoki qayerda yashayotganligi, qaysi shevaga mansubligi, qaysi toifaga mansubligi, kim bilan nima haqida suhbatlashayotganligi, uning suhbatdoshlariga munosabati va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lamic. Qahramonlar nutqi **dialogik** yoki **monologik** nutq ko'rinishlarida bo'ladi. **Dialogik nutq** deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotiga aytiladi. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud. Dialogik nutq tahlili obyekti alohida olingan gaplar tahlilidan emas, balki matn tahlilidan iborat bo'ladi. «Dialogik matn ikki shaxsning mavzuiy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to'ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig'indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir».¹⁷² Dialogik nutq

¹⁷² Сайдхонов М. Диалогик нуткнинг коммуникатив таҳлили //Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №2, 71-6.

ko‘rinishida tinglovchiga axborotni tez, aniq, sodda va ta’sirchan yetkazish maqsad qilingan bo‘ladi. Shuning uchun suhbat jarayonida ellipsisdan, turli imo-ishoralardan keng foydalaniladi. Mutaxassislar fikricha, «aloqa-aralashuvda so‘z, so‘z birikmasi, gap, ayrim hollarda matnlar ham ellipsisga uchrashi yoki nolisoniy vositalar bilan almashtirilishi mumkin. Dialogik matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikantlar aloqa-aralashuv jarayonida nolisoniy vositalardan lisoniy vositani izohlash, to‘ldirish, ta’kidlash, aniqlik kiritish, kompensatsiya qilish (lisoniy birlik o‘rnida qo‘llash) maqsadlarida foydalananadilar». ¹⁷³ **Monologik nutq** badiiy asar qahramonlarining o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan nutqidir. Ham she’riy, ham nasriy asarlarda ishlatiladi. Badiiy asarlardagi maktublar asosan **monologik yozma nutq** ko‘rinishida bo‘ladi (eslang: Kumushning Otabekka yozgan maktubi, yoki Otabekning Kumushga yozgan maktubi). She’riy matnlarda lirik qahramon kechinmalarini tugal tasvirlash uchun monologik nutqdan foydalaniлади. Ichki monologik nutq - «qahramonning o‘z-o‘zi bilan ichdan gapirishi, fikrashi, fikr va tuyg‘ularining ichki ifodasidir. Ichki monologda qahramon o‘zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi, shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o‘z-o‘zini ochadi. Shuning uchun ham uning shaxsiyatida hech narsa sirli yoki tushunarsiz bo‘lib qolmaydi. Ichki monolog so‘zlashuv nutqidan o‘zining ochiq va oshkoraliги bilan ajralib turadi». ¹⁷⁴

Arosat yalangligida Yigit yolg‘iz o‘zi. Yigit.

Ummim o‘tdi sarsonlikda, sargardonlikda,

Yaxshi-yomon zamonalarni ko‘rib keldim men.

Ba’zan ma’no topa oldim chin insonlikda,

Ba’zan esa uni yerga urib keldim men.

Mana, o’sha tarozibon, u-ku farishta,

Insonlardan ko‘ra yuksak turajak-ku u.

U zotga ham qiyin ekan bundaqa ishda,

Ko‘zlarida allanechuk norizo tuyg‘u.

Qiyin axir ularga ham, qalblari bordir,

Qiyin axir ularga ham-bordir ko‘zlar.

Faqatgina farmon berar Ollohi Qodir,

Lekin qalbni anglamaydi qizlar singari.

Endi qayga borsam ekan bu dashti, sahroda,

Qayga borib padarimni kimdan so‘rasam?

Bilolmasam, kim do‘zaxda, kim arsh-a’loda... (A.Oripov)

Dialogik nutq ham monologik nutq ham uch ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: **ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq**. Cho‘lponning «Kecha va

¹⁷³ Сайдхонов М. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили //Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №2, 73-6.

¹⁷⁴ Шодиев Р. Рухият рассоми. –Тошкент: Фан, 1997, 6-б.

kunduz» romanida Miryoqubning «men» bilan suhbati dialogik nutq xarakterida, lekin ifoda tarzi ichki nutq shaklida berilgan. **Parallel nutq** - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishidir. Bu nutq shakli ko‘pincha qahramonlar o‘rtasidagi dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga bo‘lgan munosabatni bildiradi.

Fursatni to ‘g ‘ri keltirib turib:

-Imperiya nima degani?-deb so ‘radim.

-Nega so ‘rab yotibsiz?-dedi.

-O‘zingiz bilgan amaldor oshnam bir kun «Imperiya botib boradi» dedi, shunda juda xafa bo ‘lib gapirdi.

-Uning imperiya degani o‘ris podshosining qo‘l ostidagi yurtlar. Unda har qaysi millatdan bor, shu qatorda biz sho‘rliklar ham bor. (...) Sog‘in sigirni kim istamaydi? Oppoq, shirin suti bor...

-Nimaning suti bor? –deb so ‘radim men.

Kuldi.

-Siz-biz sog‘in sigirmiz, bizning shirin sutimiz bor, ruslar va boshqa ajnabiylar «bizni» emib yotadilar. Bir biz emas. Qarangiz, Hindiston, SHarqiy Turkiston, Tunis, Jazoir, Mag‘ribiston, ya‘ni Marokash...

U gapiradi, gapiradi. Men hayron bo ‘lamani. Muncha nomlarni qaydan biladi? Hammasi qandoq qilib esida turadi? Hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganni? Yo meni laqillatib, o‘z ichidan chiqarib aytadirmi? (Cho‘lpon)

Sharofuddin Xo‘jaev bilan Miryoqub o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan ushbu suhbat jarayonida Miryoqubning ichki nutqi bilan tashqi nutqi parallel ravishda berib borilgan. Qahramon ichki dunyosida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettirishda bu usuldan foydalilaniladi.

Dramatik asarlar tarkibida izoh xarakteridagi o‘ziga xos matn - **remarkalar** mavjud bo‘lib, yozuvchi tomonidan kitobxonga, asarni sahnalashtiruvchi rejissoryga yoki aktyorlarga «yordam» ma’nosida kiritilgan bo‘ladi. Remarkada yozuvchining qahramonlar qiyofasi, hatti-harakati, yoshi, voqeа joyi hamda nutq jarayoni haqidagi izohlar beriladi. Asosan dramatik asarlar tiliga xos:

Chin sevish

Hind ixtilolchilari turmushidan oling‘an

5 pardali ishqiy-hissiy fojiadir

Kimsalar:

Nuriddinxon – faylasuf tabiatli, 35 yashar o‘qumish(li) bir yigit (Hindning o‘rtaholli kishilaridandir).

Ahmadxon – 25 yashar o‘qumish(li) bir yigit (Nuriddinning inisi).

Sarvarxon – o‘qumish(li) bir yigit (Nuriddinning o‘rtog‘i).

Zulayho – 16 yashar, o‘qumish(li) bir qiz. (...)

Voqea Hindistonning Dehli shahrida

Birinchi parda

Erta bilan Uchmox ko‘runishli bir bog‘cha. O‘rtada bir uzun masoning tegrasinda o‘rinduqlar qo‘yulg‘an. Og‘ och taginda qo‘yilg‘on bir o‘rindig‘da Zulayho qizil ipakli bir ko‘ylak bilan o‘tiribdir. Qo‘linda kichkina bir bitik (Fitrat).

O‘tkir Hoshimov kichik hajmli «Bolalik – poshsholik» deb ataladigan qatralarida ham remarka usulidan foydalanganligini ko‘rish mumkin:

Yulduz. Uch yashar.

- Nima yeysan, Yulduz, nokmi, shokoladmi?
- Nokolad!

Jahongir. Olti yashar.

- Ayajon. Nega dadajonning sochlari yo‘q?
- Dadajoning ko‘p o‘ylaydilar-da, o‘g‘lim. Dadajon aqlililar!
- Bo‘lmasa, nega sizning sochingiz ko‘p?
- O‘chir ovozingni, zumrasha!

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy matn deb nimaga aytildi?
2. Matnning tarkiblanishi va gapning tarkiblanishi o‘rtasidagi umumiylilik va xususiylik haqida ma’lumot bering.
3. Badiiy nutq uslubi deganda nimani tushunasiz?
4. Badiiy nutqning qanday ko‘rinishlari bor?
5. Muallif nutqi va qahramonlar nutqi qaysi xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi?
6. Dialogik va monologik nutq, ichki, tashqi va parallel nutq deganda nimani tushunasiz?
7. Remarka va ularning matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma’lumot bering.

BADIIY MATNNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Badiiy matnnning lisoniy tahlili qilish metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. *Metodologiya* so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, *metodos* - yo‘l, usul va *logos* - ta’limot demakdir. Boshqacha qilib aytganda, insонning nazariy va amaliy faoliyatini to‘g‘ri uyushtirish, tashkil etish haqidagi ta’limotdir. Dialektik tafakkur narsa va hodisalarining mohiyati ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanishi falsafiy qonunlar, tushunchalar (kategoriyalar) tizimi yordamida ochib beradi. Dialektikaning qonun va tushunchalari voqeqlikdagi narsa va hodisalarining eng umumiy aloqasini aks ettirib, insonda narsalarining mohiyatiga chuqr kirib borish va

ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin mazkur qonuniyatlar muayyan badiiy asarga tatbiq qilinganida uning xususiy tomonlarini hisobga olish zarur. Shundan kelib chiqib, badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko‘rilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi degan fikrdamiz:

- 1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.**
 - 2. Makon va zamon birligi tamoyili.**
 - 3. Xususiylikdan umumiylikka o‘tish tamoyili.**
- Tahlil usullari sifatida esa quyidagilar e’tirof etiladi:
- 1. Lisoniy tabdil usuli.**
 - 2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.**
 - 3. Lug‘atlarga asoslanish usuli.**
 - 4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.**

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili

Borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasıdir. Shakl va mazmunning dialektilik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarни tavsiflovchi ichki elementlar va o‘zgarishlarning majmui» deb baho beradilar. Shaklni esa «mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shakl va mazmun bir-biri bilan shunday bog‘lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur yetkazishi mumkin. Shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to‘la namoyon bo‘lmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy e’tiborni matn va uning janr xususiyati o‘rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak. Masalan, qahramon ruhiyatidagi g‘azablanish holatini ifodalashda siqiq jumlalarning ishlatalishi, dag‘al va chet so‘zlarning qo‘llanishi kabilar ham mazkur tamoyil asosida tekshirilishi mumkin. Yoki muallif nutqini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak ijobjiy qahramon tasvirida ko‘tarinki bir ruh, yorqin ranglar va yoqimli ifoda tarzini sezamiz. So‘zlar ham shunga mos tanlanadi. Salbiy qahramon tasvirida esa buning teskarisini kuzatamiz. Yuz-ifoda yoki fe’l-atvor tasvirida tund ranglar, bezgin ruh va yoqimsiz ifoda tarzi sezilib turadi. Insonning fe’l-atvori va qiyofasida ham ma’lum ma’noda muvofiqlikning bo‘lishi tabiiy hol. Yozuvchilar badiiy asar yaratishda bu muvofiqlikni yanada bo‘ttirib, yanada ta’kidlab ifodalashga harakat qiladilar. Shu orqali asarning ishonarliliginini ta’minlaydi hamda kitobxon munosabatini shakllantirib boradi.

Mavzu bilan tanlangan janr o‘rtasidagi moslik shakl va mazmun birligi tamoyilining asosiy tekshirish obyektlaridan hisoblanadi.

2.Makon va zamon birligi tamoyili

Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirot etadi. Makon va zamon birligi tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilagn mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz.

-*Ha, sigiring yo'goldimi?*

-*Yo'q... sigir emas, ho 'kiz, ola ho 'kiz edi.*

Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho 'kiz edi?

-*Ola ho 'kiz...*

-*Yaxshi ho 'kizmidi yo yomon ho 'kizmidi?*

-*Qo'sh mahali...*

-*Yaxshi ho 'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?*

-*Bisotimda hech narsa yo'q...*

-*O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da. Nega yig 'lanadi? A? Yig 'lanmasin!*(Tanlangan asarlar. 1-tom. 33-b.).

Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa bo'ladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, vogelikka arzimas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalaniilgan.

3.Xususiylikdan umumiyligka o'tish tamoyili.

Har bir til hodisasi muayyan matnda alohida – alohida olib o'rganiladi, izohlanadi va shu asosda umumlashtiriladi. Badiiy asarda tilga olingan detallar asarning umumiy ruhiga yoki davr ruhiga qay darajada mos kelishi aniqlanadi. Qahramon dunyoqarashi uning nutqida qay darajada aks etgan? Asar ishtirokchilarining dialoglari monologlari badiiylik talablariga javob beradimi? Umuman asardagi xususiy holatlar asarning butuniga aloqadormi, yo'qmi kabi holatlar aniqlanadi. «Mavzu, janr, uslub va tilga xos umumiy belgililar hamda muallif individualligiga xos xususiy belgilarning matnda namoyon bo'lishini izohlash» ham shu tamoyil talablaridan hisoblanadi. Turli qatlamga xos so'zlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq tekshirishlar

yoki qahramonlarning o‘zlari mansub bo‘lgan toifa tilidan qay darajada iste’foda qilishini o‘rganish kabilarda xususiylikdan umumiylikka o‘tish qonuniyati hisobga olinadi.

1. Lisoniy tabdil usuli. Tabdil – «almashtirish, o‘zgartirish, o‘rin almashtirish» degan ma’noni bildiradi. Asar tilining badiyiligi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniлади. Asarda qo‘llanilgan so‘z yoki iboralarni, jumlalarni qayta tuzib ko‘rish, o‘xhashi bilan almashtirib ko‘rish va shu asosda baho berish nazarda tutiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Anor» hikoyasidagi mana bu misolga e’tibor bering:

– Yo qudratingdan, indamaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab – mana, chaynab ko‘r! Ko‘rgin, bo‘lmasa, innaykiyin degin...

Ayni o‘rinda *narsa* so‘zi emas, balki atayin *mato* so‘zi qo‘llangan. *Narsa* so‘zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so‘zi esa ayni ma’nosini bilan xolis emas, ya’ni unda kamsitish bilan bog‘liq ma’no qirrasi mavjud, bu ma’no qirrasi *titkilab* fe’l shakli bilan yana ham ta‘kidlangan. Anorga boshqorong‘i bo‘lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o‘tirgan xotin nazarida, buku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning o‘zi ham *narsa* emas faqat mato. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqeа rivoji ayni o‘rinda mato so‘zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi.¹⁷⁵

Mahoratli adib Cho‘lpon asarlaridan bunday holatlarni istagancha topish mumkin. Masalan, o‘zbek tilida *o‘ramoq, burkamoq, chulg‘amoq, chirmamoq* tarzidagi ma’nodoshi so‘zlar qatori mavjud bo‘lib, *burkamoq* so‘zida *o‘ramoq* so‘ziga nisbatan o‘rash belgisi anchayin ortiq, ya’ni uning ma’no qurilishida «hech bir ochiq joyini qoldirmay» degan qo‘shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho‘lpon tegishli mazmun ifodasi uchun *o‘ramoq* so‘zini emas, balki ayni *burkamoq* so‘zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo‘lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo‘ltig‘ini to‘lg‘azardi.*¹⁷⁶ Shuning uchun ham mazkur o‘rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi. Almashtirilsa asar badiyatiga putur etadi.

2.Matn variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma’lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtayi nazari, badiy-estetik niyati hamda asar g‘oyasiga bog‘lab yoriltiladi. Yozuvchining badiy asar tili ustida ishlashini o‘rganishda, yozuvchi tuzatishlarni ayni bir mazmunni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va umuman yozuvchining tildan foydalaniшдаги mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara beradi.

¹⁷⁵ Миртоғиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

¹⁷⁶ Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. –Т.: Маннавият, 2002.

Masalan, «Navoiy» romanining qo‘lyozmasida:

-Buvijon, - hayajonlanib so‘zлади Dildor, - ко‘rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo‘lmasin, tinch yursin (600-b.).

Nashrda: *-Buvijon, - shivirladi u, - uni ko‘rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo‘lmasin, tinch yursin* (237-b.).

Bu epizodda suhbat podshoh harami darvozasi yonida yuz beryapti. Vaziyat va ruhiy holat uyg‘unligi ikinchi variantda aniq ko‘rinadi. Yoki G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asari qahramoni – Qoravoyning yoshi dastlabki nashrda 17, keyingi nashrda 14 deb berilgan. Bunda ham qahramonning xatti –harakati va yoshi o‘rtasida muvofiqlik hisobga olingan.

Bu bevosita yozuvchining tuzatishlari. Shunday holatlar bo‘ladiki, asar matni noshirlar tomonidan yoki adabiyotshunoslar tarafidan atayin o‘zgartiriladi. «O‘tkan kunlar» romani bir necha o‘zgartishlar bilan nashr etib kelingani ko‘pchilikka ma’lum.

3.Lug‘atlarga asoslanish usuli. Asar tili, ayniqsa, tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug‘atlarga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Masalan, «Shayboniyxon» dostoni tilida qo‘llanilgan *gudar, savash, sovut, sadoq, g‘ul, tuv, baydoq* kabi o‘sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma’nosini bilish asarni puxta o‘rganishga yordam beradi. Bu-ku bir necha yuz yil oldingi asar ekan, o‘tgan asr boshlarida yozilgan asarlar uchun ham lug‘at tuzish oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Masalan, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar, Abdulla Qodiri, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabi shoir va yozuvchilarining asarlar uchun maxsus, so‘zlarning bevosita asarda reallashgan ma’nosiga asoslanib tuzilgan lug‘atlar tayyorlanishi kerak. «O‘tkan kunlar»da har bir sahifa ostida ayrim tushunarsiz so‘zlarning izohi berib borilgan. Masalan, *utta* - u yerda; *siporish* - topshiriq; *muvoqifuttab* - ta’bga mos, munosib; *ashrof* - e’tiborli kishilar, ulug‘lar; *mushovir* - maslahatchi; *musohib* - hamsuhbat kabi. Bu faqat mazkur asardagina emas, boshqalarida ham shunday holat kuzatiladi. Shu bois adib asarlarining tiliga bag‘ishlangan maxsus lug‘at tayyorlanishi lozim.

J.Lapasochning «Badiiy matn va lisoniy tahlil» deb nomlangan qo‘llanmasida muayyan bir badiiy matnning lug‘atini tuzish bo‘yicha namunalar hamda lug‘at ustida ishslash bo‘yicha muhim ko‘rsatmalar berilgan. Olim to‘g‘ri ta’kidlaganidek: «Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug‘atlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lug‘at ustida ishslash o‘quvchi va talabalarning so‘z boyligini, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi va shu lug‘at yordamida nafaqat so‘zlarning tub ma’nosini, balki ko‘chma ma’nolari, har bir so‘zning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (so‘zning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, ba’zan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi.»

3.Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talab qilinadi. Buning uchun dastlab, asardagi eng ko‘p qo‘llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo‘lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonomlar, antonimlar yoki epitetri birikmalar, metonimiya, metaforalar bo‘lishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini o‘taydi. Masalan, mohir so‘z san’atkori Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida qo‘llangan yuzdan ziyod ibora, metafora yoki metonimiyalarning indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqishimiz mumkin: (5 jiddlik. 1-jild. -Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.)

Iboralar:

1. Aftini burishtirmoq – *Qimirlasam, biqinim sanchadi, –dedi Saidiy suddi hozir sanchadiganday aftini burishtirib.* (41-b.)
2. Bo‘yniga olmoq – *Saidiy xayrashib chiqdi, qishloqqa borishni bo‘yniga olib qo‘ydi.* (83-b.)
3. Dami ichiga tushmoq – *Saidiy Yoqubjonning aytganini qilganida Kenjaning dami ichiga tushdi.* (124-b.)
4. Oqizmay-tomizmay yetkazmoq – *So‘z o‘rni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari ko‘rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini so‘zlar, buni esa Munisxon oqizmay-tomizmay Saidiyga yetkazar edi.* (67-b.)
5. Ta’bi ochilmoq – *U qishloqqa kelganida dastlab yangi muhitga o‘rganolmay ko‘p qiyalgan edi, amma o‘rganganidan so‘ng, ta’bi ochilib ketdi.* (89-b.)
6. Yuragi dov bermaslik – *Munisxon paltosining yoqasini ko‘tardi-yu, eshikdan chiqishga yuragi dov bermay, turib qoldi.* (43-b.)
7. Uhda qilolmaslik – *Shef bilan ishlab ham uhda qilolmayotirsizmi?* (82-b.)
8. Quloq bermoq – *Qiz uning so‘ziga o‘zi ustidan chiqarilgan hukmnini tinglaganday quloq berar edi.* (35-b.)

Metaforalar:

1. – *Assalomu alaykum, shervachcha, – dedi bir keksa tovush va bu tovushning egasidan ilgari «to‘q» etib hassa kirdi.* (88-b.) – *Shervachcha, – dedi chol ikkala qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib, xirillab, - gazetaga bersalar...* (89-b.)
2. *Dori – Yo bosh og‘rig‘ini dori bilan bosaylikmi? Bir ryumka-bir ryumka...* (129-b.)
3. *Yaqinlik iplari – Bora-bora ikki oradagi Ehson tug‘dirgan yaqinlik iplari uzila boshladи.* (42-b.)
4. «*To‘ngak» bilan professor o‘rtasida o‘tgan bu gap butun universitetga dovrug bo‘ldi.* (43-b.)

Metonimiylar:

1. Zal – *Yana qarsak zalni ko 'targuday bo 'ldi. (94-b.) Butun zal domlaga qaradi* (94-b.)
2. Katta, mayda – *U «katta» yozish uchun avval «mayda» bilan o 'quvchi orttirish kerak, dedi.* (136-b.)
3. «Oshiqlar» – *Xususan, Kenja Saidiyning «Oshiqlar»i ochiqdan-ochiq sho 'ro hukumatining xotin-qizlar ozodligi to 'g 'risidagi siyosatiga zarba berish, (...) Abbasxonning o 'zi tasalliga muhtoj bo 'lib qoldi.* (139-b.)
4. Fakultet – *Fakultetni tashlashga o 'zingizda bu qadar majburiyat sezsangiz noiloj davom etmang, chunki bu narsa fakultetdan haydalishga olib keladi.* (106-b.)
5. Firqa – *Shunda, albatta, firqa ko 'rsatgan yo 'ldan boramiz.* (94-b.)
6. Universitet – *Universitet chaqirirayotir.* (91-b.) «To 'ngak» bilan professor o 'rtasida o 'tgan bu gap butun universitetga dovrug bo 'ldi. (43-b.)
7. Shisha – *Buni esa ko 'proq shisha osonlashtiradi.* (112-b.)

Tahlil tiplari

Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo'lganidek, o'ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: **tematik** va **kompleks** tahlil.

1.Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihat bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarining birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

2. Kompleks tahlil. Tilning barcha sohalariga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqlikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo'lishimiz kerak. Bunday tahlil xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyiliga muvofiq olib boriladi. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir

necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlari» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash, indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi. Adabiyotshunoslikda B.Fransasning V.Shekspir asarlari tiliga bag'ishlangan «Shakespeare grammatik» deb atalgan yirik hajmli asari alohida e'tiborga molik ish sifatida e'tirof qilinadi. Unda shoir ijodi tilning barcha sathlari bo'yicha tahlilga tortiladi. Shu bilan birga ijtimoiy tuzum, shoirning falsafiy dunyoqarashi, hayot tarzi, shoirning zamondoshlarining shoirga munosabati yoki shoirning o'z zamondoshlariga munosabati, davr bilan bog'liq estetik tafakkur tarzi va hokazolar haqida ham ma'lumotlar berib boriladi. Mazkur tadqiqotdan faqatgina shoir asarlarining tili emas, balki o'sha davr tili haqida ham noyob ma'lumotlarni olish mumkin.¹⁷⁷ Lekin shuni unutmaslik kerakki, badiiy asar tom ma'noda estetik voqelikdir. Uni tematik tahlil qilamizmi, kompleks tahlil qilamizmi bundan qat'i nazar, asarning estetik hodisa sifatidagi mohiyatini nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak.

•Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Mazkur kursning metodologiyasi qanday qonuniyatga asoslanadi?
- 2.Lisoniy tahlilning qanday tamoyil va usullari bor?
- 3.Shakl va mazmun birligi tamoyili deb nimaga aytildi?
- 4.Makon va zamon birligi tamoyili deb nimaga aytildi?
- 5.Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili deb nimaga aytildi?
- 6.Ilmiy mushohada usuli deb nimaga aytildi?
- 7.Lisoniy tabdil deganda nimani tushunasiz?
- 8.Matn variantlarini qiylash usuli deb nimaga aytildi?
- 9.Lug'atlarga asoslanish usuli deb nimaga aytildi?
- 10.Tematik tahlil deb nimaga aytildi?
- 11.Kompleks tahlil deb nimaga aytildi?

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?

Biror bir she'rni, hikoya yoki romanni o'qiyotganimizda asar mazmunini yakka-yakka so'zlardan yoki ayrim iboralardangina emas, balki

¹⁷⁷ Wellek R. Edebiyat teorisi. –Izmir: Akademi kitabevi, 1993.

matn deb ataluvchi butunlik bilan munosabatga kirishgandan so'nggina anglay boshlaymiz. Badiiy asarni gazeta o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Badiiy asarni o'qish uchun ham alohida tayyorgarlik kerak. Voqealar tizimini kuzatib borish bilangina asar o'qigan bo'lib qolmaysiz. O'zingizda faol o'qish tarzini shakllantirishingiz zarur, aks holda asar o'qish shunchaki vaqt «o'ldirish» mashg'ulotli bo'lib qolaveradi. Xo'sh, faol o'qish tarzini shakllantirish uchun nima qilish kerak? Buning uchun yozuvchi va matn bilan haqiqiy muloqotga kirishishingiz talab qilinadi. Ularga o'zingizning savollaringizni muntazam berib borishingiz zarur. Matnni har tomonlama tahlil qilib borishingiz kerak. Matn mohiyatiga kirib borish uchun avvalo tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tamal qonuniyatlaridan xabardor bo'lish lozim. Quyida sizga havola qilinayotgan tahlil tartibi qat'iy-qotma tartib emas, uni tahlil obyekti va metodiga qarab o'zgartirishingiz mumkin.

A.dastlabki tayyorgarlik. Har qanday badiiy asarni o'qish uchun dastlabki tayyorgarlik zarur bo'ladi. Bu tayyorgarlik aslida avtomatik tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, biror bir asarni o'qimoqchi bo'lganiningizda asar muqovasining o'ziyoq sizga dastlabki ma'lumotlarni beradi. Muqovaning bezatilishi, mualif ismi-sharifi, hatto roman deb yozib qo'yilgan bo'lsa, o'sha so'zning o'zi ham matn bilan munosabatga kirishishingizni ta'minlaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan tayyorgarlik ham shunga yaqin faqat biroz vaqt, biroz qunt va jiddiyat talab qilishi bilan farqlanadi. Bu tayyorgarlikni to'rt odimda umumlashtirishga harakat qildik.

Birinchi odim. Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganish.

- Asarning nomi, yozuvchisi, nashr etilgan yili va joyi. Hajm belgisiga ko'ra matn turini aniqlash.

- Matn haqidagi yozuvchining yoki nashrga tayyorlovchining kirish so'zi.

- Matn turini aniqlash.

Ikkinci odim. Matn tuzilishini o'rganish.

- Matnning tashkil tarzini o'rganish. Bob, fasl, qism, bo'lim va ularning nomlarini, nazmiy asar bo'lsa bayt, misra kabi tashqi xususiyatlarini aniqlash.

- Yordamchi qismlarini aniqlash. Epigraf, epilog, agar nazmiy asar bo'lsa sarlavha, atov so'zi bayt, misra kabilarni aniqlash.

Uchinchi odim. Matnni birinchi marta o'qish. Matnni sinchiklab o'qish va tushunilishi qiyin bo'lgan joylarni belgilab borish, o'qish jarayonida e'tiborni tortgan so'z, ibora, maqol-matal va ayrim epizodlar yoniga belgi qo'yib borish tavsiya qilinadi.

To'rtinchi odim. Matn va ijtimoiy hayot o'rtasidagi aloqani o'rganish.

- Matn qaysi davrda, qayerda, qanday ijtimoiy muhitda yozilganligini aniqlash.

-Matnda qalamga olingan voqealar qaysi hudud va qaysi davr uchun xosligini aniqlash. Matnning ifoda maqsadi va mazmuniga ko‘ra turini belgilash.

-Matn yozilgan davr va yozuvchi mavqeyi. Yozuvchiga zamondoshlarining munosabati va yozuvchining zamondoshlariga munosabati.

-Yozuvchining boshqa asarlari va siz tahlil qilayotgan asari o‘rtasidagi aloqadorlik. Bu asarning boshqa asarlardan farqi.

B. Matn va til estetikasi. Sizga ma’lumki, til kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to‘plash, saqlash) kabi bir necha funksiyalarni bajaradi. Shunga ko‘ra matndagi til birlıkları muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi (ya’ni, kim-nima, kimga-nimaga, kim haqida-nima haqida).

Birinchi odim. Badiiy nutq ko‘rinishlarini belgilash.

-Monologik nutq, dialogik nutq, parallel nutq. Ichki nutq, tashqi nutq. Qahramonlarning yozma nutqlari, gazeta va jurnallardan olingan nutq ko‘rinishlari.

-Hikoyachi shaxsini aniqlash. Kim hikoya qilyapti? Hikoyachi kim haqida gapiryapti? Hikoyachi o‘zini bevosita ifodalayaptimi yoki bilvosita?

-Hikoyachi nutqining ko‘rinishlarini belgilash: xolis nutq, munosabatlri nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

-Qahramon shaxsini aniqlash. Bosh qahramon kim? Qaysi toifa-tabaqa yoki ijtimoiy qatlam vakili? Qahramon fe’l-atvori, dunyoqarashini aniqlash.

-Qahramon nutqining ko‘rinishlarini belgilash. Xolis nutq, munosabatlri nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

Ikkinchı odim. So‘zning estetik vazifasi.

-Badiiy asarda yozuvchi tomonidan atayin qo‘llangan so‘zlarni aniqlash. Nega aynan shu so‘zni qo‘llaganligi, bu so‘zning asar mazmuni va estetikasi uchun qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritish.

-Tarixiy, arxaik va yangi so‘zlarni aniqlash, ma’nosini izohli lug‘atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo‘llanilish o‘rni va sababini belgilash.

-Iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlar(kasb-hunar so‘zları, shevaga oid so‘zler, chet va dag‘al so‘zler)ni aniqlash, ma’nosini zaruriy lug‘atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo‘llanish o‘rni va sabablarini izohlash.

-Ma’nodosh, shakldosh, paronim va zid ma’noli so‘zlarni aniqlash. Ularning asar mazmuniga qanday ta’sir etganligi haqida mulohaza yuritish.

-Fonetik-fonologik o‘ziga xosliklarni belgilash. Tovush takrori, tovush tushishi, tovushlarning qavatlanishi kabi hodisalarining asarda qo‘llanilishi va ular yordamida erishilgan ekspressivlik haqida fikr yuritiladi.

-Matndagi morfologik o‘ziga xosliklarni aniqlash. Masalan, ot so‘z turkumidagi so‘zlarni ketma-ket keltirish yoki takrorlash orqali erishilgan ta’sirchanlik, sifatlarni uslubiy maqsadlarda qo‘llash, olmoshlarning matndagi vazifasi, fe’l nisbatlaridan emotsional-ekspressiv maqsadalarda foydalanimanligi kabilarni aniqlash.

-Matnning sintaktik o‘ziga xosliklarini aniqlash. Yozuvchi tomonidan atayin qo‘llanilgan so‘z birikmalarini topish va nega qo‘llanilgani haqida fikr yuritish. Gap turlarini aniqlash. Qaysi turdagni gaplardan ko‘proq foydalanimanligini belgilash va yozuvchining maqsadi haqida fikr yuritish. So‘z tartibi, inversiya, antiteza, parallelizm, ellipsis kabilalar.

-Abzas. Abzas qismlarinig joylashtirilishi. Tema-rematik munosabat. Abzaslarni bir-biriga bog‘lovchi vositalar. Distant va kontakt aloqa. Mazmuniy o‘q, mazmuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik tushunchalari abzas tahlili asosida sharhlanadi.

V.Badiiy matn va tasviriy vositalar. Har qanday badiiy asarning ta’sirchanligini unda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari ta’minlaydi. Ularsiz badiiy asar quruq va zerikarli bo‘ladi. Chunki kitobxon uchun asarda qalamga olingan voqealargina muhim emas. Balki, voqealar qanday ifodalangani ahamiyatlidir. Yozuvchining mahorati badiiy tasvir vositalarini qay darajada ishlata olishiga bog‘liq bo‘ladi.

-Metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, o‘xshatish, farqlash, jonlantirish, mubolag‘a, kichraytirish, antiteza, parafraza, oksyumoron kabilarni aniqlash va ularning badiiy matndagi o‘rnini, ahamiyatini yoritish.

-Ibora, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, ta’sirchan birikmalarni belgilash. Kimning nutqida, qanday muhitda, qay maqsadda, o‘rinli-o‘rinsiz qo‘llanilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

-Matnlararo aloqadorlikni aniqlash. Matn variantlarini qiyoslash. Matn ichida qo‘llanilgan o‘zga matn ko‘rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar) aniqlash va asar mazmuni bilan qay darajada uyg‘unligi haqida fikr yuritish.

G.Estetik hodisa sifatida matn.

Badiiy asar agar kitobxonlar e’tiborini tortgan bo‘lsa, albatta bu asar haqida gazeta, jurnallarda, turli adabiy tanqidiy kitoblarda, ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada fikr-mulohazalar berilgan bo‘ladi. Asar haqidagi tanishtiruv maqolalar, taqrizlar munaqqidlarning fikrlari bilan tanishish fikr ufqingizni kengaytiradi. Shuningdek, tahlil xolisligini ta’minlashga yordam beradi.

-Yozuvchi uslubi va asar yozilgan davrdagi yetakchi uslublarni aniqlash. Asar tili va davr tili o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash. Asarning boshqa tillarga tarjima qilinishi, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan asar ahamiyatini belgilash kabilar tahlil tugalligiga xizmat qiluvchi omillar hisoblanadi.

Badiiy asar lisoniy jihatdan tahlil qilinayotganda mavzuga aloqador ilmiy-nazariy adabiyotlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Faqat foydalangan adabiyotingizni albatta havolada ko‘rsatgan bo‘lishingiz lozim. Adabiyotni havolada ko‘rsatishning ham o‘z tartibi bor. Masalan, biror bir asardan olingen ko‘chirma keltirdingiz deylik. Qo‘shtirnoqdan keyin havola raqami qo‘yiladi. O’sha sahifaning pastki qismiga havola raqami qo‘yiladi va muallifning ismi sharifi, asar nomi, nashr joyi, yili va ko‘chirma olingen sahifa raqami yoziladi. Masalan:¹⁷⁸ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-T., 2002, 5-b.

Agar asardan ko‘chirma olmay mazmunidan foydalangan bo‘lsangiz havolada muallif ismidan avval «Bu haqda qarang» birikmasini qo‘shib qo‘yasiz. Bir asardan bir necha o‘rninda foydalangan bo‘lsangiz birinchisida to‘liq yoziladi, keyingilarida esa muallif ismi sharifidan keyin «O’sha asar» yozuvi va sahifasi ko‘rsatiladi. Asar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida berilganida siz foydalangan sahifa raqami emas, balki asarning necha sahifadan iborat ekanligi yoziladi.

MATNNI LINGVOSTATISTIK USULLARDA O‘RGANISH

Matnni o‘rganishning yana bir usuli – lingvostatistik usul hisoblanadi. Matnni tadqiq qilishda statistik metodlardan foydalanipler ekan, bunday metodlar muayyan bir matnda so‘z yoki ibora, bo‘g‘in yoki gap singari til birliklarining qo‘llanishida o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Til o‘ziga xos sistemaga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lganligi tufayli til birliklari muayyan sistemada joylashgan bo‘ladi. Ularni o‘lchab, hisoblab, ularning ma’lum bir matnda tarqalish darajasini, chegarasini aniqlash mumkin. Og‘zaki va yozma nutq jarayonida har bir til belgisi muayyan qo‘llanish chastotasiga ega.

Nutq oqimida takrorlanuvchi til birliklarining bo‘lishi til va nutq muammolarini o‘rganishda statistik vositalardan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Lingvostatistik tahlil imkoniyatlari til birliklarining qonuniyatlarini kuzatish va shu kuzatish natijalarini qayta ishlash jarayonida aniqlanadi. Bunda tabiiy fanlarning metodlaridan foydalaniлади. Shuning uchun lingvostatistik metodlar tabiiy-ilmiy metodlar tarkibiga kiradi.

Til muammolarini statistik jihatdan axborot nazariyasi metodlari yordamida ham o‘rganiladi. R.G. Piotrovskiy “Yozma matnni informatsion o‘lchash” nomli asarida bu haqda quyidagilarni ta’kidlagan edi.” Til aloqa vositasi bo‘lgani uchun uning birliklari lingvostatistik metodlar yordamida

¹⁷⁸ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-T., 2002, 5-b.

hamda informatsion usullar orqali baholanadi va o‘lchanadi”.¹⁷⁹ Bunday o‘lchash va baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Nutqiy muloqotga aloqa kanali sifatida qaraladi. Shu kanal orqali harflar, tovushlar, morfemalar va b. til birliklari yordamida informatsiya uzatiladi.

2. Lingvistik birliklar bu yerda ayrim kodlarning simvoli vazifasini bajaradi.

Til va nutq hodisalarini o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish tilshunoslik uchun yangilik emas, bu jarayon ikki asrlik tarixga ega. O‘z vaqtida mashhur rus matematigi V.YA.Bunyakovskiy 1847-yilda ehtimollar nazariyasidan grammatik va etimologik tadqiqotlarda foydalanishga tilshunoslarni da’vat etgan edi. P.B.Struvening fikricha, filologik tadqiqotlarda statistik metodlardan foydalanish tilshunoslarni matn haqidagi aniq ma’lumotlar bilan quollantiradi.

Rus tilshunosligida XX asr boshlarida statistik metod yordamida tilning tovush tarkibini o‘rganish ilk bor yo‘lga qo‘yildi. Masalan, rus tilshunoslari V.Petrov va P.Aleksandrovlar 1911-yilda Qozon shahrida fransuz va nemis tillarining tovush tarkibini statistik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan maqolalarini e’lon qilgan edilar. Bu maqolalarda har bir mingta tovush oqimida fransuz va nemis tillaridagi unli hamda undosh tovushlarning qo‘llanilish darajasi aniqlab chiqilgan edi. V.A.Bogoroditskiy, A.M.Peshkovskiy, A.Bulaxovskiy kabi olimlar 20-30-yillarda, rus tilidagi ilmiy va badiiy matnlarda unli hamda undosh tovushlarning qo‘llanilish darajasini aniqlashga oid ishlarni amalga oshirdilar. Masalan, A.M.Peshkovskiy rus tili og‘zaki matnida qo‘llangan unli va ayrim undosh tovushlarning ohangdorligini I.I.Turgenevning «Sadaqa» hikoyasi matnidagi ohangdorlik bilan qiyoslagan edi. Uning ta’kidlashicha, I.I.Turgenev hikoyasi matnidagi ohangdorlik og‘zaki matndan ancha yuqori. Chunki hikoya matnida shovqinli undoshlarga nisbatan jarangli va sonor undoshlar ancha ko‘p qo‘llangan. Agar V.Y.Bunyakovskiy tilshunoslikda statistik metodlardan foydalanish lozimligini ilk bor ta’kidlagan bo‘lsa, yana bir mashhur matematik olim A.A.Markov 1912 yilda birinchi bo‘lib til materialiga statistik metodni so‘f matematik nuqtayi nazardan qo‘lladi. U «Yevgeniy Onegin» she’riy romani 1 - va 2-boblarining har biridan o‘n olti satrni hisoblab, ular miqdorini 20.000 harfga yetkazdi. Ana shu harflar zanjiri tarkibida qaysi undosh yoki unli tovush yonma-yon kelish ehtimollik darajasini aniqladi. Keyinchalik u ishlab chiqqan metod *Markov zanjiri* deb yuritiladigan bo‘ldi.

¹⁷⁹ Пиотровский Р.Г. Информационное измерение печатного текста // Энтропия языка и статистика речи. –Минск, 1966. -С.5-86.

N.A.Morozov 1915-yilda badiiy asarning haqiqiy muallifi va ko‘chirmachi (plagiat)ni farqlash maqsadida matnni o‘rganishning statistik metodidan foydalandi. Bu ishni u «*Lingvistik spektr*» deb nomlaydi. Muallif u yoki bu yozuvchi asarlari matnida yordamchi so‘zlarining qo‘llanish chastotasini grafiklarda aks ettiradi, bu grafiklarni o‘zaro qiyoslab, har qanday matnning kimyoviy (morphologik) tarkibini, uning haqiqiy muallifini aniqlash mumkin. Bu usulni N.A.Morozov «*stilemetrik etyud*» deb nomlagan edi. Olim N.Karamzin, A.S.Pushkin, N.Zagoskin, N.V.Gogol, L.N.Tolstoy, I.I.Turgenev asarlarining birinchi 1000 so‘zi tarkibida yordamchi so‘zlar miqdorini aniqlaydi. N.A.Morozov tadqiqotlaridan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, yozuvchilarining asarlarida (badiiy matnlarda) eng ko‘p qo‘llanadigan, chastotasi yuqori bo‘lgan yordamchi so‘zlar *e, ha, c* predloglaridir.

1929-yilda Krasnodar shahrida V.Chistyakov va B.Kramorenkolarining «*Tilshunoslikda statistik metodni qo‘llash tajribasidan*» nomli asari 350 nusxa nashr etilgan edi. Bu sobiq Ittifoqda lingvostatistika bo‘yicha nashr etilgan dastlabki alohida risoladir. Asarda til materialini lingvostatistik metodda o‘rganish bo‘yicha juda ko‘plab grafiklar, diagrammalar keltirilgan.

Linvostatistika bo‘yicha tadqiqotlarning markazida chastotali lug‘atlar yaratish turadi. 1898-yilda Frans Keding nemis tilining dastlabki chastotali lug‘atini yaratgan edi. Buning uchun u 11 million so‘zshaklning qo‘llanishini tahlil qilib, shu asarda ularning chastotasini belgilagan. 1951-yilda Pragada F.Malerj rus tilining chastotali lug‘atini nemis tilida nashr yettirdi. Bu asar gazeta va jurnal materiallaridan tanlab olingan 100.000 so‘zqo‘llash (slovoupotreblenie) asosida tayyorlangan.

Amerika olimi G.Yosselson birinchi bo‘lib EHM yordamida rus tilining chastotali lug‘atini tuzgan (1953). Olim bir asrlik davrga tegishli proza, poeziya va drama materiallarini bir xil miqdorda tanlab, xuddi shu materiallarni litva, fransuz, nemis va ingлиз tillaridagi tarjimalari bilan qiyosladi. Shu asosda rus tili grammatik qurilishiga doir bir million so‘z qo‘llashda mustaqil va yordamchi so‘zlarining chastotalarini belgilab bergan edi.

O‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab lingvostatistik metodlar yordamida eng qadimgi Hind-Yevropa tillari, ugor-fin tillari va Kavkaz tillarining shakllanish davrini aniqlash bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Bu usul tilshunoslikda *glottochronologik metod* deb yuritiladi.

1905-yilda E.Arnold «*Vedalarning vaznlari haqida*» nomli asarini elon qildi. Bunda olim qadimgi hind diniy qo‘shiqlari «*Rigveda*» shakllarining eng qadimgi ko‘rinishlarini glottochronologik metod yordamida aniqlashga

intildi. Tilshunos olim Gherard Zolta nemis tilida yaratilgan «Arman tilidagi qadimgi so‘zlarning miqdori» nomli asarida qadimgi arman tilida o‘nta til (yunon, qadimgi hind - sanskrit, german, boltiq, slavyan, lotin, irland, kelt, alban, toxar)dan o‘zlashgan so‘zlar mavjudligini glotgoxronologik metod yordamida aniqlagan edi.

Yana bir tilshunos G.Berejskiy esa mariy tilida qadimgi fin-ugor bobo tilidan o‘zlashgan 682ta bir o‘zakli so‘zlar mavjudligini shu metod yordamida aniqlashga muvaffaq bo‘lgan.

Rus tilshunosligidagi tillarga o‘qitish yo‘nalishida lingvistik statistikadan ham keng foydalanilgan. Ma’lumki, ona tilidan tashqari ikkinchi bir tilni o‘rganayotganda, avvalo, ushbu tilning lug‘at boyligiga murojaat qilinadi. Ammo har bir tilning lug‘at boyligida ming-minglab turli so‘zlar mavjud bo‘lib, ularning hammasini eslab qolish mumkin emasligi tabiiy. Shu sababli o‘rganilayotgan tilning dastlab eng asosiy hamda tez-tez qo‘llanib turadigan so‘zlarinigina o‘zlashtirishga kirishiladi va muntazam ravishda bosqichma-bosqich so‘z boyligi orttirib boriladi. Buning uchun esa leksikostatistik manbalar-ma’lumotlar asosiy poydevor vazifasini o‘taydi.

L.N.Zasorinaning ta‘kidlashicha, leksikostatistikaning markaziy muammosi jonli (funktional) tilning statistik qonuniyatlarini va matnning statistik strukturasini aniqlashdir. Matnnning statistik strukturasini deyilganda, shartli ravishda, ma’lum matndagi turli so‘zlar miqdori bilan shu matnda uning qaytarilish-qaytalanish chastotasi orasidagi munosabat tushuniladi³. Shunga ko‘ra statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash kabi murakkab jarayondagi barcha ishlarni EHMga yuklash zaruriyati kelib chiqqan holda kompyuter lingvistikasida statistik yo‘nalish yuzaga keldi. U rus tilshunosligida avtomatik tarzda tilga o‘qitish yo‘nalishi bilan hamohang tarzda rivojlanib borgan .

Kompyuterdan foydalanilgan holda ko‘plab chastotali lug‘atlar ham yaratildi,⁵ ular o‘z navbatida mashina tarjimasi uchun zamin bo‘ldi.¹⁸⁰

Matnni matematik usullarda tekshirish Qozog‘istonda ham izchil rivojlangan. Bunda prof.Q.B.Bektayevning xizmati katta deb aytish mumkin. Olim ilmiy faoliyati davomida matematik va injener lingvistikasiga oid

Засорина Л.Н., Берков В.П. Кўрсатилган асар, 32-б.

Алексеев П.М. Частотный словарь английского подъязыка электроники. –Л., 1965; **Волкова Н.О., Гинзбург Р.С., Переображенос В.И.** Частотный словарь сочаемости совр. английского языка. –М., 1972; **Гаспарова Э.М.** Частотный словарь немецких текстов по сельскохозяйственному машиностроению. –СтРААТ, 1971; **Ешан Л.И.** Частотный словарь английского подъязыка электроники. –Л., 1971; **Заманский А.А.** Частотный словарь английских текстов по терапии. –СтРААТ, 1981; **Кочеткова В.К., Скремина Л.И.** Частотный словарь французского подъязыка электроники. –Л., 1982; **Штейнорельдт Э.А.** Частотный словарь русского литературного языка (2500 наиболее употребительных слов).–Таллин, 1963.

¹⁸⁰

o'nlab asarlarni yaratgan. Bu asarlarda til va nutq birliklarini EHM yordamida tadqiq etishning har tomonlama muhimligi ta'kidlanib, ularda amaliy ishlardastur va lug'atlar ham aksini topgan. Q.B.Bektayev rahbarligidagi «Lingvostatistika va avtomatlashtirish» guruhining a'zolari M.Avezovning «Abay yo'li» romani (4 kitob) tilining chastotali lug'ati so'zligini kompyuter yordamida 50 soat davomida tuzib chiqqanlar. Mazkur chastotali lug'atda 20000 dan ziyodroq leksema va 60000 so'z shakli («glossema») mavjud bo'lib, u 466 000 marta qo'llanilgan. Guruh a'zolari bu lug'atni tuzish uchun atigi sakkiz oy vaqt sarflaganlar. Vaholanki, shu ish oddiy qo'l kuchi bilan bajarilganda, mazkur guruh a'zolari tinimsiz 10 yil, bir tilchi esa kamida 100 yil ishlagan bo'lar edi. Shu tariqa ushbu ulkan ish qozoq tilshunosligida kompyuter lingvistikasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

O'zbekistonda matnni tekshirishda lingvostatistik metodlardan foydalanish

Rus va o'zbek tillarining qiyosiy fonetikasi bo'yicha dastlabki statistik tadqiqot V.M.Popovning "O'zbek va rus tillarini qiyosiy o'rganishda statistik metodni qo'llash" nomli maqolasi (1949) sanaladi. Bu maqolada har ikki tildagi tovushlarning nutqdagi o'rni, ishlatalishi, miqdori, yumshoqlik va qattiqlik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tekshirishlarning natijalari keltirilgan.

A.Pankrateva 60-70-yillarda rus va o'zbek tillarida so'zlarning qo'llanish chastotalarini M.Sholoxovning «Tinch Don» epopeyasi misolida tahlil etgan edi. Olimaning hisob-kitoblariga qaraganda, o'zbek tilida 187 ta rang bildiruvchi so'z mavjud, rus tilida esa 147 ta rang ifodalovchi so'z bor. Ana shu 147 rang bildiruvchi so'zlardan 45 tasi, ya'ni 33,0 % i o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega emas.

Tilshunos olim B.Bafoevning Alisher Navoiy asarlari leksikasiga oid monografiyasining dastlabki bobu "Alisher Navoiy asarlari leksikasini statistik o'rganish natijalari" deb nomlanadi. Ishning "So'z boshi" qismida Alisher Navoiy asarlari tilini statistik jihatdan o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, e'lon qilingan lug'atlar, "Abushqa", "Sangloh", "Badoe ul-lug'at" singari bir qator qo'lyozma lug'atlardagi izohlangan so'zlar miqdori haqida qisqacha ma'lumot berilgan. B.Bafoev Alisher Navoiy asarlari tilida forscha-tojikcha va arabcha so'zlar miqdori haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun shoirning "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan bir g'azaldagi 100 ta so'zni olib, ularning 55 tasi o'zbekcha, 20 tasi arabcha, 19 tasi forscha-tojikcha ekanligini qayd etadi hamda bu ma'lumotlarni ulug' shoirga yaqin zamondosh bo'lgan Gadoiy, Atoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Husayniy she'riyatidan olingan xuddi shunday miqdoriy ko'rsatkichlar bilan qiyoslaydi va quyidagi haqqoniylar xulosaga

keladi: 1) barcha ijodkorlar ijodida, arabcha, forscha-tojikcha so'zlar deyarli bir xil sonni tashkil qiladi; 2) Alisher Navoiy o'z asarlarida arabcha, forscha-tojikcha so'zlarni, ko'p qo'llagandek tuyulsa-da, bu ko'plik uning asarlarining hajmi bilan bog'liqdir.¹⁸¹ Eng muhimmi, bu monografiyada Alisher Navoiyning 24 ta asari qo'lida, EHMSIZ miqdoriy tahlil qilinib, ularda jami 26035 ta so'z qo'llangani haqidagi aniq statistik ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek tilshunosligida matnning lug'aviy tarkibini miqdoriy jihatdan o'rganish sohasida V.V.Reshetov (1934), A.K.Borovkov (1940), F.Abdullayev (1949), M.Mirzayev (1951), I.Rasulov (1951), G.Muhammadjonova (1972), N.G'ulomova (1975) kabi olimlar amalga oshirgan ishlar keyinchalik ayrim olimlar tomonidan tanqid qilindi. Masalan, prof.E.Begmatov matn leksikasini tahlil qilishning bunday miqdoriy usullarini o'z mohiyatiga ko'ra noilmay, nazariy jihatdan yetarli asoslanmagan bir urinish, deb hisoblaydi. Prof.E.Begmatov o'zining bu fikrini quyidagi dalillar bilan asoslashga intiladi: 1. Matnlarda ko'p bor takror qo'llanuvchi so'zlar (masalan bog'lovchilar, atoqli otlar va b.) miqdoran qanday hisoblangani bu ishlarda noaniq. 2. O'zlashma so'zlar asosida o'zbek tilida yasalgan so'zlarning o'z qatlama kiritilgani yoki o'zlashma qatlama kiritilgani ham noma'lum. 3. Olib borilgan tahillarda asosiy diqqat o'zlashma qatlaming miqdoriy nisbatini aniqlash va baholashga qaratiladi, xolos.¹⁸²

Shulardan kelib chiqib, E.Begmatov leksikaning miqdoriy nisbatini belgilash uchun qo'llanilgan statistik usul tilshunoslik fani manfaatlariga emas, balki ko'proq mafkuraviy, siyosiy manfaatlarga xizmat qilib keldi, degan xulosani bayon etadi. Bu xulosada qisman jon bor, chunki totalitar tuzum davrida liigvostatistik metod natijalari haqiqatdan ham ruschabaynalmilal so'zlar miqdorining tilimizda ko'payib borayotganligini ta'kidlash uchun xizmat qilgan. Lekin shunga asoslanib, lingvostatistik metodlardan foydalanishni cheklash mumkin emas.

Keyingi yillarda mamlakatimizda lingvostatistik metod yordamida bir qator leksikografik ishlar ham amalga oshirildi Jumladan, bir guruh olimlar "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" ni yaratishda leksik birliklarni to'plash, ularni kompyuter xotirasiga kiritish, muayyan maqsad ostida ularga ishlov berishda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalandilar. Hozirgi o'zbek tili materiallarining ijtimoiy-

¹⁸¹ Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. –Самарканд, 2008.-Б. 26.
¹⁸² Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. –Самарканд, 2008.-Б. 26.

siyosiy matnlarda eng ko‘p aks etishini inobatga olib "Yoshlik", "Tafakkur", "Guliston", "Sharq yulduzi" kabi jurnallar hamda bir qator gazetalarda qo‘llangan barcha so‘zlar maxsus dastur asosida 94 ta faylda sahifalab chiqildi. Bu fayllar ichidan ajratib olingan so‘zlar 8168 sahifani tashkil etdi. Har bir sahifada 200 tadan so‘z mavjud bo‘lib, jami ishlatalgan so‘zlar (turli grammatic shakllarda) 1633600 tani tashkil etdi. Kompyuter yordamida bu so‘zlarning qo‘llanish chastotasi aniqlab chiqildi. Eng kamida 4 marta qo‘llangan lug‘aviy birlikka nisbatan faol so‘z deb qaraldi va bunday lug‘aviy birliklar lug‘atga kiritish uchun tanlab olindi. Natijada bunday faol so‘zlar tilimizda 15000 tani tashkil qilishi aniqlandi, shu asosda lug‘atning so‘zligi yaratildi hamda alifbo tartibi bilan muayyan leksemalarga izohlar yozildi.¹⁸³

Sh.Egamova Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksikaning lingvostatistik tahlilini amalga oshirdi. Olib borilgan bu lingvostatistik tahlil natijasida Navoiy asarlari tilida tahminan 1400 ga yaqin qadimgi turkiy va eski turkiy tilga taalluqli so‘zlarning qo‘llanishda davom etganligi aniqlandi. Ot turkumiga oid leksemalar yuqorida keltirilgan 1400 ta leksik birlikning deyarli 25,1 % ini, ya’ni 583 tasini tashkil qiladi. Sifat kategoriyasiga oid 116 ta qadimgi turkiy leksema Navoiy asarlarida qo‘llanishda davom etgan. Qadimgi turkiy tildagi son turkumiga oid so‘zlarning 44 tasi Navoiy asarlarida ham qo‘llangan. Statistik tahlil Navoiy asarlari so‘z boyligida 33 ta olmoshlar keng qo‘llanganligidan dalolat beradi. Navoiy asarlarida qo‘llanishda davom etgan leksemalarning 557 tasi (24,0 %)ni fe’l kategoriyasiga oid so‘zlar tashkil etadi, bu fe’llarning 183 tasi tub, qolgan 374 tasi esa yasama ekanligi aniqlandi.¹⁸⁴

O‘zbek tili materiallari bo‘yicha statistik tadqiqotlar olib borgan yana bir olimlar S.Rizayev va S.Muhamedovlardir. Mazkur olimlar ham asosan kompyuter lingvistikasining statistik tahlil yo‘nalishi bo‘yicha ishlarni amalga oshirishgan. S.Muhamedov o‘zining R.R.Piotrovskiy bilan hammulliflikda yozgan «Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов» nomli kitobida lingvistik modellar, modellashtirish va uning umumiyligi tamoyillari haqida fikr yuritib, o‘zbekcha matnlarning kvantitativ modellarini keltiradi. Mualliflar, shuningdek, mazkur asarda turk gazeta matnlarining leksik-morfologik mashina tarjimasini ham bergenlar (ishning oldingi sahifalarida qayd etilgan A.Babanarovning tadqiqotlariga munosabat sifatida). Mazkur asarda sun’iy intellekt yaratish va injener lingvistikasi metodlari bilan o‘zbekcha nutqni avtomatik qayta ishslash jarayonida foydalanan uchun zaururiy bo‘lgan o‘zbekcha matnlarning leksik

¹⁸³ Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатistik методлари. –Самарканд, 2008.-Б. 28.

¹⁸⁴ Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатistik методлари. –Самарканд, 2008.-Б. 29.

– morfologik tuzilishining statistik tahlili natijalari keltirilgan. Albatta, bunday yirik, jiddiy ilmiy asarni yaratishda S.Muhamedov bu sohadagi o‘z izlanishlariga suyangan. Ya’ni uning «Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов» (nomzodlik dissertatsiyasi) va «O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati (gazeta tekstlari asosida)» asarları yuqoridagi asarning yozilishida manba bo‘lib xizmat qilgan.

S.Rizayev «Kibernetika va tilshunoslik» asarida tilshunoslikda aniq metodlarning qo‘llanilishi va bunda EHMni qo‘llash, til va nutq hodisalariga statistik yondashishining sabablari hamda matnlarni avtomatik qayta ishlash va mashina tarjimasi muammolari, shuningdek, harflar chastotasini aniqlashda EHMdan foydalanishga doir ma’lumotlar bergen⁵. S.Rizayevning ko‘plab boshqa ilmiy ishlari ham asosan kompyuter lingvistikasining statistik tahlil yo‘nalishiga oiddir. Shu jumladan, olimning nomzodlik dissertatsiyasi ham o‘zbek adabiy tilining grammatik va fonologik sistemasini statistik tekshirishga bag‘ishlangan. S.Rizayev 2008 -yilda “O‘zbek tilining statistik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Doktorlik ishida fonetik, morfologik va leksik sath birliklarini statistik tadqiq qilish metodlari ko‘rsatilgan.

Demak, o‘zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda statistik metodlardan foydalanish sohasida muayyan natijalarga erishilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matnni o‘rganishdagи lingvostatistik metodga izoh bering.
2. Lingvostatistik metodlarning dunyo tilshunosligida qo‘llanilishi haqida ma’lumot bering.
3. O‘zbekistonda lingvostatistik metodlarning qo‘llanilishi haqida ma’lumot bering.
4. Matnni o‘rganishdagи lingvostatistik metod vositasida qanday chastotali lug‘atlar tuzilgan?
5. O‘zbek tilshunosligida asosan qanday matnlar lingvostatistik metodlar orqali tekshirilgan?

MATNNING KOGNITIV-DISKURSIV TAVSIFIY XUSUSIYATLARI

O‘quv qo‘llanmaning yuqoridagi sahifalarida matnning turlicha jihatlarini tadqiq qilish mumkinligi haqida fikr bildirildi. Keyingi vaqtida matnni ng kognitiv-diskursiv xususiyatlarini ham tadqiq qilish borasida ilmiy izlanishlar vujudga kelmoqda. Quyida shu haqida fikr yuritmoqchimiz. Ammo matnning

Ризаев С. Кибернетика ва тилшунослик. –Тошкент :Ўзбекистон, 1976, 16 б.

kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari borasida fikr bildirishdan avval kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo‘nalishlari xususida ma’lumot berish o‘rinli deb hisoblaymiz, chunki kognitiv lingvistika borasida o‘zbek tilida manbalar juda kam.

Til birliklari va “ular asosida yotuvchi bilim strukturalari” mental birliklardir, ular o‘zlarini belgilar sistemasi sifatida namoyon qilib, borliqni anglashda va mavjud bilimlarni uzatishda faol ishtirok etadi. F. de Sossyur fikricha, belgilar sistemasi ifoda plani va mazmun planiga ega bo‘lgan holda ma’lumotni muayyan shaklda uzatuvchi inson ishtirokini taqozo qiladi. An’anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e’tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo‘lgan insonning o‘zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi. Vaholanki, “ifoda plani ham mazmun plani ham ushbu jarayonni amalga oshirayotgan inson tomonidan tanlanadi”.¹⁸⁵ Bu tanlov inson tomonidan uning falsafiy, ensiklopedik, etnografik, lingvokulturologik bilimlari, kommunikativ akt kechayotgan vaziyat, insonning emotsiional holati va b. asosida amalga oshiriladi. Shu tariqa, qiyosiy-tarixiy, struktur, funksional va kommunikativ lingvistika bilan bir qatorda kognitiv lingvistika ham shakllanib bordi. Kognitiv lingvistika tilni “inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlavchi va tashkil qiluvchi vosita” sifatida o‘rganadi.¹⁸⁶ Tilni shunday tushunish va uni tadqiq qilishga bo‘lgan bunday yondashuv *tilga kognitiv yondashuv* nomini oldi.

Tilni kognitiv yondashuv asosida tadqiq qilish kognitsiyaning til ifodasini o‘rganish bilan bog‘langan. N.N.Boldirev fikricha: “Kognitsiya –bu ma’lumotlarni, bilimlarni olish, qayta ishlash, eslab qolish, xotirada tiklash va foydalanishning har qanday ongli yoki ongsiz jarayonidir. U o‘zida quyidagi psixologik jarayonlarni mujassamlashtiradi: 1) dunyoni qabul qilish; 2) kuzatish; 3) kategoriyalarga ajratish; 4) tafakkur; 5) nutq; 6) tasavvur “.¹⁸⁷

Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi quyidagi yo‘nalishlar nazariy asos sifatida xizmat qildi:

- 1) semasiologik nazariya (Y.D.Apresyan, N.V.Nikitin va b.);
- 2) semasiologik grammatika nazariysi (Y.S.Stepanov);
- 3) tilni mantiqiy analiz qilish nazariyasi (N.D.Arutyunova);
- 4) nutqiy tafakkur nazariyasi (S.D.Katsnelson);
- 5) nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologik nazariya (E.S.Kubryakova);
- 6) germenevtika (G.I.Bogin);

¹⁸⁵ Абиеva Н.А. Биологическая обусловленность семиозиса // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.106.

¹⁸⁶ Boldyrev H.H. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.18.

¹⁸⁷ Boldyrev H.H. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. –С.23.

7) nutqiy faoliyatning psixologik konsepsiyalari (A.R.Luriya, A.A.Leontev va b.).¹⁸⁸

Tilshunoslikni kognitsiyaning bilimlarni til shaklida kodlashtirilgan turli strukturalari bog‘langan aspekti qiziqtiradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, **kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasi** tilda aks etgan bilimlar sistemasini, ya’ni bilimlarni uzatish, saqlash, tashkil qilish, xotirada tiklash va bilimlarga ta’sir etishning til shakllarini o‘rganishdir. **Kognitiv lingvistikaning asosiy maqsadi** – “tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning turli strukturalariga kirib borish hamda til va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tavsiflash”dan iboratdir.¹⁸⁹

Kognitiv lingvistikaning bosh tadqiq obyekti sifatida kognitiv faoliyat sifatidagi til qatnashadi, zero til “bilishning ajralmas qismi bo‘lib, madaniy, psixologik, kommunikativ va funksional faktorlarning o‘zaro aloqasini aks ettiradi”.¹⁹⁰

Kognitiv lingvistika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab juda tez rivojlandi. U *kognitiv fan* zamirida shakllandi. Kognitiv fan fanlararo bog‘liqlik xususiyatiga ega fan bo‘lib, u “insonning kognitiv imkoniyatlarini yagona mental mexanizmga birlashtirish va ularning o‘zaro aloqasi hamda o‘zaro ta’sirining umumiy prinsiplarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi”.¹⁹¹ Kognitiv lingvistikaning paydo bo‘lishi tadqiqotchilarning borliq, tafakkur, ong va tilning o‘zaro aloqasi hamda fikr ijod qiluvchi va nutqni vujudga keltiruvchi insonga bo‘lgan qiziqishining o‘sishi bilan bog‘liqidir. Bu bilan bog‘liq ravishda til “borliqning inson aqli tomonidan qay tarzda ko‘rilganligi va tushunilganligini, borliq ong tomonidan qay tarzda qayta ishlaniб, kategorizatsiya qilinganligini aniqlovchi vosita” sifatida qarala boshlandi.¹⁹²

“Ong, -deb yozadi E.S.Kubryakova, bu miyaning shunday tarkib toptiruvchi infrastrukturasiki, unda inson hayoti davomida to‘planilgan tasavvurlar, taassurotlar, his-tuyg‘ular va fikrlar ko‘rinishidagi obrazlarni yoki yagona konseptual sistemaning konseptlarini aks ettiruvchi barcha mental tajriba mujassamlangan bo‘ladi”.¹⁹³

Ong “kognitiv daraja sifatida” ikki qismga bo‘linadi: til ongi va tilga taalluqli bo‘limgan ong. “Inson ongi nafaqat o‘zaro bog‘langan mantiqiy hukmlar, tushunchalar va aqliy xulosalar sistemasi shaklida to‘planilgan hayotiy tajriba, borliq va o‘zi haqidagi bilimlar yig‘indisini, balki verbal

¹⁸⁸ Болдырев Н.Н. Кўрсатилган мақола. –С.22.

¹⁸⁹ Болдырев Н.Н. Кўрсатилган мақола. –С.23.

¹⁹⁰ Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.37.

¹⁹¹ Кубрикова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.6.

¹⁹² Кубрикова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения.-М., 1997.-С.37.

¹⁹³ Кубрикова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. –С.13.

bilimlar, tilni, uning morfologik, fonologik, mantiqiy, pragmatik, sintaktik va b. sistemalarini bilishni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Bu bilan til ongi boshqa “bilimlar bloki”ning ichiga kirib boradi va ongimizning eng muhim qismi hisoblanadi”.¹⁹⁴ Shu tariqa, til ongi, bu – ongning “ til ma’nolariga ega yig‘indidan iborat qismidir”.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazariga ko‘ra ong to‘plangan bilimlar hisoblansa, ushbu bilimlarning yig‘uvchisi bo‘lib tafakkur hisoblanadi. Ko‘rinadiki, “tafakkur va ongning mayjud bo‘lishi va joriylanishi o‘zaro shartlangan: ong (to‘plangan bilimlar holati) tafakkur jarayonini ta’minlab beradi, u esa, o‘z navbatida, bilimlar (ongning) to‘planish va sistematizatsiya qilinish manbai hisoblanadi”. Inson tomonidan bilimlar to‘plash, ya’ni tafakkur jarayoni ikki vaziyatning mayjudligi sharti bilan kechadi. Bu, birinchi tomonidan, tafakkur jarayonida borliqning aks etishi bilan, ikkinchi tomonidan, uni kodlashtiruvchi belgi sifatidagi tilning mayjudligi bilan bog‘lanadi. T.A.Fesenko ta’kidlaganidek: “Agar ong (tafakkur ham) fikrning mantiqiy shakllarida borliqni aks ettiruvchisi bo‘lsa, til (turli til formulalari vositasida) tafakkurimizning ifodalovchisi sifatida qatnashadi”. Shunga ko‘ra, kognitiv lingvistika borliq, tafakkur, ong va tilning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, “ bilim olish, uni qayta ishlash, qayta fikrlash va uni matnlarda voqelanish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganadi”.

Kognitiv lingvistikaning bugungi kunda quyidagi asosiy yo‘nalishlari mavjud:

1. Bilishning biologik nazariyasi. U biosemiotika ma’lumotlariga asoslanadi. Biosemiotika tadqiqotchilarini ishlarida nafaqat inson, balki boshqa aqlli mavjudotlarning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlar bildirilgan.

2. Bilishning biomadaniy nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko‘ra oddiy tirik mayjudotlar uchun borliq faqat jismoniy ahamiyat kasb etsa, inson uchun u ham jismoniy, ham madaniy ahamiyat kasb etadi.Ushbu nazariyaga ko‘ra inson to‘rt tipdagi qadriyatlarga ega bo‘ladi: 1) stimul; 2) assotsiativ; 3) taqlidiy; 4) ramziy.¹⁹⁵

Shu tariqa, ushbu yo‘nalishlarda til va bilishning biologik asoslari insonning qabul qilish, emotsiyonal holati, empirik tajribasi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

3. Sun‘iy intellekt yaratish nazariyasi. Bu nazariya asoslari informatika fanidan olingan bo‘lib, unda sun‘iy intellekt va inson ongi, tili o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganiladi.

4. Kognitiv semantika yo‘nalishi. Kognitiv semantikani yana “tildagi konseptualizatsiya va kategorizatsiya nazariyasi” deb ham atashadi. Ushbu

¹⁹⁴ Фесенко Т.А. Концептуальный перевод в структуре взаимоотношения «деятельность – мышление–сознание–язык» // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.112.

¹⁹⁵ Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.45.

nazariyaga ko'ra til birligining ma'nosini boshqa kognitiv strukturalar kontekstida aniqlanishi zarur, chunki ushbu bilimlar bloki mazkur ma'nolar ortida turadi va ularni tushunishni ta'minlaydi".¹⁹⁶ Kognitiv strukturalar *kognitiv sferalar*, *kognitiv kontekstlar* (R.Lenker), *mental makonlar* (J.Fakone, Dj.Lakoff) yoki *freymlar* (Ch.Filmor) deb ham ataladi. Kognitiv strukturalar "til analiziga til hamda tilga aloqasi bo'lmagan (ensiklopedik) bilimlarni jaib qilgan holda semantik nazariyaga ko'p darajali xarakterni bahsh etishni" taqozo qiladi.¹⁹⁷ U yoki bu kognitiv strukturalarda aniqlanayotgan til birliklari ma'nolari u yoki bu konseptlar asosida shakllanadi. N.N.Boldirevning ta'kidashicha, konseptlar til kategoriyalari shakllanishining asosida yotadi. Shunga ko'ra til birliklari va til kategoriyalari ma'nolarini kognitiv semantika doirasida tadqiq qilish konseptual analiz metodi asosida amalga oshiriladi. Konseptual analiz til birliklari va shakllarida ifodalangan dunyoni anglash, tushunish, fikrlash, bilish usullarini o'rganishni taqazo qiladi. Bunda ma'nolar so'zlar, so'z birikmalar, jumlalar va, umuman, matnlar bilan ifodalanishi mumkin. Konseptual analiz konseptlar mazmunini va bu bilan bir qatorda yashirin, assotsiativ va b. konseptual xarakteristikalarini aniqlaydi.

Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Kognitiv adabiyotlarda **konseptga** falsafiy, psixologik, leksik kategoriya sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv semantika nuqtayi nazaridan konseptning o'zi nima degan savol tug'iladi. Olimlar konseptga turlicha ta'rif berishadi. N.Tixonovaning fikricha: "**Konsept** grammatic kategoriya bo'lib, u o'zining formal ko'rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differensial belgilariga egadir".¹⁹⁸ M.V.Nikitinning ta'kidashicha esa: "**Konsept** sxolastik strukturaga ega bo'lgan diskret ko'pfaktori mental birlidir".¹⁹⁹ Konseptning ta'riflari haqidagi ko'plab fikrlarni umumlashtirib quyidagilarni aytish mumkin: 1. Konsept – bu ongda "nimanidir" bir lahzada chaqnashi. 2. Konsept – bu har bir elementi abstraksiyaning yuqori darajasiga intiluvchi irexrik tashkil qilingan struktura. 3. Konsept – bu yagona butunlik bo'lib, u elementlari o'zaro bog'langan va o'zaro harakatda bo'lgan maydon tushunchasi bilan bog'lanadi. 4. Konsept – bu so'zlarning predmet yoki tushuncha sohasiga taalluqli ekanligiga qarab guruhlanishi. 6. Konsept – bu operativ mazmuniy xotira, mental leksikon, konseptual sistema va ong tili birligidir.

Konseptlarning turli tiplari mavjud: 1. *Ontologik konseptlar* dunyoning ontologik strukturasini tavsiflaydi: vaqt, makon, xususiyat, sifat va b. Ular qo'llanish sohasi yoki foydalanish maqsadiga ko'ra cheklanmagan. 2. *Pragmatik*

¹⁹⁶ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. –С.26.

¹⁹⁷ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. –С.26.

¹⁹⁸ Тихонова Н.Н. Концепт в системе современных лингвистических представлений // Семантика языковых единиц: Докл. Международ. науч. конф. Т.1. –М., 1998. –С.69.

¹⁹⁹ Никитин М.В. Развёрнутые тезисы о концептах // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. –С.53.

konseptlar tor qo'llanish sohasiga ega, ular bir ma'noli va bilishning quroli sifatida xizmat qiladi. 3. *Aprior konseptlar*. Ular his qilish tajribasini umumlashtirish, predmetlar bilan bevosita operatsiyalar o'tkazish orqali shakllanadi. 4. *Lingvokreativ konseptlar* til muloqoti va til birliklari semantikasi orqali dunyoni bilish asosida vujudga keladi va til belgisining mazmun planini o'zida mujassamlashtiradi. 5. *Konsept-universaliyalar*. Ular dunyo xalqlariga xos konseptlardir. 6. *Konsept-unikalialiylar*. Ular faqat muayyan bir xalqqa xos konseptlardir. Ularni etnodeymilar – “dunyoni ko'rish konseptlari” deb ham atashadi, chunki ularda muayyan xalqning dunyoni ko'rishi uning milliy-madaniy xususiyatlari asosida amalga oshishi ifodalananadi.²⁰⁰

Bugungi kunda tilshunoslikda markaziy konseptlar²⁰¹ sifatida so'zning asosiy grammatik sinflari bilan semantik mutanosiblikka ega bo'lgan quyidagi konseptlar ajratiladi: *obyekt, harakat, jarayon, o'rin, makon, vaqt, tafakkur, sifat, xususiyat va b.*²⁰²

Ma'lumki, voqelik parchasining, ma'lum hodisalarning lisoniy voqelanishi odiyi jarayon emas, bu jarayon tafakkur va lisoniy faoliyatlarining uyg'unlashuvini, hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi.²⁰³ Kognitiv tilshunoslik sohasi vakillarining fikricha, “moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik, ushbu tushunchaning mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy ko'rinish olishini taqozo etadi”.²⁰⁴ Konsept voqelikning tafakkurdagi in'ikosi – obrazning qayta ishlanishi natijasida hosil bo'ladi va uning bevosita lisoniy voqelanishi yana bir tafakkur akti ijrosining ta'minlanishini taqozo etadi. Ushbu akt maqsadli, ongli tafakkur faoliyatining namunasi bo'lib, u konseptlarning lisoniy voqelanish rejasini amalga oshirishni mo'ljallagan “botiniy nutq” sharoitida yuzaga keladi.

“Botiniy nutqning” kyechishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastlabki o'rinda uning kuzatilayotgan axborotning kognitiv asosini hosil qilishiga e'tibor berishi kerak. Nutqi tuzilma vositasida yetkaziladigan har qanday xabar ushbu xabar obyekti bo'lgan voqelik hodisasining mantiqiy kategoriallashuvi va konseptuallashuvini ta'minlovchi kognitiv asosga egadir. Boshqacha aystsak, voqelikning konseptuallashuvi va lisoniy voqelanishi bir butun jarayonning ikki ajralmas qismi bo'lib, ularning har ikkisida ham

²⁰⁰ Алиференко Н.Ф. Этноэйдемический концепт и внутренняя форма языкового знака // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.70.

²⁰¹ Тихонова Н.Н. Концепт в системе современных лингвистических представлений // Семантика языковых единиц: Докл. Международ. науч. конф. Т.1. –М., 1998. –С.69.

²⁰² Мухамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши ва асосий тушунчалари // «Систем-структур тилшуннослик муроммалари» номли Республика илмий-назарий конференция материаллари.- Самарканд, 2017.-Б. 189-191.

²⁰³ Боймираева С. Матн мазмунинда темпораллик семантикаси. –Тошкент:ЎзМЭ, 2009.-Б.73.

²⁰⁴ Сафаров Ш. Когнитив тилшуннослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. -Б.25.

so‘zlovchi (muallif)ning hayotiy tajribasi, bilim doirasi, maqsad va qiziqishlari o‘z ifodasini topadi. Bunda lisoniy qurilma va birliklar “obyektiv borliq va shaxs ongi, uning hayotiy faoliyati davomida hosil bo‘ladigan tajribasi o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa rolini o‘ynaydi”.²⁰⁵

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, konseptuallashuv jarayonida matn yaratilishi uchun poydevor yaratiladi. Zero, matn ma’lum bir voqelikning inson tomonidan idrok etilishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Voqelikni idrok etish uchun esa inson uning mohiyatini to‘la tasavvur etishi, boshqacha aytganda, to‘g‘ri «hazm qila bilmog‘i» yoki anglamog‘i lozim. Faqat shundagina mazmunan aniq va tugal matn yaratiladi. Demak, matn, shubhasiz, kognitiv tilshunoslikiiig tahlil obyekti bo‘la oladi hamda ushbu yo‘nalish doirasida uning mazmuniga xos botiniy xususiyatlар, konseptuallashuv jarayonida hosil bo‘ladigan mental qolipining tuzilishi o‘rganiladi.

Matning kognitiv tahlil obyekti sifatida e’tirof etilishi bevosita uning tabiatи haqidagi tasavvurlarning ham ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada I.P.Susovning matn tabiatan ikki jihatga ega («текст двулик по своей природе»)²⁰⁶ degan tavsifi o‘z paytida (o‘tgan asrning 80-yillarda) qanchalik to‘g‘ri deb qabul qilingan bo‘lishiga qaramasdan, bu qarash hozirgi kunda tadqiqotchilarни qoniqtirmay qo‘ydi. Matning ko‘p jihatli va ko‘p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta‘kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o‘rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir xalqani qo‘sishni ma‘qul ko‘rgan bo‘lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq uslublarining matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liqdir. Bunday e’tirof esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilar e’tiborini matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususiyatlardan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi (retsipient tomonidan qabul qilinishi) jarayoniga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini «lisoniy jarayonlar, lisoniy birlik va kategoriya kabilarni ularning xotira, tasavvur, idrok, ong bilan munosabatida o‘rganish» deb bilgan E.S.Kubryakova²⁰⁷ keyinchalik ushbu vazifani «lisoniy strukturalar va bilim strukturasi o‘rtasida mavjud bo‘lgan doimiy muqobililikni yoritish» darajasigacha kengaytirdi.²⁰⁸ Matn, eng muhim

²⁰⁵ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Б.23.

²⁰⁶ Сусов И.П. О двух путях исследования содержания текста // Значение и смысл речевых образований.- Калинин,1979. -С. 90.

²⁰⁷ Кубрякова Е. С. Размышления о судьбах когнитивной лингвистики //Вопросы философии, 2001.№ 1. - С 32.

²⁰⁸ Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. -Москва, 2004. -С. 9.

lisoniy struktura bo‘lish bilan bir qatorda, boshqa har qanday tuzilmaning ajratilishi uchun asos xizmatini o‘tar ekan, u kognitiv-diskursiv tahlilda ham asosiy «sinov maydoni» bo‘la olishga qodir. Darhaqiqat, matn tilshunosligining taraqqiyoti davrida «matn» tushunchasi ancha tor ma’noda talqin qilinib, tadqiqotchilar e’tiborini asosan uning moddiy jihatlari tortib kelayotgan edi. Matn yaratilishi va idrokini uzluksiz jarayon sifatida tasavvur qilish lozimligi faqat tilshunoslik fanida yuzaga kelgan «kognitiv inqilob»²⁰⁹ sharoitidagina ayon bo‘ldi.

Ma’lumki, kommunikatsiya statika va dinamika, jarayon va natija qarama-qarshiligi hamda mushtarakligida kechadi. Xuddi shu tarzagi qarama-qarshiliklar va munosabatlar tizimida yaratiladigan matnni haqiqiy kommunikativ birlik sifatida e’tirof etib, uning kategorial xususiyatlari haqida so‘z yuritishimiz mumkin. Shu jihatdan, ayrim tilshunoslarning «matn nihoyatda mavhum xaraktyerga ega va uni kommunikativ faoliyatdan ajratib olish mumkin»²¹⁰ degan da’volari, bizningcha, g‘ayritabiyyidir. Kichik hajmdagi matnlarning mazmuniy xususiyatlari bilan shug‘ullangan olim V.I.Yuganovaning ushbu da’vosi bir qarashda asoslidek tuyuladi, chunki qayta takrorlanish va o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan yozma (ayniqsa, badiiy) matn nutq vaziyati bilan bevosita bog‘liqlik xususiyatiga ega emasdek ko‘rinadi. Ammo yozma matn ham muloqot vaziyatiga aloqadorlik xususiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Ma’lumki, situativlik matnning doimiy kategorial belgilardan biridir va buning isbotini biz dastlab matnning qayta takrorlanishi sharoitlarida o‘z asosiy kommunikativ mazmunini saqlab qolishida yaqqol ko‘ramiz. Har qanday muloqot sharoitida matn vositasida uzatilayotgan axborotning qiymati saqlanadi, zero, uzatilayotgan axborotga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talab - uning ushbu muloqot sharoiti uchun yangiligi, muhimligidir. Albatta, bunda matn muallifi axborotni uzatishning eng ma’qul usulini topishi zarur bo‘lganidek, retsipient ham matn tuzilishiga tayangai holda muallif unga qanday axborotni yetkazish niyatida ekanligini zukkolik bilan to‘g‘ri anglay bilishi muhimdir.

Nutqiy tuzilmalarniig matn maqomini olishida kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining munosabati ham muhimligini unutmaslik lozim. A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori uning faqat muallif yoki retsipient bilan munosabatda faollashuvividagina matn bo‘la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi, insонning ishtirokisiz tasavvur

²⁰⁹ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность, интерпретующего подхода // Вопросы языкознания. -Москва. 1994. - №4. - С. 18.

²¹⁰ Юганов В.И. Текст как продукт коммуникативного акта // Коммуникативно-прагматические и семантические функции речевых единств. - Калинин, 1980. -С 73.

qilinayotgan matn faqatgina «moddiy gavda» ko‘rinishini oladi²¹¹. Taniqli psixolingvist A.A.Zalevskayaning fikriga batamom qo‘shilishni istasak ham, lekin bir kichik e’tirozimizni bildirmaslikning imkonи yo‘q. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag‘ishlovchi faoliyatning ijrochisi (muallif yoki retsipient)siz hech qanday qiymatga (olimaning ta’biricha - «ichki quvvatga») ega bo‘lmaydi, ammo matnning o‘z-o‘zicha, alohida «gavda» sifatida mavjud bo‘lishini tasavvur qilish qiyinligini olima unutgandek ko‘rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo‘lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin qarama-ÿarshi qo‘yish an’anasidan to‘liq voz kecha olmaganidan bo‘lsa kerak. Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik - nofaollik, dinamik-statik xususiyatlarning qarama-qarshiligi bilan bog‘lashga intilayotganlar oxir-oxibatda matnni yozma nutq mahsuli, diskursni esa og‘zaki muloqot mahsuli sifatida ta’riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo‘sindagi talqin, so‘zsiz, ularning birini (matnni) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko‘rinishida tasavvur qilishga undaydi.²¹²

Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug‘dirishi mumkinligi tilshunoslariimiz tomonidan e’tirof etilgan.²¹³ Biz ham ularning fikrlarini quvvatlagan holda matnning yozma va og‘zaki ko‘rinishda mavjud bo‘lishini batamom e’tirof etamiz. Shu bilan birgalikda, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to‘liq muqobillikka ega bo‘lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash ham unchalik ma’qul bo‘lmasa kerak. Bizningcha, Sh.Safarovning «diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo‘lsa, matn uning ko‘rinishidir», degan ta’rifiga yergashgan ma’qul.

Matn yaratilishini diskursiv faoliyatning bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlarga, jarayonli belgilariga ko‘proq etibor qaratishni talab qiladi. Matnni o‘zgarmas, harakatsiz, turg‘un xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisa ko‘rinishida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matnning maqomini, kategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog‘liq tomonlariga e’tiborni kuchaytirish lozim bo‘ladi. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognitiv qobiliyati bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash sari yo‘naladi. Subyektning kommunikativ-ijtimoiy hamda til tizimi qoida-normalariga mos

²¹¹ Залевская А. А. Текст и его понимание. - Тверь: ТвГУ, 2003. -С.25.

²¹² Архипов В. К. «Знак - предмет» и «знак - ситуация»: текст и дискурс. В кн.: А р х и п о в В. Человеческий фактор в языке. -СПб., 2003. -С.102. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент:Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008. - Б. 224.

²¹³ Xегай В. О. О понятии дискурс // Филология масалалари. 2006, № 2 (11). -С.63-66; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент:ЎзМЭ, 2008.- Б.222-229; Йўлдошев М. Бадний матн лингвопоэтикаси. - Тошкент: Фан, 2008. - Б. 48.

ravishda matn yaratish va uni mazmunan idrok etish qobiliyati nutqiy tafakkur faoliyatining samarasini ta'minlovchi asosi omillardandir.

Kognitiv tilshunoslikning vazifalari, uning asosiy tamoyillarini aniqlashga harakat qilgan V.Z.Demyankov ushbu yo'nalishdagi tahlilda «kognitiv muqobililik» va «bevosita muqobililik» tamoyillarini farqlash muhimligini alohida uqtiradi. «Kognitiv muqobililik», olimning ta'bıricha, biror bir birlik haqida tasavvur qilish yoki uning haqida fikr yuritishda ushbu birlikning qanday idrok etilishi va hosil bo'lgan tushunchaning qay darajada kognitiv voqelikka mos kelishini anglatadi. Ushbu tamoyil «bevosita muqobililik» holatiga ziddir. Binobarin, oxirgi tamoyilga binoan lisoniy voqelanish unsurlarining mazmuni bevosita voqelidagi hodisalar mohiyatiga mos keladi. Buning izohini ingliz kognitologgi R.Uilinski keltirgan «Bruklin ko'prigi» so'z birikmasi tahlilida ham ko'rish mumkin. Bu lisoniy birlikning referenti obyektiv borliqdagi predmetdir. Bu predmet ko'priko'rinishiga ega va uni «Bruklin ko'prigi» deb atashadi (chunki u Bruklinda qurilgan). Agarda kognitiv muqobililik tamoyiliga amal qiladigan bo'lsak, «Bruklin ko'prigi» atamasi real borliqdagi aniq bir predmet bilan bog'liq emas, balki bu voqelikning kognitiv tasavvurdagi mohiyatiga yoki boshqacha ifodalaydigan bo'lsak, voqelikning tafakkurda qoldirgan «izi»ga mos kelishi kerak.²¹⁴

«Kognitiv muqobililik» tamoyiliga amal qilish nutqiy tuzilmalar (shu jumladan, matn) mohiyati, mazmunini bevosita «lisoniy birlik (belgi) - ma'no» zanjirida talqin qilish an'anasidek voz kyechishga undaydi. Lekin shuning bilan birqalikda, kognitiv-diskursiv tahlil amallari hech qachon lisoniy voqelikni inkor etmaydi, chunki har qanday kognitiv tuzilma negizida lisoniy birliklarga xos ma'no ifodasi yotadi. So'zsiz, matn va boshqa lisoniy hodisalar tuzilishini to'liq tasavvur etish uchun ularning denotativ-referentiv tavsifi yetarli emas. Bu holatda matnning strukturaviy tuzilishi ahamiyatsizdek ko'rindi. Ammo lisoniy belgining ixtiyoriligi haqidagi Sossyur g'oyasini absolyutlashtirish yo'lidagi bunday qarashning samarasiz ekanligini semiotiklarning o'zлari ham allaqachon sezishgan. «Lison, -deb yozadi Y.Kelemen, -faqatgina bilim to'plash va uzatish vositasigina bo'lib qolmasdan, balki ushbu bilimni o'ziga xos strukturalar asosida moddiylashtirish vositasi hamdir, shuningdek, u hayotning ma'lum shakli, uslubidir». ²¹⁵

²¹⁴ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность, интерпретирующего подхода // Вопросы языкоznания. -Москва. 1994. - №4. - С. 18.

²¹⁵ Келемен Я. Текст и значение // Семиотика и художественное творчество. – М.: Наука, 1977. -С.106.

Kognitiv tahlil vazifalari va metodlarini chegaralash istagida bo‘lgan yana bir rus tilshunosi A.E.Kibrikning e’tirof etishicha, «kognitiv tilshunoslik, uning har qanday ko‘rinishdagi talqini va tavsifida kognitiv strukturalarning tilga nisbatan birlamchi ahamiyatga molik bo‘lishiga tayanadi va bunda til birliklari va qoidalari kognitiv struktura va jarayonlarning grammaticus olishi ko‘rinishida tasavvur qilinadi». ²¹⁶ Albatta, kognitiv strukturalarni ajratish har qanday lisoniy tuzilmaning yaratilishi, uning yuzaga kelish tarixini o‘rganish uchun muhimdir. Lekin ushbu strukturalarning ustuvorligi ularning lisoniy voqelanishi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarini orqaga surib qo‘yishga yoki, eng yomoni, inkor qilishga sabab bo‘lmasligi kerak. Har qanday lisoniy birlikning kommunikativ qiymati, mazmunini uning shakli tuzilishidan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin. Mazmun va shakl hodisalarining bunday mushtarak munosabati matn hodisasiga ham taalluqlidir. Shunga binoan matnning tuzilishi o‘rganilganda, asosan semantik-sintaktik kategoriyalarga tayaniladi va bunday yondashuv ma’noviy hamda formal-sintaktik ko‘rsatkichlarning birini ikkinchisidan ajratgan holda o‘rganilishiga nisbatan ijobiy natijalar berayotganligi barchaga ma’lumdir.

Sintaktik shaklning gap semantikasining hosil bo‘lishidagi o‘rni tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etib kelimoqda. Matn mazmunining shakllanishida uning formal belgilari muhim rol o‘ynaydi. Lekin matn mazmuni uchun asosiy tayanch nuqta uning kompozitsion qurilishidir. Kompozitsion shakl, birinchidan, matnni boshqa nutqiy tuzilmalardan (ayniqsa, gaplarning tasodifiy qatoridan) farqlash uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, unga tayangan holda matn turlarini ajratish mumkin bo‘ladi.

Kompozitsion shakl hodisasini matn tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilishga intilgan moskvalik germanist O.I.Moskalskaya matnning makrokompozitsiya va mikrokompozitsiya qurilishi haqida gapirgan edi.²¹⁷ Bulardan birinchisi yaxlit matnning kuriishi bo‘lsa, ikkinchisida matn qismlarining ichki qurilishi o‘z ifodasini topadi. Mikrokompozitsiya matnning yaxlit kompozitsion qurilishini (makrokompozitsiyasini) ta’minlaydi. Barcha turdagи matnlар, ular yozma yoki og‘zaki ko‘rinishda bo‘lishidan qat’i nazar, ma’lum bir kompozitsion matritsa - sxema asosida yaratiladi. Masalan, epistolyar janrdagi matnlarning asosiy kompozitsion qolipi «sana - murojaat - asosiy qism - xotima va ehtirom - imzo» ko‘rinishida bo‘lsa, arizaning qolipi boshqacharoq: «murojaat shaxsi - murojaat bayoni - ehtirom - imzo».²¹⁸

²¹⁶ Кибрик А. Е. Константы и переменные языка. -СПб., 2003.-С.51.

²¹⁷ Москальская О.И. Грамматика текста. -Москва: Вс. школа, 1983. -С.78-96.

²¹⁸ Жўраев Т. Хозирги ўзбек адабий тилида эпистолар жанрининг тили ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз.... дис. автореф. – Самарқанд,1994; Сулаймонов М. Дастиҳат эпистолар жанрининн бир тури сифатида // Ўзбек тили ва адабиети. –Тошкент, 2006. - №4. - Б. 85-88; Чоринева З. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг лугавий-маяновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз.... дис. автореф. – Тошкент, 2006. - 23 б.

Biror bir matn kompozitsiyasi qurilishining qoliplashganlik darajasini aniqlash uchun matnning ichki tuzilishini tahlil etish bilan chegaralanib qolish to‘g‘ri emas, balki turli turkumdagи matnlari qatorini qiyoslash amalidan ham foydalanish lozim bo‘ladi. Bunda matn qismlari bajarayotgan vazifalardan (masalan, «kirish», «bayon», «izoh», «xulosa» kabilar) tashqari, u yoki bu belgining matnning kompozitsion tartibiga ta’sirini ham aniqlash imkonи tug‘iladi. Bu ta’sirning darajasi esa turli matnlarda turlicha bo‘ladi. Matnlarning tuzilishidagi farqlar va ularda lisoniy unsurlarning qo‘llanish darajasini kuzatgan uslubshunoslar turg‘un va erkin strukturali matnlarni farqlashni tavsiya qiladilar. Har ikkala tipdagi matn uchun uning kompozitsion va mazmuniy strukturasini ifodalovchi vositalarning o‘zgarib turish xususiyati xosdir. Lekin bunday o‘zgarishlar (variativlik)ning miqyosi turg‘un strukturali matnlarda, erkin strukturali matnlarga nisbatan bir oz chegaralangan. Uslubshunos N.M.Razinkinaning ta’kidlashicha, matn kompozitsion tuzilishida kuzatiladigan variativlikning miqyosi yoki darajasi matn mazmunida ifodalanayotgan mazmuniy-faktual axborot xarakteri bilan bog‘liqidir.²¹⁹

Ma‘lumki, matn tarkibida doimo zohiriyl ifoda topadigan mazmuniy-faktual axborot «atrofimizdagi haqiqiy yoki tasavvurdagi olamda bo‘lgan, bo‘layotgan, bo‘ladigan faktlar, voqeа-hodisalar, jarayonlar haqidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi». Turg‘un strukturali matnlarda bu turdagи axborot ko‘pincha bevosita voqelik bilan bog‘liq bo‘lib, u ushbu voqelik haqidagi aniq ma‘lumotlarni ifodalarydi. Shu sababli bayon qilinayotgan voqealar tipiklashtirilib, ular qat’iy stereotip-qoliplar qamroviga olinadi. Erkin strukturali matnlarda esa mazmuniy - faktual axborot bayoni unchalik qat’iy qoliplashmagan, ularning variativlik imkoniyatlari kengroq. Bunday holatni biz, ayniqsa, badiiy matnlar kompozitsion tuzilishida aniqroq kuzatamiz. Yagona bir syujet yoki fabulani turli strukturaviy hajmda yoki kompozitsion tuzilishda bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan badiiy matnda mazmuniy-faktual informatsiya asar mazmunining denotativ-referentiv qobig‘ini tashkil qildi. Badiiy asar mazmunining asosiy negizini esa «badiiy-estetik xaraktyerdagi axborot», ya’ni mazmuniy-faktual informatsiya vositalari bilan tavsiflangan hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarning muallif nigohidagi talqini, bu munosabatlarning sabab-oqibat aloqalari, ularning ijtimoiy-madaniy qimmatining muallif tomonidan anglashinilishini taqozo etuvchi mazmuniy konseptual axborot tashkil qildi. Qisqaroq aytadigan bo‘lsak, mazmuniy-konseptual axborot subyektning borliqni idrok etishi natijasida hosil bo‘lgan g‘oya, fikrning individual talqinidir. Ushbu turdagи axborot ilmiy-ommabop asarlar matnida aniq lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi, badiiy matnda esa mazmuniy-konseptual axborotni anglash uchun u «to‘g‘ridan-to‘g‘ri

²¹⁹ РАЗИНКИНА Н. М. Функциональный стиль. -Москва: Высшая школа, 1989. -С.125.

verbal ifodalamanligi uchun» retsipient tafakkur yuritishi, ya’ni «aqliy faoliyat» amalini bajarishi lozim bo’ladi.

Haqiqatan ham badiiy asar mazmunining negizini tashkil qiluvchi mazmuniy-konseptual axborot zohiran ifodalanmaydi. Bunday axborotning botiniy ko’rinishda bo’lishini ruhshunoslar ham e’tirof etishgan. «Har qanday hikoya (povest, roman)ning mazmuni, -deb yozadi ruhshunos V.V.Znakov, - predmetlik ma’nosida, «fabula»sida emas, balki o‘quvchining o‘zi o‘qigan manbagaga munosabatida mavjuddir. Bu munosabatlar o‘quvchining talqinida, xulosalarida, taxminlarida, savollarga javob izlashida namoyon bo’ladi». Ammo badiiy matn mazmunining, unda ma’lum qilinayotgan axborotning estetik qimmatini faqatgina o‘quvchining idroki, tafakkur qobiliyatiga bog’lasak, mazmunni butunlay subyektivlik bilan bog’lab qo‘yishimiz mumkin. To‘g’ri, matn mazmuni «chaqish» retsipientning vazifasi bo’lganidek, uning mazmuniy yaxlitligini (kogerentligini) va tugalligini aniqlash ham uning (retsipientning) ixtiyoridadir. Biroq, u bajarayotgan har qanday kognitiv amallarni harakatga keltiruvchi «kuch», mexanizm matnning o‘zi, uning kompozitsion qurilishidir. Matn ma’lum strukturaviy ko’rinishga ega bo’lmasa, o‘quvchida axborotni qabul qilish imkoniyati bo’lmaydi.

Matnning mazmuniy yaxlitligi va kogerentligining o‘zi kognitiv jarayondir, bu jarayonda retsipient matn kommunikativ-pragmatik maqsadini anglash majburiyatini olgan faol shaxs hisoblanadi. Matn va uni idrok etuvchi shaxs o‘rtasidagi munosabat ikki tomonlama kechadigan dialektik jarayondir. Bu jarayonda o‘quvchi, bir tomondan, nutqiy axborot adresanti bo’lsa, ikkinchi tomondan, ushbu axborotni anglovchi va tahvil qiluvchi subyektdir. Matn ma’lum kommunikativ maqsadni ko‘zlagan holda tartiblashtirilgan lisoniy struktura bo‘lib, uning tarkibida adresantning mazmun idrokiga yo‘naltirilgan aqliy intellektual faoliyatiga ta’sir o‘tkazuvchi turli kommunikativ-lisoniy «ishoralar ham mayjud bo’ladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, matnning kategorial xususiyatlari uni yaratuvchi va idrok etuvchi subyektlarsiz o‘rganib bo’lmaydi. Matn mazmuni ikki tomonlama faoliyat natijasi bo’lganligi uchun ham uning kategorial belgilari muallif va adresant tomonidan bir xilda idrok etilishi lozim. Faqat shu yo‘sindagina u yoki bu belgining barqarorlik darajasini aniqlash imkonи tug‘iladi. Kichik hajmdagi matnlarni kognitiv tahvil etgan E.V.Levchenko matnning birlamchi, barqaror, muallif va o‘quvchi ta’siridan xoli xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ikkilamchi, subyektning bevosita matn bilan munosabatga kirishishi jarayonida yuzaga keladigan xususiyatlari ham mayjudligiga e’tibor qaratish lozimligini uqtirgan.²²⁰ Albatta, matn maqomini aniqlash, uning nutqiy

²²⁰ Левченко Е. В. О первичных и вторичных свойствах текста // Стереотипность и творчество в тексте.- Пермь, 2004. Вып. 7. -С. 179.

muloqot jarayonida, tutgan mavqeini bilish uchun ushbu hodisaga xos bo‘lgan barcha turdag'i xususiyat va belgilarni o‘rganish lozimligini hech kim inkor qilmaydi. Lekin tahlil qilinayotgan hodisaning obyektiv xususiyatini aks ettirmaydigan, o‘tkinchi belgilarni ko‘p holatlarda subyekt tomonidan ushbu hodisaga beixтиyor qo‘sib berilayotgan nisbat bo‘lishi ham mumkin. Kategorial belgi uchun asosiy ko‘rsatkichlar barqrarorlik, turg‘unlik, barcha sharoitlarda takrorlana olish xususiyatidir.

Demak, matn tahliliga kognitiv-diskursiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, uning mohiyatini invariant xususiyatlardan zanjiri belgilashini e’tirof etishimiz lozim. Xususiyatlarning invariantligi matn yaratilishi va idroki jarayonlarining uzluksizligini, ularning davomiyligi va biri ikkinchisini taqozo etishini ta’minlaydi. Invariantlikning turli sharoitlarda (matnlarda) voqelanishi esa uning variantli qo‘llanish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Invariantlik va variantlik xususiyatlari munosabatlarining uzbekligi sharhini A.Hojiyevning boshqa turdag'i lisoniy hodisalar mohiyatidagi umumiyligini va xususiylik belgilari muqoyasasida bildirgan fikrida ham ko‘ramiz. Olimning qayd qilishicha, paradigma - bir umumiylar ma’nosida birlashuvchi xususiy ma’noli shakllar guruhidir. Bu guruh va unga xos ma’no tilning ma’lum sathiga xos kategoriya hisoblanadi. Masalan, fe’lning zamон kategoriyasi harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi. Zamон shakllarining hammasi uchun umumiylar bo‘lgan bo‘lgan xususiyat ushbu kategoriyaning tub mohiyatini belgilaydi. «Zamonning har bir turi esa, - davom etadi A.Hojiyev, - o‘zicha umumiyligini va xususiyliklarga ega. Masalan, o‘tgan zamон fe’li harakatning nutq momentigacha bo‘lishini bildiradi - bu umumiyligini - o‘tgan zamон fe’lining mohiyati. Bu zamонning shakllari ana shu umumiylar ma’no asosida birlashadi. Har biri esa o‘ziga xos xususiyatga ega».²²¹

Olimning umumiyligini va xususiylik munosabati haqida bildirayotgan ushbu sharhi matnning kategorial va nokategorial belgilarni farqlash tamoyillariga to‘la mos keladi. Bundan tashqari, kategorial belgilarni majmuasi matnning barcha turlariga bir xilda xos bo‘lishini ham tasavvur qilish qiyin. Binobarin, badiiy matn uchun xos bo‘lgan belgilarni ish yuritish hujjatlari matnida unchalik aniq ko‘rinishga ega bo‘lmasligi mumkin. Shuningdek, ayrim belgilarni ma’lum turdag'i matnlarda yetakchilik qilsa, boshqalarni esa ularni kuchaytirish, aniqlashtirish vazifasini ado etishadi. Shu sababli bo‘lsa kerak, ayrim nemis kognitologlari kategorial belgilarning matnda tartib topishini gradual hodisa sifatida qarashni lozim deb hisoblaydilar.

Bundan ikki-uch yil oldin kognitiv tilshunoslikka oid o‘quv qo‘llanmalaridan birining muallifi «kognitiv tilshunoslik til tahvilini nutq tahili

²²¹ Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз яалиши тизими. - Тошкент: Ўқитувчи, 2007. - Б.53.

bilan to‘ldiradi» degan g‘oyani isbotlamoqchi bo‘ldi.²²² Biz nutq lingvistikasini til tizimi tahlilining oddiy ilovasi sifatida tavsiflashdan yiroqmiz. Zotan, kognitiv tahlilda nutqiy faoliyat jarayonini ta’minlovchi vositalar, uni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni aniqlash maqsadi ko‘zlanadi. Kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalarini aniqlash vazifasini ko‘zlayotgan tadqiqotchilar muhokama qilinadigan asosiy muammo insonning voqelik bilan munosabatida hosil bo‘lgan tajriba-bilimming kategoriallashuvi ekanligini ta’kidlashmoqda. Voqelikni idrok etish jarayonida hosil qilingan bilimni kategoriyalashtirish qabul qilingan (o‘zlashtirilgan) axborotni tartiblashtirish usulidir. Ushbu usulning amalga oshishida esa til tizimi birliklaridan foydaliladi. Voqelikni idrok etish yo‘li bilai hosil bo‘ladigan mental birlik - konseptdir.

Konsept voqe-hodisalarни tipiklashtirish, modellashtirish xizmatini o‘tab, tafakkur va lisoniy faoliyatlarни tutashtiradi va ularni obyektiv borliqni bilish jarayonida o‘zaro birlashtiradi. Bilih jarayonining bir tekis kechmasligi ma’lum, bu jarayonda predmet-hodisalarning umumiyligi va xususiy belgilarini taqqoslash asosida ularni farqlamasdan turib, kategoriyalashtirib bo‘lmaydi. Bu turdagи mental amallarning bajarilishi negizida kognitiv strukturalar majmuasi turadi. Kognitiv strukturalar (tuzilmalar) mohiyatan voqelikni idrok etish va shu idrok jarayonida yuzaga kelgan bilim (axborot)ni lisoniy voqelantirishning ramziy sxemasidir. Shunga binoan lisoniy tafakkur faoliyatida til tizimining rolini aniq tasavvur qilish imkonini beradigan kognitiv strukturalar - freym, skeprt, ssenariy, propozitsiya kabilarning o‘rganilishi til va nutq hodisalarining ilmiy-nazariy tahlilida muhim o‘rinni egallashiga aminmiz.

Bunday yondashuvning istiqboli, ayniqsa, matn tilshunosligi sohasida yaqqol ko‘rinadi. Matnning yaratilishi va qabul qilinishi bosqichlarida voqelikda sodir bo‘layotgan hodisa kognitiv obrazining tasavvur qilinishi birlamchi shartdir. Bu obraz, o‘z navbatida, umumiyligi propozitsiyalardan tashqari, kommunikativ faoliyatni shartlovchi muloqot qoidalari, normasi, an’anasi kabi bilimlar zaxirasini ham qamrab oladi. Ushbu bilimming barchasi freym yoki ssenariy ko‘rinishida ifoda topadi. Freym inson ongida mavjud bo‘lgan (aniqrog‘i, yuzaga keladigan) kognitiv strukturadir.²²³ Voqelikdagi tipik vaziyatlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘lish natijasida shakllanadigan matn freymi markazida asosiy mavzu yoki makropropozitsiya tursa, uning tugunlari (slotlari) esa alohida propozitsiyalar bilan to‘ldiriladi. Matn

²²² Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. - Москва: Флинта-Наука, 2006. - С.27.

²²³ Бу хақда каранг: Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. - Б.41-46; Турниёзов Н., Турниёзова К. Фрейм ва унинг прагматик мавкеи хусусида баъзи мулоҳазалар // Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарқанд, СамдЧТИ, 2007. - Б. 6-8; Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. - Андижон. 2007. -Б.194.

komunikativ-pragmatik mazmunini anglash maqsadida bajariladigan kognitiv amallar negizida xuddi shu turdag'i mental strukturalar tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlarini aniqlash vazifasi turadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kognitiv lingvistikaning obyekti nima?
2. Kognitiv lingvistikaning predmeti nima?
3. Kognitiv lingvistikaning qanday yo'nalishlari bor?
4. Konsept nima?
5. Konseptosfera nima?
6. Matning yaratilishi va qabul qilinishi bosqichlarida voqelikda sodir bo'layotgan hodisa kognitiv obrazining tasavvur qilinishida qanday ahamiyatga ega?
7. «Kognitiv muqobillik» tamoyili qanday tamoyil?
8. Konseptuallashuv jarayoni matn yaratilishi uchun qanday ahamiyatga ega?
9. Konseptlarning lisoniy voqelanish rejasini amalga oshirishga mo'ljallagan "botiniy nutq"ni ta'riflang.

MATNNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MAZMUNI

Ma'lumki, matn - axborot almashish birligi va u asosan shu vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, uning mazmuni ham muloqot va axborot almashinuv kabi vazifalarning uyg'unligini taqozo etadi.

Odatda, matn kommunikativ-axborot tuzilishining ikki bosqichli hodisasi sifatida qaraladi. Bulardan birinchisi, matnning tema-rema qurilishi bo'lsa, ikkinchisi uning mazmuniy (mavzuviy) markazi yoki asosidir. Matn mazmuning dinamik (harakatdagi) va statik (turg'un holatdagi) qobiqlarini tashkil qiladi deb hisoblanib kelinayotgan bu ikki xususiyatni alohida, ayri holda o'rghanish odat tusiga kirib qolgan. Buning sababini, bizningcha, qo'llanilayotgan tadqiq uslublarining nomutanosibligi bilan izohlash mumkin. Binobarin, gapdan yuqori birliklarning tema-rema qurilishi masalasi ushbu birliklardagi qismlarning o'zaro munosabatga kirishishi va shu munosabat asosida yagona yaxlitlikning tadrijiy shakllanish sharoitiga nisbatan o'rGANilsa, mazmuniy markaz hodisasi esa shakllangan yaxlit tuzilma - matnga nisbatan qaraladi. Bundan tashqari, mazmuniy markaz aksariyat holatlarda matning mavzusi, ya'ni tasvirlanayotgan voqelikdagi asosiy obyektning nomlanishi, xabar predmeti kabilar bilan bir xil hodisa sifatida qaraladi. Mazmuniy markaz va tema-rema tuzilishi munosabati ham bir tomonlama tavsiflanib kelinmoqda: matn mazmuniy markazining tavsifida

uning tarkibidagi gap (lar)ning tematik jihatlariga ahamiyat berilib, rema tomoni esa nazardan chetda qolmoqda. Bunday holatda gap qurilishiga oid ayrim hodisalarga xos belgi-xususiyatlarning matn qurilishi tahliliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chib qolish xavfining paydo bo'lishi muqarrardir.

Tema-rema munosabatlarni jumladan yuqori pog'onada turadigan tuzilmalar tarkibidan izlash harakati o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Gap mavhum birlik, qolip sifatida qaralganda, uning qurilishi aktual yoki boshqacha aytganda, biror bir mazmuniy bo'linishga ega bo'lishini tasavvur qilish qiyin masala. Mazzuniy bo'linish hodisasi va tema-rema munosabatlari faqatgina nutqiy vogelangan kommunikativ tuzilmalargagini xosdir. Shu sababli bu hodisa va munosabatlarni matn grammatikasi nuqtayi nazaridan o'rghanish ma'quldir.

Lekin matn grammatikasi yo'nalishida bajarilayotgan tadqiqotlarda ham tema-rema munosabatlarining yaxlit matn mazmuniy markazi shakllanishidagi o'rni haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Bu yo'nalishdagi ishlarda asosiy e'tibor mazmuniy markazning shakllanishi masalasi faqatgina tematik munosabatlarning yuzaga kelishi bilan bog'lanib, matn kommunikativ-axborot tuzilishining boshqa jihatlari nazardan chetda qolgan. Fikrimizcha, matn mazmuni, semantikasini uning yaxlitligini ta'minlovchi omillarning umumiyligida, tarkibiy qismlarning kommunikativ harakatida, ya'ni ushbu qismlar tema-rema munosabatlarining matn mazmuning shakllanish jarayonida bajaradigan vazifasi darajasida tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Matn - nutq birliklarining umumiy kommunikativ vazifani bajarish maqsadiga bo'yundirilishi, yagona bir pog'onani mazmuniy-semantik butunlik tarkibida birikishidir. Har bir matn o'ziga xos mazmunga ega, unda aniq bir kommunikativ reja ifodalanadi va u ongli ravishda bajariladigan nutqiy ijod jarayonida shakllanadi.²²⁴

Nutqiy muloqotga kirishayotgan shaxs ma'lum maqsadni ko'zlaydi va shu maqsadga nisbatan o'z muloqot rejasini tuzadi. Ushbu rejasini amalga oshirish uchun u til tizimi zaxiralariga murojaat qiladi. Kommunikativ reja nutqiy xabar ko'rinishini olishga qodir tuzilma bo'lib, u yashirin mantiqiy predikat shakliga egadir. Matn semantikasi muammosi bilan batafsil shug'ullangan A.I.Novikov eslatganidek, so'zlovchida dastlab o'zi axborot berish istagida bo'lgan ma'lum predmet haqida tushuncha, fikr bo'lishi kerak.²²⁵ Xuddi shu fikr konseptual tuzilma sifatida matnning mazmuniy markazini tashkil qilishi ehtimoldan xoli emas.

²²⁴ Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М.: Наука, 1981. - С.3.

²²⁵ Новиков А.И. Семантика текста к её формализации. - М.: Наука, 1983. -С.49.

Albatta, har qanday nutqiy birlik kabi matn ham tashqi ko‘rinish, shaklga ega. Shakl va mazmun uyg‘unligi yoki asimmetrik nomutanosibligini sezish uchun esa uni idrok etish lozim bo‘ladi. Idrok etiladigan, anglanishi lozim bo‘lgan narsa - matnning ichki, botiniy shaklidir. Botindagi shakl matnning mazmuni va mundarijasini hosil qiladi. Matn mazmuni «tafakkurdagi tuzilma bo‘lib, u inson ongida shakllanadi va tashqi shakl bilan tashkil qiluvchi qismlar (elementlar) bog‘lanishida emas, balki barcha lisoniy vositalarning butun bir yaxlitlik hosil qilishi bilan bog‘liqdir». Zero, «har qanday lisoniy hodisa ayni paytning o‘zida shakl va ma‘no uyg‘unligiga ega bo‘lmasa yoxud unda moddiylik va mavhumlik-ramziylik belgilari o‘zaro uyg‘unlashmasa, mazmun ifoda etish qobiliyatini yo‘qotadi». ²²⁶ Matnning shakliy va mazmuniy tuzilishi o‘rtasidagi munosabat masalasi muhimdir. Bu munosabatni o‘rganishda tadqiqotchilar turli tadqiq metodlari va me’yorlariga asoslanib kelmoqdalar. Bularning ayrimlari «sof» tilshunoslik yo‘nalishidagi tahlil usslublari bo‘lsa (masalan, distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish kabilar), boshqalari esa mainiqiy-vazifaviy xaraktyerdagilardir (masalan, nutqiy tuzilmalarning aktual bo‘linishi nazariyasiga asoslangan tahlil metodi).

Keyingi yillarda matn tuzilishini bevosita muloqot muhiti, vaziyati bilan bog‘lab o‘rganishni taqozo etuvchi psixolingvistik tahlil metodlari keng tus olayotganligi ma’lum. Lekin qo‘llanilayotgan metodlar qaysi yo‘nalishga xos bo‘lishidan qat’i nazar matn tuzilishi tadqiqi uch asosiy me’yorga tayanishi shubhasiz. Bu tadqiq me’yorlari quyidagilardir: a) tuzilma tarkibidagi bo‘laklarning xarakteri (xususiyatlari); b) ularning o‘zaro munosabati; v) ushbu munosabatlarning yaxlit mazmun ifodalishidagi o‘rni.

Bu me’yorlarni inobatga olish tadqiqotchining diqqatini har qanday holatda ham matnning formasi, shakliy tuzilishiga yetaklaydi. Ilmiy-technik mavzudagi matnlar mazmuni tadqiqi bilan shug‘ullangan N.N.Leonteva ko‘rsatilgan yo‘ldan borib, matn mazmuni shakllanishi va tahlilining lisoniy va axborot uzatish ko‘rinishlarini farqlashga undaydi. Lisoniy yondashuv gap semantikasi tahliliga tayanadi. Boshqacha aytganda, matn ma‘nosи alohida gaplar semantik tuzilishining aksidek yoki ularning to‘plamidek tasavvur qilinadi. Ikkinci yondashuvda esa uzatilayotgan axborotning butun bir matnning mazmunini aks ettirishi e’tiborga olinadi. Axborot tuzilishidagi mazmunda umumiy ma‘no strukturasing alohida gaplar ma’nolariga taqsimlanishi e’tiborga olinmaydi. Axborot tuzilmalari murakkab, yetarli darajada katta hajmdagi butunliklar bo‘lib, ular ifodada umumiy tushunchalar, kontseptlar shaklini olishi mumkin.

²²⁶ Леонтьева Н. Н. Семантика связного текста и единицы информационного анализа // Научно-техническая информация, серия 2. - М., 1981. - № 1.

N.N.Leonteva bu ikki yo‘nalishni bir-biridan farqlashga har qancha urinmasin, matn tuzilishi tahlili borasida u taklif qilayotgan uslublar bari bir ushbu tuzilmaning shakliga, formal xususiyatlari borib taqaladi, ularga tayanadi. Matnning shakliy va mazmuniy xususiyatlari bogliqligiga bu tarzda (ya’ni matn grammaticasi doirasida) yondashish struktur-sistem tilshunoslikka xos bo‘lgan tadqiq maqsadi va rejasining amalgga oshishidan boshqa narsa emas. Matn sintaksisi bu holda umumiyligini sintaksis nazariyasining yakuniy bosqichi hisoblanadi, zero, xuddi shu bosqichda so‘z va gapdan yuqori «tabaqa»dagi, ularga nisbatan murakkabroq tuzilmalar qurilishi qonuniyatlarini o‘rganish, nutq qurilishining tamoyil va qoidalarini tadqiq qilish imkoniyati hosil bo‘ladi. Natijada matn «gap - so‘z - morfema - fonema» pog‘onali qatorida joylashtirilib, unga eng yuqori bosqichdan o‘rin ajratiladi. Matnning bu qatorga kiritilishi unga til tizimi birligi maqomining berilishiga sabab bo‘ladi. Unda ushbu hodisa tahlili kichik birliliklarning o‘zaro birikishidan boshlanib, ularning mazmunan va shaklan o‘zaro munosabatga kirishishi hamda oxir-oqibatda yagona yaxlit «mahsulot» mazmunini aniqlashga qarab intiladi.

Matn mazmuni - inson tafakkurida uning kommunikativ maqsadi, g‘oyasi bilan bog‘lik holda shakllanadigan semantik tuzilma sifatida ta’riflanishi lozimligini A.I.Novikov taklif etganligini yuqorida eslatdi. Ammo psixolog olimning ushbu taklifi tilshunoslarni qanoatlantirmaydi. Birinchidan, olimning o‘zi e’tirof etganidek, tavsiflanayotgan semantik tuzilma har qanday holatda ham tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak, ammo berilayotgan ta’rifda undagi qismlarning o‘zaro munosabati e’tiborga olinmagan. Ikkinchidan esa, matn faqatgina tasavvur, his etish, idrok etish kabi hissiy kechinmalar, harakatlar mahsuli emas, balki u nutqiy va intellektual harakatlar uyg‘unligini taqozo etuvchi, ma’lum faoliyat jarayonida hosil bo‘lувchi hodisadir. Shuningdek, u barcha lisoniy qurilmalardek, botiniy va zohiriyligida ega bo‘lgan, mazmun va shakl uyg‘unligi doirasida hosil bo‘ladigan hodisadir. U ko‘p qirrali nutqiy tafakkur faoliyati mahsuli sifatida, o‘z tarkibidagi bo‘laklarning mazmunini mundarijasiga ta’sir o‘tkazadi.

To‘g‘ri, matn sintaksisi doirasidagi mazmuniy tahlil dastlabki o‘rinda mazmunning denotat va referent bo‘laklarini, ya’ni ushbu mazmunning voqelik bo‘lagi bilan bog‘liqligini aniqlashni talab qiladi. Biroq modallik, emotivlik, temporallik (voqeanning malum zamon doirasida kyechishi) kabi mazmunning qator kommunikativ-pragmatik xususiyatlari matn mazmunning ajralmas qismi ekanligini ham unutmaslik lozim.

Shu paytgacha bo‘lgan kuzatishlarda matn mazmuni muammosiga oid ikki tushuncha, ya’ni «mavzu» va «mazmuniy markaz» tushunchalarini farqlamaslik holatlari uchrab turadi. Ushbu tushunchalar farqiga e’tiborsizlikning sababi matn mazmuni yoki uzatilayotgan axborotda voqelikdagi predmet-hodisalar ususiyatlarining aks topishidadir. Ammo mavzu

(tema) ko'proq ifodalananayotgan ma'nining predmetlik xususiyati yoki referenti bilan bog'liq bo'lsa, mazmuniy markaz asosan vogelikdagi predmet-hodisa haqidagi fikrdir. Matn mazmuni tahliliga denotativ-referent yondashuvida qo'llaniladigan asosiy usullardan biri bayon qilinayotgan vogelikning alohida qismlari bog'liqligiga ishora qiluvchi tayanch so'zlar va iboralar majmuasini aniqlashdir.

Yana bir keng tarqalgan usul kechayotgan hodisaning asosiy ishtirokchilari, shu jumladan, bayon «qahramoni»ni ajratishdir. Bu esa, o'z navbatida, matnga sarlavha tanlash imkoniyatini beradi. (Ushbu holatni ko'proq matbuotda e'lon qilinadigan maqolalar, maktab insholari mavzularida ko'rish mumkin.) So'zsiz, mavzu referent vaziyatining - poydevori, shu poydevor asosida mazmun shakllana boshlaydi.

Ma'lumki, matn mazmuniya denotativ va signifikativ qatlamlar ajraladi. Matn denotati tasvirlanayotgan vogelikdir, shuning uchun ham uning mazmuni ko'p jihatdan bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar o'tasidagi bog'liq munosabatlarni aks ettiradi. Psixolingvistlarning ta'biricha, matn denotati nutqiy faoliyatning dinamik birligidir va bu birlik bizning ongimizda ma'lum bir vogelik parchasining tasviri sifatida aks topadi. Matn denotativ mazmuni uzatilayotgan axborotning idrok etilish hamda tushunilish jarayonida anglanadi. Uzatilayotgan axborotniyag mazmuni, mohiyatini fahmlash uchun esa o'quvchi mental faoliyat ko'rsatmog'i, dalillar izlashi kerak bo'ladi. A.I.Novikov va G.D. Chistyakovalarning izoh berishlaricha, matnni tushunish faqat lisoniy bilim bilan chegaralanmaydi, bunda axborotni uzatuvchi va qabul qiluvchi uning mazmunini vogelikdagi yagona bir hodisa bilan bog'lashi g'oyat muhimdir. Shuning bilan birgalikda, yagona bir denotatning nutqiy tasviri muallif ko'zlayotgan g'oya, niyatga nisbatan turlicha bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Mualliflarning e'tirof etishicha, «g'oya mavzular tanlovi asosida matn boshlanishi va tugallanishini muvofiqlashtiradi hamda bo'lajak matnni yaratadi». ²²⁷

Shunday qilib, matn mazmuni muallif ko'zlayotgan g'oya, maqsad va muloqot muhiti asosida muallif ongida shakllantirilgan semantik tuzilmadir. Muallif g'oyasining shakllanishi va voqelanishi asosida matn mavzusi tug'iladi. Lekin referent vaziyati nafaqat predmetlar, balki belgi, munosabatlар harakatini ham qamrab oladi. Shunga nisbatan matnda denotatlar asosan ot turkumiga oid birliklar bilan ifodalansa, ular o'rtasidagi munosabatlар fe'l yoki boshqa predikatlar vositasida belgilanadi. Harakatdagi munosabatlар qamrovini aks ettiruvchi ma'noviy asosni aniqlash uchun esa, predmetlik xususiyatidagi denotativ-referent vaziyat tavsifiga

²²⁷ Новиков А. И., Чистякова Г. Д. К вопросу о теме и денотате текста // Известия ЛИССР. Серия литературы и языка. Т.40. -М., 1981. - №1. - С 53.

ko'ra, signifikativ bog'liqlikka nisbatan beriladigan tavsifga tayanish ma'qulroqdir.

Matn mazmuni signifikativ qismining shakllanishi ham voqelik (denotat)ning nutqiy tafakkurdagi tasviri asosida kechadi. Ammo bu nutqiy-tafakkur faoliyati ikkinchi bosqichdagi faoliyat bo'lib, uning yuzaga kelishida muallif g'oyasi, kommunikativ maqsadini anglashdan tashqari, kommunikatlarning bilim darajasini hisobga olish ham muhim. Subyektiv va obyektiv bilish individual va umumiy (ijtimoiy) bilimlarning o'zaro munosabati matnning mazmuniy tuzilishini belgilaydi (yaratadi).

Matn mazmuniy markazi yoki, boshqacha aytganda, uning semantik mohiyati voqelik va uning nutqiy - tafakkur idroki jarayonida) tug'iladigan tushunchasi hamda lisoniy tuzilma o'rtasidagi signifikativ ramzidir (aksidir). Bunday lisoniy va ruhiy-mantiqiy bog'liqlik propozitsiya ko'rinishini oladi hamda ushbu turdag'i propozitsiya faqat kechayotgan voqe'a haqidagi xabargina bo'lib qolmasdan, yetkazilayotgan xabarning tasdig'i hamdir.

Predikatlar mantig'i sohasidan o'zlashtirilgan propozitsiya tushunchasi tilshunoslikda anchadan buyon qo'llanib kelinmoqda. Mantiqda bu atamaga voqelik haqidagi hukmni nomlash uchun murojaat qilinadi. Shuning uchun ham mazmuniy sintaksisda propozitsiya - gaplar qatorining semantik invarianti sifatida tavsiflanadi.²²⁸ Masalan, «*Abbos menga kitobni berdi*», «*Abbos menga kitobni beradimi?*», «*Abbos, menga kitobni ber!*», «*Abbos menga kitobni berishi kerak*» kabi gaplarning propozitsiyasi yagonadir: «*Abbosda kitob bor va uni menga beradi*». Ko'rinih turibdiki, propozitsiyaning ma'noviy va sintaktik tuzilishi voqelikdagi hodisa tuzilishiga mos keladi.

Ammo bunday strukturaviy mutanosiblik asosan gap sathida, ya'ni propozitsiyaning zaxiraviy belgilarida saqlanadi, ya'ni «*Abbos*», «*kitob*» otlari va «*men*» olmoshi referensiyasi va «*bermanq*» predikatining mantiqiy munosabatini hosil qiluvchi semantik tuzilmaning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi qolip mavjudligida namoyon bo'ladi. Virtual propozitsiyaning asosiy vazifasi voqelik haqidagi bilimning xotirada, ya'ni ongda saqlanishini ta'minlash va uning lisoniy ifodalanishi uchun zamin tayyorlashdir. Yagona bir zaxiraviy propozitsiya turli muloqot muhitida, matnlarda turli darajada ifodalanishi mumkin. Bunda propozitsiyaning predikat qismi turli modallik va zamon xususiyatlariga ega bo'lishidan tashqari, uning ma'no strukturasi ham muloqot maqsadi, shartlariga moslashadi. Faol yoki kommunikativ propozitsiya mazmunan va shaklan nofaol, zaxiradagiga nisbatan murakkab ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Eng asosiysi, faol propozitsiyalar qatoriga

²²⁸ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992. - Б. 28-30; Лутфуллаева Д. Гапнинг семантик-синтактикаси курилиши колипи ва пропозитив структураси ўртасидаги муносабат. Филол.фан.докт... дис. -Тошкент, 2006. - 269 б.

tayangan holda matn mazmuniy markazini ajratish, uning negizida shakllanadigan qismlar o'rtasidagi semantik munosabatlar miqyosini aniqlash imkonи tug'iladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda asosiy tayanch, albatta, faol propozitsiyalardir, zero, aynan ularning doirasida gap tema-rema tuzilishidan matn uchun yaxlit bo'lgan tema-rematik tarkibga o'tish jarayoni kuzatiladi.

Faol propozitsiyalarning matn mazmuni shakllanish jarayonida tutgan o'mining muhimligi yana shundaki, matn semantikasi lisoniy faoliyatning ikki muhim qismi bo'lgan nomlash va kommunikatsiyani bir xilda qamrab oladi. Shuning uchun ham matn mazmuni tahlili vogelikdagi vaziyatlarni lisoniy ifodalash, ya'ni nomlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki muloqot jarayonida yuzaga keladigan matn mazmuni, boshqacha aytganda, inson faoliyatiga haqidagi axborotlarning ifodalanishini ham qamrab olishi lozim.

G.V.Kolshanskiyning matn mazmunini nominativ va kommunikativ vazifalar uyg'unligida qarash lozimligi haqidagi fikrlari matn hodisasini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish jarayonida o'z tasdig'ini topmoqda. Ma'lumki, shu paytgacha, ayniqsa, matn grammatiskasi doirasida, asosiy e'tibor matnning ichki tuzilishiga va ushbu tuzilishning mazmumma'no shakllanishiga, ta'siriga oid muammolarga qaratilib kelinmoqda edi, endilikda esa diqqat-e'tibor matnning mazmunan va shaklan yaratilishi hamda uning mazmunini idrok etish masalasiga ko'chdi.

Matnning yaratilishi va mazmunining to'g'ri qabul qilinishi - kognitiv va nutqiy-kognitiv faoliyat natijasidir. Bu faoliyat dinamik xususiyatga ega bo'lganidek, uning mahsuli bo'lgan matn ham turg'un (statik) holatda qolmaydi. Ma'lum bir gaplar zanjiri haqiqiy matnga aylanishi uchun uni yaratuvchi va qabul qiluvchi shaxs bilan aloqada, munosabatda bo'lmog'i darkor. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi. Insondon alohida qaralayotgan matn «hech qanday ichki energiyaga ega emas».

Matn mazmuni hodisasini to'liq yoritish uchun matn qismlarining o'zaro birikishi, yaxlitlikni hosil qiluvchi omillar (kogeziya, kogerentlik kabilalar)ni sanab o'tishning o'zi yetarli emas. Matn mazmunining shakllanishi uni yaratuvchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyati bilan bog'liq. Xuddi shuningdek, retsipient ham ushbu qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu ikki tomonning kognitiv-kommunikativ qobiliyati va imkoniyati keskin farq qilgan taqdirda mazmun noto'g'ri idrok etiladi, natijada ko'zlangan kommunikativ maqsad amalgalash oshmaydi.

Shunday qilib, matn mazmuni hodisasining har tomonlama, shu jumladan, kognitiv-kommunikativ yo'nalish doirasida tahlil qilinishi faqat nazariy ahamiyatga ega bo'lmasdan, balki lisoniy faoliyat amaliyoti uchun ham muhimdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matn kommunikativ-axborot tuzilishining nechta bosqichli hodisasi sifatida qaraladi?
2. Matnning tema-rema qurilishi nechanchi bosqich?
3. Uning ikkinchi bosqichi qanday bosqich?
4. Kommunikativ reja nima va u qanday tuziladi?
5. “Mavzu referent vaziyatining - poydevori, shu poydevor asosida mazmun shakllana boshlaydi” fikrini izohlang.
6. Matn mazmunida qanday qatlamlar ajratiladi?
7. Propozitsiya matnda qanday ahamiyat kasb etadi?
8. “Matn mazmunining shakllanishi uni yaratuvchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyati bilan bog‘liq” fikrini izohlang.

GLOSSARIY

| | |
|------------------|--|
| Anafora - | She'riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishi. |
| Antiteza - | Badiiy asarda bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonmayon qo'llash, qarshilantirish san'ati. |
| Antifraza- | Ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgili intonatsiya bilan inkor qilishga aytildi. |
| Allegoriya- | Qochirim, kesatish, pichingga asoslangan ma'no ko'chishi |
| Alliteratsiya- | Misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi: <i>Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing qiz...</i> |
| Amfiboliya- | Ikki xil talqin etish, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'ladigan gap. <i>Bu //ahmoq odam emas. Bu ahmoq // odam emas.</i> |
| Apastrofa- | Jonsiz predmetlarga jonli narsadek murojaat qilish va shunday munosabatda bo'lish |
| Argo- | Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa vakillari o'tasida tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklar. |
| Arxaizm- | Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiga boshlagan til birligi. |
| Assonans- | Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik. |
| Aferezis- | Oldingi so'zning so'nggi tovushi ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning tushishi. <i>Aytar edi</i> → <i>aytardi</i> . |
| Varvarizm- | Ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki ibora: madam, missis, mersi... |
| Vulgarizm- | Adabiy tilga kirmaydigan dag'al so'z va iboralar. |
| Geminatsiya- | Qo'sh undoshlik. Ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: <i>uchchida, teppasida...</i> |
| Giperbola- | Narsa-hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini o'ta bo'rttirib tasvirlash. |
| Gradatsiya- | Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon. |
| Demunitiv shakl- | Kichraytirish shakli (demunitiv shakl, deminitus): <i>qizcha, tugunchak, kelinchak.</i> |

| | |
|---------------------------------------|---|
| Jargon- | Biror guruh vakillarining, o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari. |
| Jonlantirish- | Jonsiz predmet, mavhum narsalarga insonga xos xususiyatlar berib tasvirlash usuli. Personifikatsiya. Tashxis. |
| Intellektual leksika- | Ma’lum bir tushunchanigina ifodalab, qo‘srimcha emotsiyal-ekspresiv bo‘yoqqa ega bo‘limgan so‘zlar |
| Ironiya- | So‘z va iboralarning kesatiq yoki piching bilan o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatalishi. |
| Kakofemizm- (disfemizm) | Ayrim tushunchalarni qo‘pol va dag‘al usulda ifodalash. Evfemizmning teskarisi. Masalan: <i>o‘ldirmoq-jonini jahannamga jo‘natmoq, asfalasofilinga ravona qilmoq</i> kabi ifodalar. |
| Kalambur- | So‘z o‘yini. Ko‘p ma’noliligiga, fonetik tuzilishi bir xilligiga yoki yaqinligiga asoslanadigan usul |
| Kanselyarizm- Kataxraza- (Oksyumoron) | Rasmiy stilga xos so‘z va nutq shakllari Qarama-qarshi tushunchalarni bog‘lash, so‘zni o‘z asl ma’nosiga muvofiq bo‘limgan holda qo‘llash: <i>oq tunlar, qizil siyoh</i> kabi. |
| Kinoya- | Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga nisbatan qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim. |
| Kontaminatsiya- | Biror munosabat, tasavvurga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki so‘z yoki iborani birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki iboraning hosil bo‘lishi. Masalan, <i>yerga tegmoq // turmushga chiqmoq = yerga chiqmoq</i> |
| Ko‘chim- | Badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko‘chma ma’noda qo‘llangan nutq birligi, ramz bilan qo‘llangan so‘z. |
| Litota- | Narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlash. |
| Majoz- | Mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq obraz orqali ifodalash. Ayyorlik belgisiga egalik-tulki. |
| Maqol- | Chuquq ma’noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyat larga ega bo‘lgan folklor janri |
| Metateza- | So‘zdagi tovushlarning o‘rin almashinishi: <i>kiprik-kirpik, tuproq-turpoq</i> kabi. |
| Metafora- | Bir predmetning nomini boshqa predmetga shakl, belgi va harakat o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘chirish. |

| | |
|-------------------------------------|---|
| Metonimiya- | Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki haraktga nisbatan qo‘llash. |
| Monolog- | So‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq. |
| Muvaqqat ma’no- | So‘zning ma’no tuzilishida shakllanib etmagan, ma’lum individual qo‘llanishda yuzaga chiqadigan ma’no. Okkazional ma’no. <i>San’atimiz gullari, shabada yo‘rg‘aladi</i> kabi. |
| Okkazionalizm- | Mahsuldor bo‘limgan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, individual-uslubiy neologizm. |
| Oksyumoron- (Kataxraza) | Mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani qo‘sib qo‘llash. <i>Baqirgan sukunat, qizil qor, shirin g‘am</i> Yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi. |
| Parallelizm- | Tasviriy ifoda. Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash. <i>Zangori olov-gaz, dala malikasi-makkajo ‘xori</i> kabi. |
| Parafraza- | Tildagi kasb-hunarga oid bo‘lgan so‘z va iboralar Faqat so‘roq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy vosita; javob talab qilmaydigan so‘roq gap. |
| Professionalizm- Ritorik so‘roq- | Achchiq zaharxanda, istehzoli ta’na, piching Badiiy nutqda hayotiy voqeа, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so‘zlarning ma’lum ravishda ko‘chma ma’noda ishlatalishi. |
| Sarkazm- Simvol- | Bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko‘chishi, butunning nomi qismning nomi yoki aksincha bo‘lib qolishi Diniy e’tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta’sirida so‘zning ishlatalishini cheklash yoki man etish. <i>Chayon-oti yo‘q, bo‘ri-jondor</i> kabi |
| Sinekdoxa- | Bir fikrni boshqa so‘z yoki so‘zlar bilan takroran ortiqcha qo‘llash: <i>oyoq bilan tepish, gap gapirmoq</i> kabilar. |
| Tabu- | Ayni bir so‘z, ibora yoki sintaktik shakllarning muayyan maqsad bilan qaytarilishi. |
| Tavtologiya- | Voqelik bilan bevosita bog‘lanmaydigan, narsa, |
| Takror- | |
| Figural ma’no- | |

| | |
|----------------|---|
| Evfemizm- | belgi, haraktning nomiga aylanmagan ma’no. Figural ma’no vogelik bilan nomlovchi ma’no orqali bog’lanadi. <i>Ovozining shirasi qochgan.</i> |
| Evfoniya- | Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi, <i>ikkiqat-og ‘iroyoqli, homilador.</i> |
| Ekzotizm- | Nutqning tovushlar takrori orqali yuzaga chiqariladigan xushohangligi. |
| Ekspressiya- | O‘zlashgan so‘zlar, nutqqa alohida bir o‘ziga xoslik berish uchun qo‘llaniladigan so‘zlar. |
| Emotsiya- | Nutqning ta’sirchanligi, ifodaliligi va ma’nodor bo‘lishi. |
| Emfaza- | Insoniy his-tuyg‘u, kechinma va hissiyotlarning til birliklarida ifodalanishi. |
| Enantiosemiya- | Nutqning ko‘tarinki ruhda bo‘lishi, emotsionallikning kuchli bo‘lishi: <i>Amr et, Tojixon, amr et...</i> Emfaza takror yordamida yuzaga chiqyapti. Bir so‘zning semantik tuzilishida zid ma’nolarning yuzaga kelishi. <i>Chiqmoq-ichkaridan tashqariga harakatlanish, transportda ichkariga harakatlanish. Bosh-yo ‘Ining boshlanishi va yakuni</i> |
| Epifora- | Anaforaning teskarisi. Parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy vosita |
| O‘xshatish- | Ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berish. |

**«MATN LINGVISTIKASI» fanidan
Test savollari**

1. Mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A. Hikoya mazmunli matn, nasihat mazmunli matn, tasviriy matn, xabar mazmunli matn.
- B. Mikromatn, makromatn, gipermatn, minimal matn, maksimal matn.
- C. Minimal matn; maksimal matn, nasihat mazmunli matn.
- E. Minimal matn, o'rta matn, xabar mazmunli matn, argumentli matn.

2. Hajm belgisiga ko'ra matnning uch tipi mavjudligi haqidagi fikr qaysi asarda berilgan?

- A. «Matnning lingvistik tahlili».
- B. «Adabiyotshunoslik asoslari».
- D. «Badiiy matnning lisoniy tahlili».
- E. «Tekst lingvistikasi».

3. Qaysi qatorda maksimal matn berilgan?

- A. «O'tkan kunlar».
- B. «Na'matak» (Oybek).
- D. «Tilla baliqcha» (A.Oripov).
- E. «Sadoqat» (O'.Hoshimov).

4. Qaysi qatorda minimal matn hisoblanadigan asar berilgan?

- A. «Na'matak» (Oybek).
- B. «Ikki eshik orasi» (O'.Hoshimov).
- D. «Bobur» (P.Qodirov).
- E. «O'tkan kunlar».

5. Qaysi qatorda abzas komponentlari to'g'ri berilgan?

- A. Xabarning boshlanishi, rivojlantirilishi, yakunlanishi, xulosa yasash.
- B. Qisqa xabar, bog'lovchilar, xabar shakllari, xulosa.
- D. Qisqa xabar, bog'lovchilar, xabarning to'ldirilishi, xulosa.
- E. Qisqa xabar, to'liq xabar, mavzu, reja.

6. Tema-rematik munosabat to'g'ri belgilangan gapni toping.

- A. Ukamga // tug'ilgan kunida kitob sovg'a qildim.
- B. Ukamga tug'ilgan kunida // kitob sovg'a qildim.
- C. Ukamga tug'ilgan kunida // kitob // sovg'a qildim.
- E. Ukamga tug'ilgan kunida kitob sovg'a // qildim.

7. Qaysi gapda tema-rematik munosabat to'g'ri belgilangan?

- A. Bugun // fakultetimizda shoirlar bilan uchrashuv bo'ladi.
- B. Turg'un bugun darsga // kelmadi..
- D. Havo isib daraxtlar // kurtak yoza boshladi.
- E. Turg'un betobligi uchun // darsga kelmagan ekan.

8. O'zgarmas temali bog'lanish qaysi gapda berilgan?

- A. Alisher darsga kelmadi. Shanbalikda ham qatnashmadi. Bayram tantanasida ham, teatrda ham ko'rinnmadi.
- B. Bahor bu yil har qachongidan erta keldi. Daraxtlar ham shunga monand erta kurtak yozdi. Darslarim bugun erta tugadi.
- D. Bu xotin butun kecha bo'yи juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi. Asrlar birma-bir o'tar va axir, Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.
- E. Qishloqda hamma uni Vali tog'a deydi.

9. Izchil tema-rematik bog'lanish qaysi gapda misol berilgan?

- A. Qo'shning o'g'li mashina olib berdi. Mashinasi kumushrang «Mersedes» ekan. «Mersedes»ni ko'rganlarning ko'zлari qamashadi.
- B. Sevgi - ilohiy kuch. Qalbida muhabbat tuyg'usi bor odam razillik qilmaydi. Dunyo shunday ekan. Dod solishdan nima ma'no?
- D. Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof.
- E. Erkak bilan ayol munosabatida aybni nuqul erkakdan izlash insofdan emaD. Sham yonmasa, parvona yaqin kelmaydi.

10. Qaysi qatorda ifoda mazmuniga ko'ra matn tiplari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Hikoya mazmunli matn; tasviriy matn; izoh mazmunli matn; nasihat mazmunli matn; xabar mazmunli matn; buyruq mazmunli matn; hissiy ifoda mazmunli matn.

B. Hikoya mazmunli matn; tadrijiy matn; izoh mazmunli matn; nasihat mazmunli matn; xabar mazmunli matn; buyruq mazmunli matn; hissiy ifoda mazmunli matn.

D. Hikoya mazmunli matn; tarixiy matn; izoh mazmunli matn; nasihat mazmunli matn; xabar mazmunli matn; buyruq mazmunli matn; hissiy ifoda mazmunli matn.

E. Hikoya mazmunli matn; tasavvufiy matn; izoh mazmunli matn; nasihat mazmunli matn; xabar mazmunli matn; buyruq mazmunli matn; hissiy ifoda mazmunli matn.

11. Qaysi matn tipida «muallif yoki asar qahramoni o'zi boshidan o'tkazgan, eshitgan, o'qigan yoki guvoh bo'lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi» ?

A. Hikoya mazmunli matnda.

B. Tasviriy matnda.

D. Nasihat mazmunli matnda.

E. Hissiy ifoda mazmunli matnda.

12. Tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqe-a-hodisa qaysi matn tipida batafsil tasvirlanadi?

A. Tasviriy matnda.

B. Hikoya mazmunli matnda.

D. Buyruq mazmunli matnda.

E. To'g'ri javob berilmagan.

13. Aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltirish qaysi matn tipiga xos?

A. Izoh mazmunli matnda.

B. Tasviriy matnda.

D. Nasihat mazmunli matnda.

E. To'g'ri javob berilmagan.

14. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil sabablar keltirish qaysi matn tipiga xos?

A. Izoh mazmunli matnda.

B. Xabar mazmunli matnda.

D. Nasihat mazmunli matnda.

E. Hissiy ifoda mazmunli matnda.

15. Vogelikni batafsil ta'riflashga asoslangan matn tiplari qaysi javobda berilgan?

- A. Tasviriy matn, xabar mazmunli matn.
- B. Nasihat mazmunli matn, buyruq mazmunli matn.
- C. Izoh mazmunli matn, tasviriy matn.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

16. Paremalar qaysi matn tipida uchraydi?

- A. Nasihat mazmunli matn va buyruq mazmunli matnlarda.
- B. Didaktik matnlarda.
- D. Izoh mazmunli matn va tasviriy matnlarda.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

17. Hikmatli so'zlar keltirish orqali xulosa chiqarishga o'rgatish qaysi matn tipiga xos?

- A. Nasihat mazmunli matnlarga.
- B. Buyruq mazmunli matnlarga.
- D. Hissiy ifoda mazmunli matnlarga.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

18. Xabar berish asosiga qurilgan matn qaysi matn tipiga xos?

- A. Informativ matnlarga.
- B. Didaktik matnlarga.
- D. Nasihat mazmunli matnlarga.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

19. Informativlikning oddiy kundalik xabarlardan farqi nimada?

- A. To'g'ri javob berilmagan.
- B. Farqi yo'q.
- D. Semantik jihatdan farqli.
- E. Grammatik jihatdan farqli.

20. Badiiy matndagi xabarning kundalik hayotdagи xabarlardan farqi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Xabarning ifodalanish shaklida.

- B. Xabarning qay daraja aniqligida.
D. Zamon va makonga munosabatida.
E. To'g'ri javob berilmagan.
- 21. Maslahat va nasihat berish ohangi qaysi matn tipida yyetakchilik qiladi?**
- A. Eksplikativ matnlarda.
B. Informativ matnlarda.
D. Buyruq mazmunli matnlarda.
E. To'g'ri javob berilmagan.
- 22. Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar**
- A. Hissiy ifoda mazmunli matnlar deyiladi.
B. Nasihat mazmunli matnlar deyiladi.
D. Xabar mazmunli matnlar deyiladi.
E. Barcha javoblar to'g'ri.
- 23. O'ziga xos ko'tarinkilik, tantanavorlik bo'rtib turadigan matnlar**
- A. Hissiy ifoda mazmunli matnlar deyiladi.
B. Xabar mazmunli matnlar deyiladi.
D. Buyruq mazmunli matnlar deyiladi.
E. To'g'ri javob berilmagan.
- 24. Ushbu matn qaysi usul bilan hosil qilingan: *Yeyish uchun yashash emas, yashash uchun yeyish kerak.***
- A. Xiazmatik konstruktsiya orqali.
B. Leksik-grammatik takror orqali.
D. Antiteza usulida.
E. To'g'ri javob berilmagan.
- 25. Paronamaziya hodisasi to'g'ri izohlangan qatorni belgilang.**
- A. Badiiy matnda qo'llanilgan paronimlarga asoslangan uslubiy figuraga.
B. Barcha javoblar to'g'ri.
D. O'xshash talaffuzli tovushlarga asoslanib tuzilgan matnlarga.
E. So'z talaffuzidagi o'xshashlikka asoslanib uslubiy effekt maqsadli matnlarga.

26. Tuyuqlar hosil qilishda...

- A. Omonimlardan foydalaniladi.
- B. Sinonimlardan foydalaniladi.
- C. Antonim so'zlardan foydalaniladi.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

27. Qaysi qatorda paronamaziyani hosil qiluvchi vosita berilgan?

- A. Paronim so'zlar.
- B. Shakldosh so'zlar.
- D. Omonimlar.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

28. Mumtoz adabiyotshunosligimizda tashbeh deb atalgan badiiy san'at hozirda nima deb yuritiladi?

- A. O'xshatish.
- B. Antifraza.
- D. Alliteratsiya.
- E. Assonans.

29. Mumtoz adabiyotshunosligimizda takofu deb atalgan badiiy san'at Yevropa filologiyasida nima deb yuritiladi?

- A. Antiteza.
- B. Kataxraza.
- D. Oksyumoron.
- E. Paronamaziya.

30. Qaysi javobda barqaror birikmalar tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ibolar, maqol-matallar, aforizmlar.
- B. Oksyumoron, antiteza, alliteratsiya.
- D. Paronamaziya, antiteza, parema.
- E. Antiteza, apastrofa, frazema.

31. Barqaror birikmalar deb yuritilayotgan hodisa YYevropa filologiyasida nima deb yuritiladi?

- A. Parema.
- B. Paronim.

- D. Paronamaziya.
- E. Parafraza.

32. Paremalar tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A. Frazemalar, maqollar, matallar, aforizmlar.
- B. Omonimlar, sinonimlar, aforizmlar, antonimlar.
- C. Paronimlar, dialektizmlar, aforizmlar, vulgarizmlar.
- E. Aforizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, frazemalar.

33. Nazmiy asarning boshida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishiga nima deyiladi?

- A. Anafora deb ataladi.
- B. Antiteza deb ataladi.
- C. Varvarizm deb ataladi.
- E. Parafraza deb ataladi.

34. Bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash, qarshilantirish san'atiga nima deyiladi?

- A. Antiteza deb ataladi.
- B. Anafora deb ataladi.
- C. Varvarizm deb ataladi.
- E. Parafraza deb ataladi.

35. Bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga nima deyiladi?

- A. Alliteratsiya deb ataladi.
- B. Assonans deb ataladi.
- D. Gradatsiya deb ataladi.
- E. Giperbola deb ataladi.

36. Aynan yoki yaqin unlilarning takror qo'llanishi nima deb ataladi?

- B. Alliteratsiya deb ataladi.
- D. Gradatsiya deb ataladi.
- E. Giperbola deb ataladi.

37. Mumtoz adabiyotshunoslikda tashxis deb ataladigan badiiy tasvir vositasi hozirgi o'zbek filologiyasida nima deb ataladi?

- A. Jonlantirish deb ataladi.
- B. Alliteratsiya deb ataladi.
- C. Assonans deb ataladi.
- D. Giperbola deb ataladi.

38. **Ma'lum bir hududdagina qo'llaniladigan so'zlar....**

- A. Dialektizmlar deb ataladi.
- B. Assonans deb ataladi.
- C. Vulgarizm deb ataladi.
- D. Giperbola deb ataladi.

39. **O'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z va iboralar...**

- A. Varvarizmlar deb ataladi.
- B. Assonans deb ataladi.
- C. Vulgarizm deb ataladi.
- D. Giperbola deb ataladi.

40. **Ma'lum bir ijtimoiy guruh, toifa vakillarigina ishlataladigan lug'aviy birliklar...**

- A. Argolar deb ataladi.
- B. Varvarizmlar deb ataladi.
- C. Vulgarizm deb ataladi.
- D. Giperbola deb ataladi.

41. **Narsa-hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini me'yordan orttirib tasvirlashga...**

- A. Mubolag'a deyiladi.
- B. Maqol deyiladi.
- C. Tasviriy ifoda deyiladi.
- D. Kichraytirish deyiladi.

42. **Nutqda so'z ma'nosining ketma-ket kuchayib borishiga asoslangan uslubiy jarayonga...**

- A. Gradatsiya deyiladi.
- B. Maqol deyiladi.
- C. Tasviriy ifoda deyiladi.

E. Kichraytirish deyiladi.

43. Narsa-hodisalarining belgi-xususiyatini, holatini o'ta kichraytirib tasvirlashga...

- A. Kichraytirish deyiladi.
- B. Mubolag'a deyiladi.
- C. Maqol deyiladi.
- D. Tasviriy ifoda deyiladi.

44. Ifodalilikni oshirish uchun ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarga...

- A. Ko'chim deyiladi.
- B. Mubolag'a deyiladi.
- C. Kataxraza deyiladi.
- D. Kichraytirish deyiladi.

45. Alohidasi ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri...

- A. Maqol deyiladi.
- B. Ko'chim deyiladi.
- C. Kataxraza deyiladi.
- D. Kichraytirish deyiladi.

46. Predmet nomini boshqa predmetga shakl, belgi va harakat o'xshashligini e'tiborga olib nom ko'chirishga...

- A. Metafora deyiladi.
- B. Monolog deyiladi.
- C. Kataxraza deyiladi.
- D. Parallelizm deyiladi.

47. O'zaro tashqi yoki ichki bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga...

- A. Metonimiya deyiladi.
- B. Monolog deyiladi.
- C. Dialog deyiladi.
- D. Parallelizm deyiladi.

48. Qaysi qatorda ichki bog'liqlik asosida nom ko'chishiga nisbatan ishlataladigan atama berilgan?

- A. Metonimiya.
- B. Metafora.
- C. Sinekdoxa.
- D. Kinoya.

49. **Belgi o'xshashligi asosida nom ko'chishi tilshunoslikda nima deyiladi?**

- A. Metafora deyiladi.
- B. Metonimiya deyiladi.
- C. Kinoya deyiladi.
- D. Parema deyiladi.

50. **Paremalar tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**

- A. Frazemalar, maqollar, matallar, aforizmlar.
- B. Omonimlar, sinonimlar, aforizmlar, antonimlar.
- C. Paronimlar, dialektizmlar, aforizmlar, vulgarizmlar.
- D. Aforizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, frazemalar.

51. **“So'z estetikasi” kitobi mualliflari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Abdurahmonov X., Mahmudov N.
- B. Mamajonov A., Abdullayev A.
- C. Boboev T., Boboeva Z.
- D. Jamolxonov X., Yunusov R.

52. **“Tekst lingvistikasi” kitobi muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.**

- A. Mamajonov A.
- B. Xojiyev A.
- C. Mahmudov N.
- D. Yo'ldoshev M.

53. **Nasriy matnlar qanday qismlardan tashkil topadi?**

- A. A va B javoblar.
- B. Nom, epigraf, epilog, abzas.
- C. Bob, fasl, qism, bo'lim.

E. Nazmiy asarda satr, bayt, misra.

56. Hozirgi kun tilshunosligida tilning eng katta birligi nima deb topilgan?

- A. Matn.
- B. Gap.
- D. Murakkablashgan qo'shma gap.
- E. Jumla.

57. Matnni bir butun birlik sifatida o'rganish qachon va qaysi tilshunoslikdan boshlangan?

- A. XX asrning 30-yillari rus tilshunosligidan.
- B. IX asrning 20 yillari, hind tilshunosligidan.
- D. VIII asr boshlari grek tilshunosligidan.
- E. XIX asr oxiri yEvropa tilshunosligidan.

58. Rus tilshunoslari A.B.Peshkovskiy, B.B.Vinogradov, L.A.Bulakovskiy va boshqalar o'z asarlarida matnning qanday xususiyatlari borligini isbotlashga harakat qilganlar?

- A. Javoblarining hammasi to'g'ri.
- B. Matnning mayl xususiyatiga egaligini.
- D. Shaxs ma'nosini ifodalashini.
- E. Matndagi shaxs ma'nosi va bilan muallif shaxsi o'rtaсидagi bog'liqlikni ifodalash xususiyati mavjudligini.

59. XX asrning 60-yillardan boshlab tilshunoslik fanida qanday burlish yuz berdi?

- A. Gapdan yirikroq butunlik borligi isbotlandi.
- B. Fonemani o'rganish tugatildi.
- D. Morfema, leksemani o'rganishga e'tibor susaydi.
- E. Gaplarni o'rganish tus oldi.

60. Tilshunos R.Gironing fikricha:

- A. Matn o'zaro bog'langan birliklar butunligi.
- B. Har qanday matn jarayon, sintaktik va semantik xususiyatga ega.
- D. Matn - bu jumla.

E. Javoblarning hammasi to'g'ri.

61. Matnning uch lingistik parametri ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- A. Jarayon, sintaktik va semantik parametrga ega.
- B. Mavzu, fokus va bog'lanish parametriga ega.
- C. Fonema, semema, hodisa parametriga ega.
- D. A va B javoblari to'g'ri

62. Mavzu, fokus va bog'lanish parametrлари matndan boshqa yana qanday til birliklariga ham xos?

- A. Gapga.
- B. Tovushga.
- C. So'zga.
- D. So'z birikmasiga.

63. Matnning asosiy xususiyati ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- A. Javoblarning hammasi to'g'ri.
- B. Uzil-kesil tugal fikr anglatishi.
- C. Yirik grammatik tuzilmadan iboratligi.
- D. Uning nashr orqali aks ettirilgan nutq yoki nutq parchasi ekanligi.

64. Matn tilshunosligi bilan bog'liq yana bir masala nima?

- A. Uning birligi masalasi.
- B. Matnda ifoda sathi masalasi
- C. Matnning tuzilishi.
- D. Javoblar noto'g'ri.

65. Matn deb atalgan til birligi qanday ajratiladi?

- A. A va D javoblar
- B. Ifoda qobig'i, semantikasi va grammatikasiga.
- C. Gapga, leksemaga, harfga.
- D. Tovushga, so'zga, gapga.

66. Matn mazmuni deganda nima tushuniladi?

- A. Matn asosida yotgan axborot.

- B. Matn tarkibidagi butunliklar.
- D. Matn birliklari.
- E. Javoblar noto'g'ri.

67. Matnning ifoda qobig'i deganda nima tushuniladi?

- A. Matnlarning tovushlardan tashkil topishi.
- B. Matn asosida yotgan axborot.
- D. Matnni tashkil etuvchi birliklar.
- E. Matn asosida yotgan asosiy g'oya.

68. Olimlarning fikricha, matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog'lanish qanday munosabatlar orqali amalga oshadi?

- A. Presuppozitsiya va implikatsiya orqali
- B. Pauza orqali
- D. Tema va rema orqali
- E. Ohang orqali.

69. Kommunikativ tilshunoslikda matn qanday turlarga ajratiladi?

- A. Mikromatn, makromatn va gipermatnga.
- B. Mikromatnga va gapga.
- D. Makromatnga, jumla va minimal matnga.
- E. Gap va frazaga.

70. Mikromatn va makromatn qanday shaklda namoyon bo'ladi? To'g'ri va to'liq javobni belgilang.

- A. Abzats, sintaktik butunlik va period shaklida.
- B. Tovush, so'z va gap shaklida.
- D. Abzats va sintaktik butunlik shaklida.
- E. Sintaktik butunlik va period shaklida.

71. Matn turlari to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- A. Og'zaki, yozma (qo'lyozma, bosma va ommaviy kommunikatsiya).
- B. Og'zaki, ilmiy, rasmiy.
- D. Publitsistik va adabiy.
- E. Rasmiy va so'zlashuB.

72. Yozma matn turlari qaysilar?

- A. Epigrafik, nuizmatik, sfragistik va poleografik.
- B. Ilmiy, rasmiy, og'zaki.
- C. Og'zaki, so'zlashuv, badiiy.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

73. N.E. Enkvistning tasnifiga ko'ra matnning uchta asosiy belgisi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A. Mavzu, fokus, aloqadorlik.
- B. Mavzu, ifodalilik, bog'lanuvchanlik.
- D. Yaxlitlik, bo'linuvchanlik, uzviylik.
- E. Ekspressivlik, emotsionallik, tizimlilik.

74. Hajm belgisiga ko'ra matnning uch tipi mavjudligi haqidagi fikr muallifi va asari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A.E. Qilichev. "Matnning lingvistik tahlili".
- B. B.T. Boboev. "Adabiyotshunoslik asoslari".
- D. H. Jamolxonov. "Badiiy matnning lisoniy tahlili".
- E. A.Mamajonov. "Tekst lingvistikasi".

75. Qaysi javobda o'zgarmas temali bog'lanishga misol berilgan?

- A. Oybek darsga kelmadi. Shanbalikda ham qatnashmadidi. Bayram tantanasida ham, teatrda ham ko'rinnadi.
- B. Bahor bu yil har qachongidan erta keldi. Daraxtlar ham shunga monand erta kurtak yozdi. Darstlarim bugun erta tugadi.
- D. Bu xotin kecha bo'yи juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi.
- E. Asrlar birma-bir o'tar va axir, Yuksalar qarshimda eng baxtli odam. Qishloqda hamma uni Vali tog'a deydi.

76. Qaysi javobda izchil tema-rematik bog'lanishga misol berilgan?

- A. Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof.
- B. Sevgi—ilohiy kuch. Qalbida muhabbat tuyg'usi bor odam razillik qilmaydi. Dunyo shunday ekan. Dod solishdan nima ma'no bor?

D. Erkak bilan ayol munosabatida aybni nuqlul erkakdan izlash insofdan emas.
Sham yonmasa, parvona yaqin kelmaydi.
E. To'g'ri javob berilmagan.

77. Qaysi matn tipida “tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsab yum hamda voqeа-hodisa bat afsil tasvirlanadi?

- A. Tasviriy matnda.
- B. Hikoya mazmunli matnda.
- C. Buyruq mazmunli matnda.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

78. Qaysi matn tipida “asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil sabablar” keltirilgan?

- A. Izoh mazmunli matnda.
- B. Xabar mazmunli matnda.
- C. Nasihat mazmunli matnda.
- E. Hissiy ifoda mazmunli matnda.

79. Maqol-matallar hamda hikmatli so'zlar qaysi matn tipida uchraydi?

- A. Didaktik matnlarda.
- B. Nasihat mazmunli matn va buyruq mazmunli matnlarda.
- D. Izoh mazmunli matn va tasviriy matnlarda.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

80. Aforizm keltirish orqali xulosa chiqarishga o'rgatish qaysi matn tipiga xos?

- A. Nasihat mazmunli matnlarga.
- B. Buyruq mazmunli matnlarga.
- D. Hissiy ifoda mazmunli matnlarga.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

81. Biror voqeа-hodisa haqida xabar berish qaysi matn tipiga xos?

- A. Informativ matnlarga.
- B. Didaktik matnlarga.
- D. Nasihat mazmunli matnlarga.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

82. Adabiy tilga kirmaydigan dag'al so'z va iboralar...

- A. Vulgarizm deb ataladi.
- B. Alliteratsiya deb ataladi.
- C. Assonans deb ataladi.
- D. Giperbola deb ataladi.

83. Rema gapda qanday maqsadni ifodalaydi?

- A. Fikr asosi va rivojini.
- B. Fikr harakatining boshlanishini.
- C. Fikrning tugashini.
- D. Javoblar to'g'ri.

84. Oddiy so'zlashuv uslubining me'yorlari qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Betakkalluflik, erkin muomala, sodda til elementlaridan tuzilgan matn ko'rinishi...
- B. Adabiy normalarga xos, ishlangan,tartibga solingan matn ko'rinishi...
- C. Sheva elementlari va jargonlardan foydalanilgan matn ko'rinishi.
- D. Tabiat va ijtimoiy hayotdagि hodisalarining ifodalanishidan iborat matn ko'rinishi.

85. So'zlashuv uslubiga xos so'zlar qaysi katorda berilgan?

- A.Javoblarning hammasi to'g'ri.
- B. Non, osh, tuz, men, u.
- C. Ko'z, qloq tomoq men, u.
- D. Kilo, metr, men, osh.

86.Apostrofa deb nimaga aytildi?

- A. Jonsiz narsaga jonli narsadek ifodalanishi.
- B. Predmetlarning o'xhashligi asosida fikr ifodalash.
- C. Qismning nomini butun orqali ifodalash.
- D. Javoblar noto'g'ri.

87. Allegoriya qaysi janrda ko'p qo'llaniladi?

- A. Masal janrida.

- B.Hikoya janrida.
- D. Ertak janrida.
- E. Roman janrida.

88. " Beg'ubor, juda ham beg'ubor shabada esdi" gapi qaysi sintaktik figuraga misol bo'ladi?

- A. Takrorga.
- B.Metaforaga.
- D.Ritorik so'roqqa.
- E. Epiforaga.

88. Nutqni ta'sirchan bayon qilishda va uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda qaysi leksik vositadan foydalaniladi?

- A.Sinonim.
- B.Omonim.
- D. Antonim.
- E. Metafora.

89. Kishi yoki predmetning tabiatи va mohiyatiga xos bo'limgan zid belgini unga nisbatan qo'llash hodisasi qaysi atama bilan aytildi?

- A.Oksimoron.
- B.Antonim.
- D.Sinonim.
- E.Javoblar noto'g'ri.

90. Logik jihatdan qarama - qarshi bo'lgan ikki fikrni qiyoslash hodisasi nima deyiladi?

- A.Antiteza.
- B. Graditsiya.
- D.Takror.
- E. Anafora.

91. "Sotuuchi, xaridor bilan xushmuomalada bo'l!" gapi tropning qaysi turiga misol bo'ladi?

- A. Metonimiya.
- B. O'xshatish.
- D. Metafora.

E. Sinekdoxa.

92. Yonma-yon gaplar, sintagmalarining bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishiga nima deyiladi?

- A. Parallelizm.
- B. Okkozionalizm.
- D. Dialektizam.
- E. Varvarizm.

93. Ayrim gaplar yoki sintagmalarining sintaktik jihatdan bir xil qurilishga ega bo'lishi nima deyiladi?

- A. Parallelizm.
- B. Dialektizm.
- D. Okkozionalizm.
- E. Varvarizm.

94. Qaysi tamoyilda matndagi tashqi va ichki muvofiqlik, aloqadorlik va bog'lanishni tekshirish talab qilinadi?

- A. Shakl va mazmun birligi tamoyilida.
- B. Makon va zamon birligi tamoyilida.
- D. Xususiylikdan umumiylukka o'tish tamoyilida.
- E. Javob berilmagan.

95. Qaysi tamoyilda matndagi voqealar o'rni va voqealar bo'lib o'tgan davr o'rtasidagi muvofiqlik, aloqadorlik va bog'lanishni tekshirish talab qilinadi?

- A. Makon va zamon birligi tamoyilida.
- B. Shakl va mazmun birligi tamoyilida.
- D. Xususiylikdan umumiylukka o'tish tamoyilida.
- E. Javob berilmagan.

96. Qaysi tamoyilda matndagi yakka holatlar, qahramonlar o'rtasidagi muvofiqlik, aloqadorlik va bog'lanishni tekshirish talab qilinadi?

- A. Xususiylikdan umumiylukka o'tish tamoyilida.
- B. Shakl va mazmun birligi tamoyilida.
- D. Makon va zamon birligi tamoyilida.
- E. Javob berilmagan.

97. Qaysi javobda “Tekst kak ob’ekt lingvisticheskogo issledovaniya” kitobining muallifi to’g’ri ko’rsatilgan?

- A. B.B.Odintsov.
- B. E.N.Shmelev.
- C. I.R.Galperin.
- D. Z.Ya.Turayeva.

98. “Matnning lingistik tahlili” kitobining muallifi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A. Qilichyev E.
- B. Mirzayev I.
- C. Yo’ldoshev B.
- D. Lapasov J.

99. Til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladigan tahlilga nima deyiladi?

- A. Tematik tahlil deyiladi.
- B. Kompleks tahlil deyiladi.
- C. Lisoniy tahlili deyiladi.
- D. To’g’ri javob yo’q.

100. Tilning barcha sathlari bo'yicha amalga oshiriladigan tahlilga nima deyiladi?

- A. Kompleks tahlil deyiladi.
- B. Tematik tahlil deyiladi.
- C. Lisoniy tahlili deyiladi.
- D. To’g’ri javob yo’q.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. **Абдурахмонов Г., Мамажонов Н.** Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
2. **Абдурахмонов Х., Махмудов Н.** Сўз эстетикаси. –Тошкент: Фан, 1981.
3. **Абдурахмонов Ш.А.** Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. –Тошкент, 1997.
4. **Абдуллаев А.** Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент, 1983.
5. **Абдуллатоев М.Т.** Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. –Тошкент, 1998.
6. **Боймирзаева С.** Матн мазмунида темпораллик семантикаси. –Тошкент: ЎзМЭ, 2009.
7. **Галперин И.Р.** Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981.
8. **Йўлдошев Б.** Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. –Самарқанд, 2008.
9. **Йўлдошев М.** Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007.
10. **Йўлдошев М., Ядгаров Қ.** Бадиий матннинг лисоний таҳлили. –Тошкент, ТДПУ, 2007.
11. **Йўлдошев М.** Бадиий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент: Фан, 2008.- 160 б.
12. **Каменская О.Л.** Текст и коммуникация.-М.: Высш.шк., 1990.
13. **Лапасов Ж.** Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
14. **Ляпон М.В.** Смысловая структура сложного предложения и текста. –М.: Наука, 1986.
15. **Мамажонов А.** Текст лингвистикаси.-Тошкент, ТДПИ, 1999.
16. **Мамажонов А., Махмудов У.** Услубий воситалар. – Фарғона, 1996.
17. **Мамазияев О.Х.** Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. – Фарғона, НДА, 2004.
18. **Махмудов Н.** Абдулла Қаххор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти., 1987, №4. 34-36-б.
19. **Махмудов Н.** Ҳар бир сўз берсин садо // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 13 феврал, №7.
20. **Махмудов Н.** Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти., 1985, №6. 48-51-б.
21. **Москалская О.И.** Грамматика текста. –М.:Высш.шк., 1981.

22. **Омантурдиев А.Ж.** Ўзбек нутқининг эвфемик асослари.
—Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.
23. **Рахимов З.** «Кўҳна дунё» романни поэтикаси. —Фарғона, 2005.
25. **Умирқулов Б.** Поэтик нутқ лексикаси.—Тошкент: Фан, 1990.
26. **Ўринбоев Б., Қўнгурор Р., Лапасов Ж.** Бадий текстнинг лингвистик таҳлили.-Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
27. **Қиличов Э.** Матннинг лингвистик таҳлили. —Бухоро, 2000.
28. **Ҳожиев А.** Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.
—Тошкент, 2002.
28. **Ҳакимова. М.** Ўзбек тилида вакт маъноли лугавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. —Фарғона, 2004.
29. **Wellek Rene.** Edebiyat teorisi. -Izmir, Akademi kitabevi, 1993.
30. <http://www.ege.edebiyat.org>. R.Filizok. Metin tipleri.
31. <http://www.edunet.tn>. Anne-Marie Albisson. Бадий матн анализи.
32. http://window.edu.ru/app.php/catalog/resources?p_rubr=2.2.73.12.5
33. <http://www.ruthenia.ru/apr/textes/jacub/jacub1z.htm>
34. <http://rus.1september.ru/article.php?ID=200202607>
35. <http://teneta.rinet.ru/rus/me/milevskat-discourseandtextdfn.htm>
36. <http://www.isuct.ru/e-lib/node/414>
37. <http://www.philology.ru/linguistics1/searle-86.htm>.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Matn lingvistikasi fanining maqsadi, vazifasi, obyekti va predmeti | 4 |
| Tilshunoslikda matn muammosining o‘rganilishi..... | 7 |
| Matn ta’rifi masalasi..... | 18 |
| Matn birliklari..... | 32 |
| Matn tiplari..... | 43 |
| Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko‘ra matn tiplari | 48 |
| Matn tarkibiy qismini bog‘lovchi vositalar..... | 57 |
| Matnda parsellyatsiya hodisasi | 64 |
| Matn va uning lingvistik tahlili. Badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari | 76 |
| Badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari | 83 |
| Badiiy matnning morfologik xususiyatlari | 97 |
| Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari | 98 |
| Ko‘chimlar | 106 |
| Badiiy matn va uni shakllantiruvchi vositalar..... | 112 |
| Badiiy matnni tahlil qilish metodologiyasi | 118 |
| Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda nimalarga e’tibor qaratish zarur..... | 125 |
| Matnni lingvostatistik usullarda o‘rganish | 129 |
| Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari | 136 |
| Matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni | 151 |
| Glossariy | 159 |
| Matn lingvistikasi fanidan test savollari | 163 |
| Foydalanish uchun adabiyotlar | 182 |

M.YO'L DOSHEV, S.MUHAMEDOVA, M.SAPARNIYAZOVA

MATN LINGVISTIKASI

5611600 – Noshirlik ishi ta’lim yo‘nalishi uchun
o‘quv qo‘llanma

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahhih: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2. 244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 26.11.2021 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 9,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 90.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN